

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**O'ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI**

**O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI**

**O'QUV-USLUBIY**

**MAJMUA**

- Bilim sohasi:**
- 300 000- Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
  - 400 000- Biznes va boshqaruv va huquq
  - 500 000- Tabiiy fanlar, matematika va statistika
  - 600 000- Axborot kommunikatsiya texnologiyalari
  - 700 000 – Muhandislik, ishlov berish, va qurilish sohalari
  - 1 000 000- Xizmatlar

**Ta'lif sohasi:**

- 310 000- Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
- 410 000- Biznes va boshqaruv
- 510 000- Biologik va turdosh fanlar
- 530 000- Fizikaga oid fanlar
- 540 000-Matematika va statistika
- 610 000- Axborot kommunikatsiya texnologiyalari
- 710 000 – Muhandislik ishi
- 720 000- Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari
- 1010 000- Xizmat ko'rsatish sohasi

**Ta'lif yo'naliishi:**

- 60311000- Sotsiologiya
- 60411400- Inson resurslarini boshqarish
- 60510100- Biologiya
- 60530100- Kimyo (turlari bo'yicha)
- 60530400- Geografiya
- 60530900- Fizika
- 60531000-Mexanika va matematika modellashtirish
- 60540100- Matematika
- 60540200- Amaliy matematika
- 60610100- Kompyuter ilmlari va dasturlash texnologiyalari (yo'nalishlari bo'yicha)
- 60610500- Kompyuter injiriningi
- 60610500- Kompyuter injiriningi (AT-servis)
- 60710400- Ekologiya va atrof – muhitni muhifazasi (Tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
- 60711000 – Muqobil energiya manbalari (turlari bo'yicha) texnologiyasi
- 61010300- Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) BOKS
- 61010300- Futbol
- 61010300-Kurash
- 61010400- Turizm ( faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)

**Andijon 2022-yil**

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Andijon davlat universiteti Kengashi qaroriga muvofiq, 2022-yil \_\_\_-avgustdagi 1-son bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi asosida tayyorlandi.

**Tuzuvchi:**

J.Hasanov – ADU, «O‘zbekiston tarixi» kafedrası  
dotsenti.

**Taqrizchilar:**

**S.A. Xoshimov** – ADU, «O‘zbekiston tarixi» kafedrası  
dotsenti, tarix fanlari nomzodi;

**B. N.Botirova**– Andijon davlat tibbiyot instituti Gumanitar  
fanlar kafedrası dotsenti, t.f.n

O’quv – uslubiy majmua ADU kengashining 2022-yil “\_\_\_” avgustdagi \_1-sonli qarori bilan tasdiqqa tavsija qilingan.

## МУНДАРИЖА

<b>I.</b>	<b>O‘quv materiallar.....</b>	<b>4-139</b>
<b>1.1.</b>	<b>Ma’ruza mavzulari.....</b>	<b>4-139</b>
<b>1.2.</b>	<b>Seminar mashg‘ulotlari mavzulari.....</b>	<b>140-147</b>
<b>II.</b>	<b>Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari.....</b>	<b>148-149</b>
<b>III.</b>	<b>Glossariy.....</b>	<b>150-152</b>
<b>IV.</b>	<b>Ilovalar.....</b>	<b>150-196</b>
<b>4.1.</b>	<b>Fan dasturi.....</b>	<b>150-163</b>
<b>4.2.</b>	<b>Ishchi o‘quv dasturi.....</b>	<b>164-174</b>
<b>4.3.</b>	<b>Tarqatma materiallar.....</b>	<b>174-193</b>
<b>4.4.</b>	<b>Baholash mezonlari.....</b>	<b>194</b>
<b>4.5.</b>	<b>Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati.....</b>	<b>195-196</b>

## **I. O'QUV MATERIALLAR**

### **1.1. MA'RUDA MAVZULARI**

**1-mavzu: Kirish. «O‘zbekistonning eng yangi tarixi»  
o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari,  
nazariy-metodologik tamoyillari (2 soat).**

**Reja:**

1. O‘zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi.
2. Fanning predmeti, maqsad va vazifalari. Uni o‘rganishning nazariy-uslubiy asoslari.
3. Intellektual salohiyatli, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga etkazishda mamlakat eng yangi tarixining tutgan o‘rni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning ma’naviy etuk shaxsni tarbiyalashda tarixiy xotiraning o‘rni va saboqlari to‘g‘risidagi fikrlari.
5. XXI globallashuv asrida ta’lim sohasida mazkur fanni o‘qitishdagi nazariy-kontseptual yondashuv va ilg‘or innovatsiyalar.

**Tayanch so‘z va iboralar:** tarix, eng yangi tarix, ilmiylik, tarixiylik, ma’naviyat, globallashuv.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2018.
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курамиз. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2017.
4. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2019.
5. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1992.
6. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарқ, 1998.
7. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // М.Абдуллаев ва бошқалар: тўлдирилган учинчи нашр. – Т.: Шарқ, 2006.
8. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул мухаррир А.Сабиров. – Т.: Академия, 2013.
9. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А. Рахимов. – Т.: Адабиёт учқунлари, 2018.
10. O‘zbekiston tarixi / R.H. Murtazayeva umumiy tahriri ostida. – Т.: Yangi asr avlod, 2005.
11. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи хрестоматияси. / Масъул мухаррир и.ф.н. Н.Талипова / – Т.: Fan va texnologiya, 2014.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида /Расмий нашр/ Ўзбекистон Республикасини Адлия вазирлиги. – Т.: Адолат, 2018.
13. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Буюк ғалабанинг 75 йиллиги ҳамда Хотира ва қадрлаш кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Янги Ўзбекистон газетаси. № 80. 2020 йил 10 май.

**1. O‘zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi.** O‘zbekiston tarixi umumjahon – insoniyat tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. O‘zbekiston tarixi fani xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo‘liga kirishi, mustaqillik yillarda milliy huquqiy davlatchilik qurilishi, demokratik fuqarolik jamiyatni shakllantirish, erkin bozor iqtisodiyotini yaratish, jahon hamjamiatiga

integratsiyalashish jabhalaridagi faoliyatini o'rgatadi. Shu bilan bir qatorda bu fan xalqimiz tarixini haqqoniy tasvirlovchi, aks ettiruvchi ko'zgu, ijtimoiy, siyosiy, tarbiyaviy, ma'naviy saboqlar majmuasidir.

Mustaqillik yillarda tarixchi olimlarimiz tomonidan birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning «O'zbekistonning yangi tarixini yaratish» kerakligi haqidagi metodologik va konseptual g'oyalariga amal qilgan holda ko'p ming yillik Vatanimiz tarixinining ilmiy asoslangan davrlashtirilishi amalga oshirildi:

- Ibtidoiy – jamoa tuzumi;
- Qadimgi davr: davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishi;
- O'rta asrlar davri;
- Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida;
- O'zbekiston sovetlar hokimiyati davrida;
- Mustaqillik davri;

*Eslatma: bu davrlarning har biri o'z navbatida ma'lum bosqichlarga bo'linadi.*

O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarda bosib o'tgan yo'lining mazmun-mohiyati va xususiyatlarini ob'yektiv baholagan holda mustaqillik davrini quyidagi ikki bosqichga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

### **1) 1991–2016-yillar.**

### **2) 2017-yildan keyingi yillar.**

Birinchi davr o'z navbatida quyidagi bosqichlardan iborat:

**Birinchi bosqich** — 1989-1991-yillar. XX asr 80-yillari o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi inqirozli holat. I.A. Karimovning respublika rahbari lavozimiga kelishi, o'zbek tiliga davlat tili maqomini berilishi, «Mustaqillik deklaratsiyasi» qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati, 1991 yil avgust voqealari. Sovet davlatining tanazzulga yuz tutishi kabi tarixiy voqealarni o'z ichiga oladi.

**Ikkinci bosqich** — 1991-yildan 2000-yilga qadir bo'lgan davr. Bu davrda milliy davlatchilik asoslari va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirishga qaratilgan o'tish davrining dastlabki islohotlar jarayoniga ilk qadamlar qo'yildi. Demokratik an'analar asosida yangi davlat boshqaruv tizimi – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tashkil etildi, hamda fuqarolik jamiyatasi asoslari yaratildi, erkin bozor iqtisodiyotiga o'tila boshlandi.

**Uchinchi bosqich** — 2000 – 2010-yillar. 2000-yildan mamlakatda faol demokratik yangilanish va modernizatsiyalash jarayonlari kuzatildi. Shu davrdan asosiy vazifasi qilib kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatiga bosqichma-bosqich o'tish vazifasi qo'yildi. Natijada mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotida demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlari chuqurlashdi, inson haq-huquqlari va erkinliklarini himoya qiluvchi mustaqil sud tizimi mustahkamlandi, fuqarolik jamiyatasi asoslari rivojlandi.

**To'rtinchi bosqich** — 2010 – 2016-yillar. 2010-yildan demokratik islohotlar va mamlakatni modernizatsiyalash jarayonini yanada chuqurlashtirish masalasi ilgari surildi. Uning boshlanishi O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va

demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish konsepsiyasining ishlab chiqilishi bilan bog'liqdir. Bu davr davlat hokimiysi va boshqaruvini yanada demokratlashtirish, sud-huquq tizimi, axborotlashtirish sohasini isloh etish, so'z erkinligini ta'minlash, saylov qonunchiligini takomillashtirish, demokratik bozor islohotlarini chuqurlashtirishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

**2017-yildan keyingi yillar — «O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichga ko'tarilishi».** Bu davr tarixi 2016-yil dekabr oyida saylangan O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning strategik taraqqiyotga asoslangan keng ko'lamlı islohotlar davri hisoblanadi. Shuningdek, bu davrda ijtimoiy-siyosiy hayotimizga yangi iboralar, xususan, «xalq bilan muloqot», «Harakatlar strategiyasi», «xalq qabulxonaları», «virtual qabulxona», «tanqidiy tahlil», «qat'iy tartib-intizom», «yo'l xaritasi», «arzon uylar», «kafolatlangan xavfsizlik», «innovatsiya», «texnoparklar», «raqamli iqtisodiyot», «transformatsiya», «O'zbekistonda yangi uyg'onish – uchinchi Renessans» kabi tushunchalar kirib keldi va hayotimizning ajralmas qismiga aylandi.

*2. Fanining predmeti, maqsad va vazifalari.* Uni o'rganishning nazariy-uslubiy asoslari. O'zbekistonning eng yangi tarixi fanida O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi arafasida yuzaga kelgan murakkab vaziyat, respublika mustaqilligining e'lon qilinishi, mustaqillik yillarida mamlakatda amalgam shirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalardagi islohotlar va ularning bosqichlarini, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga har tomonlama integratsiyasini, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, tinchliksevar tashqi siyosat kabi masalalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib beriladi.

Fanni o'qitishning maqsadi – mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida yuz bergan muhim o'zgarishlar, tub islohotlarning mazmun-mohiyatini ko'rsatish va jamiyat hayotida talaba(mutaxassis)ning o'rnnini, o'zligini anglatishdan iborat.

Fanni o'qitishning vazifalari – mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistonda yuzaga kelgan murakkab vaziyatni hamda mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy va boshqa sohalardagi islohotlarning mazmun-mohiyatini talabalarga tushuntirib berish, ularni Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash hamda milliy g'ururni shakllantirishdan iborat.

«O'zbekistonning eng yangi tarixi» fanini o'rganishning nazariy-uslubiy asoslari O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va murakkab vaziyatlar tarixini, shuningdek mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hamda boshqa sohalardagi islohotlarning mazmun-mohiyatini yoritishda ilmiy tadqiqotlar olib borishning ilmiylik, tizimlilik, tarixiylik, ob'ektivlik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

***Fanining ilmiy-nazariy uslublari v uning tamoyillari quyidagilardan iborat:***

- Tarixiy hodisa va voqealarni, hujjat va faktlarni ilmiy, xolisona o'rganish va tahlil qilish;
- tarixni milliylik va umuminsoniylik asosida o'rganish va tahlil qilish;

- tarixni haqqoniy, tarixiy-falsafiy mantiqiylik asosida o‘rganish va yozish;
- tarixga milliy va umuminsoniy xotira va qadriyat sifatida hurmat va ehtirom bilan e’tiborli bo‘lish;
- xalq, buyuk davlat arboblari va rahbarlari, iste’dodli va qobiliyatli, fidokor va qahramon kishilarning tarixda tutgan o‘rniga alohida e’tibor berish;
- tarixiy voqeа va hodisa, hujjat va faktlarning to‘g‘ri va noto‘g‘riligini aniqlashda tarixiy-tanqidiylik usuliga amal qilish;
- tarixni o‘rganishda tarixiy izchillikka amal qilish;
- tarixni ilmiy-ijodiy qiyoslash va tanqidiy asosda o‘rganish;
- etnografiya, arxeologiya, antropologiya, geneologiya va boshqa fanlarning yutuqlari hamda usullaridan foydalanish;
- tarixni o‘rganishga vorisiylik va uzviylikka, eng muhimi mantiqiylikka amal qilish.

*3. Intellektual salohiyatli, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga etkazishda mamlakat eng yangi tarixining tutgan o‘rni.* Mustaqillik tufayli O‘zbekistonda milliy, demakki, ma’naviy-ruhiy erkinliklarga keng yo‘l ochildi, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, g‘oyaviy, madaniy hayotining muhim tarmog‘i hisoblangan, ma’naviyatni shakllantirishga bevosita ta’sir qiladigan hayotiy muhim omillardan bo‘lgan yuksak ma’naviyatli, dunyoqarashi keng qamrovli, intellektual salohiyatli, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga etkazish, umuman olganda, ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilib kelinmoqda hamda bu borada beqiyos ishlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqil O‘zbekiston davlati hamisha demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo‘lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini o‘zining asosiy ustuvor yo‘nalishlari qatoriga qo‘yib kelmoqda. Ayni paytda, O‘zbekiston tarixi fani, uning mantiqiy davomi bo‘lgan O‘zbekistonning eng yangi tarixi”ni o‘qitish, uning mazmun-mohiyatini ularga tushuntirish orqali, yuksak ma’naviyatli, dunyoqarashi keng qamrovli, intellektual salohiyatli, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga etkazishdek mas’uliyatli vazifa turibdi. Zero, bugungi yoshlarimizning nafaqat jismoniy va ma’naviy sog‘lom o‘sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo‘lgan, uyg‘un rivojlangan insonlar bo‘lib, XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan barkamol avlod bo‘lib voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratish hukumatimiz oldiga qo‘yilgan eng oliy maqsadlardandir. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda yoshlar ijtimoiy-siyosiy kuch sifatidagi faoliyatining muhimligi va amaliy ahamiyati, O‘zbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar, jamiyat hayotining barcha jabhalarini modernizatsiyalash va yangilash masalasi bilan chambarchas bog‘liqligida hisoblanadi. Chunki, mamlakat aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil qiladi. Yuqoridaq mulohaza O‘zbekiston yoshlar davlati ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Yoshlarning bilim olishi, ta’lim-tarbiyasi, kasbiy tayyorgarligi masalalari

O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, O‘zbekiston yoshlari ijtimoiy-siyosiy faolligi masalalariga zamon talablari asosida e’tibor qaratish lozim.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab shaxsni har tomonlama kamolga etkazish va rivojlantirish masalasiga alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatilib, yoshlarga oid qonun, qaror va davlat dasturlari qabul qilindi hamda izchil ravishda hayotga tatbiq etilmoqda. Bu siyosatning mazmun-mohiyati, asosiy yo‘nalishlari, yoshlarga beriladigan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy kafolatlar O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 20-noyabrdagi «O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida»gi qonunida belgilab qo‘yilgan. Qonunga ko‘ra, yoshlar masalasi O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, uning maqsadi yoshlarning bilim olishi, ta’lim-tarbiyasi, kasbiy tayyorgarligi, ijtimoiy-siyosiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidorining to‘liq ro‘yobga chiqishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iborat. Bu qonunning qabul qilinishi o‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash yuzasidan «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», «Maktab ta’limini rivojlantirishning umummilliy dasturi» kabi qator hujjatlar ishlab chiqilishga mustahkam zamin yaratdi.

Respublika yoshlarini birlashtirib, keng qamrovli faoliyat olib borayotgan yangi shakllangan yoshlar tashkiloti barkamol avlodni tarbiyalashda ulkan ishlarni amalga oshirmoqda. Shuningdek, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning iste’dodini ro‘yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratib berayotgan turli jamg‘armalar faoliyatini ham yuksak baholash mumkin. O‘zbekiston yoshlari mamlakatdagi o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni shakllantirishda asosiy etakchi kuch bo‘lib, ularning intilishlari, muammolari hamda O‘zbekistonda islohotlarni amalga oshirishdagi ishtirokini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Darhaqiqat, mustaqillik yillari O‘zbekiston yoshlari hayotida tub burilish yasadi. Bu davrda yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga bag‘ishlangan qonun, davlat dasturlarining qabul qilinishi hamda ularga alohida e’tibor berib kelinayotganligi yutuq va muvaffaqiyatlar garovi bo‘ldi.

Ilmu ma’rifatli, tarbiyali, yuksak ma’naviyatli, dunyoqarashi keng qamrovli barkamol avlodni tarbiyalash bugungi kundagi dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida shaxsni har tomonlama kamolga etkazish va rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri bo‘lganligi boisdan ham, talabalarga «O‘zbekistonning eng yangi tarixi» fani o‘qitilishi bugungi kunning eng muhim dolzarb masalasiga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Shundan kelib chiqib, bugun yuksak ma’naviy va axloqiy fazilatlarga ega, bilimli, samarali mehnat qilishga qodir fuqarolar jamiyatning eng muhim boyligi va asosiy kapitali, uni harakatga keltiruvchi kuch ekanligini teran anglash asnosida milliy qadriyatlar, qadimiy an’analaramizni, jahon sivilizatsiyasi tarixida o‘chmas iz qoldirgan ajdodlarimizni yangi sharoitda yana

bir bor kashf etamiz, qaytadan dunyoga tanitish imkoniyatiga ega bo‘lamiz hamda yoshlarga ibrat sifatida ko‘rsatamiz, buyuk zotlarga munosib bo‘lishga undaymiz.

Mamlakatning intellektual va ma’naviy salohiyatni yuksaltirishdan manfaatdor ekanligi, globallashuv sharoitida bilimlilik mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish va uning milliy boyligini ko‘paytirishning muhim tarkibiy qismiga aylanib borayotganligi, aholining yuksak ma’naviy darajasi esa odamlarda huquqiy madaniyatni, erkin va demokratik huquqiy davlatda yashash hamda mehnat qilish qobiliyatini shakllantirish, o‘z huquq va erkinliklarini anglash, ulardan shaxs, davlat hamda jamiyat manfaatlari yo‘lida foydalanish imkonini beradi.

Ta’lim tuzilishini modernizatsiyalash, uni demokratlashtirish, kompyuterlashtirish va insonparvarlashtirish, ta’lim dasturini erkin tanlash, uzlusiz ta’lim tizimini rivojlantirish tobora kuchayib bormoqda. Ta’limni fundamentallashtirish, ma’naviy mas’ul shaxsni shakllantirish, bilishni emas, balki fikrlashni o‘rgatish zarurligi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Zero, yosh avlodning har tomonlama kamol topishi uchun zamon ruhiga mos yangidan-yangi qonun loyihalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha innovatsion loyihalar ishlab chiqish, ta’lim tizimining barcha bosqichlarida sifat o‘zgarishlariga erishish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish zarur. Binobarin, hukumatimiz yoshlar bilan ishslashda asosiy e’tiborni, avvalo, ularni tabiatimizga begona bo‘lgan g‘arazli oqimlardan asrab, zamonaviy bilim va tajribaga, intellektual salohiyat va ilg‘or texnologiyalarga ega, ma’naviy yuksak, komil insonlar etib voyaga etkazish, jamiyatda o‘z oldiga qo‘ygan strategik maqsadlarga erisha olishiga va munosib o‘rin egallashiga qaratadi.

4. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning ma’naviy etuk shaxsni tarbiyalashda tarixiy xotiraning o‘rni va saboqlari to‘g‘risidagi fikrlari*. Tarix fanini o‘rganishda ma’lum nazariy-metodologik tamoyillar, ilmiy g‘oya va nazariyalarning o‘rni va ahamiyati katta. Ular tarix fanining mazmun va mohiyatini chuqurroq anglashga shuningdek fanni o‘rganishning maqsad va vazifalarini kengroq ochib berishga yordam beradi. Shuning uchun ham uni ma’lum nazariy-metodologik tamoyillar, ilmiy-nazariy asoslariga tayangan holda o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan respublikamizning birinchi Prezidenti Islom Karimov tarixning eng muqaddas milliy va umuminsoniy xotira hamda qadriyat ekanligini ta’kidlab, «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q», «Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch» nomli asarlarida «O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi», «Tarix-xalq ma’naviyatining asosidir» degan so‘zlarida tarixiy haqiqatni va ma’naviy o‘zlikni angalashga undovchi, teran ilmiy-nazariy fikrlarni ilgari surgan edilar.

Ushbu tamoyillar Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan izchil davom ettirilib, mustaqillik yillarida haqqoniy tariximizni o‘rganish borasida ko‘plab ilmiy va nazariy xulosalarni berib kelmoqda. Ayniqsa uzoq yillar mobaynida yo‘l qo‘yilgan ayrim **xato va kamchiliklarni ro‘y rost tanqidiy tahlil qilinishi** ham muhim voqeа bo‘ldi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2018-yil

28-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomada bildirgan o‘z fikr mulohazalarida quyidagilarni qayd etadi: «*Afsuski, yurtimiz tarixini o‘rganishda o‘tgan davrlarda arxeologik tadqiqotlar etarli darajada olib borilmadi. Shuning uchun Fanlar akademiyasining Arxeologiya va San’atshunoslik institutlari faoliyatini, oliv o‘quv yurtlari va muzeylardagi arxeologik izlanishlarni chet ellik hamkorlar bilan birga tashkil etish zarur.*

*Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning beba ho merosi, engilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixon tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak. Shu maqsadda, O‘zbekiston Milliy teleradio kompaniyasi tarkibida «O‘zbekiston tarixi» kanalini tashkil etib, ilmiy jamoatchilik, ijodkor ziyo lilarimiz bilan birgalikda uning dasturlarini puxta shakllantirish kerak. Mamlakatimiz muzeylarida saqlanayotgan tarixiy eksponatlarni to‘liq xatlovdan o‘tkazish, har bir muzeyning katalogini yaratish lozim».*

Tarix fani va unga oid bilmalar jamiyat manfaatlariiga, insonlarning ma’naviy dunyosiga ijobiy ta’sir qilishi, kishilarda tarixiy xotira, ajdodlar merosidan faxlanish tuyg‘usini uyg‘ota olishi lozim. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomada o‘z fikrlarini bayon qilgan: «...Vatanimizning qadimiylari va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz lozim. O‘tmishga berilgan baho albatta xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan xoli bo‘lishi zarur», degan edi.

Aynan ushbu Murojaatnomada xalqimiz tarixi, moddiy va ma’naviy madaniyatini keng jamoatchilikka etkazish hamda jahon miqyosida targ‘ib qilish maqsadida O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi negizida «*O‘zbekiston telekanali*»ni tashkil qilish taklifini ilgari surgan edi. Mazkur taklif asosida 2019-yil 1-sentyabrdan boshlab ushbu telekanal o‘z ish faoliyatini boshladi.

Davlat rahbari o‘z chiqishlari va 2020-yil 25-yanvarda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida xalqimiz tarixining murakkab damlarida, ma’rifat mash’alini baland ko‘tarib chiqqan alloma va adib Mahmudxo‘ja Behbudiyning 145-yillik tavallud sanasini keng nishonlanishini bildirib o‘tdi. Xususan, Prezidentimizning ta’kidlashicha, «...biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu beba ho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab etadi».

Prezident Shavkat Mirziyoev 2020-yilda Oliy Majlisga qilingan Murojaatnomada aytib o‘tganidek, «*Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: Biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz. Biz – hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo‘rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli buyuk xalqmiz. Barchamiz bir tanu bir jon bo‘lib, yakdil va ahil bo‘lib harakat qilsak, halol-pok bo‘lib, yaxshi niyat bilan mehnat qilsak, har qanday marralarni egallahsha, boshqacha aytganda, tarixning yangi*

*sahifasini yaratishga qodirmiz. Bu yo'lda qanday qiyinchilik va mashaqqatlar bo'lmasin, barchasini mardona engib o'tishga tayyormiz. Bunday ezgu ishlarda bizga Yaratganning o'zi, buyuk ajdodlarimizning pok ruhlari madadkor bo'ladi, deb ishonaman», deganligi yanada ahamiyatli bo'ldi.*

Xalqimiz yangi tarixining muhim vogeleridan biri sifatida Prezidentimiz tashabbusi bilan poytaxt Toshkent shahrining Olmazor tumanida ikkinchi jahon urushida qozonilgan buyuk g'alabaning 75-yilligiga bag'ishlab «**G'alaba bog'i**», «**Shon-sharaf» muzeysi**, «**Matonat madhiyasi**», «**Mangu jasorat**» monumenti barpo etildi. Mazkur ulug'vor majmuaning barpo etilishi xalqimiz tarixining hamda shonli o'tmishining yorqin namunasi bo'ldi. Chunki o'zbekistonliklar ikkinchi jahon urushining g'alaba bilan yakunlanishida ulkan hissa qo'shdilar. Lekin shu paytgacha bu jasoratni bor ko'lami bilan ko'rsatib beradigan yaxlit majmua hali respublikamizda yo'q edi. Davlatimiz ilmiy-ijodiy jamoatchiligining takliflari, xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida tez orada alohida badiiy-me'moriy konsepsiya ishlab chiqildi. Ushbu konsepsiya asosida g'alaba sharafiga ulug'vor va betakror majmua bunyod etildi.

Har jihatdan puxta ishlangan loyiylar asosida shakllantirilgan bu erdag'i majmua timsolida xalqimizning qonli janglardagi mardligi va front ortidagi mashaqqatli mehnati va fidoiyligi aks ettirildi. 2020-yilning 9-may kuni «**Buyuk g'alabaning 75-yilligi hamda Xotira va qadrlash kuni**» ga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali tadbirda davlatimiz rahbari quyidagilarni qayd etdi: «*Men avvalgi chiqishlarimda el-yurtimizning buyuk G'alabaga qo'shgan hissasi hali to'liq o'r ganilmagani haqida gapirib, ja oatchiligidiz e'tiborini shu masalaga qaratgan edim. Bugun mammuniyat bilan aytmoqchimaniki keyingi yillarda shu yo'nalishda juda katta ishlarni amalga oshirdik.*

Avvalo, ilgari yopiq bo'lgan arxiv hujjatlarini ilmiy jamoachilik uchun ma'lum bo'lмаган materiallarni o'r ganish uchun imkoniyat yaratildi. Bu borada sobiq ittifoq respublikalari va chet ellardagi arxiv tashkilotlari, muzeylar va fondlar, tarixchi olimlar va mutaxassislar, keng jamoatchilik bilan hamkorlik kuchaytirildi.

*Ana shunday ilmiy izlanishlar natijasida xalqimizning ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki haqida, qahramon ajdodlarimiz haqida juda muhim yangi ma'lumotlarga ega bo'ldik. Hozirgi vaqtida ular ommaviy axborot vositalarida, kitob va albomlarda keng yoritilmoqda.*

Ikkinci jahon urushi yillaridagi tariximizni o'r ganishda tom ma'noda yangi davr boshlandi, deb aytishga bugun barcha asoslarimiz bor. Masalan, shu vaqtga qadar urush boshlangan paytda yurtimiz aholisi 6 million 551 ming kishini tashkil etgan va ularning 1 million 500 mingga yaqini urushda ishtirok etgan, deb hisoblanar edi. Yangi topilgan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistondan 1 million 951 mingga yaqin kishi urushga safarbar etilgani aniqlandi. Demak, har uch nafar o'zbekistonlikdan bittasi qo'liga qurol olib, fashizmga qarshi jang qilgan. Ayovsiz janglarda mardona qatnashgan qariyib 451 ming nafar yurtdoshimizning nomlari va taqdiri shuncha yillar mobaynida e'tibordan chetad qolib kelganini, albatta, adolatdan deb, bo'lmaydi.

*Shuningdek o'sha davrda qulog sifatida boshqa o'lkalarga surgun qilingan 59 mingdan ortiq vatandoshimiz ham harakatdagi armiyaga safarbar etilgani ma'lum bo'ldi.*

*Shu borada yana ba'zi raqamlarni keltirmoqchiman. Ilagri 390 ming nafar O'zbekiston fuqarosi urushda halok bo'lgan, deb aytilar edi. Aslida bu raqam 538 mingdan ziyod bo'lgan», deya ukdiradi.*

5. XXI globallashuv asrida ta'lim sohasida mazkur fanni o'qitishdagi nazariy-konseptual yondashuv va ilg'or innovatsiyalar. O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab yoshlarga nisbatan alohida g'amxo'rlik ko'rsatilib, ularga oid davlat siyosati izchil ravishda amaliy hayotga tatbiq etib kelinmoqda. Bu siyosatning mazmun-mohiyati, asosiy yo'nalishlari, yoshlarga beriladigan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy kafolatlar O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 20-noyabrdagi «O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi qonunida belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston davlati hamisha demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini o'zining asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga qo'yib kelmoqda. Bu borada yoshlarning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratish maqsadi qo'yilgan. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda yoshlar ijtimoiy-siyosiy kuch sifatidagi faoliyatining muhimligi va amaliy ahamiyati, O'zbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar, jamiyat hayotining barcha jabhalarini modernizatsiyalash va yangilash masalasi bilan chambarchas bog'liqligida hisoblanadi. Chunki, mamlakatda yoshlarning aholi tarkibidagi salmog'i 60,0 foiz foizdan yuqorini tashkil qiladi. Mazkur mulohaza O'zbekiston yoshlar davlati ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Yoshlarning bilim olishi, ta'lim-tarbiyasi, kasbiy tayyorgarligi masalalari O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ushbu jarayonlar, ya'ni O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaralari, yuksak bilimli hamda intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalashda davlatning roli va bu borada to'plangan tajriba bilan xalqaro hamjamiyatni keng tanishtirish maqsadida ko'plab xalqaro ilmiy anjumanlar o'tkazilib kelinmoqda. O'zbekistonda Ta'lim sohasini isloh qilish, yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash bo'yicha 1997-yil amalga oshirilgan, dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan «Ta'lim to'g'risidagi qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, O'zbekistonda zamonaviy ilm-fanni puxta egallagan raqobatdosh kadrlarni tayyorlash, ta'lim-tarbiya ishlarini tubdan o'zgartirish, xalqaro tajribalar asosida ta'lim sifatini yangilash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Xususan, 2017 – 2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi

bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ta’lim va fan sohasini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish masalalari belgilab berilgan bandlarida, jumladan, uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq, yuqori malakali kadrlar tayyorlash; ta’lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish; ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash kabi boshqa muhim va talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganishga alohida ahamiyat qaratilgan. Shu bois, O‘zbekistonda milliy ta’lim-tarbiya sohasiga jiddiy e’tibor berilib, ta’lim tizimida tub o‘zgarishlar qilish va erishilgan natijalarini tahlil etgan holda, mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim o‘rin tutadi.

Bugungi kunda yuksak ma’naviy va axloqiy fazilatlarga ega, bilimli, samarali mehnat qilishga qodir fuqarolar jamiyatning eng muhim boyligi va asosiy kapitali, uni harakatga keltiruvchi kuch ekanligini teran anglash asnosida milliy qadriyatlarimizni, qadimiy an’analarimizni, jahon sivilizatsiyasi tarixida o‘chmas iz qoldirgan ajdodlarimizni yangi sharoitda yana bir bor kashf etamiz, qaytadan dunyoga tanitish imkoniyatiga ega bo‘lamiz hamda yoshlarga ibrat sifatida ko‘rsatamiz, buyuk zotlarga munosib bo‘lishga undaymiz.

Ta’lim tuzilishini modernizatsiyalash, uni demokratlashtirish, kompyuterlashtirish va insonparvarlashtirish, ta’lim dasturini erkin tanlash, uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish tobora kuchayib bormoqda. Ta’limni fundamentallashtirish, ma’naviy mas’ul shaxsni shakllantirish, bilishni emas, balki fikrlashni o‘rgatish zarurligi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Zero, yosh avlodning har tomonlama kamol topishi uchun zamon ruhiga mos yangidan-yangi qonun loyihalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha innovatsion loyihalar ishlab chiqish, ta’lim tizimining barcha bosqichlarida sifat o‘zgarishlariga erishish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish zarur.

Yoshlar bilan ishslashda asosiy e’tiborni, avvalo, ularni tabiatimizga begona bo‘lgan g‘arazli oqimlardan asrab, zamonaviy bilim va tajribaga, intellektual salohiyat va ilg‘or texnologiyalarga ega, ma’naviy yuksak, komil insonlar etib voyaga etkazish, jamiyatda o‘z oldiga qo‘yan strategik maqsadlarga erisha olishiga va munosib o‘rin egallashiga qaratadi.

Bugungi hayotimizni Internet, kompyuter tarmog‘isiz tasavvur etib bo‘maydi. Axborot texnologiyalari tufayli uzog‘imiz yaqin, mushkulimiz oson bo‘lmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda yoshlarning ongini faqat o‘rab-chirmab, uni o‘qima, buni ko‘rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o‘rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-

muddaolarimizga ham to‘g‘ri kelmaydi. Bu borada Prezident Sh.Mirziyoev shunday deydi: «*Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, «ommaviy madaniyat» degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, bu so‘zlarning chuqur ma’nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo‘ladi. Haqiqatan ham, hozirgi vaqtida yoshlar tarbiyasi biz uchun o‘z dolzarbligini va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan masala bo‘lib qolmoqda* (Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-qism – T.: O‘zbekiston, 2017. – B.125.)».

Binobarin, hukumatimiz bunday yoshlarni tarbiyalash va ular bilan ishlashda, istiqbol rejalarini tuzishda asosiy e’tiborni, avvalo, ularni tabiatimizga begona bo‘lgan turli ko‘rinishdagi ijtimoiy illatlardan asrab, zamonaviy bilim va tajribaga, intellektual salohiyat va ilg‘or texnologiyalarga ega, ma’naviy yuksak, komil insonlar etib voyaga etkazish, jamiyatda o‘z oldiga qo‘ygan strategik maqsadlarga erisha olishiga qaratadi.

Mustaqillik tufayli milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, Vatan uchun iftixor, g‘ururlanish va shu singari boshqa tuyg‘ular yana bir bor cho‘qqiga ko‘tarildi, xalqimizning mustaqil fikrashi, ma’naviy dunyosi, ijtimoiy-siyosiy faolligi o‘sib bordi, bu esa yangidan-yangi yutuqlar garoviga, kuch-qudrat manbaiga aylandi, intellektual salohiyatni yuksaltirishga imkon yaratildi.

XXI globallashuv asrida ta’lim sohasida «O‘zbekistonning eng yangi tarixi» fanini o‘qitishdagi nazariy-konseptual yondashuv va ilg‘or innovatsiyalar qo‘llanilishi natijasida mamlakatning intellektual va ma’naviy salohiyatni yuksaltirishdan manfaatdor ekanligi, globallashuv sharoitida bilimlilik mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish va uning milliy boyligini ko‘paytirishning muhim tarkibiy qismiga aylanib borayotganligi, yoshlarning yuksak ma’naviy darajasi esa insonlarda huquqiy madaniyatni, erkin va demokratik huquqiy davlatda yashash hamda mehnat qilish qobiliyatini shakllantirish, o‘zligini anglash, ulardan shaxs, davlat hamda jamiyat manfaatlari yo‘lida foydalanish imkonini beradi.

## **2-mavzu: Mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar (2 soat).**

### **Reja:**

1. XX asr 80-yillari o‘rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi inqirozli holat. Ekologik muammolar.
2. Markazning O‘zbekistonda amalga oshirgan qatag‘on siyosati: «Paxta ishi» «O‘zbek ishi» nomli kompaniyalar.
3. 1989-yil o‘rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘zgarishlar.
4. 1991-yil avgust voqealari: GKCHP (ГКЧП). Sovet davlatining tanazzulga yuz tutishi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Ekologik muammolar. Orol fojeasi. Qayta qurish. «Kadrlar desanti». «Paxta ishi», «O‘zbek ishi». Prezidentlik boshqaruvi. Mustaqillik Deklaratsiyasi. GKCHP (ГКЧП).

### *Adabiyotlar ro‘yxati:*

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1992.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б.137–252.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б.147–148; 231–233; 365–372; 393–408; 424–425.
4. Азизхўжаев А.А. Чин ўзбек иши. – Т.: Академия, 2003.
5. Бобоҷонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар (70-80 – йиллар мисолида). Кўлланма. – Т.: Шарқ, 1999.
6. Муртазаева Р.Ҳ. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва толерантлик. Дарслик. – Т.: Мумтоз сўз, 2019.
7. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // М.Абдуллаев ва бошқалар: тўлдирилган учинчи нашр. – Т.: Шарқ, 2006.
8. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул мухаррир А.Сабиров. – Т.: Академия, 2013.
9. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А. Рахимов. – Т.: Адабиёт учкунлари, 2018.
10. Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. (Uchinchi kitob); R. Shamsutdinov, Sh. Karimov. – Т.: Sharq, 2016.– Б.438–445.
11. O‘zbekiston tarixi / R.H. Murtazayeva umumiy tahriri ostida. – Т.: Yangi asr avlodи, 2005. – Б.413-426.
12. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи хрестоматияси. / Масъул мухаррир и.ф.н. Н.Талипова / – Т.: Fan va texnologiya, 2014.
13. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). 2 том. Масъул мухаррirlар: Р.Абдуллаев, Қ.Ражабов, М.Рахимов. – Т.: Ўзбекистон, 2019.

Sovetlar hukumatning O‘zbekistonda 70-yildan ko‘proq olib borgan mustamlakachilik siyosati, uning O‘zbekiston va O‘rta Osiyo mintaqasidagi boshqa respublikalarning tabiiy xom ashyo resurslaridan o‘ylamay – netmay foydalanishi, ishlab chiqarishning ekstensiv yo‘ldan rivojlantirilishi, paxta yakkahokimligining izchillik bilan joriy etilishi, turli xildagi kimyoviy zaharli moddalarning ishlab chiqarilishi va ularning qishloq xo‘jaligida haddan ziyod ishlatilishi bu erda ko‘p asrlar mobaynida vujudga kelgan va mavjud bo‘lgan tabiiy muvozanatni izdan chiqardi. Mamlakatimizda ayniqsa, 80 – yillarda haloqatli tus olgan juda murakkab ekologik muammolarni vujudga keltirdi, shular sababli Orol muammoasi halokatli tus oldi.

O‘zbekiston ekologiyasi buzilishining ikkinchi sababi – suvga bo‘lgan munosabat bilan bog‘likdir. Sovetlar hukumatning Amudaryo, Sirdaryo, Chirchiq, Zarafshon daryolari suvlaridan hisob – kitobsiz foydalanish oxir – oqibatda Orol fojeasini keltirib chiqardi. Ekologik muammoning uchinchi sababi — tuproq tarkibining o‘zgarishi bo‘ldi. O‘zbekistonda 1990-yilga kelib o‘rtacha va kuchli sho‘rlangan erlar 853 ming gettarni tashkil etdi. Tuproq tarkibining o‘zgarishiga hisob – kitobsiz ishlatilgan mineral o‘g‘itlarning halokatli ta’siri ham katta bo‘ldi. Chunki mutaxassis olimlarning xulosalariga ko‘ra fosfor o‘g‘iti bilan birgalikda tuproqqa ftor, uran, toriy, og‘ir metall tuzlar ham o‘tar ekan. Ekologiya buzilishining to‘rtinchi sababi, bu respublika hayvonot va o‘simlik olamining o‘zgarishi bo‘ldi. O‘zbekistonda yovvoyi hayvonlarning – 99, parrandalarning – 410, baliqlarning – 79 turi mavjud. 1990-yilga kelib 32

hayvon, 31 parranda, 5 baliq turi respublika «Qizil kitobi»ga kiritilgan. «Qizil kitob»ga kiritilgan o'simliklarning soni esa 163 taga etdi.

XX asr 80-yillarining o'rtalarida SSSRning parchalanishi real ob'yektiv haqiqatga aylanib qolgan. Natijada sovet hukumati bu holatni oldini olish maqsadida navbatdagi siyosiy yo'lni – qayta qurish siyosatini ilgari surdi. «*Qayta qurish*» – XX asrning 80 – yillari o'rtalarida keng iste'molga kirgan tushuncha. Qayta qurish - Moskvada KPSS Markaziy Komitetining 1985-yil 23 aprelda bo'lib o'tgan plenumi va unda KPSS MK Bosh kotibi Mixail Sergeevich Gorbachev «KPSSning navbatdagi XXVII s'ezdini chaqirish, unga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bilan bog'liq vazifalar to'g'risida» ma'ruza bilan bevosita bog'liqidir. Bu siyosat SSSRda totalitar tizimni islohot yo'li bilan o'zgartirishga qaratilgan harakatni anglatgan. Qayta qurish siyosatining maqsadi va vazifasi mamlakatda to'planib qolgan ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy, madaniy va mafkuraviy sohalardagi muammolarni «*qayta qurish*» yo'li bilan hal etishdan iborat bo'lgan.

*Qayta qurish 1985 – 1990-yillarni o'z ichiga olib*, ikki bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqich (1985 – 1987) ma'muriy – tashkiliy tadbirlarning an'anaviy usullarda olib borilishi bilan izohlandi. Ushbu bosqichda asosiy vazifalar ilmiy – texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga jalb etish asosida jamiyatda tub iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish va uning asnosida inson omilini faollashtirishga qaratilgan edi.

1987 – 1990-yillar esa qayta qurishning ikkinchi bosqichi bo'lib, unda jamiyatning barcha jabhalarini kompleks tarzda isloh qilishni kun tartibiga qo'ydi. Jumladan, bu davrda sovet jamiyatini demokratlashtirish masalasi asosiy vazifa deb ta'kidlandi. Demokratlashtirish jarayoni jamiyatni ma'lum darajada uyg'otdi, ijtimoiy faollik ortdi. Saylovlarining muqobil nomzodlar ishtirotkida, alternativ asosda olib borilishi ijobiy holat edi, bundan tashqari SSSRda saylov tizimini o'zgartirish to'g'risidagi Qonun (1988-yil dekabri) ning qabul qilinishi ham jamiyat a'zolari ijtimoiy faolligini oshirishda ma'lum ahamiyat kasb etdi. Biroq Ittifoqda tub demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish, boshlangan islohotlarni oxiriga etkazish mumkin bo'lmadi. Bu ikki sabab bilan izohlanadi. Birinchidan, qayta qurishning aniq, izchil, ilmiy jihatdan puxta ishlab chiqilgan dasturi yo'q edi. Ikkinchidan, partiya rahbarlari bundan manfaatdor emasdilar.

Qayta qurishni amalga oshirishdagi qarama – qarshilik va noizchilliklar natijasida 80-yillarning oxiri – 90-yillarning boshidan mamlakat hayotining barcha sohalarida bo'hronlar kuchayib ketdi. Qayta qurish sobiq SSSRda to'planib qolgan muammolarni to'la hal etishga xizmat qilmadi.

XX asrning 80 – 90-yillarda sovet hokimiysi tomonidan mavjud turg'unlik holatidan chiqish, shuningdek, sobiq ittifoqdosh respublikalarning mustaqillik yo'lidagi harakatlarini bartaraf etish, sobiq SSSRda yuzaga kelgan inqirozli harakatlar sabablarini ittifoqdosh respublikalardan qidirish, ularni ayblash uchun turli nayranglar, «siyosiy o'yinlar» o'ylab chiqdilar.

1983-yilning oxirida O'zbekistonda juda og'ir vaziyat vujudga kelgan edi. Respublikada jinoyatchilikka qarshi kurashish niqobi ostida SSSR Bosh prokurori xuzurida alohida muhim ishlar bo'yicha maxsus 12 kishilik

tergovchilar guruhi tuzilib, O'zSSRga yuboriladi. Ular O'zSSRda paxta tayyorlash va uni qayta ishlash bilan bog'liq jarayonlardagi «qo'shib yozish», «o'g'irlik», «ko'zbo'yamachilik», «poraxo'rlik»ni (aslida bunday moliyaviy jinoyatlar va qing'irliklar butun SSSR hududidagi iqtisodiyotda chuqur ildiz otib kelgan edi) tergov qilish bilan shug'ullandilar. Buning natijasida «**paxta ishi**» paydo bo'ldi. Tergovlar jarayonida Moskvadan yuborilgan T.X. Gdlyan va N.V. Ivanov guruhining faoliyati natijasida respublikadagi jamoa xo'jaliklari raislari va sovxozi direktorlarining 60%, qishloq xo'jaligi etakchi mutaxassislarining 45%, paxtachilik brigada boshliqlarining 35%, shuningdek, ko'plab rahbarlar, viloyatlar va tumanlar partiya komiteti kotiblari, respublika miqyosidagi partiya, sovet va xo'jalik rahbarlari o'z vazifalaridan olib tashlandi va ularga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atildi.

O'zSSRning ijtimoiy – siyosiy hayotida 1984-yil 23 iyunda bo'lgan O'zbekiston Kompartiyasi MK XVI – plenumi mash'um rol o'ynagan. Moskva tashabbusi va ko'rsatmasi bilan tashkil qilingan bu plenumda qabul qilingan hujjatlar O'zSSRda o'zbek xalqini asossiz badnom etish kompaniyasini boshlab berdi. Markazning tazyiqi ostida 1984 yildan O'zbekistondagi rahbarlik lavozimlariga sobiq ittifoqning har xil joylaridan «kadrlar desanti» kela boshladi. 1984 – 1987-yillarda Moskva, Leningrad va Rossiyaning boshqa shaharlaridan 400 dan ortiq kishi O'zbekistonning partiya, sovet, ma'muriy – xo'jalik organlariga ishga yuborilgan. Xususan, 1984 – 1989-yillarda O'zSSR IIVga sobiq sovetlar mamlakatidan hammasi bo'lib 150 ta xodim kelgan. Yillar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, 1984-yilda 5 ta, 1985-yilda 33 ta, 1986-yilda 86 ta, 1987-yilda 27 ta, 1988-yilda 2 ta, 1989-yilda 3 ta.

Respublikada kadrlarni almashtirish siyosati ayanchli tus oldi. Markaziy matbuotda e'lon qilingan maqolalarda o'zbek xalqi badnom etilib, «**paxta ishi**»ga ataylab siyosiy tus berildi va u keyinroq atay «o'zbek ishi»ga aylantirilib, xalqimizning nafsoniyatini toptash yo'liga o'tildi. 1983 – 1990-yillarda O'zSSRda «paxta ishi» degan uydirma bo'yicha jami 40 ming kishi tergov qilindi, ularning aksariyati tergov izolyatorlarida prokuror sanksiyasisiz o'tirdi, 5 ming kishi esa soxta ayblar bilan jinoiy javobgarlikka tortildi.

«Paxta ishi» oqibatda butun mamlakatimizda parokandalik, loqaydlik, umidsizlik va ishonchsizlik kayfiyati chuqurlashdi. O'zbekiston fuqarolari o'z haq – huquqlarini himoya qilishlarini so'rab tuman, viloyat va respublika partiya va sovet organlariga murojaat qildilar. 1986 – 1987-yillarda faqat O'zbekiston Kompartiyasi MQga fuqarolardan 50 mingdan ortiq xat va shikoyatlar tushdi. 20 mingdan ortiq kishi Markazqo'm kotiblari va bo'lim boshliqlari qabulida bo'lib, o'zlarining talablarini bildirdilar.

Norozilik ayniqsa xotin – qizlar orasida ko'paydi. 1986 – 1987-yillarda respublikada 270 ayol o'zini – o'zi yondirib yubordi. Bu holat ularning sha'ni, qadr – qiymatning toptalashi, haq – huquqlarining buzilishiga nisbatan ko'rsatilgan norozilik edi. Haqiqat,adolat keyinroq Islom Karimov O'zbekiston rahbari bo'lgach ro'yobga chiqdi. Islom Karimov tashabbusi bilan «Paxta ishi»ni ko'rib chiqish uchun maxsus komissiya tuzildi. 3,5 mingdan ko'proq kishi oqlandi. Qolganlarning jazo muddatlari kamaytirilib, bir qismi avf

etildi.

1989-yil may – iyun oylarida Farg‘ona, Toshkent viloyatlarida va Andijon shahrida millatlararo mojarolar ro‘y berdiki, u respublikada va butun mamlakatda g‘oyat darajada katta shov – shuvga sabab bo‘ldi hamda respublikada siyosiy vaziyatning keskin tus olishiga olib keldi. Ammo 1989-yil 24 mayda Quvasoy shahrida yoshlar o‘rtasida (O‘zbekiston kompartiyasining birinchi kotibi Rafiq Nishonovning ta’rificha, «bir banka qulpinoy» uchun) bo‘lgan bezorilik millatlararo (mahalliy yoshlar bilan mesxeti turklar o‘rtasida) to‘qnashuvni keltirib chiqardi va bu mojaro Farg‘ona vodiysida ommaviy tus oldi. Respublikaning siyosiy rahbariyati yuzaga kelgan bu murakkab vaziyatni to‘g‘ri baholay olmadi. Natijada, oddiy mojaro Farg‘ona, Marg‘ilon, Toshloq, Qo‘qon, Andijon, Namangan, Toshkentda aholining, ayniqsa, yoshlarning ommaviy chiqishlariga, millatlararo to‘qnashuvlarga sabab bo‘ldi.

Farg‘ona fojialari haqida respublika matbuotida va boshqa ommaviy axborot vositalarida to‘g‘ri ma’lumot berilmaganligi, bu mojarolarning kelib chiqishida asosan «mahalliy aholi aybdor» deb bir tomonlama va noxolis baholanishi vaziyatni yanada keskinlashtirdi. 11 iyunda Toshkent shahrida ishlayotgan va o‘qiyotgan farg‘onalik yoshlardan 100 ga yaqini «qizil maydonda» namoyish uyushtirib, Farg‘ona voqealari haqida «noto‘g‘ri» ma’lumot berishlarga qarshi fikr bildirdilar va boshqa bir qator talablar qo‘ydilar. Bunday ommaviy chiqishlarga, kommunistik mafkura tartibiga qarshi borishlarga «ko‘nikmagan» mustabid tuzum siyosiy rahbariyati namoyishchilarga qarshi harbiy qism tashladi. 1989-yil 8 iyunda Qo‘qonda tinch namoyishchilar ana shu harbiy qism askarlari tomonidan o‘qqa tutildi, natijada 50 dan ziyod namoyishda qatnashgan aholi halok bo‘ldi (ularning ko‘pchiligi yoshlar edi), 200 dan ortig‘i esa yarador qilindi. Umuman 3 – 12 iyun kunlari Farg‘ona viloyatida bo‘lgan millatlararo to‘qnashuvlar va ularni harbiylar tomonidan o‘qqa tutilishi oqibatida 103 kishi halok bo‘lgan, 1009 kishi jarohatlangan va 650 xonadonga o‘t qo‘yilib, vayron qilingan.

Farg‘onada uyushtirilgan siyosiy ig‘vogarlik Tbilisi, Tog‘li Qorabog‘, Bokuda tashkil etilgan ig‘vogarliklardan biri edi. Keyinchalik 1990-yil fevral – mart oylarida Bo‘ka va Parkent, 1990-yil iyunda O‘sh va O‘zganda ham shunday urinishlar bo‘ldi. O‘zbekistonning yangi rahbariyati tomonidan ko‘rilgan chora – tadbirlar natijasida keskinlik bartaraf qilindi.

XX asr 90-yillariga kelib jahon va sobiq ittifoqdagi o‘zgarishlar hamda yuzaga kelgan vaziyat o‘zbek xalqining mustaqillik uchun bo‘lgan kurashini tezlashtirib yubordi. Bu o‘rinda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining 1989-yil 23-iyundagi plenumi va unda Islom Karimovning birinchi kotib etib saylanishi juda katta ahamiyat kasb etdi. O‘zbekistonning yangi birinchi rahbari I.A. Karimov o‘z nutqida respublikaning sobiq Ittifoqda tutgan o‘rni va rolini aniq-ravshan belgilab berdi, madaniy merosni va tarix haqiqatini tiklash, milliy urf- odatlar va an’analarni rivojlantirish ob’yektiv zarurat ekanligini isbotlab berdi.

O‘zbekistonning yangi hukumati Markaz bilan bo‘ladigan munosabatlarni o‘zgartirmay turib, ijobiylar siljishlarga erishib bo‘lmasligini va buning uchun

respublikaning to‘liq mustaqilligini ta’minlash zarurligini tushunib yetdi. I.A. Karimovning tashabbusi bilan O‘zbekiston hukumati tomonidan 1989-yil 15-avgustda «Kolxozchilar, sovxozi ishchilari, fuqarolar, shaxsiy tomorqa xo‘jaliklari va individual uy-joy qurilishini yanada rivojlantirish to‘g‘risida» maxsus qaror qabul qilindi. Garchi bu g‘oya ittifoq rahbarlariga yoqmagan bo‘lsa ham, I.A. Karimov o‘z fikridan qaytmay, uni jasorat bilan amalga oshira bordi. Natijada o‘sha yilning 4 oyida aholi qo‘sishimcha 90,7 ming hektar yer oldi. «G‘oyat og‘ir ayni o‘sha sharoitda aholiga qo‘sishimcha tomorqa yerlari ajratish haqidagi Farmon va qarorlar qabul qilingani shu asosda, O‘zbekiston bo‘yicha 2,5 million oilaga hammasi bo‘lib 700 ming hektar sug‘oriladigan yer tomorqa sifatida xususiy mulk qilib berilgani qishloqlarimizda ijtimoiy muammolarni yechish, aytish mumkinki, jar yoqasida turgan yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlab qolishda ulkan tarixiy qadam bo‘lgan...». Ana shunday o‘zgarishlar tufayli odamlar dunyoda adolat va haqiqat borligiga, mustaqillik har qaysi oila, butun xalqimiz uchun hech narsa bilan o‘lchab, qiyoslab bo‘lmaydigan bebafo ne’mat ekaniga chin dildan ishonch hosil qildilar.

1989-yil 21-oktabrda O‘zbekiston Oliy Sovetining XI sessiyasi «*O‘zbekiston SSRning davlat tili haqida*»gi Qonunni qabul qildi. O‘zbek tili davlat tili deb e’lon qilindi. Ish yuritish sekin-asta o‘zbek tiliga o‘tkazila boshlandi, uni o‘rganishni yaxshilash yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilandi. Ayni vaqtda rus tilini va respublikada yashovchi boshqa xalqlarning tillarini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratilishi lozim edi, tilni o‘rganishning ixtiyoriligi va uni tanlash huquqi qonunda belgilab qo‘yildi. Bu qonunning qabul qilinishi o‘zbek xalqi, shu xalq milliy o‘z-o‘zini anglashining o‘sishi, respublikada millatlararo hamjihatlikning saqlanib qolishi uchun juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Davlat tili haqidagi qonun qabul qilinganidan so‘ng milliy o‘zlikni anglash, milliy davlatchilikni tiklash yo‘lida respublikada yana bir tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim siyosiy qadam qo‘yildi.

1990-yil 23-martda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining Plenumida respublika siyosiy tizimi to‘g‘risidagi masala ko‘rib chiqildi. Unda O‘zbekistonda davlat boshqaruvining prezidentlik shakliga o‘tishi, respublika suvereniteti va davlatchiligidagi mohiyatan yangi bosqich ekanligi ta’kidlandi.

1990-yil 24-mart kuni XII chaqiriq O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining birinchi sessiyasi SSSR doirasida birinchi bo‘lgan siyosiy hujjatni — «*O‘zbekistonda Prezidentlik lavozimini ta’sis etish to‘g‘risida*»gi qarorni qabul qildi va O‘zbekiston Kompartiyasi MK birinchi kotibi Islom Abdug‘aniyevich Karimov O‘zbekiston SSR Prezidenti etib saylandi. Shu tariqa, O‘zbekiston – SSSR respublikalari ichida birinchi bo‘lib o‘zining milliy huquqiy va demokratik davlatiga mustahkam zamin yaratdi.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishida qo‘ylgan navbatdagi muhim qadamlardan biri – 1990-yil 20-iyunda respublika Oliy Soveti tomonidan 12 moddadan iborat bo‘lgan «*Mustaqillik Deklaratsiyasi*»ning qabul qilinishi bo‘ldi. Mazkur hujjat O‘zbekiston qonunlarining Ittifoq qonunlaridan ustuvorligini ta’minladi. Shu bilan birga, «*Mustaqillik Deklaratsiyasi*» O‘zbekistonning 1991-yil 31-avgustga qadar mavjud bo‘lgan boshqaruv,

huquqiy faoliyatini ta'minladi, barcha sohada mustaqil siyosat olib borish imkonini berdi. Deklaratsiyada har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidan kelib chiqqan holda, xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlariga va demokratiya tamoyillariga asoslanib O'zbekiston SSRning davlat suvereniteti e'lon qilindi. Deklaratsiyaning qabul qilinishi bilan O'zbekistonda respublikaning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina boshlandi.

**Mustaqillik Deklaratsiyasi.** 1990-yil 18-iyun kuni XII chaqiriq Respublika Oliy Kengashining ikkinchi sessiyada deputatlarning taklifi bilan O'zbekistonning Mustaqillik Deklaratsiyasini qabul qilish masalasi sessiya kun tartibiga kiritildi. Oliy Kengashning doimiy komissiyalari, faol deputatlar va huquqshunos mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan Mustaqillik Deklaratsiyasi matni sessiyada qizg'in muhokama qilindi va 20-iyun kuni qabul qilindi.

Mustaqillik Deklaratsiyasi 12 moddadan iborat bo'lib, ularda xalqimizning xohish-irodasiga to'la mos keladigan quyidagi muhim tartib-qoidalar belgilab qo'yildi.

«O'zbekiston SSR Oliy Kengashi:

o'zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an'analari;

har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini ta'minlashdan iborat oliy maqsad sari;

har bir kishining farovon hayot kechirishini ta'minlashni oliy maqsad deb bilgan holda;

O'zbekiston xalqlarining kelajagi uchun tarixiy mas'uliyatni chuqur his etgan holda;

xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya prinsiplariga asoslanib O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qiladi».

O'zbekiston SSRning davlat suvereniteti.

O'zbekiston SSR demokratik davlatining o'z hududida, barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlarda tanho hokimligidir.

O'zbekiston SSR davlat hududi chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqning muhokamasiga qo'yilmay turib o'zgartirilishi mumkin emas.

SSSR Oliy Soveti qabul qiladigan qarorlar O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston SSR Oliy Kengashi tomonidan tasdiqlangandan keyingina O'zbekiston hududida kuchga ega bo'ladi.

O'zbekiston SSR davlat hokimiysi vakolatiga O'zbekiston SSR ichki va tashqi siyosatiga tegishli barcha masalalar kiradi. O'zbekiston SSR xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini tan oladi, hurmat qiladi va hokazo.

Mustaqillik Deklaratsiyasining qabul qilinishi mamlakatimizning tom ma'nodagi haqiqiy mustaqillikka erishish yo'lida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shundan e'tiboran mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal etila boshlandi.

O'zbekistonning mustaqillik sari intilayotgani uning yangi Ittifoq

shartnomasini ishlab chiqish jarayoniga respublika manfaati nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda, qat’iylik bilan yondashayotganida yaqqol namoyon bo‘ldi.

Sobiq Ittifoqqa kiruvchi respublikalar rasman teng va suveren deb yuritilsa-da, amalda qaram edilar. Ular o‘z yerlari, suvlari, o‘rmonlari va yer osti boyliklariga, ko‘pdan ko‘p korxonalariga o‘zlarini egalik qilolmas edilar.

XX asrning 80-yillarning oxirlari – 90-yillarning boshlarida ko‘pchilik respublikalar mavjud vaziyatni o‘zgartirish talablarini ilgari sura boshladilar. O‘zbekiston Respublikasining rahbari I.A. Karimov 1989-yil 20-sentabrdada Moskvada bo‘lib o‘tgan KPSS MQ plenumida so‘zlagan nutqida respublikalar bilan Ittifoq o‘rtasidagi vakolatlarni aniq-ravshan ajratib qo‘yishni ko‘zda tutadigan yangi shartnomasi ishlab chiqish zarurligi to‘g‘risidagi o‘z fikrini mana bunday bildirgan: «*Biz Ittifoq va respublikalarning vazifalarini, burchclarini va o‘zaro majburiyatlarini aniq-ravshan belgilab qo‘yish, respublikalar mustaqilligini har jihatdan mustahkamlash tarafdirimiz*».

Biroq markaziy hokimiyat respublikalarga erkinlik berish haqidagi talab-takliflarni e’tiborga olishni istamas, to‘g‘riroq‘i ularga erkinlik berishni xohlamas edi. Markazning qaysarligi hamda respublikalar jamoatchiligining ta’siri ostida markazdan ajralish harakati kuchayib bordi.

Shunday bir tarixiy sharoitda sobiq SSSRdagi siyosiy vaziyat yanada keskinlashdi. XX asrning 90-yillari boshlarida Ittifoq tarkibidagi ko‘pchilik respublikalar mavjud vaziyatni o‘zgartirishni talab qila boshladi. 1990-yil bahorida Sovet Sotsialistik Respublikalari hisoblangan Boltiqbo‘yidagi Litva (11-mart), Latviya (4-mayda), Estoniya (8-may), keyinroq Gruziya (oktabr) va Ozarbayjon (1991-yil fevral) Ittifoq tarkibidan chiqqanligini e’lon qildi. Bu holat SSSRning davlat butunligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Moskva 1990-yil kuzida Markaz bilan respublikalar o‘rtasidagi munosabatlarni yangilash yuzasidan muzokaralar jarayonini boshlab yubordi. Shu asosda markaziy hokimiyat jamoatchilikning talablari ostida Ittifoq shartnomasini yangilash zaruratini e’tirof etishga majbur bo‘ldi.

Ittifoq bo‘yicha o‘z milliy davlat tuzilmalaridan tashqarida yashayotgan 60 milliondan ortiq aholi milliy-etnik muammolar, mojarolarga duchor bo‘ldi. Rossiya, Ukraina, Belarus parlamentlari davlat suvereniteti to‘g‘risida Deklaratsiya qabul qildilar. Ittifoqdosh respublikalar ketidan RSFSRga kiruvchi muxtor respublikalar ham suverenitet haqida deklaratsiyalar qabul qilishdi. Markazda va joylarda SSSR Konstitutsiyasi va qonunlari ustunmi yoki respublika Konstitutsiyasi va qonunlari ustunmi, degan masalada baxs va munozaralar kuchaydi. Markazdagilar «Kuchli markaz – kuchli respublikalar» desa, joylardagilar «Kuchli respublikalar – kuchli markaz» deb chiqdilar.

Markaziy hokimiyat jamoatchilikning talabi ostida Ittifoq shartnomasini yangilash zarurligini e’tirof etishga majbur bo‘ldi. SSSR Oliy Soveti mazkur masala bilan shug‘ullanuvchi maxsus delegatsiya tuzdi va uning tarkibini tasdiqladi. 1990-yil iyulda Moskvada markaz vakillari bilan respublikalar delegatsiyalari yangi shartnomasi matnini tayyorlashga kirishdilar. 1990-yil avgust oyida Ittifoqni yangilash dasturi ishlab chiqildi.

Dasturda respublikalar o‘z hududlaridagi butun milliy boyliklarga egalik

qilish, foydalanish, tasarruf etish huquqiga ega ekanligi ta'kidlangan edi. Ammo shartnomaga bunday yondashuv markazdagilarga yoqmadi. SSSR Oliy Soveti mazkur dasturni qabul qilmadi. SSSR Oliy Soveti respublikalarning istak va manfaatlarini batamom inkor etgan yangicha shartnomaga loyihasini tuzib respublikalarga tarqatdi. Respublikalar, shu jumladan O'zbekiston, markaz loyihasini qabul qilmadi. Shu tariqa, shartnomaga loyihasini tuzish harakatining birinchi bosqichi natijasiz tugadi.

1991-yil fevral-mart oylarida Ittifoq shartnomasi loyihasi ustida ishlashning ikkinchi bosqichi bo'lib o'tdi. Unda Boltiqbo'y respublikalari, Gruziya, Armaniston, Moldova vakillari qatnashmadni, Ozarbayjon kuzatuvchi bo'lib qatnashdi. Bu bosqichda Ittifoq bilan respublikalar vakolatlarini farqlab qo'yishga harakat qilindi. Nihoyat, Ittifoq va respublikalar vakolatlari belgilab qo'yilgan yangi shartnomaga loyihasi matbuotda e'lon qilindi. Respublikalarda mazkur loyiha muhokama qilindi. Respublikalar, jumladan O'zbekiston, markaziy idoralar hali o'zining eskicha hukmron mavqeyini saqlash ruhi singdirilgan bu hujjatdan qanoatlanmaganliklarini bildirdilar.

SSSR Oliy Soveti Ittifoq shartnomasini o'zgartirish, SSSRni teng huquqli suveren respublikalar Federatsiyasi sifatida yangilash xususida xalqning fikrini bilish maqsadida 1991-yil 17-mart kuni Butunittifoq referendumini o'tkazishga qaror qildi. 1991-yil 20-fevralda O'zbekiston Oliy Kengashning Rayosati referendum o'tkazishni ma'qulladi va SSSR Oliy Soveti tomonidan tayyorlangan byulleten bilan birga yana bitta qo'shimcha byulletenni ovozga qo'yishga qaror qildi.

Qo'shimcha byulletenga «*Siz O'zbekistonning mustaqil, teng huquqli respublika sifatida yangilangan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida qolishiga rozimisiz?*» degan savol qo'yildi. Ovoz berishda qatnashgan saylovchilarning 93 % bu savolga «**Ha**» deb javob berdilar. Demak, o'zbekistonliklar o'z mamlakatini mustaqil davlat sifatida federativ ittifoqda bo'lishini, O'zbekistonning suveren respublika sifatida rivojlanishini yoqlab ovoz bergen edilar.

1991-yil aprelda Kiyevda Ukraina, Rossiya, Belorus, O'zbekiston, Qozog'iston respublikalari rahbarlarining uchrashuvi bo'ldi. Uchrashuvda mustaqil respublikalar manfaatlariga mos keladigan Ittifoq shartnomasini tuzishga yondashish yo'llari ishlab chiqildi va tegishli bayonot imzolandi. Bu hujjatni Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston Respublikalari ham imzolashga rozilik bildirdi. Markaz yon berishga majbur bo'ldi.

1991-yilga kelib O'zbekistonda respublikaning davlat mustaqilligiga doir mutlaqo yangi davlat ramzlarini tayyorlash va qabul qilish borasida dadil ishlar qilina boshlandi. 1991-yil 15-fevralda O'zbekiston Oliy Kengashi «**O'zbekistonning davlat ramzlari to'g'risida**» maxsus qaror qabul qildi.

O'zbekistonning o'z suvereniteti uchun kurashi, avvalo, respublikada qabul qilingan har bir qonunning mazmuni va mohiyati jihatidan sobiq Ittifoq qonunlaridan tubdan farq qilishida, bundan tashqari, har bir qonun avvalgidek Ittifoq qonuniga moslashtirib emas, balki respublika manfaati ifoda etilganligi bilan ajralib tura boshladi. Xususan, 1991-yilning 22-iyulida O'zbekiston SSR

Oliy Kengashi Prezidiumining «*O'zbekiston SSR hududida joylashgan Ittifoqqa bo'y sunuvchi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarini O'zbekiston SSRning huquqiy tobelligiga o'tkazish*» to'g'risida qabul qilgan qarori ham O'zbekiston SSR Oliy Kengashi va hukumati O'zbekistonning siyosiy-iqtisodiy mustaqilligi, uning milliy suvereniteti uchun dadil qadamlar tashlaganligining isbotidir.

1991-yilning aprel oyiga kelib, Markaz o'zining ta'sir doirasini saqlab qolish maqsadida mustaqil davlatlar ittifoqini tuzishga intildi. 1991-yil aprelda Novo – Ogoryovoda SSSR Prezidenti M.S. Gorbachevning 9 respublika rahbarlari bilan uchrashuvi bo'ldi. Ishtirokchilar tomonidan «*Mamlakatdagi vaziyatni barqarorlashtirish va tanglikni bartaraf etishga doir kechiktirib bo'lmaydigan choralar to'g'risida*» qo'shma Bayonot imzolandi. Bu hujjat «9 + 1» (9 respublika + Markaz) degan nomni oldi. Uning mazmuni markazning yon bergenini, Kiyevda bildirilgan fikr-mulohazalarga rozi bo'lganini ko'rsatadi.

1991-yil 3-iyunda Novo – Ogoryovoda SSSR Oliy Soveti vakillari bilan Respublika rahbarlari o'rtasida uchrashuv bo'ldi. Uchrashuvda Mustaqil davlatlar ittifoqi (MDI) tuzish masalasi muhokama qilindi. Mulk, til va yangi shartnomani tasdiqlash tartibi to'g'risida keskin munozara bo'ldi. Uchrashuvda ishtirokchilarning fikr-mulohazalari asosan inobatga olingan «Mustaqil davlatlar ittifoqi to'g'risida shartnomaga» loyihasi ishlab chiqildi. Loyiha barcha Respublikalar Oliy Sovetlariga muhokama uchun jo'natildi.

Mazkur shartnomaga loyihasi O'zbekiston Oliy Sovetida 1991-yil 14-iyunda muhokama qilindi. Kengash Federatsiya tamoyillari asosida Mustaqil Davlatlar Ittifoqini tuzish tarafdoi ekanligini bildirdi. Shu bilan birga u Respublikalar vakolatlarini yanada kengaytirishga doir takliflarni ilgari surdi.

1991-yil iyul oyining oxirlarida Novo – Ogoryovoda yangi shartnomaga loyihasini uzil-kesil tayyorlash uchun Markaz vakillari va Respublika rahbarlarining uchrashuvi bo'ldi. Markazni ham, Respublikalar rahbarlarini ham qanoatlantiradigan «Mustaqil Davlatlar Ittifoqi to'g'risida shartnomaga» loyihasi tayyorlandi. Ammo hamma rozi bo'lgani holda «*Mustaqil Davlatlar Ittifoqi to'g'risidagi shartnomaga*»ni imzolash 1991-yil 20-avgust kuniga qoldirildi. SSSR Prezidenti M.S. Gorbachev Foros (Qrim)ga dam olish uchun jo'nab ketdi.

Biroq ittifoqning kompartiya va markaziy davlat apparatidagi bir necha nufuzli rahbarlar markazning yakka hokimligini cheklaydigan va kamida olti respublikani Ittifoqdan chetda qoldiradigan bu shartnomaga qo'shila olmadi. Bu rahbarlar oliy hokimiyat mahkamalaridagi asosiy lavozimlarni egallab turar edi. Prezident M.S. Gorbachev dam olishga ketganidan foydalanib, ular 1991-yil 18-avgust kuni tayyorlangan va 19-avgustda matbuotda e'lon qilingan «Sovet rahbariyatining Bayonoti»da M.S. Gorbachevning salomatligi yomonlashdi, shu sababli uning SSSR Prezidenti vazifalarini ijro etish imkoniyati yo'q, degan soxta axborot bilan chiqdilar. Bayonotda Prezident vakolatlari vitse – prezident G.I. Yanayevga o'tkazilganligi e'lon qilindi. Aslida esa Prezident M.S. Gorbachyov sog'-salomat edi, ammo o'zini himoya qila olmadi. Fitnachilar noqonuniy ravishda uni o'z vazifasidan chetlashtirdi va mamlakatdan, xalqdan, dunyodan ajratib, barcha aloqa vositalarini uzib, 72 soat qamal qilib qo'ygan

edi. Fitnachilar tomonidan mamlakatni idora qilish uchun SSSRda Favqulodda holat davlat qo'mitasi (Государственный комитет по чрезвычайному положению - ГКЧП) tuzildi:

O.D. Baklanov — SSSR Mudofaa Kengashi Raisining birinchi o'rinbosari, V.A. Kryuchkov — SSSR Davlat xavfsizligi qo'mitasining raisi, V.S. Pavlov — SSSR Bosh vaziri, B.K. Pugo — ichki ishlar vaziri, V.A. Starodubsev — SSSR dehqonlar uyushmasi raisi. I. Tizyakov — SSSR sanoat, qurilish, transport va aloqa davlat korxonalari hamda inshootlari uyushmasining Prezidenti, D.T. Yazov — SSSR mudofaa vaziri, G.I. Yanayev — SSSR Prezidenti vazifasini bajaruvchi. Shu tariqa fitnachilar M.S. Gorbachyovni noqonuniy yo'l bilan hokimiyatdan chetlashtirib, o'zлari hokimiyatni egallab oldilar.

Mazkur qo'mita sovet rahbariyatining Bayonoti, sovet xalqiga murojaatnama, davlatlar va hukumatlarning boshliqlariga hamda BMT Bosh kotibiga murojaat va boshqa qarorlarni e'lon qildi. Butunittifoq doirasida mo'rtlashib qolgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat yanada taranglashdi. Mamlakatdagi siyosiy kuchlar vaziyatga turlicha munosabat bildirdilar.

1991-yil 18-avgustda mamlakatda favqulodda holat e'lon qilindi. Favqulodda holat davlat qo'mitasi faoliyatiga qarshi B.N. Yelsin boshchilik qildi. Uning farmoni bilan 1991-yil 22-avgustda KPSS faoliyati to'xtatiladi, keyinchalik taqiqlab qo'yildi. Ammo KPSS Markaziy Qo'mitasi joylardagi partiya qo'mitalaridan to'ntarishni qo'llab-quvvatlashni talab qildi. Moskva va boshqa bir necha yirik shahar ko'chalariga qo'shinlar, shu jumladan tanklar kiritildi, deyarli barcha markaziy gazetalar taqiqlab qo'yildi, markaziy televideniyening birinchi kanalidan boshqa barcha kanallari, deyarli barcha radiostansiyalar ishi to'xtatildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, mamlakat aholisining ko'pchiligi Favqulodda holat davlat qo'mitasidan yuz o'girdi, armiya payt poylash pozitsiyasida turdi. 20- avgustdayoq qarshilik markaziga aylangan RSFSR Oliy Kengashi binosi atrofida barrikadalar paydo bo'ldi, ularda o'n minglab kishilar himoyada turdi. Harbiy bo'linmalarning bir qismi mudofaachilar tarafiga o'tdi. 21-avgustda fitnachilar mag'lubiyatga uchradi, 22-avgustda esa Favqulodda holat davlat qo'mitasi (GKChP) a'zolari qamoqqa olindi. Shundan so'ng to'ntarishni qo'llab-quvvatlagan KPSS rahbariyati bu partianing obro'sini uzil-kesil yerga urdi. Favqulodda holat davlat qo'mitasining mag'lubiyatidan so'ng mamlakatda kommunizmga qarshi ommaviy namoyishlar bo'lib o'tdi. KPSSning faoliyati to'xtatib qo'yilgach, partianing qariyb 15 million a'zosidan birontasi bu qarorga qarshi norozilik bildirish uchun ko'chaga chiqmadi. Bu mazkur partiya 1991-yil yozidagi qiyofasida umri tugaganidan dalolat beruvchi ramziy holat edi.

Qaltis vaziyatda 1991-yil 19-avgustda O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov Hindistonga qilgan rasmiy tashrifidan qaytib keldi va Toshkent shahri faollari bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda Prezident O'zbekistonning nuqtayi nazarini bildirib, respublikamizda favqulodda holat joriy etishga xojat yo'qligi, O'zbekistonda vaziyat barqarorligi, qonunga xilof ko'rsatmalar

bajarilmasligini qat’iy ta’kidladi.

1991-yil 20-avgust kuni Toshkentda O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi rayosati va O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qoraqalpog‘iston, viloyatlar va Toshkent shahar rahbarlari ishtirokidagi qo‘shma majlisi bo‘lib o‘tdi. Majlis mamlakatda vujudga kelgan vaziyatni muhokama qilib Bayonot qabul qildi. Mazkur hujjatda O‘zbekiston Respublikasi tinch vaqtda kuch, avvalo, harbiy kuch ishlatishga qarshi ekanligi ta’kidlandi. Unda tinchlik, osoyishtalikni saqlash va mustahkamlash, har qanday ig‘vogarona harakatlarning oldini olish, hamma joyda qattiq intizom va tartibni saqlash, mish-mishlar va ehtiroslarga berilmaslik vazifalari ilgari surildi. Bayonotda O‘zbekiston davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Deklaratsiya qoidalarini og‘ishmay va izchil amalga oshirish yo‘lidan boraveradi, deb ko‘rsatildi.

O‘zbekiston Prezidenti I.A. Karimov 1991-yil 20-avgust kuni respublika aholisiga o‘zining murojaatini e’lon qildi: «Hozircha mamlakatning hokimiyat doiralari qanday yo‘l bilan, nimalar orqali, qanday siyosat orqali bu maqsadlarga erishish mumkinligi haqida to‘liq, hozircha batafsil ma’lumot bergenicha yo‘q. Bu ma’lumotlar bilan chuqur tanishganimizdan keyingina bo‘layotgan o‘zgarishlarga o‘zimizning munosabatimizni albatta bildiramiz». Prezident xalqqa: «Biz birovning gapiga kirib ish tutmaymiz, biz o‘zimiz tanlagan yo‘limizdan va belgilab olgan maqsadimizdan qaytganimiz yo‘q. Ishonamanki, bu og‘ir sinovlardan ham eson-omon o‘tamiz», — deb murojaat qildi. Xalqni og‘ir sinovlardan o‘tayotgan bir paytda sabr-toqatli, bardoshli va vazmin bo‘lishga, tinchlikni saqlash maqsadida jipslashishga chaqirdi.

1991-yil 21-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘z farmoni bilan O‘zbekiston hududida hokimiyat va boshqaruvi idoralari, korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalarning qabul qilgan barcha qarorlari va ularning ijrosi SSSR va O‘zbekiston SSR Konstitutsiyalariga hamda qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlariga va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga so‘zsiz mos kelishi kerak, deb belgilab qo‘ydi. Farmonda SSSRda favqulodda holat davlat qo‘mitasining SSSR Konstitutsiyasi hamda qonunlariga, O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi hamda qonunlariga zid keladigan farmonlari va qarorlari haqiqiy emas, deb belgilab qo‘yildi.

Fitnachilarining qonunga xilof ravishda urinishlari natijasida 1991-yil 19 – 21-avgust kunlari Moskvada fojiali hodisalar ro‘y berdi. Rossiya Federatsiyasi rahbariyati tashabbusi bilan demokratik kayfiyatdagiligi Moskva aholisi tomonidan fitna bostirildi. Fitnani uyuştiruvchilar qamoqqa olindi. M.S. Gorbachyov Prezidentlik lavozimiga qaytib keldi. Biroq mamlakatdagi siyosiy vaziyat tang ahvolga tushib qoldi. Markaziy hokimiyat falaj bo‘lib qoldi. Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi ham halokatga uchradi.

I.A. Karimov favqulodda holat davlat qo‘mitasi faoliyatiga o‘z munosabatini bildirmagan, qo‘rqoq va prinsipsiz mavqeda turgan KPSS Markaziy Qo‘mitasi Siyosiy Byurosi va Kotibiyati yuz minglab kommunistlarning sha’ni va qadr-qimmatini zarba ostiga qo‘yanini qoraladi. Buning ustiga respublika kommunistlarini chalg‘itishga va davlat to‘ntarishini qo‘llab-quvvatlashga majbur qilishga urinish bo‘lganini oshkora aytdi. I.A.

Karimov bundan keyin KPSS Markaziy Qo‘mitasi Siyosiy Byurosining tarkibida qola olmasligi to‘g‘risida bayonot berdi. Mazkur Bayonotni O‘zbekiston Kompartiyasi MQ byurosi va Markaziy nazorat komissiyasi rayosati ma’qulladi.

1991-yil 25-avgustda O‘zbekiston Prezidentining maxsus farmoni e’lon qilindi. Farmonga binoan Respublika ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik qo‘mitasi O‘zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olindi. Respublika hududida joylashgan SSSR ichki ishlar vazirligining ichki qo‘shinlari bevosita O‘zbekiston Prezidentiga bo‘ysundirildi. Respublika ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizligi qo‘mitasi, prokuraturasi va adliya organlari, shuningdek, respublika hududida joylashgan ichki qo‘shinlar, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo‘shilmalari partiyadan butunlay holi qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Oliy Kengash rayosatiga juda qisqa muddatda Respublikaning davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi qonun loyihasini tayyorlash va uni Oliy Kengashning navbatdan tashqari sessiyasi muhokamasiga taqdim etishni taklif qildi.

Sobiq Ittifoqning rasmiy jihatdan tugatilishida 1991-yil 8-dekabrda Belorussiyaning Belovej pushchada (Viskuli – davlat hovli-joyida) Rossiya, Ukraina va Belorussiya rahbarlari tomonidan imzolangan o‘zaro bitim muhim ahamiyat kasb etdi. Bitimda 1922-yil 30-dekabrda tashkil topgan SSSR tugatilganligi va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) tashkil etilganligini rasman e’lon qildilar. 1991-yil 25-dekabrda SSSR xalqaro huquq sub’yekti sifatida barham topdi va M.S. Gorbachev Bosh kotib va Prezident lavozimlaridan iste’foga chiqdi.

### **3-mavzu. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati (2 soat).**

**Reja:**

1. O‘zbekiston davlat mustaqilligining e’lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.
2. Mustaqillikning ilk davrida davlat suverenitetini mustahkamlash yo‘lidagi sa’y-harakatlar.
3. Mustaqil O‘zbekiston davlatining yuzaga kelishi va mustahkamlanishida I.A. Karimovning tarixiy xizmatlari.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Mustaqillik, suverenitet, referendum, prezident. O‘zbekiston Respublikasi Prezident.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
3. Каримов И.А. Она юртимиз бахту икболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Т.: Ўзбекистон. 2015.
4. Левитин Л. Ўзбекистон туб бурилиш палласида. – Т.: Ўзбекистон, 2005.
5. Мустақил Ўзбекистон тарихининг дастлабки саҳифалари. – Т.: 2000.

6. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // М.Абдуллаев ва бошқалар: тўлдирилган учинчи нашр. – Т.: Шарқ, 2006.
7. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул мухаррир А.Сабиров. – Т.: Академия, 2013.
8. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А. Рахимов. – Т.: Адабиёт учқунлари, 2018.
9. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
10. O'zbekiston tarixi / R.H. Murtazayeva umumiy tahriri ostida. – Т.: Yangi asr avlodi, 2005.
11. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи хрестоматияси. / Масъул мухаррир и.ф.н. Н.Талипова / – Т.: Fan va texnologiya, 2014.
12. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). 2 том. Масъул мухаррирлар: Р.Абдуллаев, Қ.Ражабов, М.Рахимов. – Т.: Ўзбекистон, 2019.
13. Фуломов С., Убайдуллаева Р., Ахмедов Э. Ўзбекистон. –Т.: Мехнат, 2001.

Markaz va respublikalar o'rtasidagi munosabatlar tobora taranglashib, markaz boshqaruv qobiliyatini yo'qotgan, har bir mintaqasi, har bir respublika o'z holiga tashlab qo'yilgan bir sharoitda tarixiy vaziyatni to'g'ri baholay bilish qobiliyatiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov Oliy Kengash sessiyasini chaqirish va unda O'zbekiston Mustaqilligi haqida Qonun qabul qilishni talab qildi.

*O'zbekiston – mustaqil davlat.* O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1991-yil 26-avgust kuni O'zbekistonning davlat mustaqilligi to'g'risida qonun loyihasini tayyorlash hamda 31-avgustda Oliy Kengash sessiyasini chaqirishga qaror qildi.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasi va Markaziy nazorat qo'mitasining 28-avgustda bo'lgan qo'shma Plenumi Respublika Kompartiyasining KPSS MQ bilan har qanday aloqasini to'xtatishga, KPSSning barcha tashkilotlaridan chiqishga, uning Markaziy organlaridagi o'z vakillarini chaqirib olishga qaror qildi. Ana shunday vaziyatda O'zbekiston Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari VI sessiyasi 1991-yil 31-avgustda o'z ishini boshladi. O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishida mazkur sessiya katta tarixiy ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlash lozim. Unda «*O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida*» hamda «*O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida*»gi masalalar kun tartibiga qo'yilib, qizg'in muhokama qilindi.

Sessiyada O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov nutq so'zlab, sobiq Ittifoqda so'nggi paytlarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealarni, davlat to'ntarishiga urinish oqibatlarini tahlil qilib, ular O'zbekiston taqdiriga, xalqimiz tarixiga bevosita daxldor ekanligini har tomonlama asoslab berdi. Vaziyatdan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qildi va uni mustaqillik to'g'risidagi qonun bilan mustahkamlashni taklif qildi. Oliy Kengash deputatlari tomonidan moddama-modda muhokamadan so'ng «*O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida*»gi 336-XII-sonli Qonun qabul qilindi.

So'ngra «*O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash Bayonoti*» qabul qilindi. Bayonotda bunday deyilgan edi: ... «*Mustaqillik Deklaratsiyasini amalga oshira borib, O'zbekiston Sovet*

*Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi O'zbekistonning Davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat – O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qiladi».*

Oliy Kengash sessiyasi «*O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida*»gi 335-XII-sonli qaror qabul qilindi. Mazkur qarorda:

1) Respublikaning davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash bayonoti tasdiqlansin va respublika bundan buyon O'zbekiston Respublikasi deb atalsin;

2) 1-sentabr O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilansin va 1991-yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e'lon qilinsin, deb qat'iy belgilab qo'yildi.

*«O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»*gi qonun g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lib, bu qonun asosida O'zbekistonning huquqiy holati tubdan o'zgardi. O'z mohiyatiga ko'ra bu hujjat respublika uchun vaqtincha konstitutsiya rolini ham o'ynaydigan bo'ldi. 17 moddadidan iborat ushbu qonun suveren O'zbekiston Respublikasining asosiy belgilarini aniqlab berdi. Qonunning birinchi moddasida: «*O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga, mustaqil, demokratik davlatdir*», – deb qonunlashtirib qo'yildi.

Qonunda O'zbekiston Respublikasining xalqi suverendir va respublikada davlat hokimiyatining birdan-bir sohibidir. U o'z hokimiyatini ham bevosita, ham vakillik idoralari tizimi orqali amalga oshiradi, deb belgilab qo'yildi.

Mustaqillik asoslari to'g'risidagi qonunda O'zbekiston Respublikasi to'la davlat hokimiyatiga ega, o'zining milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilaydi, davlat chegarasi, hududi daxlsiz va bo'linmas bo'lib, uning xalqi o'z xohish-irodasini erkin bildirmasdan turib o'zgartirilishi mumkin emas, deb qat'iy qonunlashtirib qo'yildi.

Mazkur qonunda respublika hududidagi yer, yer osti boyliklari, suv va o'rmonlar, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy va boshqa resurslar, respublikaning ma'naviy boyliklari O'zbekiston Respublikasining milliy boyligi, mulki hisoblanadi, deb belgilab berildi.

*O'zbekiston Respublikasi o'z hududida oltin, boshqa qimmatbaho metallar va toshlarni qazib chiqarish, qayta ishlash va saqlashni mustaqil amalga oshiradi hamda nazorat qiladi, o'z oltin zaxirasini yaratadi, — deyiladi bu qonunda.*

1991-yil 30-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari VII sessiyasida «*O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida*»gi *O'zbekiston Respublikasining Qonuniga konstitutsiyaviy maqom berish haqida*»gi 358-XII-sonli Qonuni qabul qilindi. Jumladan, unda shunday deyiladi:

1. «*O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida*» 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Qonuniga konstitutsiyaviy maqom berilsin.

2. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi moddalariga

**«O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida»gi Qonunning moddalariga zid kelgan hollarda mazkur Qonunga amal qilinsin», – deb belgilab qo‘yildi.**

Shu tariqa, xalqimizning asriy orzusi, umidlari ushaldi, ro‘yobga chiqdi. Uzoq yillar davom etgan kurash natijasida mamlakatimiz, xalqimiz siyosiy qaramlik asoratidan qutildi. Dunyo xaritasida yana bitta mustaqil davlat — O‘zbekiston Respublikasi paydo bo‘ldi. O‘zbekiston tarixida yangi davr – milliy istiqlol davri boshlandi. O‘zbekiston uchun mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritish, xalqimiz uchun o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘zlar uchun munosib turmush yaratish imkoniyati vujudga keldi.

*Umumxalq referendumi.* O‘zbekiston erishgan istiqlolni mustahkamlash uchun, avvalo, xalqning fikrini bilish, mustaqillikka munosabatini aniqlash zarur edi. Shu maqsadda 1991-yilning 18-noyabrida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasi **«O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish to‘g‘risida»** qaror qabul qildi. Qarorda quyidagilar belgilandi:

1. 1991-yil 29-dekabr, yakshanba kuni O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi masala bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining referendumi o‘tkazilsin.

2. Referendumda ovoz berish byulleteniga masala quyidagi ta’rifda kiritilsin: **«O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e’lon qilingan O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini ma’qullaysizmi?».**

Referendumga katta tayyorgarlik ko‘rildi. Referendumni uyushqoqlik bilan o‘tkazish maqsadida Markaziy saylov komissiyasi, 13 okrug, 7 ming uchastka saylov komissiyalari tuzildi. 1991-yil 29-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan referendumda 9 million 898 ming 707 kishi yoki saylov ro‘yxatiga kiritilganlarning 94,1 % qatnashdi. Ularning 98,2 % referendumda qo‘yilgan savolni ma’qullab ovoz berdi. Demak, O‘zbekistonning Davlat mustaqilligi umumxalq tomonidan yakdillik bilan ma’qullandi. Shuni ta’kidlash lozimki, referendum butun respublika hududida qonun asosida tashkiliy jihatdan uyushqoqlik, fuqarolarning yuksak siyosiy faolligi bilan o‘tdi. Buni referendumda AQSH, Turkiya, Malayziya va boshqa mamlakatlardan kelgan mustaqil kuzatuvchilar ham tasdiqladilar.

*Islom Karimov – O‘zbekistonning birinchi Prezidenti.* O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimi – prezidentlik respublika boshqaruvi shakli rivojlantirishga kirishildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabridagi VIII sessiyasida umumxalq referendumini o‘tkazish qarori bilan birga **«O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida»gi Qonuni, shuningdek, «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tayinlash to‘g‘risida»** qaror qabul qilindi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi 1991-yil 29-dekabr, yakshanba kuniga belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi xalq deputatlari saylovini o‘tkazuvchi Markaziy saylov komissiyasining zimmasiga yuklandi. Saylovga puxta tayyorgarlik ko‘rildi. 13 ta okrug va qariyb 7 mingta uchastka saylov

komissiyalari tuzildi. Oliy lavozimiga ikki nomzod – O‘zbekiston XDP va O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi nomzodi I.A. Karimov va «Erk» Demokratik partiyasi vakili Saloy Madaminov (Muhammad Solih) nomzodi qo‘yildi.

1991-yil 29-dekabrda bo‘lib o‘tgan saylovlar yakuniga ko‘ra, 8 million 514 ming 136 ovoz yoki ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi Islom Karimov nomzodini, 1 million 220 ming 474 saylovchi (12,3 %) Saloy Madaminov nomzodini yoqlab ovoz berdi.

1991-yil 30-dekabrda Markaziy saylov komissiyasi okrug komissiyalari majlis bayonlarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risidagi qonunning 35 moddasiga asosan Islom Abdug‘aniyevich Karimovni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblashga qaror qildi. Shunday qilib, mamlakatimizda birinchi marta yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkazilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri umumiy va alternativ asosdagi saylovda I.A. Karimov 5 yil muddatga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 4-yanvarda bo‘lgan navbatdan tashqari IX sessiyasida Prezident Islom Karimov so‘zga chiqib, o‘ziga bildirilgan ishonch uchun butun respublika xalqiga samimiyl minnatdorchilik bildirdi va qasamyod qildi.

*O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimovning tarjimayi holi.* Islom Abdug‘aniyevich Karimov — 1938-yil 30-yanvarda Samarqand shahrida xizmatchi oilasida tug‘ilgan. Millati — o‘zbek. Oliy ma’lumotli, O‘rta Osiyo politexnika va Toshkent xalq xo‘jaligi institutlarini tugatgan. Muhandis-mexanik va iqtisodchi mutaxassisliklariga ega. Mehnat faoliyatini 1960-yilda Toshkent qishloq xo‘jalik mashinasozligi zavodida boshlagan.

1961-yildan 1966-yilgacha V.P. Chkalov nomidagi Toshkent Aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida muhandis, yetakchi muhandis-konstruktor bo‘lib ishladi. 1966-yilda O‘zbekiston SSR davlat reja komitetiga ishga o‘tib, bosh mutaxassislikdan Respublika davlat reja komiteti raisining birinchi o‘rinbosarigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi.

1983-yilda I. Karimov O‘zbekiston SSR Moliya vaziri, 1986-yilda O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti Raisining o‘rinbosari, Respublika davlat reja komitetining raisi etib tayinlanadi.

1986 – 1989-yillar mobaynida Qashqadaryo viloyati partiya komitetining birinchi kotibi, 1989-yilning iyunidan boshlab O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi lavozimlarida ishladi.

1990-yil 24-mart kuni O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining sessiyasida Karimov O‘zbekiston SSR Prezidenti etib saylandi. 1991-yil 31-avgust kuni I.A. Karimov tarixiy voqeasi — O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e’lon qildi. 1991-yil 29-dekabridan muqobillik asosida o‘tkazilgan umumxalq saylovida I.A. Karimov O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

1995-yil 26-martda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddatini 1997-

yildan 2000-yilgacha uzaytirish masalasi bo'yicha umumxalq referendumi bo'lib o'tdi. Unda 11 mln. 245 028 kishi yoki ovoz berish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarning 99,3 % ishtirok etdi. «*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirishga siz rozimisiz?*» degan savolga 11 mln. 199 ming 415 kishi, yoki ovoz berishda qatnashganlarning 99,6 % ijobjiy javob berdi. Shunday qilib, I.A. Karimovning vakolat muddati 2000-yilgacha uzaytirildi.

2000-yil 9-yanvarda muqobililik va demokratik tamoyillar asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. Saylovda ro'yxatga olingan saylovchilarning 95,10 foizi, 12 mln. 123 ming 199 saylovchi qatnashdi. Saylovda qatnashganlarning 91,90 foizi Islom Karimov uchun, 4,17 foizi A. Jalolov uchun ovoz berdi. 3,93 foiz byulleten haqiqiy emas deb topildi. Shu asosda I.A. Karimovning ikkinchi bor O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumi natijalariga hamda uning asosida O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan Qonuniga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaga o'zgarishlar kiritildi. Natijada prezidentlik vakolati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi.

2007-yil 23-dekabrida muqobililik asosida o'tgan saylov natijalariga ko'ra, I.A. Karimov 7 yil muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi. O'zbekiston Respublikasining Qonuni bilan 2011-yil 12-dekabrdan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 90-moddasining ikkinchi qismiga tuzatishlar kiritilishi munosabati bilan Prezident vakolati 5 yil muddatga saylanishi belgilandi. 2015-yil 29-mart kuni bo'lib o'tgan navbatdagi Prezident saylovida I.A. Karimov 5 yil muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi (1994-yil), o'ndan ortiq xorijiy mamlakatlar universitet va akademiyalarining faxriy fan doktori, professor va akademikligiga saylangan. Shuningdek, «O'zbekiston Qahramoni» unvoni va «Oltin Yulduz» medali sohibi (1994), «Mustaqillik» (1996), «Amir Temur» (1998) ordenlari va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, tinchlikni mustahkamlash, ma'naviyatni tiklash, sportni rivojlantirish sohasidagi xizmatlari uchun bir qator xalqaro tashkilotlar va nufuzli xorijiy davlatlarning orden va medallari bilan mukofotlangan.

O'zbek xalqining ulug' farzandi, mustaqil O'zbekiston davlati asoschisi va Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov 2016-yil 2-sentabr kuni 78 yoshida vafot etdi. 2016-yil 3-sentabr kuni O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Samarqand shahrining qadimiy Hazrati Xizr masjidida dafn etildi.

2017-yil 25-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev qarori asosida Islom Karimovning xotirasini abadiylashtirish va merosini har tomonlama o'rghanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti «*Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy (yodgorlik) majmuasi*» tuzildi.

Majmua tarkibida: muzey, ilmiy-tadqiqot va ta'lif markazi, kutubxonasi va

o‘quv zali, konferensiya zali mavjud. Majmua o‘z faoliyatini Islom Karimov nomidagi Respublika xayriya jamoat fondi bilan o‘zaro hamkorlikda olib boradi.

#### **4-mavzu. O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li (2 soat).**

**Reja:**

1. O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini tanlashi. «O‘zbek modeli» va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
2. O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy rivojlanish strategiyasi: yangilanish va taraqqiyot yo‘li.
3. O‘zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan strategiya asoslari.
4. O‘zbekiston Respublikasi davlat ramzlari va Konstitutsiyasining qabul qilinishi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Islohot, «O‘zbek modeli», strategiya, davlat ramzlari. Konstitutsiya.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1992.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. – Т.: Ўзбекистон, 1999.
3. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016.
4. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. –Т.: Ўзбекистон, 2017.
5. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 1992; 2018.
6. Сайдов А. Ўзбекистон Конституцияси тарихи. – Т.: TASVIR, 2018.
7. Shamsutdinov R. Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi. –Т.: Akademnashr, 2019.
8. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
9. O‘zbekiston tarixi / R.H. Murtazayeva umumiy tahriri ostida. – Т.: Yangi asr avlod, 2005. –B.423-426.
10. Ўлмасов А., Вахобов А. Иқтисодиёт назарияси. – Т.: Шарқ, 2006.
11. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Т.: Шарқ, 2000.
12. <https://lex.uz/symbols> - Ўзбекистон Республикасининг Давлат рамzlari.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, dunyodagi hamma mamlakatlar uchun maqbul bo‘lgan bir xil taraqqiyot yo‘li, bir xil andoza bo‘lishi mumkin emas. Hozirda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning turli modellari mavjud bo‘lib, ular barcha mamlakatlarni bitta manzilga – erkin bozor iqtisodiyoti tizimiga olib keladi. Ammo, bozor munosabatlari shakllanishining sotsial – iqtisodiy, tarixiy, milliy va xalqaro sharoiti har xil bo‘lganligi tufayli, unga o‘tishning milliy xususiyatlari ham mavjud bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan biror mamlakatning taraqqiyot yo‘lini yoki taraqqiyot modelini borligicha qabul qilib bo‘lmaydi. Natijada o‘ziga xos yo‘lni tanlash muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng kun tartibida jahon andozalariga mos keladigan davlat qurish, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohada

tub islohotlarni amalga oshirish, ularni qonun bilan mustahkamlaydigan huquqiy tizimni yaratish vazifasi turardi. Chunki sobiq sovet Ittifoqi tuzumga xos ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar, jumladan, unda amal qilgan va markazlashgan ma'muriy boshqarish tizimiga asoslangan iqtisodiyot endilikda barpo qilinajak yangi jamiyat manfaatlariga mos kelmas edi. Mulkchilik, mulkka egalik va uni boshqarish, ishlab chiqarish omillari, bozor mexanizmi, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini barqaror izga solishga qaratilgan ob'ektiv zaruriyat yuzaga keldi. Natijada mustaqillik yillarda mamlakat taraqqiyot uchun O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'lini ishlab chiqish va bu yo'lda tub islohotlarni belgilash zarurati yuzaga keldi. Mamlakatimiz taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishiga O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov boshchilik qildi.

Islom Karimov o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari 1992-yil 4-yanvardagi IX sessiyasida so'zlagan dasturiy nutqida hamda 1992-yil avgust oyida nashr etilgan «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida O'zbekistonning taraqqiyot yo'lini har tomonlama puxta belgilab berdi. Mazkur asarda yangilangan jamiyatda yashovchi kishining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini kafolatlovchi yo'llar ko'rsatib berildi. Jumladan, *siyosiy sohada bu:*

- xalq ham bevosita, ham o'z vakillari orqali davlat hokimiyatini amalga oshirishda to'liq ishtirok etishi lozimligini;
- hokimiyat bo'linishining jahon tan olgan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish tamoyilini joriy etish asosida demokratiyani chuqurlashtirish hamda milliy davlatchilikni barpo qilishni;
- jamiyatning siyosiy tizimini, davlat idoralarining tuzilmasini tubdan yangilashni;
- barcha fuqarolarning qonun oldidagi huquqiy tengligini va qonunning ustunligini ta'minlashni;
- bir mafkuraning, bir dunyoqarashning yakka hokimligidan voz kechish, siyosiy tashkilotlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligini tan olishni;
- demokratiyaning qonuniy tarkibi sifatida ko'ppartiyaviylikni shakllantirishni;
- O'zbekistonda tug'ilib, uning zaminida yashayotgan, mehnat qilayotgan har bir kishi, milliy mansubligi va e'tiqodidan qat'i nazar respublikaning teng huquqli fuqarosi bo'lishga erishishni bildiradi.

#### *Iqtisodiy sohada esa bu:*

- milliy boylikning ko'payishini ta'minlaydigan barqaror, rivojlanib boruvchi iqtisodiyotni barpo etishni;
- ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirishni;
- mulk egalari huquqlarining davlat yo'li bilan himoya qilinishini ta'minlash va barcha mulkchilik shakllarining huquqiy tengligini qaror toptirishni;
- iqtisodiyotni o'ta markazlashtirmsandan korxonalar va tashkilotlarning

mustaqilligini kengaytirishni, davlatning xo‘jalik faoliyatiga bevosita aralashuvidan voz kechishni bildiradi.

### ***Ijtimoiy va ma’naviy sohada bu:***

- insonparvarlik g‘oyalariga sodiqlikni, inson, uning hayoti va shaxsiy daxlsizligi, erkinligi, qadr-qimmati, yashash joyini tanlash huquqi saqlanib qolishini;
- ma’naviyatni qayta tiklashni;
- o‘zbek tilini rivojlantirishni;
- hurfikrlilik, vijdon va din erkinligini qaror toptirishni;
- ijtimoiy adolat qoidalarini ro‘yobga chiqarish, aholining eng nochor qatlamlari-keksalar, nogironlar, etim-esirlar, ko‘p bolali oilalar, o‘quvchi yoshlarning davlat tomonidan iqtisodiy muhofazaga bo‘lgan kafolatli huquqlarini ta’minlashni;
- odamlarning iste’dod qobiliyatlarini namoyon etish uchun shart-sharoit yaratish, ma’naviy mulkni himoya qilishni bildiradi, deb ta’kidlandi.

O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li Islom Karimovning keyingi asarlari, ma’ruza va nutqlarida yangi ma’no-mazmun bilan to‘ldirilib, aniqlashtirilib borildi. O‘zbekistonda ijtimoiy yo‘naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tish modeli Islom Karimov tomonidan ishlab chiqildi. Besh tamoyilni o‘z ichiga olgan bu modelning mazmuni va mohiyati Prezidentning 1993 yilda nashr etilgan «O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li» nomli asarida asoslab berildi. Bu yo‘l xalqimiz tomonidan ham, xalqaro maydonda ham taraqqiyotning «***o‘zbek modeli***» deb qabul qilindi. O‘zbek modelini ishlab chiqishda, birinchidan, xalqaro tajriba asos qilib olindi. Ikkinchidan, xo‘jalik imkoniyatlari, shart – sharoitlari, eski tuzumdan meros bo‘lib qolgan muammolar hisobga olindi. Quyidagi keltirilgan jadval orqali besh tamoyilning mohiyatini ko‘rishimiz mumkin:

<b>Nº</b>	<b>Asosiy tamoyillar</b>	<b>Asosiy tamoyillarning mohiyati</b>
1	<b>Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi</b>	Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror mafkuraga bo‘ysundirilishi mumkin emas. Buning ma’nosи shuki, iqtisodiyot siyosatdan ustun turishi kerak. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan holi qilish kerak.
2	<b>Davlat bosh islohotchi, iqtisodiy o‘zgartirishlarning tashabbuskori</b>	Davlat bosh islohotchi bo‘lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berishi, o‘zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan o‘tkazishi, jaholatparastlar va konservatorlar qarshiligini bartaraf etishi shart.
3	<b>Qonunlar va ularga rioya qilish ustuvorligi</b>	Qonun va qonunlarga rioya etish ustuvor bo‘lishi lozim. Buning ma’nosи shuki, demokratik yo‘l bilan qabul qilingan Yangi Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi

		va ularga og‘ishmay rioya etishi lozim.
4	<b>Kuchli ijtimoiy siyosat yurgizish</b>	Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosatni o‘tkazish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta’sirchan choralar ko‘rilishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti yo‘lidagi eng dolzarb vazifa bo‘lib keldi va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi.
5	<b>Bozor iqtisodiyotiga bosqichma – bosqich o‘tib borish</b>	Bozor iqtisodiyotiga o‘tish ob’ektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, o‘tmishdagi «inqilobiy sakrashlar»siz, ya’ni evolyusion yo‘l bilan, puxta o‘ylab, bosqichma – bosqich amalga oshirilishi kerak.

Shunday qilib, O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li nazariy va amaliy jihatdan puxta belgilab olindi. Bu barcha tamoyillar demokratik va iqtisodiy qayta o‘zgartirishlar jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, hayot sinovidan o‘tdi. Amaliy islohotlar jarayonida, xususan XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarda mamlakatimizning rivojlanish strategiyasi, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasidagi faoliyatimizni jadallashtirish maqsadida bu tamoyillar Oliy Majlisning XIV sessiyasida (1999-yil 14-aprel) quyidagi oltita ustuvor yo‘nalish bilan to‘ldirildi:

1. Mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish.
2. Jamiyat ma’naviyatini yanada yuksaltirish.
3. Kadrlar masalasi.
4. Xalq turmush darajasining izchil va barqaror o‘sishi aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilish.
5. Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni ta’minalash.
6. Jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz daxlsizligini, mamlakatimiz yaxlitligini ta’minalash.

*Islohotlarning strategik maqsadlari.* Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti O‘zbekiston davlat suverenitetining iqtisodiy asosi bo‘lib qoldi. Bu yo‘lni shakllantirish uchun iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga kirishildi. Avvalo, iqtisodiy islohotlarning quyidagi strategik maqsadlari belgilab olindi:

➤ ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodini bosqichma-bosqich shakllantirish, milliy boyliklarning o‘sishini, kishilar turmushi va faoliyati uchun munosib sharoitni ta’minalaydigan kuchli va muntazam rivojlanib boruvchi iqtisodiy tizim yaratish;

➤ ko‘p ukladli iqtisodiyotni yaratish, kishining mulkdan begonalashuvini bartaraf etish, tashabbuskorlik va tadbirdorlikning har taraflama o‘sishi uchun

asos bo‘ladigan xususiy mulkchilikning davlat tomonidan himoya qilinishini ta’minlash;

➤ korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo‘jalik ishlariga davlatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashuvidan voz kechish, iqtisodni boshqaruvning ma’muriy – buyruqbozlik usullarini yo‘q qilish, iqtisodiy vositalar va rag‘batlantirishlarni keng qo‘llash;

➤ moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan unumli foydalanishni, raqobatbardosh tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va jahon iqtisodiyot tizimiga kirib borishni ta’minlaydigan chuqur iqtisodiy o‘zgarishlarni amalga oshirish;

➤ iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlar qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish;

➤ jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilib borish;

➤ kishilarda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o‘zgartirish, har bir kishiga o‘z mehnatini qo‘llash sohalari va shakllarini o‘zi mustaqil belgilab olishi uchun imkoniyat yaratish.

Strategik maqsadlar asosida iqtisodiy – islohotlarning asosiy va muhim tomonlari aniq belgilab olindi. Eng avvalo, birmuncha o‘tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yaqin vaqtlar ichida hal etishga yordam beradigan asosiy tarmoqlarni rivojlantirishga e’tibor qaratildi.

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirildi:

- mulkiy islohotlar;
- institutsional va moliya – kredit islohotlari;
- agrar islohotlar;
- tashqi iqtisodiy faoliyat islohotlari;
- ijtimoiy sohadagi islohotlar.

O‘zbek modelining o‘ziga xos xususiyatlari davlatchilik asoslarining, milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi, o‘zlikni anglash, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, milliy mentalitetimizga xos xususiyatlarining tiklanishi va rivojlanishi, demokratik qadriyatlarning rivojlantirilishi va inson huquqlarining kafolatlanishi va boshqalarda o‘z ifodasini topdi.

*O‘zbekiston Respublikasi davlat ramzları.* O‘zbekiston 1991-yil 31-avgustda mustaqillikka erishgandan keyin mustaqil davlat ramzlarini joriy qilish yuzasidan amaliy choralar ko‘rildi. O‘zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog‘i to‘g‘risida, respublika gerbining nushasi va Davlat madhiyasining musiqiy bayoni haqida maxsus qaror qabul qilindi. Unda Konstitutsiya komissiyasiining ekspert guruhiga Davlat bayrog‘ining variantlari ustida ishslashni davom ettirish, Oliy Kengashning tegishli qo‘mitalariga Konstitutsiya komissiyasi ijodiy guruhi bilan hamkorlikda Davlat bayrog‘i, madhiyasi haqida qonun loyihamarini ishlab chiqib, navbatdagi sessiyaga taqdim etish topshirildi.

1991-yil 18-noyabr O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasida 13 moddadan iborat bo‘lgan «**O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida**»gi 407-XII-sonli Qonun qabul qilindi. Ushbu qonunning 2-

moddasida, «O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i O‘zbekiston Respublikasi davlat suverenitetining ramzidir» deb belgilangan.

Davlat bayrog‘i mamlakatimiz hududida ilgari mavjud bo‘lgan g‘oyat qudratli sultanatlar bayrog‘iga xos bo‘lgan eng yaxshi an’analarni davom ettirgan holda respublikaning tabiatiga xos bo‘lgan xususiyatlarni, xalqimizning milliy va madaniy sohalardagi o‘zligini ham aks ettiradi. Davlat bayrog‘i – bizning o‘tmishimiz, bugungi kunimiz va kelajagimiz ramzidir.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i — bayroqning butun uzunligi bo‘ylab o‘tgan to‘q moviy rang, oq rang va to‘q yashil rangli uchta endan tarkib topgan to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi matodir.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining uzunligi 250 santimetrga, kengligi 125 santimetrga teng. Moviy rang, oq rang va yashil rangli enlarning kengligi bir xil. Har bir en 40 santimetrga tengdir. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining o‘rtasidagi oq rangli enning chetlaridan kengligi 2,5 santimetrga teng qizil hoshiyalar o‘tkazilgan.

Bayroqdagagi moviy rang-mangu osmon va musaffo suv ramzidir. Yaxshilikni, donishmandlikni, shon-shuhratga sadoqatni bildiruvchi moviy rang Sharqda azaldan qadrlanadi, o‘z vaqtida buyuk Amir Temur ham o‘z bayrog‘iga bu rangni tanlagan. Oq rang – tinchlik va poklik timsolidir. Yosh mustaqil davlat o‘z yo‘lida baland dovonlardan oshib o‘tishi kerak. Bayrog‘imizdagagi oq rang yo‘limizning musaffo va charog‘on bo‘lishi uchun yaxshi niyat ramzidir. Qizil yo‘llar – bu har bir tirik jonning qon tomirida urib turgan hayotiy kuch, tiriklik ramzidir. Yashil rang – serne’mat va orombaxsh tabiat timsoli. Hozirgi vaqtida butun dunyoda atrof-muhitni muhofaza qilish harakatlari keng yoyilmoqda, uning ramzi ham yashil rangdir. Yarim oy – O‘zbekiston xalqining ko‘p asrlik an’analariga muvofiq keladi. Yarim oy va yulduzlar – musaffo osmonning va tinchlikning ramzlaridir. Bayrog‘imizda 12 yulduz tasviri bor, bu o‘lkamizda qadimdan buyon barkamollik, mukammallik timsoli hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i Nyu-York shahrida joylashgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti qarorgohida dunyodagi suveren davlatlar bayroqlari qatorida turibdi. O‘zbekiston bayrog‘i xorijiy mamlakatlarda Prezidentimiz boshliq davlat delegatsiyasini qabul qilish marosimlarida, chet el davlat delegatsiyalarini O‘zbekistonda qabul qilish marosimlarida ko‘tariladi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i doimiy ravishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorgohlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи, respublika davlat boshqaruvi organlarining va boshqa ob’ektlar binosi tepasiga ilib qo‘yilgan. O‘zbekiston sportchilarji jahon sport musobaqalarida g‘oliblikni qo‘lga kiritib, shohsupaga ko‘tarilgan paytlarda ham O‘zbekiston bayrog‘i ko‘tariladi. Shu boisdan mamlakatimizda va jahon uzra O‘zbekiston bayrog‘ining ko‘tarilishi, bir tomonidan, davlatimiz shon-shuhratini ko‘tarsa, ikkinchi tomonidan, barchamizga quvonch, faxrlanish, g‘urur bag‘ishlaydi.

1992-yil 2-iyul O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 8 moddadan iborat bo‘lgan «**O‘zbekiston Respublikasining Davlat**

*gerbi to ‘g‘risida»gi* 616-XII-sonli Qonun qabul qilindi.

Gerbning markazida tasvirlangan – qanotlarini keng yozib turgan Xumo qushi – baxt-saodat va erksevarlik ramzidir. Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy Xumo qushini barcha tirik mavjudotlar ichida eng saxovatlisi deb ta’riflagan.

Gerbning yuqori qismida respublikamizning sobit va barqarorligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan. U «qutlug‘» degan ma’noni anglatadi. Uning ichida yarim oy va besh qirrali yulduz ifodalangan.

Quyosh tasviri – davlatimizning yo‘li hamisha nurli bo‘lishi uchun bildirilgan yaxshi niyat timsoli. Ayni paytda u respublikamizning noyob iqlim sharoitini ham ko‘rsatib turadi.

Boshoqlar – rizq-ro‘zimiz bo‘lmish g‘allaning timsoli, oppoq bo‘lib ochilayotgan paxta chanoqlari tasvirlangan g‘o‘za shoxlari – serquyosh yurtimizning dong‘ini butun dunyoga taratgan asosiy boyligimiz ramzidir. Bug‘doy boshoqlari va paxta chanoqlarining davlat bayrog‘iga o‘xshagan lenta bilan o‘rab qo‘yilganligi – bu respublikada yashayotgan xalqlar yakdilligining timsolidir.

Gerb rangli tasvirda bo‘lib, Xumo qushi kumush rangda; quyosh, boshoqlar, paxta chanog‘i va «O‘zbekiston» degan yozuv tillarangda; g‘o‘za shoxlari va barglari, vodiylar yashil rangda; tog‘lar havorangda; chanoqdagi paxta, daryolar, yarim oy va yulduz oq rangda; O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i tasvirlangan lenta to‘rt xil rangda berilgan.

Gerb suveren davlatimiz ramzi sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotda keng qo‘llaniladi. O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan tuzilgan bitim va shartnomalarida, davlatlararo aloqa va diplomatik hujjatlarda O‘zbekiston Respublikasining davlat gerbi tasviri tushirilgan bo‘ladi. Shuningdek, gerb davlat ahamiyatiga molik ichki hujjatlarda, davlat korxonalari va muassasalarining muhrlarida, o‘zaro aloqa hujjatlarida ham gerb tasviri bo‘ladi. Milliy valyutamiz – so‘mda ham davlat gerbi o‘z ifodasini topgan.

1992-yil 10-dekabr O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida **«O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida»gi** 768-XII sonli Qonun qabul qilindi. Davlat madhiyasining matni O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov, musiqasi O‘zbekiston xalq bastakori Mutual Burhonov tomonidan tayyorlangan.

Davlat madhiyasi davlat mustaqilligining timsoli bo‘lib, u O‘zbekiston fuqarosida vatanparvarlik tuyg‘ularini uyg‘otadi. O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi jamoatchilik oldida ijro etilganida ishtirokchilar uni tik turib, qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib kuylaydilar va tinglaydilar.

### **O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi**

*Abdulla Oripov so‘zi*

*Musal Burhonov musiqasi*

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,  
Sen o‘zing do‘sstlarga yo‘ldosh mehribon!  
Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,

Shuhrating porlasin toki bor jahon!

*Naqarot:*

Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,  
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,  
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!  
Istiqlol mash’ali, tinchlik posboni,  
Haqsevar, ona yurt, mangu bo‘l obod!

*Naqarot:*

Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,  
Olamni mahliyo aylagan diyor!

*O‘zbekiston Respublikasi yangi Konstitutsiyaning qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.* O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritilgach, tabiiy ravishda davlat mustaqilligi va suverenitetini Konstitutsiya asosida mustahkamlash zarurati yuzaga keldi.

O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasini tayyorlash g‘oyasi dastlab I.A. Karimov tomonidan 1990-yilning mart oyida ilgari surildi. 1990-yil 20-iyun kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining II sessiyasida yangi Konstitutsiya ishlab chiqish lozim, degan xulosaga kelindi. Sessiya O‘zbekiston Prezidenti I.A. Karimov boshchiligidagi 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Komissiya tarkibiga Oliy Kengash deputatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar vakillari, davlat, jamoat tashkilotlari va xo‘jaliklarning rahbarlari, olimlar, mutaxassislar kiritilgan.

Konstitutsiyaviy komissiya O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini ishlab chiqish ustida 2,5 yil ishladi. Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishda konstitutsiyaviy rivojlanishning jahon tajribasi o‘rganildi, inson huquqlari, demokratiya va qonunchilik sohasida jahonda qo‘lga kiritilgan yutuqlar hisobiga olindi. Milliy davlatchiligidizning tajribasi, Amir Temur va boshqa allomalarimizning davlatni idora qilish sohasidagi g‘oyalari yangi Konstitutsiyaga asos qilib olindi.

Loyihaning dastlabki varianti 1991-yil oktabr-noyabrigacha tayyorlab bo‘lindi. U muqaddima, olti bo‘limga bo‘lingan 158 moddadan iborat edi. Bu loyiha hali mukammallik darajasidan ancha yiroq edi. Uning ustida yanada jiddiyroq va talabchanlik bilan ishslash zarur edi. 1992-yil bahorida esa loyihaning 149 moddadan iborat ikkinchi varianti ishlab chiqildi. 1992-yil 26-sentabrda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi loyihasi umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e’lon qilindi. Muhokama 2 oycha davom etdi. Muhokama jarayonida bildirilgan takliflar asosida tuzatishlar kiritilgan loyiha

1992-yil 26-noyabrda matbuotda ikkinchi marta e'lon qilindi. Umumxalq muhokamasi davrida 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi, ular inobatga olindi. Prezident I.A. Karimov O'zbekiston Konstitutsiyasini ishlab chiqishga rahbarlik qildi va o'zining katta hissasini qo'shdi.

1992-yil 8-dekabrda o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashning XI sessiyasi bo'ldi. Unda mamlakatning Asosiy Qonunini qabul qilish masalasini muhokama qildi. Sessiyada deputatlar loyihaga 80 ga yaqin o'zgartirish, qo'shimcha va aniqliklar kiritdilar. Shunday qilib, shu kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi «*O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish to'g'risida*», «*O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi qabul qilingan kunni umumxalq bayrami deb e'lon qilish to'g'risida*» va «*O'zbekiston respublikasining konstitutsiyasini amalga kiritish tartibi to'g'risida*»gi Qonunlarni qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi Muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadon iborat. U «*Mustaqillik Deklaratsiyasi*», «*O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida*»gi Qonunda mustahkamlangan tamoyillar va g'oyalarni o'zida to'la mujassamlashtirdi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o'rghanish jarayonida uning mohiyatini ochib beruvchi quyidagi asosiy tamoyillarini bilib olishga ahamiyat berish zarur:

*O'zbekiston Konstitutsiyasining birinchi tamoyili* – davlat suverenitetidir. 1-6-moddalarda O'zbekiston – suveren demokratik respublika, davlat xalq manfaatlariga xizmat qiladi, mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritadi, o'zbek tili davlat tilidir, deb belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyada davlatning «O'zbekiston Respublikasi» va «O'zbekiston» degan nomlari bir ma'noni anglatadi, deb belgilab qo'yilgan.

*Ikkinci konstitutsiyaviy tamoyil* – xalq hokimiyatchiligidir. 7–14-moddalarda xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbayidir, O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar uning fuqarolari tashkil etadi, davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab amalga oshiradi, deb ko'rsatilgan.

*Uchinchi konstitutsiyaviy tamoyil* – davlat hokimiyatining uch tarmoqqa bo'linishidir. O'zbekiston davlat hokimiyati tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'linishi qonunlashtirildi.

*To'rtinchchi konstitutsiyaviy tamoyil* – bu demokratiyaga sodiqlikdir. Konstitutsiyada demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqat e'lon qilinadi hamda insonparvar demokratik – huquqiy davlat barpo etish nazarda tutiladi.

*Beshinchi konstitutsiyaviy tamoyil* – Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligidir. Konstitutsiyaning 15-moddasida «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar», deb belgilab qo'yilgan.

*Oltinchi konstitutsiyaviy tamoyil* – xalqaro andazalar darajasida ifodalangan fuqarolar huquqlari, erkinliklari va majburiyatlarining tengligi va daxlsizligidir. O'zbekiston fuqarolarining huquqlari muhim xalqaro hujjatlar –

«Inson huquqlari butun jahon Deklaratsiyasi», «Iqtisodiy, sotsial va madaniy huquqlar to‘g‘risida xalqaro akt», «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida xalqaro akt» va boshqalar asosida bayon etilgan.

Konstitutsiyaning 18–52-moddalari inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag‘ishlangan. O‘zbekiston davlati tomonidan fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini oliv qadriyat sifatida tan olingan va ular himoya qilinadi. Konstitutsiya bo‘yicha har bir shaxsning o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilishi kafolatlanadi.

*Yettinchisi konstitutsiyaviy tamoyil* – qonuniylik jamiyatning bir maromda hayot kechirishini, davlat organlarining maromli faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi. Davlat, uning organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘rgandagina jamiyatda barqarorlik va taraqqiyot bo‘ladi.

*Sakkizinchisi konstitutsiyaviy tamoyil* – O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy qoidalarini aniq belgilab qo‘yilganligidadir. Asosiy Qonunning 17-moddasida O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati aks etgan.

Konstitutsiyada davlat xalqning manfaatlari va xavfsizligini ta‘minlash maqsadida boshqa davlatlar bilan ittifoq va do‘stona aloqalar o‘rtanishi hamda davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkinligi qonunlashtirilgan.

*To‘qqizinchisi konstitutsiyaviy tamoyil* – mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishdir. O‘zbekistonda o‘zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayangan holda mahalliy hokimiyat boshlig‘i bo‘lgan hokim instituti joriy etildi. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimiyatning vakillik organlari xalq deputatlari kengashlari bo‘lib, ularga viloyat, tuman va shahar hokimlari boshchilik qiladilar. Konstitutsiyaning 99–104-moddalarida mahalliy davlat hokimiyati asoslari, hokimlarni tayinlash va tasdiqlash tartiblari, ularning vazifalari belgilab berilgan.

### ***Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish – islohotlar ehtiyoji***

O‘zbekiston Konstitutsiyasining barqarorligini va uzoq muddat amal qilishini ta‘minlash maqsadida unga o‘zgartishlar va qo‘srimchalar kiritish nazarda tutilgan. Bu jarayon tabiiy va o‘tish davriga xos hodisadir. Mamlakatimizda islohotlar chuqurlashib, jamiyatni modernizatsiyalash, butun ijtimoiy hayotni yangilash jarayoni ko‘لامи va miqyosi kengaygani sayin, ular butun salmog‘i bilan Konstitutsiyada o‘z ifodasini topishi va huquqiy asosiga ega bo‘lishi lozim.

Ma’lumki, 2002-yil 27-yanvarda umumxalq referendumi o‘tkazildi. Referendumda O‘zbekiston Respublikasining ikki palatali parlamentini saylash va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy vakolat muddatini 5 yildan 7 yillik qilib o‘zgartish to‘g‘risidagi masalalarga bag‘ishlangan edi. Referendum qarorlariga ko‘ra, «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida»gi, «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida»gi, «O‘zbekiston Respublikasi Oliy

Majlisining qonunchilik palatasi to‘g‘risida»gi Konstitutsiyaviy qonunlar 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga tegishli o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritish uchun asos bo‘lib hisoblandi.

Referendum yakunlariga ko‘ra, 2003-yil 24-aprelda ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning XI sessiyasi «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida»gi Qonun qabul qildi. Qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVIII (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi), XIX (O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti), XX (Vazirlar Mahkamasi), XXIII (Saylov tizimi) boblariga o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-aprelda qabul qilingan Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga tuzatishlar kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 25-dekabrda qabul qilingan Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 77-moddasining birinchi qismiga o‘zgartirish kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 18-aprelda qabul qilgan Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-dekabrda qabul qilgan Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 90-moddasining ikkinchi qismiga (O‘zbekiston Respublikasida Prezidentni besh-yil muddatga saylash) tuzatish kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 16-aprelda qabul qilingan qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-aprelda qabul qilingan Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 80, 81, 83, 93, 107, 110 va 111-moddalariga o‘zgartishlar va qo‘srimcha kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 31-mayda qabul qilingan Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 80, 93, 108 va 109-moddalariga o‘zgartishlar kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-avgustda qabul qilingan Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 99 va 102-moddalariga o‘zgartishlar kiritilgan.

Konstitutsiyamizda belgilab berilgan qoida va tamoyillar negizida mamlakatimizda samarali milliy qonunchilik tizimi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolik jamiyatni institutlari shakllanib, hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgani, davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyati yuksalib, xalqimizning onggu tafakkuri tobora o‘sib borayotgani, ayniqsa, ahamiyatlidir. Bu fikrlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 20-iyunda qabul qilingan «*O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining yigirma besh yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida*»gi Farmoyishida qayd etilgan.

Ushbu farmoyish bilan tasdiqlangan **«O‘zbekiston Respublikasi**

*Konstitutsiyasi qabul qilinganining yigirma besh yillagini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha asosiy tadbirlar dasturi»* doirasida yurtimizda Asosiy Qonunimizning chorak asrlik to'yiga bag'ishlangan turli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Binobarin, hayotimizning Bosh qomusi bo'lmish Konstitutsiyamiz mustaqillik yillarida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bosqichma-bosqich va tizimli ravishda amalga oshirilayotgan keng qamrovli demokratik islohotlarning mustahkam yuridik manbayi hamda asosiy huquqiy kafolati hisoblanadi.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va 2017-yil 7-fevralda tasdiqlangan **2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi** 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalarida belgilab berilgan demokratik yangilanish hamda modernizatsiya jarayonlarining mantiqiy va qonuniy, izchil va uzbek davomidir. «Harakatlar strategiyasi» davlatimiz va jamiyatimizni rivojlantirishning mutlaqo yangi bosqichini boshlab berdi.

**Talabalar uchun qo'shimcha ma'lumotlar:** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida «*fuqaro*» so'zi – 66 marta, «*shaxs*» – 30 marta, «*xalq*» – so'zi esa 25 marta ishlatilgan.

## **5-mavzu. O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar (4 soat).**

### **Reja:**

1. Mustaqil O'zbekistonda milliy davlat boshqaruvi tizimi.
2. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati.
3. O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. Ijtimoiy-sherikchilik.
4. O'zbekiston Respublikasida Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining tashkil etilishi va faoliyati.

**Tayanch so'z va iboralar:** Parlament, Vazirlar Mahkamasi, sud, sud hokimiyati, demokratiya, modernizatsiya, partiya, siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati instituti, ijtimoiy-sherikchilik, mahalla.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016.
2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрга тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. –Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 1992; ...
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagagi «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5938-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagagi «O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-4602-sonli Qarori.

6. Shamsutdinov R. Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. –T.: Akademnashr, 2019.
7. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
8. O'zbekiston tarixi / R.H. Murtazayeva umumiy tahriri ostida. – T.: Yangi asr avlod, 2005.
9. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Т.: Шарқ, 2000.
10. <https://gov.uz/uz> - O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali.
11. [https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbekiston\\_Respublikasi\\_Oliy\\_Majlisi](https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbekiston_Respublikasi_Oliy_Majlisi)
12. <http://biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/62505--ijtimoiy-shriklik-fuqarolik-jamiyatini-ijtimoiy-boshqarishning-asosiy-uslubi-sifatida>
13. <http://uza.uz/uz/documents/o-zbekiston-respublikasi-mahalla-va-oilani-qo-llab-quvvatlas-19-02-2020>

*1. Mustaqil O'zbekistonda milliy davlat boshqaruvi tizimi.* Mustaqillik sharofati bilan o'zbek xalqi o'z taqdirini o'zi hal qilish, kelajagini o'zi belgilash huquqiga ega bo'ldi. O'tish davrida O'zbekiston o'zining mustaqil siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'lini belgilab oldi. Demokratik tamoyillar asosida amalga oshirilgan tub islohotlar natijasida davlat hokimiyatining turli tuzilmalarida o'zgarishlar yuz berdi.

Ma'lumki, mamlakatimizda milliy davlat boshqaruvi tizimini barpo etishning asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qayd qilingan. Xususan, bosh Qomusimizning 11-moddasiga muvofiq, «*O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi - hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi printsiplariga asoslanadi*», deb ko'rsatilgan. O'zbekistonda qonun chiqaruvchi hokimiyat – **Oliy Majlis**, ijro etuvchi hokimiyat – **Vazirlar Mahkamasi**, sud hokimiyati — **sudlar** amalga oshiradi.

### ***O'zbekiston Respublikasida parlament – Oliy Majlis faoliyati***

O'zbekiston parlamenti, oliy davlat vakillik, qonun chiqaruvchi organi. O'zbekiston 1991-yil 1-sentyabrda davlat mustaqilligiga erishgach, davlat hokimiyatining eng muhim institutlaridan biri sifatida milliy parlamentni rivojlantirishning sifat jihatidan yangi bosqichi boshlandi. Milliy parlamentarizmning eng yangi tarixi umum e'tirof etilgan uchta asosiy davrga bo'linadi.

- Birinchi davr: 1991-1994-yillar.
- Ikkinci davr: 1995-2004-yillar.
- Uchinchi davr: 2005-yildan hozirgi paytgacha.

1991-1994-yillar — O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilingan paytda, 1990-yilning 18-fevralida saylangan qonun chiqaruvchi hokimiyat organi – **Oliy Kengash** faoliyat ko'rsatmoqda edi. O'zbekiston demokratik islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lidan borib, birdaniga Oliy Kengashni tarqatib yubormadi. U 1990 – 1994-yillarda qonun chiqaruvchi hokimiyat organi sifatida faoliyat ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi o'z faoliyatini boshlagan paytda sobiq Ittifoq tuzumining qonunlari amalda bo'lgan. Mustaqil O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti dastlab ana shu qonunlar doirasida boshlandi. Shunday

bo‘lsa-da, Oliy Kengash O‘zbekistonning mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan yangi qonunchilik tizimini vujudga keltirish yo‘lidan bordi va uni qadam – baqadam shakllantira boshladi. 1990 – 1994-yillarda Oliy Kengash 200 ga yaqin qonun, 500 dan ziyod qaror qabul qildi, mamlakatimiz tarixida birinchi bor mamlakat Prezidentini sayladi, Mustaqillik Deklaratsiyasini qabul qilib, yosh davlatimizning suverenitetini mustahkamlashga qaratilgan tarixiy qonunlarni, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyani qabul qilganligi ham yurtimiz tarixidagi ulkan hodisa hisoblanadi.

### *O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning bir palatali parlament sifatida faoliyati (1995-2004-yillar).*

➤ 1-chaqiriq Oliy Majlis ko‘p partiyalilik asosda 3 turda — 1994-yil 25-dekabr, 1995-yil 8 va 22-yanvarda bo‘lib o‘tgan saylovarda saylangan va 1995-1999-yillarda faoliyat ko‘rsatgan.

➤ 2-chaqiriq Oliy Majlisga saylovlar 1999-yil 5 va 19-dekabrdan bo‘lib o‘tgan va u 2000 – 2004-yillarda faoliyat ko‘rsatgan. Bir palatali parlament 250 deputatdan iborat bo‘lib, u ishlagan davrda 10 ta kodeks, ikkita milliy dastur, 240 ta qonun, 468 ta qaror qabul qilingan, qonun hujjalariiga 1573 ta qo‘sishimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan. Bu yillarda parlament, o‘z konstitutsiyaviy vakolatlariga asoslanib, demokratik jamiyatning huquqiy asoslarini shakllantirish, bozor iqtisodiyoti prinsiplarini rivojlantirish bo‘yicha muayyan ishlarni amalga oshirdi. Qonunchilik, davlat boshqaruvi, o‘tish davri muammolarini yechishda muayyan tajribaga ega bo‘ldi.

### *O‘zbekiston Respublikasida ikki palatali parlament faoliyati:*

Xalqaro huquqiy tamoyillar va rivojlangan davlatlar tajribasiga tayangan holda davr talabi bilan siyosiy islohotlar kengaytirilib, O‘zbekistonda bir palatali parlament tizimidan ikki palatali parlament tizimiga o‘tish yo‘lga qo‘yildi. Lekin bu jarayon muayyan davrni tashkil etdi.

2000-yil 25-may kuni ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida **ikki palatali parlament tuzish g‘oyasini** ilgari surdi. Bunda Prezident Islom Karimov o‘zining «O‘zgarish va yangilanish – hayot talabi» nomli ma’ruzasida ikki palatali parlament tuzish g‘oyasini ilgari surdi. Bu demokratik islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish tamoyiliga mos ravishda respublika parlamentini ikki palatali asosda yanada takomillashtirishni nazarda tutgan g‘oyadir.

2001-yil 6 – 7-dekabr kunlari bo‘lib o‘tgan ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VIII sessiyasida ikki palatali parlament tuzish masalasi muhokama qilindi. Sessiya ikki palatali professional parlament faoliyati uchun eng zarur bo‘lgan omil – yuqori malakali siyosatshunoslar, yuristlar, iqtisodchilar korpusi shakllanib yetilganligini, jamiyatimizda huquqiy madaniyat darajasining ortganligini inobatga oldi va parlamentni ikki palatali qilib tuzish zarur, degan xulosaga keldi.

Ikki palatali parlamentni shakllantirish masalasi hayotning o‘zidan, hokimiyat tarmoqlarini aniq ajratish asosida milliy davlatchilik institutlarini yanada mustahkamlash zaruratidan kelib chiqadi. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, demokratik mamlakatlarning aksariyatida parlament ikki palatalidir. XX

asrning so‘nggi o‘n yilliklarida ikki palatali tizim parlamentarizm taraqqiyotining asosiy tendensiyasiga aylandi.

2002-yil 27-yanvarda o‘tkazilgan referendumda ikki palatali parlamentni tuzish masalasi O‘zbekiston xalqi tomonidan qo‘llab quvvatlandi. 2002-yil 12 – 13-dekabr kunlari Oliy Majlisning X sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda xalqimizning xohish-irodasi bilan «*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida*» va «*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida*» Konstitutsiyaviy qonunlarni hamda ularni amalga kiritish to‘g‘risida qarorlarni qabul qildi.

2004-yil 26-dekabr va 2005-yil 9-yanvarda Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga, 2005-yil 17-20-yanvarda Oliy Majlis Senatiga saylovlari bo‘lib o‘tdi va Oliy Majlis 2 palatadan — Qonunchilik palatasi (120 nafar deputat – quyi palata) va Senatdan (100 nafar senator – yuqori palatadan) iborat qilib shakllantirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77/117-moddalariga ko‘ra, 2015-yilning yanvar oyida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga saylovlari o‘tkazildi. Senat hududiy vakillik palatasi bo‘lib, Senat a’zolari (senatorlari)dan iborat. Senat a’zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar, davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan (jami 14 ta hududiy birlikdan) teng miqdorda 6 kishidan (14 x 6 = 84) saylandi. Senatning 16 nafar a’zosi fan, san’at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega hamda alohida xizmat ko‘rsatgan eng obro‘li fuqarolar orasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlandi. Demak, Senatning 100 (84 + 16) nafar a’zosi mavjud.

2019-yil 22-dekabr (1-tur) va 2020-yil 5-yanvar kunlari (2-tur) Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlarining saylovi bo‘lib o‘tdi. 2020-yilning 8-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a’zolari saylovi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining qo‘shma majlislarini 2020-yilning 16-17-yanvar kunlari o‘tkazish hahida qaror qilindi.

Hozirda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining quyi palatasi — Qonunchilik palatasi 150 nafar deputatdan va yuqori palatasi — Senat 100 nafar senatoridan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi parlamentlararo hamkorlikni keng yo‘lga qo‘ygan. MDH davlatlari va boshqa rivojlangan xorijiy mamlakatlar parlamentlari bilan shartnomalar tuzilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida Yevropa Ittifoqi Komissiyasining «O‘zbekistonda demokratiyalashtirish jarayonining rivojlanishiga ko‘maklashish» va «O‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada kuchaytirish» loyihalari muvaffaqiyatli bajarildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining nashrlari: «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi», «Xalq so‘zi» — «Narodnoye slovo» gazetalari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Toshkent shahrining Xalqlar do‘stligi prospektidagi binoda, Senat esa Mustaqillik maydonidagi binoda ish olib boradi.

**Ijro etuvchi hokimiyat – Vazirlar Mahkamasi.** Istiqlol yillarda davlat boshqaruv hokimiyati tubdan isloh qilindi. Avvalo, sobiq Ittifoq davrida faoliyat yuritib kelgan O‘zbekiston davlat hokimiyatining ijro qiluvchi va boshqaruvchi oliy organi – Ministrlar Sovetining maqomi tubdan o‘zgartirildi. 1990-yil 24-martda O‘zbekistonda prezidentlik lavozimi ta’sis etilgandan keyin hayotning o‘zi ijro etuvchi hokimiyat maqomini o‘zgartirishni talab qildi. 1990-yil 15-noyabrda O‘zbekiston Prezidentining **«O‘zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida»** Farmoni qabul qilindi. Farmon asosida O‘zbekiston Prezidenti huzurida Vazirlar Mahkamasi tuzildi, Prezident uning Raisi bo‘ldi. Respublikada vitse – Prezident lavozimi ta’sis etilib, uning zimmasiga Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qilish va uning ishini uyushtirish vazifasi yuklandi.

1992-yil 4-yanvarda Vitse – Prezident lavozimi tugatildi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Bosh vaziri lavozimi ta’sis etildi. Bosh vazir zimmasiga Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qilish, uning ishini tashkil etish vazifasi yuklandi. O‘zbekistonda davlat ijroiya hokimiyatini takomillashtirishda 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muhim omil bo‘ldi. Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatini dastlab 1993-yil 6-mayda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining **«O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida»**gi 818-XII sonli Qonuni asosida olib bordi.

Hozirda Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-591-tonli **«O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida»**gi Qonuniga (2019-yil 10-dekabrda qabul qilingan) muvofiq olib bormoqda. Bu qonun 10 ta bob, 50 moddadan iborat. Mazkur yangi tahrirdagi qonunga ko‘ra, **Vazirlar Mahkamasi** – O‘zbekiston Respublikasi Hukumati ijro etuvchi hokimiyatning oliy organi hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining a’zolari – O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziridan, uning o‘rinbosarlaridan, vazirlardan, davlat qo‘mitalari raislaridan iboratdir. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o‘z lavozimi bo‘yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, **«O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida»**gi Qonunda va boshqa qonunlarda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasi konstitutsiyaviy normalar doirasida va qonun hujjaligiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining butun hududida barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari Bosh vazir

tomonidan imzolanadi. Vazirlar Mahkamasi «Pravda Vostoka» gazetasining muassisi, shuningdek, «Xalq so‘zi», «Narodnoe slovo» va «Yangi O‘zbekiston» gazetalarining ham muassisi hisoblanadi. Qarorgohi — Тошкент shahrining Mustaqillik maydonidagi Hukumat uyi.

**Sud hokimiyati.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXII bob, 106-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

Mustaqillik sharofati bilan barcha sohalarda bo‘lgani kabi sud sohasida ham islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va 1993-yil 2-sentabr O‘zbekiston Respublikasining «*Sudlar to‘g‘risida*»gi 924-XII sonli Qonun (yangi tahrirda 2000-yil 14-dekabr, 162-II-son)ning qabul qilinishi mamlakatimizda sud tizimini isloh qilishning dastlabki huquqiy asosi bo‘lib xizmat qildi.

Sud tizimidagi islohotlarni ikki davrga bo‘lish mumkin.

- 1) 1991 – 2016-yillar;
- 2) 2017-yildan keyingi davr.

Birinchi davrda 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi sud tizimiga 5-yil muddatga saylanadigan quyidagi sudlar kirdi:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasining Oliy sudi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasining xo‘jalik sudi;
- viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, tuman, shahar va xo‘jalik sudlari.

1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan «*Sudlar to‘g‘risida*»gi Qonunning 1-moddasiga ko‘ra yuqoridagi sudlar tizimiga harbiysudlar ham kiritildi.

2000-yil 14-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining «*Sudlar to‘g‘risida*»gi *O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartishlar va qo‘srimchalar kiritish haqida*»gi 162-II sonli Qonuni bilan «*Sudlar to‘g‘risida*»gi Qonunning yangi tahriri tasdiqlandi. Mazkur Qonunning 1-moddasiga ko‘ra, sud tizimiga quyidagi o‘zgartishlar va qo‘srimchalar kiritildi:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi;
- harbiy sudlar;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudi, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi jinoyat ishlari bo‘yicha sudi, jinoyat ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy sudlari;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma’muriy sudlari;
- fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari;

- jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sndlari;
- tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sndlari;
- tuman (shahar) ma’muriy sndlari.

Sud tizimidagi islohotlarni birinchi davrga O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimovning farmonlari ham muhim ahamiyat kasb etdi. Masalan:

- 2005-yil 1-avgust O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «*O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risida*»gi PF-3641-sonli Farmoni. 2008-yil 1-yanvar – O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi bekor qilindi.
- 2005-yil 8-avgust O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «*Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o‘tkazish to‘g‘risida*»gi PF-3644-sonli Farmoni.

Ushbu farmonlarida har bir suda zimmasiga alohida mas’uliyat yuklanishi ta’kidlanib, bu borada suda kadrlarni tayyorlash va yagona sud amaliyotini shakllantirish mexanizmini barpo etish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilab chiqildi.

2006-yil 16-oktabrda O‘zbekiston Respublikasining «*Hakamlik sndlari to‘g‘risida*»gi O‘RQ-64 sonli Qonuni qabul qilinib, uning 1-moddasida ushbu Qonunning maqsadi O‘zbekiston Respublikasida hakamlik sndlarning tashkil etilishi va faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratligi qayd etildi.

2016-yil 4-dekabrda Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishi bilan O‘zbekistonda barcha sohalarda bo‘lgani kabi sud-huquq tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va yanada isloh qilish borasida ham keng ko‘lamdagagi chora-tadbirlar amalga oshirila boshlandi. Bu sohaga doir muhim bo‘lgan Prezident Farmonlari qabul qilindi. Bunga quyidagilarni aytish mumkin:

1. «*Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*»gi PF-4850-sonli Farmon (2016-yil 21-oktabr);
2. «*O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantrish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida*»gi PF-4947-sonli Farmon (2017-yil 7-fevral);
3. «*O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*»gi PF-4966-sonli Farmon (2017-yil 21-fevral);
4. «*Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*» PF-5482-sonli Farmon (2018-yil 13-iyul).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning PF-4850-sonli Farmoni sud sohadagi davlat siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarib, quyidagi uchta asosiy ustuvor yo‘nalishlarni belgilab berdi:

- 1) Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minalash;
- 2) Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish

kafolatlarini kuchaytirish;

3) Odil sudlovga erishish darajasini oshirish.

Farmonga muvofiq sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, kasbiy nufuzini oshirish, yuqori malakali va samarali faoliyat yurituvchi sud korpusini shakllantirish maqsadida ilk bor sudyalarining vakolat muddatlari qayta ko'rib chiqildi. Xususan, sudyalik lavozimiga birinchi marotaba 5-yil muddatga va keyin 10-yil muddatga, shundan so'ng muddatsiz tayinlash (saylash)ni nazarda tutuvchi tartib joriy etildi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, Prezident Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 21-fevraldagagi «*O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to 'g 'risida*»gi PF-4966-sonli Farmoni sud tizimi sohadagi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan davlat siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tardi. Farmoniga muvofiq, sudyalar hamjamiyatining organi hisoblanadigan va O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsipiaga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashadigan **Sudyalar oliv kengashi** tashkil etildi. Bundan tashqari, bu Farmoniga ko'ra, 2017-yil 1-iyundan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudini birlashtirish, fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sud ish yurituvi sohasida sud hokimiyatining yagona oliv organi – **O'zbekiston Respublikasi Oliy sudini** tashkil etildi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida ishlarning toifalariga qarab sudsarning ixtisoslashuvi amalga oshiriladi. Favqulodda sudlar tuzishga yo'1 qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlarini olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

2. *O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati.* Ko'ppartiyaviylik (siyosiy plyuralizm) – jamiyat hayotida ikki yoki undan ortiq partiyaning faoliyat yuritishi. Ko'ppartiyaviylik tizimini izchil rivojlantirish — davlat hokimiyatini demokratlashtirishning muhim sharti hisoblanadi. Ko'ppartiyaviylik demokratik siyosiy tizimning uzviy belgisidir. Siyosiy tizimda xilma-xil siyosiy partiyalarning mavjud bo'lishi, hokimiyat uchun kurash olib borishi yoki hokimiyatni amalga oshirishda faol ishtirok etishi siyosiy jarayonlar demokratik tartibda, o'zaro raqobatlashuv va hamkorlikda amalga oshishining garovidir.

Mustaqiliik sharofati bilan O'zbekistonda siyosiy partiyalarning shakllanishi uchun zarush shart-sharoitlar yaratildi. Ko'ppartiyaviylik prinsipi asosida partiyalar tizimi shakllantirildi. Partiya so'zi – lot. partio – bo'laman, ajrataman degan ma'noni anglatadi. Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'1 bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar.

1996-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi 337-I-sonli Qonuni qabul qilinib, siyosiy partiyalar faoliyatining

huquqiy asoslari yanada rivojlantirildi va mustahkamlandi.

Mustaqillik yillarda O'zbekistonda demokratik jamiyatning qonuniy belgisi bo'lgan ko'p partiyaviylik tizimi shakllandi, jamiyat tashkilotlari tubdan yangilandi. Hozirda O'zbekistonda 5 ta siyosiy partiya faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

**1. «O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi (O'zbekiston XDP)»** — 1991-yil 14-sentabr kuni Toshkentda O'zbekiston Kommunistik partiyasining oxirgi favqulodda XXIII s'yezdi bo'lib, unda KPSS tarkibidan chiqish va sifat jihatidan yangi siyosiy tashkilot — «O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi»ni tuzish haqidagi Bayonot qabul qilindi. 1991-yil 1-noyabr Toshkentda bo'lib o'tgan I ta'sis qurultoyida **O'zbekiston XDP** ga asos solingan. Bu quriltoyida partiyaning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. O'zbekiston XDP ning «O'zbekiston ovozi», «Голос Узбекистана» gazetalari va «Muloqot» jurnali nashr etilmoqda. Veb manzili: <https://xdp.uz/>

**2. O'zbekiston «Adolat» sotsial – demokratik partiyasi** — 1995-yil 18-fevralda Toshkentda bo'lgan I ta'sis qurultoyida tuzildi, uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. Adliya vazirligi 1995-yil 18-fevralda «Adolat» SDPni ro'yxatga olgan.

Partiyaning «Adolat» nomli ijtimoiy-siyosiy haftalik gazetasi nashr etilmoqda. Veb manzili: <https://www.adolat.uz/>

**3. O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi (O'zMTDP)** — 1995-yil 3-iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan I ta'sis qurultoyida tuzildi va partiyaning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. 1995-yil 9-iyunda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi partiyani ro'yxatga olgan. Partiyaning «Milliy tiklanish» haftalik gazetasi nashr etilmoqda. Veb manzili: <https://mt.uz/>

**4. O'zbekiston Liberal – demokratik partiyasi (O'zLiDep)** — 2003-yil 15-noyabrdan bo'lib o'tgan I ta'sis qurultoyida tuzildi. Unda partiya Nizomi va Dasturi ham tasdiqlandi.

Partiyaning asosiy maqsadi tadbirkorlar va ishbilarmonlar manfaatini himoya qilishdan iborat. O'zLiDepning «XXI asr» haftalik gazetasi nashr etilmoqda. Veb manzili: <https://uzlidep.uz/>

**5. O'zbekiston Ekologik partiyasi** — 2019-yilning 8-yanvarda bo'lib o'tgan I ta'sis qurultoyida tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 22-yanvar kuni 864-son bilan davlat ro'yxatidan o'tgan. Veb manzili: <https://ecouz.uz/>

Mustaqillik yillarda yuqorida siyosiy partiyalardan tashqari **«Vatan taraqqiyoti» partiyasi** (1992-yil 24-mayda tuzilgan; bu partiya 2000-yil 14-aprelda Fidokorlar milliy-demokratik partiyasi bilan birlashgan) va **O'zbekiston «Fidokorlar» milliy-demokratik partiyasi** (1998-yil 28-dekabrda tuzilgan; 2008-yil 20-iyunda «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi bilan birlashgan) ham faoliyat ko'rsatdi.

Ushbu siyosiy partiyalar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari, shuningdek, o'z Ustavi asosida amalga oshiradi.

3. O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. Ijtimoiy-sherikchilik. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda fuqarolik jamiyatni institutlari sifatida faoliyat ko'rsatayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarini rivojlantirish sohasida ham muhim ishlar qilindi. Shuni aytish lozimki, nodavlat notijorat tashkilotlari – «3-sektor» deb ham yuritiladi. «1-sektor» davlatga qarashli bo'lgan muassasalar (masalan, umumta'lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oly ta'lim muassasalari kabilar shular jumlasidandir), «2-sektor» esa turli ijtimoiy-iqtisodiy yo'naliishlarda faoliyat ko'rsatuvchi davlat va nodavlat tashkilotlari (masalan, birlashmalar, kichik va o'rta biznes, hususiy korxonalar shular jumlasidandir) hisoblanadi.

O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini tartibga solishda 1999-yil 14-aprelda qabul qilinga O'zbekiston Respublikasining «**Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida**»gi 763-I-sonli Qonuni muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2005 yilda 150 ta respublika va viloyatlar miqyosida faoliyat yurituvchi etakchi fuqarolik institutlari tashabbusi bilan «**O'zbekiston nodavlat-notijorat tashkilotlari Milliy assotsiatsiyasi**» tashkil topgan. 2017-yilning o'zida bu assosiasiya mamlakatimizdagi yirik jamoat tashkilotlardan biri sifatida 575 nodavlat notijorat tashkilot say-harakatlarini birlashtirgan edi. Veb manzili: <http://ngo.uz>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-maydag'i «Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyatni institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» PF -5430-sonli Farmoni nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini yanada jonlantirishda dasturilamal bo'lib xizmat qildi.

Mazkur farmonda quyidagilar ta'kidlab o'tildi: «... Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan 200 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun zarur institutsional baza yaratildi.

Bugungi kunda faoliyat ko'rsatayotgan 9 200 dan ziyod nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilishda, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishishda muhim rol o'ynamoqda». Hujjat bilan O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzurida Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha maslahat kengashi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yilda berilgan ma'lumotlariga ko'ra, davlat ro'yxatiga olingan nodavlat notijorat tashkilotlarning (NNT) umumiy ro'yxati 462 tani tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilga kelib, ularning soni 520 taga yetgan. 2020-yilning 1-yanvar holati bo'yicha davlat ro'yxatiga olingan nodavlat notijorat tashkilotlarning soni 556 taga yetdi (<https://www.minjust.uz/uz/interactive/reestr-nocommerce/>)

№	<b>2021-yil 1-yanvardagi holat bo'yicha ma'lumotlar:</b>
---	--

1.	Assotsiatsiya 91 ta.	7.	Uyushmalar 28 ta.
2.	Jamiyatlar 77 ta.	8.	Federatsiyalar 91 ta.
3.	Jamg‘armalar 80 ta.	9.	Qo‘mitalar 5 ta.
4.	Kasaba uyushmalari 15 ta.	10.	Harakatlar 3 ta.
5.	Markazlar 68 ta.	11.	Klublar 8 ta.
6.	Partiyalar 5 ta.	12.	Boshqa tashkilotlar 85 ta.
<b>Jami: 556 ta.</b>			

*Ijtimoiy-sherikchilik.* Mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab, mamlakatimizda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash maqsadida ijtimoiy-sherikchilik munosabatlarini tartibga solish, mustahkamlashga qaratilgan huquqiy asoslar yaratildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklikni kafolatlovchi asosiy qonun hisoblanadi. Konstitutsianing 37-46-moddalarida ijtimoiy huquqlar bilan birga inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlangan. Ya’ni bu moddalarda har bir shaxsning mehnati va salomatligi muhofazasi, ijtimoiy ta’minot olish huquqi oid masalalar ko‘rsatiladi. Ta’kidlash lozimki, bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida ijtimoiy muhit va xizmatlar tizimi rivojlandi, davlat pensiyasi, nafaqalar va ijtimoiy himoya kafolatlari belgilab qo‘yiladi. Ish beruvchilar va yollanma ishchilar o‘rtasidagi mehnat munosabatlari Prezident farmonlari bilan tartibga solib turildi.

Ijtimoiy-sherikchilikning huquqiy asoslarini mustahkamlashda O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrdagi 161-I-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi» muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur kodeks 1996-yil 1-martdan e’tiboran amalga kiritildi.

2014-yil 25-sentyabda O‘zbekiston Respublikasining «Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida»gi O‘RQ-376-sonli Qonuni ham qabul qilindi. Bu qonunning 3-moddasida, «ijtimoiy sheriklik» tushunchasiga huquqiy ta’rif berilgan: «Ijtimoiy sheriklik davlat organlarining nodavlat notiyorat tashkilotlari (NNT) va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari (FBJI) bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir. Davlat organlari, nodavlat notiyorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ijtimoiy sheriklik sub’ektlaridir».

Hozirda O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasida Mehnat kodeksining yangi tahriri ko‘rib chiqilmoqda. Yangi tahrirdagi kodeks loyihasi 2 qism, 34 bob va 621 moddadan iborat. Yangi kodeksda bozor iqtisodiyoti talablarini hisobga olgan holda xodimlar va ish beruvchilari manfaatlarining muvozanati ta’minlash, kichik biznes va yakka tadbirkorlik sohasiga mehnat qonunchiligini tadbiq qilishni engillashtirish, egiluvchan ish rejimlaridan keng foydalanish uchun ish beruvchilar tomonidan xodimlarni mehnat jarayoniga jalb qilishning soddarоq shakllarini tanlashga zamin yaratish (masalan, mahsulot, tovarlar va xizmatlarga ehtiyojning mavsumiy o‘zgarishida) va

boshqa zamonaviy mehnat talablarini aks ettirish ko‘zda tutilmoqda.

4. *O‘zbekiston Respublikasida Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining tashkil etilishi va faoliyati*. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagи «*Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida*» PF-5938-sonli Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasida **«Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi»** tashkil etildi. Veb manzili: <http://moqqv.uz/uz>.

Prezident Sh.M. Mirziyoyevning mazkur Farmoni bilan quyidagilar Vazirlikning asosiy vazifa va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi:

- jamiyatda “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilining to‘laqonli va samarali joriy etilishida har tomonlama ko‘maklashish, oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan yaqin hamkorligini o‘rnatish;
- oila institutini mustahkamlash bo‘yicha, eng avvalo, “Sog‘lom oila — sog‘lom jamiyat” g‘oyasini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini olib borish, notinch va muammoli oilalarga manzilli ko‘maklashishni tashkil etish;
- xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta‘minlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta‘minlash;
- xotin-qizlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo‘lgan va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga, shu jumladan nogironligi bo‘lgan ayollarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko‘rsatish;
- xotin-qizlarning bandligini ta‘minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalg etish masalalarida har tomonlama manzilli qo‘llab-quvvatlash;
- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mahalla tizimini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;
- fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o‘rni va rolini kuchaytirish, aholi kundalik muammolari bilan ishlash va ta‘sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi mavqeyini yuksaltirish;
- mahallalarda qonun ustuvorligini ta‘minlash va huquqbazarliklarning oldini olish masalalarida ichki ishlar organlari, boshqa davlat idoralari va jamoat tashkilotlarining o‘zaro hamkorligini mustahkamlash;
- yolg‘iz keksalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta‘minlangan oilalarga moddiy ko‘maklashish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni ta‘minlashda huquqiy, uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatish, nuroniylarning bilim va boy

hayotiy tajribasidan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik ruhini mustahkamlash masalalarida samarali foydalanish;

- fuqarolar yig'inlarining moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Farmonga ko'ra, 2020-yil 1-apreldan boshlab, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYo) organlari Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi tasarrufiga o'tkaziladi (<https://lex.uz/ru/docs/-4740345>).

2020-yil 18-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-4602-sonli Qarori ham qabul qilindi. Bu bilan vazirlilik faoliyatining asosiy yo'naliishlari belgilab berildi. Qarorga ko'ra, vazirlilik va uning hududiy bo'linmalarini o'zlariga yuklatilgan funksiyalarga muvofiq belgilangan tartibda quyidagi huquqlarga ega:

- Vazirlikka tegishli vazifalarni amalga oshirish uchun, zarur hollarda, davlat organlari, ilmiy muassasalar va boshqa tashkilotlarning rahbarlari hamda mutaxassislarini jalg qilish, ishchi guruhlar tuzish;
- Vazirlik vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan davlat organlari va tashkilotlardan statistik, tahliliy materiallar, xulosalar va boshqa ma'lumotlarni so'rash va olish;
- davlat organlari va tashkilotlar rahbarlariga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishi, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini ko'zlab sudsarga ariza (shikoyat) va da'volarni kiritish;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashga doir tashabbuslar bilan chiqish hamda takliflar kiritish.

Hujjat bilan, Iqtisodiyot va sanoat, Moliya, Qurilish vazirliklari, Markaziy bank, Savdo-sanoat palatasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining:

- har bir mahallada tadbirkorlik sub'yektlari – yuridik shaxslarni faol jalg qilish hisobiga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi kompleksini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida qurish;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining moddiy-iqtisodiy asoslarini mustahkamlash, aholini ish bilan ta'minlash borasidagi imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida fuqarolar yig'inlariga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ijtimoiy dasturlar, shu jumladan «Har bir oila – tadbirkor» dasturi, «Hunarmandchilikni rivojlantirish dasturi», «Yoshlar – kelajagimiz» dasturi asosida imtiyozli kreditlar ajratish to'g'risidagi takliflari ma'qullandi.

Hujjat bilan, 2020-yil 1-iyulga qadar: Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman va shaharlar markazlarida «Mahalla markazi» majmualari binolari namunaviy loyihalar va ularga qo'yilgan talablar asosida qurish (rekonstruksiya qilish, ta'mirlash), shuningdek, ularni zarur mebel

jamlanmasi, kompyuter texnikasi bilan jihozlash; «Mahalla markazi» majmularida vazirlikning hamda O‘zbekiston «Mahalla» xayriya jamoat fondining hududiy bo‘linmalarini joylashtirish ishlarini yakunlash belgilab qo‘yildi. Ichki ishlar vazirligi boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2020-yil 1-iyunga qadar «Mahalla» elektron ma’lumotlar bazasini yanada takomillashtirish, axborot xavfsizligini ta’minlash va o‘zaro ma’lumot almashinuvini joriy etish choralarini ko‘radi (<https://lex.uz/ru/docs/-4740335>).

## **6-mavzu. Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O‘zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi (2 soat).**

### **Reja:**

1. O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo‘nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari.
2. Bozor munosabatlariga o‘tishning huquqiy asoslarining yaratilishi.
3. Bozor infratuzilmasining shakllanishi, qishloq xo‘jaligidagi islohotlar, uning vazifalari va yo‘nalishlari.
4. Sanoat, avtomobilsozlik sohasining rivojlanishi.
5. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi va uni O‘zbekistonda bartaraf etish yo‘llari.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Iqtisodiy islohotlar. Bozor munosabatlari. Bozor infratuzilmasi, xususiylashtirish, kichik va o‘rta biznes, tadbirkorlik, agrar islohotlar, sanoat, mashinasozlik sanoati.

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016.
2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. –Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1992.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон – бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли. –Т.: Ўзбекистон, 1993.
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralar. –T.: O‘zbekiston, 2009.
6. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 1992; ...
7. Jo‘raev N. O‘zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. – To‘ldirilgan, qayta nashr. –T.: G‘afur G‘ulom, 2009.
8. Shamsutdinov R. Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi. –T.: Akademnashr, 2019.
9. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
10. O‘zbekiston tarixi / R.H. Murtazayeva umumiy tahriri ostida. – T.: Yangi asr avlod, 2005.
11. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Т.: Шарқ, 2000.

Ma’lumki, O‘zbekiston mustaqillikka erishgan vaqtida ijtimoiy-iqtisodiy ahvol o‘ta murakkab edi. Iqtisodiy tanglikdan taraqqiyot yo‘liga chiqarish uchun, mamlakat iqtisodiy tizimini yangilash kerak edi. Vaziyat eski mustabid

tuzumning rejalarshirilgan iqtisodiyotidan voz kechishni va uning o‘rniga yangi bozor iqtisodiyotiga o‘tishni taqozo etdi.

Jahon tajribasi ko‘rsatishicha, dunyodagi barcha mamlakatlar uchun maqbul bo‘lgan bir xil taraqqiyot yo‘li, bir xil andoza bo‘lishi mumkin emas. Har bir davlat o‘zining tarixiy taraqqiyot an’analari, milliy o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘z yo‘li, o‘z modelini ishlab chiqishi lozim. O‘zbekiston ham ana shu umumiylastiruvchi dastur va umumiylastiruvchi mezonlari asosida bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tishga imkoniyat beradigan o‘z yo‘lini tanlab oldi.

O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tish yo‘liga doir Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyil:

1. Iqtisodning siyosatdan ustunligi, uni mafkuradan holi etish.
2. Davlat bosh islohotchi va iqtisodiy o‘zgarishlarning tashabbuskori.
3. Qonun ustuvorligi, qonun oldida hammaning tengligi.
4. Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalashning ustuvorligi.
5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich, izchil ravishda o‘tish kabilar asos qilib olindi.

Ushbu tamoyillar asosida O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li nazariy va amaliy jihatdan puxta belgilab olindi. Bu barcha tamoyillar demokratik va iqtisodiy qayta o‘zgartishlar jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, hayot sinovidan o‘tdi. Amaliy islohotlar jarayonida, xususan XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarda mamlakatimizning rivojlanish strategiyasi, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasidagi faoliyatimizni jadallashtirish maqsadida bu tamoyillar Oliy Majlisning XIV sessiyasida (1999 yil 14 aprel) kuyidagi oltita ustuvor yo‘nalish bilan to‘ldirildi:

1. Mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish.
2. Jamiyat ma’naviyatini yanada yuksaltirish.
3. Kadrlar masalasi.
4. Xalq turmush darajasining izchil va barqaror o‘sishi aholini yanada kuchli ijtimoiy himoya qilish.
5. Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni ta’minlash.
6. Jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz daxlsizligini, mamlakatimiz yaxlitligini ta’minlash.

Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti O‘zbekiston davlat suverenitetining iqtisodiy asosi bo‘lib qoldi. Bu yo‘lni shakllantirish uchun iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga kirishildi. Avvalo, iqtisodiy islohotlarning qo‘yidagi strategik maqsadlari belgilab olindi:

➤ ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodini bosqichma – bosqich shakllantirish, milliy boyliklarning o‘sishini, kishilar turmushi va faoliyati uchun munosib sharoitni ta’minlaydigan kuchli va muntazam rivojlanib boruvchi iqtisodiy tizim yaratish;

➤ ko‘p ukladli iqtisodiyotni yaratish, kishining mulkdan begonalashuvini bartaraf etish, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning har taraflama o‘sishi uchun asos bo‘ladigan xususiy mulkchilikning davlat tomonidan himoya qilinishini ta’minlash;

➤ korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo‘jalik ishlariga davlatning to‘g‘ridan – to‘g‘ri aralashuvidan voz kechish, iqtisodni boshqaruvning ma’muriy – buyruqbozlik usullarini yo‘q qilish, iqtisodiy vositalar va rag‘batlantirishlarni keng qo‘llash;

➤ moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan unumli foydalanishni, raqobatbardosh tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va jahon iqtisodiyot tizimiga kirib borishini ta’minlaydigan chuqur iqtisodiy o‘zgarishlarni amalgamashirish;

➤ iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlar qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish;

➤ jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilib borish;

➤ kishilarda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o‘zgartirish, har bir kishiga o‘z mehnatini qo‘llash sohalari va shakllarini o‘zi mustaqil belgilab olishi uchun imkoniyat yaratish.

Strategik maqsadlar asosida iqtisodiy – islohotlarning asosiylari muhim tomonlari aniq belgilab olindi. Eng avvalo, birmuncha o‘tkir ijtimoiy – iqtisodiy muammolarni yaqin vaqtlar ichida hal etishga yordam beradigan asosiy tarmoqlarni rivojlantirishga e’tibor qaratildi.

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar quyidagi yo‘nalishlarda amalgamashirildi:

- mulkiy islohotlar;
- institutsional va moliya – kredit islohotlari;
- agrar islohotlar;
- tashqi iqtisodiy faoliyat islohotlari;
- ijtimoiy sohadagi islohotlar.

Bozor munosabatlariga o‘tishning dastlabki davridan respublika hukumati va Prezidenti tomonidan bir qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mustaqillikning dastlabki yillarida aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan nogironlarni ijtimoiy himoya qilish, davlat pensiya ta’mnoti, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish, fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash haqida va boshqa shu kabi respublika qonunlari, hukumat qarorlari va Prezident farmonlari qabul qilindi.

Iqtisodiy islohotlarni boshqarish tizimining barpo etilishi. Bozor infratuzilmasining shakllanishi. Iqtisodiyotni isloh qilishning asosiylari strategik maqsadi, avvalo, kishilar turmushi va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlaydigan, kuchli va muntazam rivojlanib boruvchi iqtisodiy tizimni barpo etishdir. Bozor munosabatlariga o‘tish davrining birinchi bosqichi mustaqillik kunidan milliy valyutani muomalaga kiritishgacha bo‘lgan vaqtini o‘z ichiga oladi. Birinchi bosqichda ikkita asosiy vazifa hal qilindi. Birinchidan, ma’muriy-buyruqbozlik tizimining og‘ir oqibatlari engib o‘tildi, tanglikka barham berildi va iqtisodiyot barqarorlashtirildi. Ikkinchidan, bozor munosabatlarining huquqiy

negizlari shakllantirildi.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatning huquqiy-iqtisodiy negizlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o'z ifodasini topdi. Islohotlarning birinchi bosqichida Oliy Kengash tomonidan iqtisodiyotga oid 100 dan ortiq qonunlar qabul qilindi. SHu bilan birga, xususiy lashtirish chog'ida imtiyozlar tizimi yaratildi. Xususiy lashtirilayotgan korxona mehnat jamoasining xodimlariga aksiyalarini imtiyozli shartlar bilan sotib olish imkoniyati berildi. Eskirgan asosiy fondlar, ijtimoiy infratuzilma obektlari yangi mulkdorlarga tekinga topshirildi. Qishloq xo'jaligi davlat xo'jaliklarining mol-mulki, fermalar, bog'lar va uzumzorlar imtiyozli shartlar asosida xususiy lashtirildi.

Davlat mulkini xususiy lashtirish zaruriyati bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan jamiyatni barpo etishning asosiy shartidir. O'zbekistonda chek vositasi bilan xususiy lashtirish g'oyasidan voz kechildi, davlat mol-mulki yangi mulkdorga faqat sotish yo'li bilangina mulkchilikning boshqa shakliga aylantirila boshlandi.

O'zbekiston Oliy Kengashi 1991-yil 18-noyabrda "Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to'g'risida"gi qonun qabul qildi. Dastlabki bosqich xususiy lashtirish jarayoni umumiyl uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko'rsatish korxonalarini hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlash tizimini qamrab oldi. O'zbekiston Respublikasida xususiy lashtirish jarayonini tashkil qilish va unga rahbarlik qilish maqsadida 1992-yil fevralda Davlat mulkini boshqarish va xususiy lashtirish Davlat qo'mitasi ta'sis qilindi. 1994-yilda u Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Davlat qo'mitasiga aylantirildi. Kichik xususiy lashtirish 1994-yildayoq tugallandi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishga doir 20 dan ortiq me'yoriy hujjat qabul qilindi. 1995-yili xalq xo'jaligida ommaviy xususiy lashtirishlar davri bo'ldi. 1998-yilga kelib xususiy lashtirilgan korxonalar tarmog'i keskin ko'payganligi bilan xarakterlanadi. Davlat mulkini xususiy lashtirish yuzasidan mamlakatimizda olib borilgan katta ko'lamdag'i amaliy ishlar natijasida mamlakatda ko'p ukladli iqtisodiyot va mulkdorlar sinfi vujudga keldi.

O'zbekiston Respublikasi bu davrda o'z valyutasiga ega emasligi, muomalada esa 1961–1992-yillarda chiqarilgan rublning bo'lganligi, ayrim oziq-ovqat va sanoat mahsulotlariga o'zining tannarxiga qaraganda arzon narx belgilanganligi uchun ularni respublikadan tashqariga olib chiqib ketish avj ola boshladi va mamlakatimizda aholini asosiy iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlashda qiyinchiliklar yuzaga keldi.

Milliy valyuta. O'zbekistonda milliy valyutani muomalaga kiritish uchun ma'lum vaqt, tajriba kerak edi. Shu bois, O'zbekiston mustaqillikning dastlabki payti – 1991–1993-yillarda sobiq Ittifoqdan meros qolgan rubl zonasida bo'lib turdi. O'zbekiston muomalaga yangi milliy valuta kiritish ishiga jiddiy kirishdi. 1993-yil 1-noyabrda O'zbekistonda so'm-kupon muomalaga kiritildi, uning kursi oldin muomalada bo'lib kelgan rublga tenglashtirilgan edi. O'zbekiston

rahbariyati so‘m-kuponlar asosida zarur tajriba orttirdi, haqiqiy milliy valyutani joriy qilish tadbirlarini ko‘rdi.

O‘zbekiston Prezidentining 1994-yil 16-iyunda e’lon qilingan «O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to‘g‘risida»gi Farmoniga muvofiq, 1994-yil 1-iyuldan boshlab O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so‘m muomalaga kiritildi.

Zamonaviy transport-kommunikatsiya tizimining shakllanishi. Respublika mustaqillikka erishganidan keyin transportning iqtisodiyotga va aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini tubdan yaxshilash va soha boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadida “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi (1992-yil), “O‘zbekiston avtomobil transporti” (“O‘zavtotrans”) davlat-aksiyadorlik korporatsiyasi (1993-yil, 1998-yildan O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi), “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik kompaniyasi (1994-yil) va boshqa idoralar tashkil etildi. Mamlakatda transport korxonalari davlat ishtirokidagi aksiyadorlik kompaniyalari, korporatsiyalari, ochiq turdagи aksiyadorlik va mas’uliyati cheklangan jamiyatlarga, jamoa korxonalariga aylantirildi.

Bozor infratuzilmasining shakllanishi. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma – bosqich o‘tish bozorning ko‘p bo‘g‘inli infratuzilmasini yaratishni talab qiladi. Chunki muayyan infratuzilmaga ega bo‘lmadan bozor mexanizmlari to‘liq ishlay olmaydi. O‘tish davrida bozor infratuzilmasi shakllantirish va kengaytirish borasida ko‘plab amaliy tadbirlar amalga oshirildi.

Bozor infratuzilmasi deganda bozor munosabatlarini shakllantirish va ularni samarali yuritishga xizmat qiluvchi muassasa, tashkilot va korxonalar majmuasi tushuniladi.

Nº	Infratuzilma turlari	Infratuzilma tarmoqlari
1	<b>Ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi infratuzilma</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ transport;</li> <li>➤ aloqa;</li> <li>➤ ombor xo‘jaligi;</li> <li>➤ yo‘l xo‘jaligi;</li> <li>➤ suv va energetika ta’minoti va boshqalar.</li> </ul>
2	<b>Tovar va xomashyo bozorida xizmat qiluvchi infratuzilma</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ birjalar;</li> <li>➤ savdo uylari;</li> <li>➤ auksionlar;</li> <li>➤ tijoratchilik idoralar;</li> <li>➤ reklama firmalari;</li> <li>➤ savdo – sotiq va ularni nazorat qiluvchi davlat muassasalari.</li> </ul>
3	<b>Moliya – kredit munosabatlariiga xizmat qiluvchi infratuzilma</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ banklar;</li> <li>➤ o‘zini o‘zi kreditlash idoralar;</li> <li>➤ sug‘urta kompaniyalari;</li> <li>➤ moliya kompaniyalari;</li> <li>➤ soliq undirish idoralar;</li> <li>➤ pul jamg‘armalari.</li> </ul>
4	<b>Aholiga xizmat qiluvchi (ijtimoiy)</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ uy – joy va kommunal xizmati;</li> <li>➤ madaniyat;</li> </ul>

	<b>infratuzilma</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ sog‘liqni saqlash;</li> <li>➤ aholini ishga joylashtirish xizmati (mehnat birjalari).</li> </ul>
5	<b>Axborot infratuzilmasi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan axborotlar, xabarlar va ma‘lumotlarni to‘plovchi, umumlashtiruvchi vositalar;</li> <li>➤ sotish bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalar, firmalar, maslahat idoralari, davlat muassasalari.</li> </ul>

Islohotlar davrida respublikamizda bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi infratuzilmaning asosiy bo‘g‘inlari — turli muassasalar, tashkilotlar va korxonalar majmuasi vujudga keldi. Avvalombor, **ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi** — transport, aloqa, suv va energetika ta’minoti, yo‘l va ombor xo‘jaligi tuzilmalari yaratildi.

*Agrar islohotlar.* Milliy istiqlol yillarda mamlakat hukumati tomonidan qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida mamlakat qishloq xo‘jaligida agrar islohotlar amalga oshirildi. Qishloqda amalga oshirilgan agrar islohotlar natijasida mamlakatda ko‘p ukladli xo‘jaliklar shakllantirildi. 1990-yilda aholi iste’moli uchun zarur bo‘lgan g‘allaning 82%, kartoshka, go‘sht va go‘sht mahsulotlarining 50%, sut va sut mahsulotlarining 60 foizi chetdan keltirilar edi. 1991–2000-yillarda qishloqda amalga oshirilgan tub agrar islohotlar O‘zbekiston qishloq hayotini yangi shakl va tizimga o‘zgartirib yubordi. Mamlakatda suv tanqisligi hisobga olinib, 1998-yildan boshlab paxtachilikda Isroil texnologiyalari asosida tomchilatib sug‘orish usuli, Andijonlik paxtakorlar tashabbusi bilan chigitni plyonka ostiga ekish texnologiyasi joriy etildi. Shuningdek, O‘zbekiston kanop, tamaki etishtirish sohasida ham dunyoda etakchi o‘rinlarda turadi. Chorvachilik sohasini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yildagi “Chorvachilikda xususiy lashtirishni davom ettirish va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori qabul qilindi. Natijada respublikada ishlab chiqarilayotgan go‘sht va sutning 75% ini xususiy sektor bera boshladi. O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida fermer xo‘jaliklarining tashkil topishi agrar islohotlarning asosiy mazmunini tashkil etdi. 1992-yil O‘zbekiston Respublikasi “Dehqon (fermer) xo‘jaligi to‘g‘risida” qonunning qabul qilinishi uning dastlabki bosqichini belgilab berdi. 1998-yilda O‘zbekiston Respublikasi “Fermer xo‘jaliklari to‘g‘risida”gi qonuning qabul qilinishi mazkur sohaning to‘laqonli rivojlanishi uchun huquqiy asos bo‘ldi.

Mustaqillikning dastlabki yillardan mamlakat rahbariyati oziq-ovqat muammosini o‘z imkoniyatlarimiz hisobidan hal qilish, ayniqsa, don mustaqilligini ta’minlash masalasini kun tartibiga qat‘iy vazifa qilib qo‘ydi. Mamlakatda paxta yakkahokimligiga barham berildi. Natijada oziq-ovqat xavfsizligi, g‘alla mustaqilligi ta’minlandi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida erlearning suv ta’minoti va meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha 2003–2009-yillarda 801,5 ming AQSH dollari qiymatidagi 21 ta loyiha amalga oshirildi. Amalga oshirilgan bunday tadbirlar natijasida qishloq xo‘jaligi ekinlarining

hosildorligi birmuncha oshdi, fermer xo‘jaliklarining daromadini ko‘paytirish imkoniyati kengaydi.

Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan ishlarning ko‘lamini yanada kengaytirish maqsadida bu sohada zamonaviy sug‘orish tizimlari va energiyani tejaydigan texnologiyalardan foydalanishga, tuproq unumidorligini oshirishga qaratilgan davlat dasturlari ishlab chiqildi. 2008–2012-yillarda mamlakatimizda sug‘oriladigan erlearning meliorativ holatini yaxshilash Davlat dasturi doirasida umumiy uzunligi 10 ming 500 kilometrdan ziyod xo‘jaliklararo va xo‘jalik ichidagi kollektor-drenaj tarmoqlarida jami 60 milliard so‘mga yaqin ta‘mirlash-tiklash ishlari amalga oshirildi. 2008-yildan boshlab mamlakatimizda qariyb 1 million 500 ming hektar sug‘oriladigan arning meliorativ holati yaxshilandi, erosti suvlari yuqori bo‘lgan maydonlar 415 ming hektarga yoki salkam 10 foizga qisqardi, kuchli va o‘rtacha sho‘rlangan maydonlar 113 ming hektarga kamaydi.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash mazkur soha tarmoqlarining samaradorligini oshirishga yordam bermoqda. 2010-yili respublika rahbarining tashabbusi bilan Ukraina va Polsha davlatlaridan olib kelningan, intensiv texnologiyalar asosida parvarishlanadigan pakana va yarim pakana olma, nok, olxo‘ri, gilos, shaftoli ko‘chatlari, asosan Toshkent va Samarqand viloyatlarining fermer xo‘jaliklari maydonlariga ekildi. Bunday bog‘larni yildan yilga kengaytirish, ularni dehqon fermer xo‘jaliklarida barpo etish maqsadida chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. 2017-yil holatiga ko‘ra Respublikamiz hududida jami 5,5 ming gektardan ortiq maydonda mana shunday intensiv bog‘lar barpo qilingan. Hozirda etishtirilayotgan mevalar, nafaqat qo‘shni mamlakatlarga, balki Evropa mamlakatlariga ham eksport qilinmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillarida xalqaro talablarga javob beradigan avtomobil yo‘llarini qurish, mayjudlarini xalqaro andozalarga moslashtirish rejalashtirildi. O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyoda tutgan o‘rni, sanoat va boshqa sohalarning taraqqiyoti, qo‘shni davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni jadal rivojlantirish maqsadida 1996-yildan Toshkent–Andijon–O‘sh magistralining 100 kmdan ortiq tog‘li uchastkalarida qurilish ishlari boshlandi. Qamchiq va Rezak tunnellari foydalanishga topshirildi. Almati–Bishkek–Toshkent–Termiz va Samarqand–Buxoro–Ashxabod Turkmanboshi avtomobil yo‘li, Evropani Kavkaz orqali Osiyo bilan bog‘laydigan avtomobil yo‘li (Evropa–Kavkaz–Osiyo transport yo‘lagi bir qismi)ning respublika hududidan o‘tadigan qismini ta‘mirlash ishlari amalga oshirildi. O‘zbekistonni Qozog‘iston orqali Rossiya Federatsiyasi bilan bog‘laydigan 340 kilometrli Qo‘ng‘irot–Beynov avtomobil yo‘li qurilishining birinchi bosqichi yakunlandi.

O‘zbekistonning yagona temir yo‘l tarmog‘ini vujudga keltirish bo‘yicha 1994–2001-yillarda uzunligi 700 kilometrga yaqin Navoiy–Uchquduq–Nukus temir yo‘li qurib bitkazildi. Respublika hududida barcha transport turlarining yuk va yo‘lovchilar tashish ishlarini maqbul holga keltirish, kommunikatsiyalarni jadal rivojlantirish, transportda yuk va yo‘lovchilarni tashish sohasidagi hamkorlikni kengaytirish hamda transmilliy transport

yo‘laklarini rivojlantirish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish maqsadida 2004-yilda “O‘zbekiston transport va transport kommunikatsiyalari uyushmasi” tashkil etildi. Uyushma tarkibiga “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi, “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi, O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi, “O‘zavtoyo‘l” kompaniyasi, transport kommunikatsiyalari qurilishi bilan shug‘ullanuvchi respublika loyiha va qurilish tashkilotlari kiritildi.

Bu davrda “O‘zbekiston havo yo‘llari” belgisi bilan parvoz qilayotgan samolyotlar turli davlatlarda joylashgan 40 dan ziyod aeroportga muntazam qatnay boshladi. Aviatsiya sohasida amalga oshirilgan chuqur o‘zgarishlar mamlakatimiz iqtisodiyotini mustahkamlashda, uning dunyo miqyosidagi obro‘-e’tiborini yanada oshirishda o‘ziga xos omil bo‘ldi.

Temir yo‘llar qurilishida ham bir qator ishlar amalga oshirildi. 2001-yilda 341 km bo‘lgan Navoiy–Uchquduq–Sultonzoda yo‘nalishi, 2007-yilda uzunligi 220 km bo‘lgan G‘uzor–Boysun–Qumqo‘rg‘on yo‘nalishi qurilishi tamomlangan. O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi savdo-sotiq, tranzit aloqalarining rivojlanishi va O‘zbekistonning dengiz transportiga olib chiqadigan eng yaqin yo‘l Afg‘oniston orqali o‘tishini hisobga olgan holda bir qator yangi temir yo‘l qurish loyihalari ishlab chiqildi. 2010-yil O‘zbekiston Afg‘oniston uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan loyihani amalga oshirdi, ya’ni Hayraton–Mozori Sharif temir yo‘lining 75 kilometrini qurib berdi. Bu kabi tranzit loyihalarining amalga oshirilishi O‘zbekiston tashqi savdo geografiyasining kengayishiga asos bo‘ladi.

2016-yil iyunda Angren–Pop temir yo‘li va Qamchiq tunneli ochildi. Qamchiq dovari orqali o‘tuvchi Angren–Pop tarmog‘ining qurilishi Farg‘ona vodiysi O‘zbekistonning boshqa hududlari bilan bog‘lashga imkon tug‘dirdi. Bundan tashqari, temir yo‘lning uzunligi 123,1 kilometrni tashkil etib, ushbu loyiha doirasida uzunligi 19,2 kilometrdan iborat bo‘lgan temir yo‘l tunneli qurildi.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati yo‘lovchi tashish sohasida yangi texnologiyalarni joriy etish uchun Toshkent–Samarqand yo‘nalishi bo‘ylab tezyurar yo‘lovchi tashishni tashkil qildi. Yangi tezyurar poezd nomi Afrosiyob bu – Samarqand viloyatida joylashgan qadimiy shahar sharafi ga qo‘yildi. 2011-yilning oktyabridan boshlab undan tijorat maqsadida foydalanish yo‘lga qo‘yildi. O‘sha yili ikkinchi poezd ham keltirilib, 2012-yilning mayidan o‘z qatnovini boshladi. Ushbu eng zamонави tezyurar yo‘nalish 2015-yilda Qarshi shahrigacha, 2016-yilda esa “Toshkent–Buxoro” yo‘nalishi, 2018-yili Toshkent–Xiva yo‘nalishi ishga tushirildi. Poезд maksimal tezlikni soatiga 250 kilometrgacha oshirishi mumkin.

Mustaqillik yillarda Toshkent metrosi qurilishi ham jadal sur’atda o‘sdi. 2001-yil avgustda Yunusobod yo‘nalishining 6 ta bekatdan iborat birinchi qismi foydalanishga topshirilib, yo‘lovchi tashish yo‘lga qo‘yildi. 2016-yildan boshlab Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan 7,1 kilometr bo‘lgan Toshkent metropolitenining Sergeli liniyasi qurilishi olib borilmoxda. Mazkur qarorga ko‘ra, yangi liniyani 2020-yilga qadar qurib foydalanishga topshirish ko‘zda

tutilgan. Sergeli metro liniyasi bugungi kungacha Markaziy Osiyoda qo'llanilmagan butunlay yangicha estakada usulida bunyod etilmoqda. Ya'ni mazkur yo'l ko'priksimon tarzda quriladi, poezdlar er ustida harakatlanadi.

O'zbekiston dengizga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkonini cheklangan 34 ta davlatdan biri hisoblanadi. Shu sababli havo yo'llari transporti respublika iqtisodiyotida alohida ahamiyat kasb etadi. 2012-yilga kelib aviakompaniya zamonaviy havo kemalari bilan ta'minlandi. "O'zbekiston havo yo'llari" aviakompaniyasi dunyoning 25 dan ortiq mamlakatiga parvozlarni amalgamoshirib, yiliga qariyb 75 ming tranzit yo'nalihsining havo harakatini boshqarmoqda. SHuningdek, aviakompaniya tarkibida faoliyat ko'rsatayotgan, so'nggi avlod aviatsiya texnikalariga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqasida yagona bo'lgan markazning xizmatlaridan 320 ta xorijiy aviakompaniya samolyotlariga aeronavigatsiya xizmati ko'rsatila boshlandi. O'zbekiston Milliy Aviakompaniyasi Boeing-757/767, A-320 samolyotlari, vatanimizda ishlab chiqarilgan Il-114-100 zamonaviy laynerlari, Boeing-767-300 ER yuk tashuvchi samolyotlarga ega bo'ldi. 2016-yilda yangi avlod samolyotlari Boeing-787 Dreamliner keltirildi. Xalqaro parvozlar xaritasiga e'tibor bersak, O'zbekiston MDHning barcha yirik shaharlari va jahonning AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Hindiston, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Janubiy Koreya, Singapur singari ellikka yaqin mamlakatlari bilan bevosita havo yo'llari orqali bog'landi.

"O'zbekiston havo yo'llari" aviakompaniyasi tarkibida 11 ta (Toshkent, Nukus, Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, Qarshi, Namangan, Andijon, Farg'ona, Navoiy) zamonaviy aeroportlar jahon andozalari darajasida modernizatsiya qilindi. 2017-yilda Islom Karimov nomi berilgan Toshkent xalqaro aeroporti Markaziy Osiyodagi yirik xalqaro aeroportlardan biri hisoblanadi. Buxoro, Samarqand va Urganch aeroportlari xalqaro aeroport maqomini oldi.

*Sanoat, avtomobilsozlik sohasini rivojlanishi.* Mustaqillik yillarda mashinasozlik sanoati jadal rivojlandi. Respublikamizdagi mavjud bo'lgan bir necha o'nlab mashinasozlik korxonalarini tarkibiy jihatdan qayta qurish maqsadida 1993 yilda O'zbekiston davlat mashinasozlik korxonalari uyushmasi — «O'zmashsanoat», 1996 yilda «O'zqishloqxo'jalikmash – xolding», 1998 yilda «O'zneftgazmash» korporatsiyasi, «O'zbekto'qimachimash» birlashmasi tashkil etildi.

Islohotlar davrida «O'zmashsanoat» uyushmasi tasarrufidagi 35 ta korxonaning 26 tasi ta'mirlanib, yangi texnik uskunalar bilan qayta qurildi. Toshkentdagi ekskavator, podyomnik, zenit, kompressor, asbobsozlik, agregat va abraziv zavodlari, Andijondagi «Andijonirmash» va Topoz, Samarqanddagi Kinop, Sino va boshqalar shular jumlasidandir. Ularda ekskavatorlar, ko'tarma kranlar, kompressorlar, paxtani qayta ishlash agregatlari, to'qimachilik dastgohlari, avtomatika vositalari, muzlatgichlar, mebelga ishlov berish uskunalari, uy – ro'zg'or buyumlari va boshqa texnik jihozlar ishlab chiqarilmoqda.

Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab mashinasozlik sanoatini

rivojlantirish maqsadida xorijiy davlatlarning nufuzli kompaniyalari bilan hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yildi. 1998 yilda O‘zbekiston «Amerika mobil grupp» firmasi bilan hamkorlikda qo‘shma korxona barpo etib, O‘zbekiston – Xitoy loyihasi asosida 22 va 23 ot kuchiga ega bo‘lgan ikki turdag‘i minitraktorlar va ularga uskunalar komplektlarini ishlab chiqarishni o‘zlashtirdi. Bu ixcham traktorlar fermer va dehqon xo‘jaliklari faoliyatida keng qo‘llanilmoqda.

1994-yilda «UzLzmash» O‘zbekiston – Isroil qo‘shma korxonasi barpo etilib paxta terish mashinalarining gorizontal shpindelli yangi avlodni yaratildi. Bu mashinalar tik shpindelli mashinalarga nisbatan paxta terishga qulay va samarador, tannarxi arzon bo‘lib, jahon mashinasozligining eng yangi yutug‘i bo‘ldi. Qishloq xo‘jalik mashinalarini «Keys» rusumidagi traktor va g‘alla o‘rish kombaynlari bilan to‘ldirish maqsadida AQSH «Keys Nyu–Xolland» kompaniyasi sarmoyalari ishtirokida «O‘zKeysmash» va «O‘zKeystraktor» qo‘shma korxonalarini barpo etildi. Ularda zamonaviy traktorlar va kombaynlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. «O‘zqishloqxo‘jalikmash – xolding» kompaniyasi 2001-yilda 48,2 mld. so‘mlik tovar mahsulotlari ishlab chiqardi.

Mustaqillik yillarda metallurgiya, oltin qazib olish sanoati ildam qadamlar bilan o‘sdi. Olmaliq kon – metallurgiya kombinati, Bekobodagi metallurgiya zavodi, Zarafshondagi 2 – gidrometallurgiya zavodi, CHirchiqdagi qiyin eruvchan va o‘tga chidamli metallar kombinati qayta ta’mirlandi. Bekobod metallurgiya kombinatida yiliga 100 ming tonna po‘lat shar va metall prokat tayyorlovchi yangi quvvatlar ishga tushirildi. Uchquduqda 3 – gidrometallurgiya zavodi barpo etildi. Amerikaning «Nyumont mayning» kompaniyasi ishtirokida Navoiy tog‘ – metallurgiya kombinati chiqitlaridan oltin ajratib olish bo‘yicha «Zarafshon – Nyumont» qo‘shma korxonasi qurilib, 1995 yil 25 mayda ishga tushirildi. 1991 – 2001 yillarda respublikada oltin qazib olish hajmi 1,7 baravar o‘sdi. Birgina «Zarafshon – Nyumont» qo‘shma korxonasi 1995 – 2003 yillarda 113 million tonna rudani qayta ishlab, 110 tonna yuqori sifatli oltin ishlab chiqardi. Korxonaning O‘zbekiston iqtisodiyotiga bergen samarasi 500 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Elektroenergetika sanoati ancha rivojlandi. «O‘zbekenergo» davlat aksiyadorlik kompaniyasi mustaqillik yillarda issiqlik va gidravlik elektr stansiyalarini ta’mirlash va ular tarkibida yangi bloklar barpo etish ishlarini amalga oshirdi. Sirdaryo, Yangi Angren, Toshkent, Navoiy GRES lari energetika bloklarida texnologik jarayonlarni boshqarishning avtomatlashirilgan tizimlari ishga tushirildi.

Germanianing «Simens» firmasi, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki ajratgan kredit hisobidan Sirdaryo GRESining 8 ta bloki ta’mirlandi. 2001 yilda 37 ta issiqlik va gidravlik elektr stansiyalaridan iborat O‘zbekiston energetika tizimi 55 mld kilovatt – soat yoki 1992 yilga nisbatan 10 % ko‘p elektr energiya ishlab chiqardi. O‘zbekiston energetika tizimi respublika xalq xo‘jaligi va aholisini elektr energiyaga bo‘lgan ehtiyojini to‘la – to‘kis ta’minlamoqda, iqtisodiyotni yanada rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shmoqda. SHuningdek, O‘zbekiston elektr energiyasi Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg‘onistonga ham uzatilmoqda.

*Avtomobilsozlik sanoati.* 1992-yil 24-avgustda Toshkentda Janubiy Koreyaning «DAEWOOMotors» korporatsiyasi va O‘zbekistonning «Avtoqishxo‘jmash» davlat konserni O‘rtasida Andijon viloyatining Asaka shahrida yiliga 180 ming avtomobil ishlab chiqaradigan «O‘zDAEWOOavto» qo‘shma korxonasini qurish to‘g‘risida shartnomasi imzolandi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1992-yil 5-noyabrdi Asaka shahrida «O‘zDAEWOOavto» korxonasi tashkil qilish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Uni ta’sischilari etib «DAEWOOMotors» korparatsiyasi va «O‘zavtosanoat» uyushmasi, har ikki tarafning qo‘shma korxonadagi ulushi teng miqdorda 50% dan iborat qilib belgilandi. 1993-yil mart oyida «O‘zDAEWOOavto» qo‘shma korxonasi ro‘yxatga olindi va umumiy miqdori 658 mln AQSH dollari hajmidagi qurilish ishlari boshlandi. Korxona qurilishiga ilg‘or texnologiyalar, tajribali muhandislar, o‘zbekistonlik yoshlari jalb qilindi. 1000 dan ortiq O‘zbekistonlik yoshlari Janubiy Koreyaga borib «DAEWOO» kompaniyasida ishlab, avtomobil ishlab chiqarish tajribalarini o‘rganib qaytib keldilar. «O‘zDAEWOOavto» qo‘shma korxonasining birinchi navbati 1996-yil mart oyida ishga tushirildi.

1996-yil mart oyida «Damas», iyun oyida «Tico», iyul oyida «Neksiya» rusumli avtomobillar ishlab chiqarish boshlandi. 1996 yil 19 iyulda korxonaning rasmiy ochilish marosimi bo‘ldi, unda Prezident Islom Karimov qatnashdi va «O‘zDAEWOOavto» qo‘shma korxonasi qurilishida faol qatnashganlarga minnatdorchilik bildirdi.

O‘zbekiston hukumati «O‘zDAEWOOavto» qo‘shma korxonasiga butlovchi qismlar tayyorlovchi korxonalar qurish tadbirlarini amalga oshirdi. Bu borada Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 30 mayda qabul qilingan «Avtomobillar uchun butlovchi buyumlar ishlab chiqaradigan O‘zbekiston – Koreya qo‘shma korxonalarini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarori muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Qarorga muvofiq «O‘zDAEWOOavto» uchun butlovchi qismlar tayyorlaydigan korxonalar tizimini yaratishni mahalliylashtirish dasturi ishlab chiqildi va qurilish ishlari boshlandi. 1996 – 2006-yillarda lak – bo‘yoqlar, avtomobil o‘rindiplari, ichki jihozlari, elektr kabellari, shinalar, disklar, toblangan oynalar, tovush pasaytirgichlari, yoqilg‘i baki, bamperlar va boshqa butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchi «O‘z – Dong Ko», «Yan Ko», «O‘z – Sem Yun Ko», «O‘z – Dong Von Ko», «O‘z – Tong Xong Ko», «O‘z – Karam Ko», «Elektromash», «Meridian» kabi 75 ta yangi qo‘shma korxonalar, ishlab chiqarish quvvatlari barpo etildi.

1999 yil oktyabrdi Janubiy Koreyadagi yirik «Eksimbank» bilan «O‘zDAEWOOavto» zavodini moliyaviy jihatdan qo‘llab – quvvatlash bo‘yicha bitim tuzildi va «DAEWOOMotors» kompaniyasi bilan hamkorlikda «O‘zDAEWOOavto» zavodida «Matiz» va «Neksiya – 2» rusumli avtomobillar ishlab chiqarishga kirishildi. «O‘zDAEWOOavto» zavodiga 2000 yil yanvarda «ISO - 9001» sertifikati berildi.

2001 yil avgustda «O‘zDAEWOOavto» zavodida yangi liniya barpo etilib, xalqaro andozalarga to‘la javob beradigan, har tomonlama qulay, ilg‘or dizayn va texnik afzalliklari bilan ajralib turadigan «Matiz» rusumli yangi



avtomobil ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. 2003 yilda yana bir liniya barpo etilib, «**Lasetti**» avtomobili ishlab chiqarish boshlandi. 2004 yilda 70070 dona avtomobil ishlab chiqarildi.

2007-yil oktyabr oyida «**O‘zDAEWOО**» avto negizida «**General Motors**» korporatsiyasi bilan hamkorlikda «**GM O‘zbekiston**» qo‘shma korxonasi tashkil etildi. Natijada Asakada dunyoda mashhur «**Shevrale**» avtomobillari — «**Captiva**», «**Epika**», «**Takuma**» rusumli engil avtomobillar ishlab chiqarish boshlandi.

2008-yil mart oyida AQSHning «General Motors» (25% aksiyalar) va O‘zbekistonning «O‘zavtosanoat» AJ (75% aksiyalar) tomonidan «O‘zDAEWOОавто» o‘rnida «**GM O‘zbekistan** AJ qo‘shma korxonasi tashkil qilindi. Uning maydoni 72 ga. Ishlab chiqarish maydoni – 192 ming kv. m. Andijon viloyati (Farg‘ona vodiysi), Asaka shahrida joylashgan. Filiallari: Toshkent shahrida, Xorazm viloyatining Pitnak shahri.

Ishlab chiqarish quvvati:

1. «**GM O‘zbekistan** AJ, Asaka shahri - 250 ming avtomobil;
2. «**GM O‘zbekistan** AJ, filiali, Pitnak shahri – 40 ming avtomobil;
3. «**GM O‘zbekistan** AJ filiali, Toshkent shahri – 10 ming avtomobil.

Hozirgi paytda «**GM Uzbekistan**» AJning 3 ta ishlab chiqarish maydonchasida «**Chevrolet**» va «**Ravon**» brendlari ostida avtomobillarning 10 modeli ishlab chiqariladi, jumladan, «**Matiz**», «**Spark (R2)**», «**Nexia (R3)**», «**Cobalt (R4)**», «**Lacetti (Gentra)**» - modellari Asaka shahridagi asosiy ishlab chiqarish maydonida, «**Tracker**», «**Malibu**» - modellari Toshkent shahridagi filialda «**Damas**», «**Labo**» - modellari Pitnak shahridagi filialda chiqariladi.

«**GM Uzbekistan**» etkazib beruvchilari: 100 dan ortiq, shu jumladan sub-etkazib beruvchilar. Asosiyllari — «**Uz SeMyung**», «**Uz Koram**», «**Avtokomponent**», «**Uz Dong Yang**», «**Uz Xanvu**», «**Uz Dong Von Ko**», «**Uz Dong Ju Peynt**», «**Uz Tong Xong Ko**», «**Uz Chasis**» va «**Avtooyna**».

Xodimlari: «**GM Uzbekistan**» AJ xodimlarining soni 2019 yil 1 aprel oyiga kelib, 10 000 kishidan ortiq boldi (Ushbu ma’lumotlar <https://gmuzbekistan.uz> - «**GM Uzbekistan**» AJ ning rasmiy saytidan olindi).

2018-yil dekabr oyida Nurafshon shahrida O‘zbekistondagi ilk multibrend avtosalon ochildi. 2019-yilning birinchi ikki oyida avtomobillar ishlab chiqarish o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 51 foizga oshdi.

2018-yilning oxirida «**O‘zavtosanoat**» AJ «**GM Uzbekistan**» AJning qolgan 25 % aksiyalarni sotib oldi, Asakadagi GM Uzbekistan avtomobil zavodining yagona aksioneriga aylandi. Natijada «**GM Uzbekistan**» AJ rahbariyati kompaniya nomini «**UzAuto Motors**» AJ etib qayta nomlash to‘g‘risidagi qarorni qabul qildi. Nomlanishni o‘zgartirish to‘g‘risidagi qaror 2019-yil 25-iyun kuni qabul qilindi. Ta’sis hujjalariга o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi ma’lumotlar 1 iyul kuni ro‘yxatga olindi.



Samarqand shahrida yana bir avtomobil zavodini qurishga kirishildi. 1995 yilda «**O‘zavtosanoat**» uyushmasi bilan Turkiyaning «**Kochxolding**» kompaniyasi o‘rtasida avtobus va yuk mashinalari ishlab chiqaruvchi

«SamKochavto» qo'shma korxonasini barpo etish haqida bitim tuzildi. 1996-yilda «SamKochavto» qo'shma korxonasi ro'yxatga olindi va qurilish ishlari boshlandi. Mashinalar loyihasini ishlab chiqishda xalq xo'jaligining barcha sohalarida foydalanish uchun qulay bo'lishini ta'minlash maqsadida Italiya – Ispaniya qo'shma korxonasi «Iveko»ning ixcham konstruksiyalari asos qilib olindi va «Kochxolding» kompaniyasi a'zosi — «Otayo'l» zavodida O'zbekiston sharoitiga moslab takomillashtirildi.

1999-yil mart oyida «SamKochavto» qo'shma korxonasi ishgaga tushirildi. O'sha yili foydalanishga qulay, ixcham 163 ta avtobus va 302 ta yuk avtomobili, 2000-yilda esa 483 avtobus va 102 ta yuk avtomobili ishlab chiqarildi. Respublika aholisi uchun «Otayo'l» rusumli avtobuslar asosiy transport vositasiga aylandi.

*Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi va uni O'zbekistonda bartaraf etish yo'llari.* 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlangan edi. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning «O'zbek modeli» maqomiga ega bo'lgan mashhur besh tamoyil istiqlolning o'tgan davrida o'zining iqtisodiy, siyosiy, ilmiy va amaliy jihatdan asosli ekanilagini ko'rsatdi. Ammo, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi mamlakatimizning mavjud imkoniyatlari, omillari va resurslarini uana bir bor jiddiy ravishda ko'rib chiqib, aniq istiqbolni belgilashni taqozo etdi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimovning «**Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralarini**» deb nomlangan konseptual ahamiyatga ega bo'lgan kitobi ayni ana shu muammoning yechimiga bag'ishlangan. Kitob quyidagi ikki qismdan iborat: birinchisi — jahon moliyaviy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri hamda uning oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillar; ikkinchisi — bank tizimini qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish — O'zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon bozorida yangi marralarga chiqishning ishonchli yo'lidi.

Kitobda ko'tarilgan masala va umumdunyoviy muammoning ilmiy, nazariy hamda amaliy tahlili natijasida O'zbekistonda 2009 – 2012-yillarda jahon iqtisodiy inqirozi oqibatlarini bartaraf etish, mamlakatimiz barqaror rivojlanishini ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda aniq maqsadlarni ko`zlagan rejalarini amalga oshirishga doir dastur ishlab chiqildi. Ushbu dasturda quyidagi yo`nalishlarda aniq, qat`iy va yuksak ma`suliyat bilan faoliyat yuritish belgilangan:

- mamlakatimizda qabul qilingan 2009 – 2012-yillarda jahon iqtisodiy inqirozi oqibatlarining oldini olish va bartaraf qilish bo'yicha inqirozga qarshi dasturni amalga oshirish, shu asosda iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli barqaror sur'atlarini va iqtisodiyotning muvozanatli rivojlanishini ta'minlash;
- tarkibiy o'zgartirishlarni davom ettirish va iqtisodiyotni diversifikasiyalash, buni birinchi navbatda xalqaro sifat standartlariga javob beradigan, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan raqobatbardosh

mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash yo‘li bilan amalga oshirish;

- qishloq turmush darajasi sifati va qiyofasini tubdan yangilashga, qishloq joylarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini jadal rivojlantirishga, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o‘rni va ahamiyatini tubdan qayta ko‘rib chiqishga, fer-mer xo‘jaligini rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan uzoq muddatli, o‘zaro chuqur bog‘langan chora-tadbirlar keng kompleksini amalga oshirish;
- aholi bandligini ta’minlash, uning turmush darajasini oshirishning eng muhim omili sifatida xizmatlar ko‘rsatish sohasi va kichik biznesni jadal rivojlantirish;
- mamlakatni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishning eng muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish;
- banklar ishini yanada takomillashtirish, aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bo‘sh mablag‘larini tijorat banklarida depozitlarga jalg qilishni rag‘batlantirish.

## **7-mavzu. O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy o‘zgarishlar (2 soat).**

### **Reja:**

1. Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi.
2. Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan davlat siyosatini takomillashtirish.
3. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy himoya va manzilli ijtimoiy yordamni amalga oshirishdagi ishtiroki.
4. O‘zbekiston Respublikasi «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi Qonunning mazmun-mohiyati.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Ijtimoiy siyosat, ijtimoiy ta’mnot, ijtimoiy himoya, ijtimoiy yordam, nodavlat notijorat tashkilotlari, korrupsiya.

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016.
2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юргатаракқиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. –Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари, тараққиёт кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1997.
4. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 1992; ...
5. Jo‘raev N. O‘zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. – To‘ldirilgan, qayta nashr. –T.: G‘afur G‘ulom, 2009.
6. Shamsutdinov R. Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi. –T.: Akademnashr, 2019.
7. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
8. O‘zbekiston tarixi / R.H. Murtazayeva umumiyl tahriri ostida. – T.: Yangi asr avlod, 2005.

9. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Т.: Шарқ, 2000.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, jamiyatda bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida aholini ijtimoiy himoyasini ta’minlash davlat siyosatining bosh yo‘nalishi bo‘lib qoldi. Binobarin, mamlakatda o‘tkazilayotgan barcha islohotlarning asl maqsadi insonga munosib turmush sharoitlarini vujudga keltirishdir. Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan, jahon tan olgan besh tamoyilning muhim qismi aqolini kuchli ijtimoiy himoyalash ekanligi ham shu bilan bog‘liqdir.

O‘zbekiston hukumati ana shu besh tamoyil asosida o‘tish davrida aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan zarur choralar ko‘rdi. Bu choralar odamlarning turmush darajasini keskin pasayib ketishining oldini olishda muhim rol o‘ynadi hamda respublikada osoyishtalik va barqarorlikni saqlash omili bo‘ldi. Masalan, mustaqillikning dastlabki murakkab, iqtisodiy tanglik yillarida odamlarning turmush darajasini normallashtirish maqsadida davlat yo‘li bilan boshqarishning ko‘pdan-ko‘p usullari va uslublaridan foydalanildi. Jumladan, miqdori doimo o‘zgartirib turilgan ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar, turli nafaqalar, kompensatsiya to‘lovleri tarzidagi be-vosita pul to‘lovleri, imtiyozlar va turli dotatsiyalar tarzida-gi to‘lovlarini joriy qilish usuli keng qo‘llanildi.

1991-1996-yillarda eng kam ish haqi va pensiyalardan soliq olinmaydigan bo‘ldi. Korxonalarining o‘z xodimlariga ijtimoiy yordam ko‘rsatish sohasidagi xarajatlaridan bir qismi budget mablag‘lari hisobidan qoplanib turildi. Keng iste’mol mollari va xizmatlarning ko‘pgina qismi bo‘yicha narhlaridagi tafovutlarning o‘rni qoplandi. Shu bilan birga qo‘sishma ijtimoiy imtiyozlar ham joriy qilindi. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va yolg‘iz pensionerlar uchun bepul nonushtalar, 2 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun bepul ovqat, maktab o‘quvchilari va talabalar uchun ovqatning arzonlashtirilishi kabi imtiyozlar berildi. Shuningdek, kupgina toifadagi fuqarolarga turarjoyi shaxsiy mulk qilib bepul berildi, ba’zi turdag'i kommunal xizmatlar haqini to‘lashda yengilliklar joriy etildi va hokazo.

Aholining ijtimoiy himoyalanishiga muntazam e’tibor berar ekan, respublika hukumati islohotlarning birinchi bosqichidagi tajriba asosida inson va oila hayotining barcha sohalarini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarning butun bir tizimini shakllantirishga erishdi. Aytish mumkinki, mustaqillik yillarida narhlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi keskin ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o‘rtacha darajasini muntazam oshirish ijtimoiy qimoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng ustun yo‘nalishlardan biri bo‘lib keldi va hozirgi kunda ham shunday bo‘lib qolmoqda. Bu yo‘nalish aholining barcha tabaqalarini istisnosiz qamrab oldi va islohotlarning lastlabki davrida keng miqyosda qo‘llanildi. Boshqa mamlakatlardan farq-li o‘laroq, O‘zbekistonda daromadlar nisbatini o‘zgartirish ish haqi, pensiyalar, stipendiyalarning, jamgarma banklaridagi aholi omonatlari stavkalarining eng oz miqdorlarini bir vaqtning o‘zida markazlashtirilgan tarzda qayta ko‘rib chiqish yo‘li bilan amalga oshirildi.

1992-1998-yillar mobaynida ish haqi va pensiyalarning eng kam miqsori bir necha bor oshirildi. Shuni aloxida ta'kidlash kerakki, istiqlol yillarida eng kam ish haqi va boshqa to'lovlar odatda, oldindan ko'paytirib kelindi, narhnavo o'zgarishi bilan boglab olib borildi, bu esa aholining to'lov qobiliyati saqlanib qolishini ta'minladi va turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'yadi.

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ishchi va xizmatchilarning oylik o'rtacha ish haqi birgina 1996-yil dekabriga kelib, 1995-yil dekabriga nisbatan 2,6 barobarga o'sdi. Daromadlar mikdorini o'zgartirish orqali aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimida 1993-yilda joriy etilgan yangi Yagona tarif setkasi ham aholi ijtimoiy himoyasida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu chora barcha toifadagi xodimlarning ish haqi miqdorlarini tarif koeffitsiyentlari orqali eng kam ish haqi vositasi bilan bevosita o'zaro boglash imkonini berdi. Natijada ish haqini oshirish yo'li bilan aholining o'rtacha ish haqi, pul daromadlari o'z-o'zidan osha bordi. Shu bilan birga respublikaning ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish chora-tadbirlari ko'rilganligi ham aholini ijtimoiy jihatdan himoyalashning ikkinchi eng muhim yo'nalishi bo'ldi.

Respublikada narh-navoni erkinlashtirish sohasida qo'shni mamlakatlarga nisbatan bir muncha mo'tadil siyosat o'tkazilganligi iste'mol bozorini himoyalash zaruratini keltirib chiqardi. Bu O'zbekiston rubl mintaqasida turgan bir paytda niqoyatda muhim edi. Aksariyat respublika ehtiyojlari uchun valyutaga harid qilingan un, o'simlik moyi, qand-shakar va boshqa taqchil mahsulotlar respublika tashqarisiga olib chiqib ketilishi hollari yuz berdi.

Iste'mol bozori barbod bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun O'zbekistonda ishlab chiqarish yaxlit tizimini vujudga keltirishga hayotiy muhim masala sifatida qaraldi, mahsulotlarni tashqariga olib chiqib ketilishini bojxonalar orqali qatiy nazorat qilish va yuqori boj to'lovlarini joriy etish yo'li bilan amalga oshirildi. Dastlab. murakkab bir paytda iste'molollarini sotib olish uchun bir marta, so'ngra esa ko'p marta ishlatiladigan kuponlarni muomalaga kiritish, kunda-lik zarur tovarlarning cheklangan turlarini meyorlangan tarzda sotishni tashkil etish ko'zda tutilgan edi. Bu tizim o'zini to'la oqladi. U bozorni pishiq-puxta himoya qilibgina qolmay, savdo tarmog'iga barcha zarur oziq-ovqat maxsulotlarini va kunda-lik harid mollarini muntazam ravishda chiqarib turishni ta'minlash, ularni iste'mol qilish hajmlarini kamaytirmaslik imkonini berdi.

O'tish davri qanchalik murakkab bo'lmasin, bu tizim respublikaning barcha aholisiga hayotiy muhim mahsulotlarni iste'mol qilish va xizmatlardan bahramand bo'lish sohasida ishonchli ijtimoiy kafolatlarni ta'minlab berdi. 1992-1996-yillarda non va go'sht mahsulotlari, sut, qand-shakar, o'simlik moyi, kirsovun, bolalarga kerakli ayrim mollar, kommunal va transnort xizmatlari uchun dotatsiyalar qisman saqlab qolindi. Shu tufayli daromad darjasini turlichay bo'lgan oilalar bulardan bir qadar foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Islohotlarning dastlabki bosqichida sobiq Ittifoqning ko‘pgina mamlakatlarida aholining asosiy qismi yoppasiga qashshoqlashgan bir paytda O‘zbekistonda amalga oshirilgan tadbirlar muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Odamlarning islohotlarni jadallik bilan olib borishga ishonchini kuchaytirdi.

Ayni vaqtda respublikada iste’molchilarining manfaatlarini himoya qilishning mutlaqo yangi tizimiga o‘tishga tayyorgarlik ishlari olib borildi. Yangi tizimning mohiyati ichki narhlarni jahon narhlari darajasiga tez tenglashtirib olish va aholining daromadlarini shunga muvofiq ravishda oshirishni ko‘zda tutadi. Bunday islohot sharoitida ijtimoiy himoyaning yangidan-yangi shakllarini qidirib topishni taqozo etadi. Jumladan, milliy valyutani muomalaga kiritish, uning ichki almashuvini ta’minalash sohasida amalga oshirilgan tashkiliy va iqtisodiy chora-tadbirlarning ko‘rilishi ayniqsa katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Mamlakatda ichki bozorni, xalqimiz manfaatlarini faqat baquvvat milliy valyutagina himoya qilishi mumkin, degan qat’iy xulosaga kelindi. Buning uchun milliy valyutamiz, asosan, o‘zimizda ishlab chiqarilgan zarur miqdordagi tovar bilan, keng eksport faoliyati hisobiga to‘plangan salmoqli valyuta-zahiralari bilan mustahkamlangan bo‘lishi kerak edi. Milliy valyuta joriy etilgach, islohotlar birinchi bosqichining oxirlariga kelib (1995-yil), oziq-ovqat mahsulotlarini meyorlangan tarzda sotishdan butunlay voz kechish va erkin narhlarga o‘tish imkoniyati tugildi.

Meyorlash tizimiga barham berish tadbirlari aholi ta’mintonini yomonlashtirmasdan, unchalik qiyinchiliklarga yo‘l quymasdan o‘tkazildi. Erkin narhlarga esa «esankirashlarsiz» o‘tishga muvaffaq bo‘lindi. Buni O‘zbekistondagi iqtisodiy islohotlar birinchi bosqichining muhim natijasi deb baholash mumkin. Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab aholining kam ta’minalangan qismini qo‘llab-quvatlash borasida ko‘rilgan chora-tadbirlar, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi. Ijtimoiy himoya - keng ma’noda - mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta’minalaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui; tor ma’noda - davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta’minalmagani tufayli yordamga, ko‘makka muhtoj fuqarolar to‘g’risidagi g’amxo‘rliги. Uning asosiy maqsadi aholi farovonligining to‘xtovsiz yaxshilanishini ta’minalash, aholi qatlamlarining ta’lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta’minalashga yordam berishdan iborat.

O‘zbekistonda yuritilayotgan ijtimoiy siyosat jamiyatning negizi bo‘lgan oilani mustahkamlash va tinch-totuvligini ta’minalash. oilada ayolning mavqeyini ko‘tarish maqsadi bilan uyg‘unlashgan. Shu maqsadda mamlakatimizda 1997-yil – «Inson manfaatlari yili», 1998-yil – «Oila yili», 1999-yil – «Ayollar yili», 2000-yil – «Sog‘lom avlod yili», 2001-yil – »Onalar va bolalar yili», 2002-yil – «Qariyalarni qadrlash yili», 2003-yil – «Obod mahalla yili», 2004-yil – «Mehr va muruvvat yili», 2005-yil – «Sixat-salomatlik yili», 2006-yil – «Xomiylar va

shifokorlar yili», 2007-yil – «Ijtimoiy himoya yili», 2015-yil – «Keksalarni e’zozlash yili», 2016-yil – «Sog‘lom ona va bola yili» deb e’lon qilinib, bu yillarda oilani mustahkamlash, ayollarning jamiyatdagi o‘rnini ko‘tarish, sog‘lom, oqila xotin-qizlar avlodini voyaga etkazish, qariyalarni e’zozlash, go‘zal diyorimizdagi barcha mahallalar faoliyatini yanada jonlantirish yo‘lida xayrli tadbirlar amalga oshirildi.

«O‘zbekiston Respublikasi aholisini 2010-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan ijtimoiy himoya tizimining yagona konsepsiyasi» ishlab chiqilgan. Unda Respublikada mavjud bo‘lgan ijtimoiy himoya va ijtimoiy yordam, pensiya ta’minati, bolalarga nafaqa to‘lash, yolg’iz keksalarga xizmat ko‘rsatish, nogironlarni protez-ortopediya buyumlari, harakatlanish vositalari bilan ta’minalash, shuningdek, tibbiy, mehnat va ijtimoiy jihatdan tiklash, tibbiy xizmat, ishsizlarni ishga joylashtirish va moddiy yordam berish, bir yo‘la (nomuntazam) yordam tizimlari asoslarida amalga oshirilishi belgilangan.

Aholi salomatligiga g‘amxo‘rlik qilish O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismidir. Istiqlol yillarida aholining keng qatlamlariga tibbiy xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi, tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati oshdi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «OITS bilan kasallanishning oldini olish to‘g‘risida» (1991-yil), «Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida» (1992- yil), «Fuqarolar salomatligini muhofaza qilish to‘g‘risida» (1996-yil 29-avgust), «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida»gi (1997-yil) qonunlari aholi salomatligini saqlashning huquqiy kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda aholiga ijtimoiy himoya va manzilli ijtimoiy yordamni amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari muhim rol o‘ynamoqda. Bunda Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyilining izchil amalga oshirilishi muhim omil bo‘lmoqda. Mazkur tamoyilga binoan nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, kasaba uyushmalari, jamoat birlashmalari, jamg‘armalar va mustaqil ommaviy axborot vositalarini shakllantirish hamda rivojlantirishning mustahkam qonunchilik va me’yoriy-huquqiy bazasi yaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq mamlakatimizda ijtimoiy hayotni faollashtirishga doir keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda, fuqarolarga davlat va jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqi berilgan, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati muvofiqlashtirilmoqda, ularning huquq va qonuniy manfaatlari ta’milanmoqda. Bu, o‘z navbatida, NNTlarni jadal rivojlantirish, ularning demokratik qadriyatlar, inson huquqlari, erkinligi va qonuniy manfaatlarini himoya qilishida muhim omil bo‘lmoqda.

Konstitutsiyamizning fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga oid qoidalari amal qilgan holda, «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyilini izchil amalga oshirishning huquqiy, tashkiliy asosi bo‘lgan ikki yuzdan ziyod qonun, davlat dasturlari qabul qilindi. «O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida», «O‘zbekiston Respublikasida jamoat fondlari to‘g‘risida», «Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida»,

«Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida», «Homiylit to‘g‘risida»gi va boshqa qonunlar shular jumlasidandir.

Davlatimiz rahbarining 2005-yil 23-iyunda qabul qilingan «O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko‘maklashish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori mustaqil NNTlarni tashkil qilish, ijtimoiy va gumanitar masalalarni hal etishda ularning rolini kuchaytirishda muhim omil bo‘lmoqda. Mazkur hujjatda vazirlik va idoralar, joylardagi davlat hokimiyati organlari zimmasiga fuqarolik jamiyati institutlarining fuqarolar huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning farovonligini yuksaltirish, mamlakatimizni yanada sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy rivojlantirishga qaratilgan faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash vazifasi yuklatilgan.

2008-yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining «Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qo‘shma qarorining qabul qilinishi natijasida bu jarayon yanada jadallahshdi. Ushbu hujjatga muvofiq mamlakatimizning qonun chiqaruvchi oliy organi huzurida Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi hamda ushbu fond mablag‘larini boshqarish bo‘yicha Parlament komissiyasi tashkil etildi.

Bularning barchasi davlat byudjetidan «uchinchchi sektor»ni qo‘llab-quvvatlash uchun yo‘naltirilayotgan moliyaviy mablag‘larni ochiq-oshkora, manzilli va, eng muhimi, demokratik taqsimlashni ta’minlashga xizmat qilmoqda, NNTlar faoliyatining tashkiliy-texnik va iqtisodiy asosini mustahkamlab, ularning barqaror hamda mustaqil tuzilma sifatida yanada rivojlanishiga ko‘maklashmoqda. Masalan, 2008 – 2013-yillarda grant tanlovlарини о‘tkazish, subsidiyalar ajratish va ijtimoiy buyurtmalarni joylashtirish orqali fuqarolik jamiyati institutlarining turli loyihalarini moliyalashtirish uchun davlat byudjetidan 28,8 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ajratildi. O‘zbekiston Respublikasining 2007-yilda qabul qilingan «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonuni nodavlat notijorat tashkilotlarining ustavda belgilangan faoliyatni amalga oshirish maqsadida zarur axborotni olish uchun davlat organlariga so‘rov bilan murojaat qilish huquqi, davlat organlarining g‘ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining g‘ayriqonuniy harakatlaridan (harakatsizligidan) himoyalanish huquqini, jamiyatdagi NNTlar maqomini yanada mustahkamladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli demokratik islohotlar natijasida jamoat birlashmalarining o‘rni va ahamiyati tobora oshib bormoqda. Hozirda jamoat birlashmalarining soni yanada oshib bormoqda. Bunga respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan turli jamoat birlashmalar, ya’ni jamiyatlar, assotsiatsiyalar, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, harakatlar, jamg‘armalar, federatsiyalar, markazlar, uyushmalar va boshqalarni misol qilish mumkin.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda aholining keng qatlamlarini birlashtiruvchi jamoat birlashmalar, nodavlat va notijorat tashkilotlari shakllandi va faoliyat ko‘rsatmoqda. Shular jumlasiga O‘zbekiston kasaba

uyushmalari Federatsiyasi, «O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi», «O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash «Nuroniy» jamg'armasi, «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi, xalqaro xayriya jamg'armalaridan «Sog'lom avlod uchun» «EKOSAN» va «Meros», «Navro'z» va «Mahalla» xayriya jamg'armalari, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash «Ulug'bek» va «Iste'dod» jamg'armalari», «Mehr-shafqat va salomatlik», «Alisher Navoiy», «Amir Temur», «Abdulla Qodiriy» jamg'armalari va boshqalar kiradi.

Korrupsiya – mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jinoyat. «Yuridik atamalar qomusiy lug'ati»da korrupsiya tushunchasiga «davlat funksiyalarini bajarish vakolatiga ega bo'lgan (yoki ularga tenglashtirilgan) shaxslarning noqonuniy tarzda moddiy va boshqa boyliklar, imtiyozlarni olishda o'z maqomi va u bilan bog'liq imkoniyatlardan foydalanishi, shuningdek, bu boylik va imtiyozlarni jismoniy yoki yuridik shaxslar qonunga xilof ravishda egallashiga imkon berishi», deb ta'rif berilgan.

1979-yil 17-dekabrda qabul qilingan huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor kodeksida: «Korrupsiya tushunchasi milliy huquqda belgilanishi lozim», deb qayd etilgan, lekin mazkur hodisaning namunaviy ta'rifi keltirilgan: «...mansabdor shaxs o'z mansab vakolatlari sohasida har qanday shakldagi haq evaziga mazkur haqni beruvchining manfaatlarida, lavozim yo'riqnomasi qoidalarini buzgan holda yoki buzmasdan muayyan harakatlarni bajarishi yoki harakatsizligi».

BMTning xalqaro miqyosda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Ma'lumotida shunday deyilgan: «Korrupsiya – bu shaxsiy maqsadlarda naf ko'rish uchun davlat hokimiyatini suiiste'mol qilish». Korrupsiya tushunchasiga berilgan shunga o'xshash ta'rifga Jahon bankining hozirgi dunyoda davlatning roliga bag'ishlangan hisobotida ham duch kelish mumkin: korrupsiya – bu «shaxsiy naf ko'rish yo'lida davlat hokimiyatini suiiste'mol qilish».

Bugungi kunda korruptsiyaga qarshi kurashishning yaxlit tizimi yaratilgan. Ayniqsa, 2017-yil 3-yanvarda O'zbekiston Respublikasining **«Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»**gi O'RQ-419-sonli Qonunini qabul qilinishi davlat apparati va fuqarolik jamiyati institutlarining mazkur xavfli illat bilan kurashdagi kuch hamda imkoniyatlarini birlashtirishga zamin yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2017-yil 2-fevraldag'i qarori bilan o'z ichida 51-bandni qamrab olgan **PQ-2752-sonli «2017 – 2018-yillarga mo'ljallangan korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturi»** qabul qilindi. Mazkur hujjalalar mamlakatda korruptsiyaga qarshi kurashish jarayonini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishga imkoniyat yaratdi. Qaror bilan korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi va hududiy idoralararo komissiyalar tuzildi. Yuqorida nomi keltirilgan Davlat dasturining birinchi yo'nalishi ijrosi doirasida 9 ta qonun va bitta davlat dasturi loyihasi ishlab chiqilgan. Shundan uchta qonun loyihasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga, to'rtta qonun loyihasi Hukumatga kiritilgan. Ikkiasi esa vazirlik hamda idoralar bilan kelishish bosqichida turibdi. **«Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida»**gi Qonun esa joriy yil sentyabr oyidan kuchga kirdi.

Aholining huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korruptsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha ham faol ish olib borilayapti. Jumladan, davlat va jamiyat hayotining barcha sohasida korruptsiyaning oldini olish, ushbu illatni o‘z vaqtida aniqlash, chek qo‘yish hamda unga sabab bo‘layotgan omillar va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha besh mingdan ortiq bevosita muloqotlar, aholi bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari hamda boshqa tadbirlar o‘tkazildi. 200 mingdan ortiq plakatlar tayyorlanib, joylarga tarqatildi. Prokuratura organlari tomonidan aholi, tadbirkorlar bilan 850 dan ortiq turli tadbirlar o‘tkazildi, 5 ta ijtimoiy videorolik tayyorlandi.

Hozirda korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha keng ko‘lamli tadbirlar o‘z natijasini berayapti. Ijtimoiy tarmoqlarda, o‘zaro muloqotlarda odamlarning fikr-mulohazalari, matbuot faollashgani ham buning yaqqol tasdig‘idir. Bosh prokuratura boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari Bahrom Qobilovning bildirishicha, O‘zbekistonda mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan korruptsiya jinoyatlari joriy yilda 2016-yildagiga nisbatan 33 foiz kamaydi. Korruptsiyaga qarshi kurashishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlatimiz rahbari Oliy Majlisga yo‘llangan Murojaatnomada korruptsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan ko‘ra barvaqt oldini olishga o‘tish kerakligini ta’kidlab, unga qarshi kurashishga mas’ul bo‘ladigan hamda parlament va Prezidentga hisob beradigan alohida organ tuzishni taklif qilgan edi. Shuningdek, ushbu mustaqil organni tashkil etish yuzasidan 2020-yil 1-mayga qadar tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqilishi haqida «2017 – 2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi»ni «Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi»da ham belgilandi. Ta’kidlash joizki, korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mustaqil organlar tashkil etilganligini dunyo tajribasida ham ko‘rishimiz mumkin. Xususan, Singapur, Koreya Respublikasi, Hindiston kabi davlatlar korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi alohida ixtisoslashtirilgan organlar tashkil etishda katta tajribaga egalar.

Mamlakatimizda ham korruptsiyaga qarshi qat’iy kurashadigan mustaqil organning tashkil etilishi korruptsiya illatining turli ko‘rinishlariga barham berishda muhim ahamiyat kasb etadi hamda bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarning yanada samarali bo‘lishiga xizmat qiladi. Zero, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, biz korruptsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o‘tishimiz kerak. Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalg qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a’zolari, ta’bir joiz bo‘lsa, «halollik vaktsinasii» bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz.

## **8-mavzu. Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyot (2 soat). Reja:**

1. Mustaqillik yillarida ma’naviy va ma’rifiy hayot.
2. Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlar va tarixiy shaxslarga bo‘lgan e’tibor.
3. O‘zbekistondagi tarixiy shaharlarning yubileyalarini xalqaro miqyosda keng nishonlanishi.
4. Madaniyat va san’at sohasi, shuningdek, milliy sport turlarining rivojlanishi.
5. Beshta tashabbus va uning yuksak ma’naviy madaniyatni ta’minlashdagi o‘rni.
6. O‘zbekistonda millatlararo va dinlararo munosabatlardagi barqarorlikni ta’minlash borasidagi davlat siyosati.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Ma’naviyat, ma’rifat. Tarixiy shahar, madaniyat, san’at, milliy sport. «Beshta tashabbus». Millatlararo munosabatlar, dinlararo munosabatlar, konfessiya, tolerantlik, bag’rikenglik.

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баходир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2018.
3. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
5. Каримов И.А. «Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожидаги роли» мавзусидаги халқаро конференцияда сўзланган нутқи // Халқ сўзи. 2014 йил 15-16 май.
6. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 1992; ...
7. Jo‘raev N. O‘zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. – To‘ldirilgan, qayta nashr. –Т.: G‘afur G‘ulom, 2009.
8. Shamsutdinov R., Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi. –Т.: Akademnashr, 2019.
9. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
10. O‘zbekiston tarixi / R.H. Murtazayeva umumiy tahriri ostida. – Т.: Yangi asr avlodi, 2005.
11. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Т.: Шарқ, 2000.
12. <https://strategy.uz/index.php?news=1014>

Mustaqillik sharofati bilan O‘zbekiston ma’naviy hayoti, madaniy taraqqiyoti uchun yangi davr boshlandi. Istiqlol tufayli xalqimiz ma’naviyat zug‘umlaridan ozod bo‘ldi, erkin fikrga milliy, tiklanishga keng yo‘l ochildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab milliy istiqlol g‘oyasi va mafkuraviy masalalarining haqiqiy ilmiy nazardan ishlash, tadqiq etish dolzarb masala bo‘lib kelmoqda. Milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurani yaratishni taqozo etuvchi sabablar – bu, bir tomondan, sovetlar davrida totalitar tuzum manfaatlarini himoya qiladigan kommunistik mafkuradan butunlay voz kechishi va sovet davridan meros qolgan bir qolipda fikrlash illatidan tezroq xalos bo‘lish, odamlar tafakkur tarzi va dunyoqarashni kommunistik aqidalar kishanidan ozod qilish demokratik tamoyillar, qonunning ustuvorligiga hurmat

tuyg‘usini kamol toptirish: Ikkinchi tomondan mafkuraviy bo‘sqliqqa yo‘l qo‘ymaslik, millat sifatida o‘zligimizni anglash, yakdil va hamjihatligimizni ta‘minlash, shuningdek, bu hamjihatlikka qarshi qaratilgan har qanday yot mafkuraviy tazyiqlarning oldini olish, ta‘bir joiz bo‘lsa, o‘zigaxos mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirish. Uchinchi tomondan, mustaqilligimizning ahamiyati va mohiyati mafkuraviy vositalar orqali xalqning ongiga yetkazish, oliy bir maqsad ulug‘vor g‘oyalar sari xalqni yakdillika, fidoyilikka, yaratuvchilikka safarbar qilish.

Milliy istiqlol g‘oyasi va mafkuraviy masalalarinihg mazmun-mohiyati, ufqlari, uning asosiy tamoyillari davlatimizning birinchi rahbari asarlarida mukammal ifoda etilgan. Dastlab, 1993-yil aprel oyida Birinchi Prezident I.A. Karimov bir guruhi adiblar bilan suhbat qilib, milliy istiqlol g‘oyasini ishlab chiqish zaruriyatini asoslab berdi.

Ma‘naviy hayotdagi tub sifat o‘zgarishlar xalqimiz ma‘naviy salohiyatini mamlakatimizning ertangi porloq istiqboli uchun, milliy o‘zligimiz va qadriyatlarimizning tiklanishi uchun va qolaversa milliy ongi va gururi, uyg‘oq vatanparvar insonni tarbiyalash uchun qaratilgan. Mustaqilligimizni dastlabki kunlaridanoq xalqimizning ko‘pasrlar mobaynida yaratgan g‘oyat o‘lkan bebafo ma‘naviy va madaniy merosini tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan nihoyatda muhim vazifa sifatida qaralib, keng ko‘lamli jiddiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi tarixiy ishlarning amalga oshirilishi yangi jamiyatimiz ma‘naviyati binosining qad rostlashiga muhim omil bo‘lmoqda. Natijada respublikamizda ma‘naviyat sohasining yangi tizimi vujdga kela boshladi. «Ma‘naviyat va ma‘rifat» jamoatchilik markazi, «O‘zbekkino», «O‘zbeknavo», «O‘zbekraqs», «O‘zbekteatr», «O‘zbekmuzei», Badiiy akademiya, O‘zbek amaliy san‘at markazi, Milliy madaniy markazlar kabi madaniy-ma‘rifiy tashkilotlar va ko‘plab jamg‘armalarning tuzilishi respublika ma‘naviyati asosiy sohalarining tarkib topishi va rivojlanishiga zamin bo‘ldi

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston tarixini yoritish va o‘rganish masalalariga alohida e‘tibor berilmoqda. Sovet davridagi sinfiylik yondashuv va hukmron kommunistik mafkura tayziqi ostida taqiqlangan tarixiy mavzulardagi asarlar chop etilib, xalqimiz tarixini holislik, haqqoniylilik asosida tiklash va chuqur, har tomonlama tadqiq qilishga kirishildi. Bu borada o‘zbek xalqi va o‘zbek davlatchiligi tarixini, tariximizning boshqa sahifalarini holisona ilmiy asosda yoritish vazifalarini birinchi Prezident I.A. Karimov bir guruhi tarixchilar bilan 1998-yil iyun oyida bo‘lgan suhbat va Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarorida belgilanishi alohida ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan kundan boshlaboq mamlakatimizda boy ma‘naviy merosimizni tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma‘naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Jamiyat ma‘naviyatini tiklash va yuksaltirishni ta‘minlovchi ma‘naviy – ma‘rifiy islohotlarning yo‘nalishlari belgilab olindi.

Istiqlol tufayli milliy madaniyatimiz, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga bebafo hissa qo‘shgan buyuk bobokalonlarimizning ma‘naviy merosi qaytadan

o‘rganildi va tiklandi. Xalqimiz ulardan bahramand bo‘lishga tuyassar bo‘ldi. Mustaqillik yillarda xalqimiz ma’naviyatining yulduzлari bo‘lgan buyuk allomalarimizning tavallud topgan sanalari BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi tashkiloti – YUNESKO bilan hamkorlikda mamlakatimizda va xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Masalan:

- 1991-yil (28-sentyabr) — Alisher Navoiy tavalludining 550-yilligi;
- 1992-yil — Boborahim Mashrab tavalludining 350-yilligi;
- 1993-yil (18-dekabr) — Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 510-yilligi;
- 1994-yil — Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600-yilligi;
- 1996-yil — Amir Temur tavalludining 660-yilligi;
- 1997-yil (28-noyabr) — Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Chо‘lpon tavalludining 100 yilligi;
- 1998-yil (24-oktyabr) — Ahmad al – Farg‘oniy tavalludining 1200-yilligi;
- 1999-yil (6-noyabr) — «Alpomish» dostonining 1000-yilligi (Termizda milliy epos qahramoni Alpomish xotirasini abadiylashtiruvchi yodgorlik majmuyi barpo etildi);
- 2000-yil (16-noyabr) — Burhoniddin Marg‘inoniy tavalludining 910 yilligi;
- 2000-yil — Kamoliddin Behzod tavalludining 545-yilligi;
- 2001-yil (3-noyabr) — «Avesto» yaratilganligining 2700-yillik yubileyiga bag‘ishlab tantanali marosim o‘tkazildi va yodgorlik majmui bunyod etildi.

Respublika miqyosida ham bunday tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan:

- 1993-yil 16-sentyabr – Buxoroda buyuk mutafakkir Bahouddin Naqshband tavalludining 675-yilligi;
- 1994-yil 24 – 25-sentyabr — Xorazmda davlat arbobi va shoir Feruz tavalludining 150 yilligi;
- 1995-yil — ulug‘ shayx, tasavvufning taniqli vakillaridan biri Najmuddin Kubro tavalludining 850 yilligi;
- 1998-yil 23-oktyabr — Farg‘ona shahrida buyuk alloma Ahmad al-Farg‘oniyning 1200 yilligi;
- 1998-yil 23-oktyabr — Samarqandda ulug‘ vatandoshimiz, hadis ilmining sultonı Imom Buxoriy tavalludining 1225-yilligi (mazkur marosimda dunyoning 40 ta mamlakatidan mehmonlar ishtirok etdi. Shu kuni Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog‘ida Imom Buxoriy yodgorlik majmuining ochilish marosimi bo‘ldi);
- 1999-yil yanvar — Xorazm viloyatida shoir va mutafakkir Pahlavon Mahmudning 750-yilligi;
- 1999-yil 5-noyabr — vatanparvar siymo, xalq qahramoni Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800-yilligi. Shu kuni Urganch shahrida Jaloliddin Manguberdi xotirasini abadiylashtiruvchi yodgorlik majmuyi barpo etildi;
- 1999-yil 17-dekabr — Xorazmda o‘zbek shoiri, tarixchi Ogahiyning 190-yilligi;

➤ 2000-yil 17-noyabr — Samarqandda buyuk fiqh olimi, kalom ilmining moturidiylik oqimi asoschisi Imom Abu Mansur Moturidiyning 1130-yilligi (ushbu yubiley munosabati bilan Samarqand shahrida Moturidiy yodgorlik majmui ochildi. Toshkent va Samarqandda Moturidiy ta’limoti va uning islom olamida tutgan mavqeiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy anjumanlar o‘tkazildi);

➤ 2003-yil 10-may — taniqli o‘zbek shoiri G‘afur G‘ulom tavalludining 100-yilligi (yubiley munosabati bilan Toshkent shahri markazidagi madaniyat va istirohat bog‘iga G‘afur G‘ulom nomi berildi va bog‘da shoir haykali ochildi);

➤ 2003-yil 27-noyabr — Buxoro va G‘ijduvon shaharlarida tasavvuf ilmining yirik namoyandası Abdulxoliq G‘ijduvoniy tavalludining 900-yilligi tantanali ravishda inshonlandi.

Yurtimizning buyuk allomalari va davlat arbobilarining nomlarini ulug‘lash maqsadida yillarga ularning nomi berildi. Masalan:

➤ 1991-yil — Alisher Navoiy yili deb e’lon qilindi. Alisher Navoiy nomida Davlat mukofoti ta’sis etildi. Adabiyot institutiga Alisher Navoiy nomi berildi. Navoiy haykali Toshkentning Komsomol ko‘li deb nomlangan istirohat bog‘iga o‘rnatildi va bu bog‘ Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘i deb ataladigan bo‘ldi;

➤ 1993-yil — Ahmad YAssaviy yili deb e’lon qilindi;

➤ 1994-yil — Mirzo Ulug‘bek yili deb e’lon qilindi. 1994-yil 13 – 15-oktyabr – Toshkent va Samarqandda Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600-yillik yubileyi tantanalari bo‘lib o‘tdi. Toshkentda buyuk olimning tavalludiga bag‘ishlangan «Mirzo Ulug‘bek va uning jahon taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi» mavzuida xalqaro ilmiy konferensiya o‘tkazildi. Ulug‘bek madrasasi, Ulug‘bek yashagan davrdagi astronomik asboblar, Toshkentdagı Ulug‘bek haykali aks ettirilgan pochta markalari muomalaga chiqarildi. Shu yil 24-oktyabrdan Parijda YUNESKOning majlislar zalida «Ulug‘bek va temuriylar davri» mavzusida Xalqaro konferensiya hamda «Ulug‘bek va an‘anaviy san’at» ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. Bu tadbirdar Mirzo Ulug‘bek qoldirgan ilmiy merosning umuminsoniy qadriyatga aylanishiga ko‘maklashdi;

➤ 1996-yil — Amir Temur yili deb e’lon qilindi. 1996-yil 18-oktabr kuni Sohibqiron tavalludining 660-yilligi munosabati bilan Amir Temur xiyoboniga tutash hududda «*Temuriylar tarixi davlat muzeyi*» barpo etildi. Muzeyning balandligi 31, diametri 70 metr. Muzey gumbazini yoritib turgan «Zumrad» deb nomlangan muazzam qandilning og‘irligi ikki tonnadan oshadi. Unga besh yuzta yoritgich jamlangan. Muzey uch qavatdan iborat. 1996-yilda «Temur tuzuklari» bir necha tilda chop etildi. O‘sha davr tarixiy-madaniy yodgorliklari tiklanib, yozma adabiyotlar ilmiy muomalaga kiritildi.

Istiqlol yillarida o‘zbek xalqi va o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim ahamiyat kasb etgan qadimiy shaharlarning yubileyлari ham respublika miqyosda keng nishonlandi:

➤ 1993-yil 11-dekabr – YUNESKOning qarori bilan Buxoroning tarixiy markazi Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritildi. 1997-yil 18 – 19-oktyabr kunlari Buxoro shahrining 2500-yillik yubileyiga bag‘ishlangan tantanali marosim o‘tkazildi. «Insoniyatning ilmiy va madaniy merosi - uchinchi

ming yillikka» mavzuida xalqaro simpozium bo‘lib o‘tdi.

➤ 1997-yil 20-oktyabr – Xiva shahrining 2500-yillik yubileyiga bag‘ishlangan tantanali marosim o‘tkazildi.

➤ 2002-yil 2-aprel – Termiz shahrining 2500-yillik yubileyiga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi.

➤ 2002-yil 1-noyabr – Shahrisabz shahrining 2700-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘ldi.

➤ 2003-yil 12-sentyabr – Nukus shahrining 70-yilligi nishonlandi va shahar «Do‘stlik» ordeni bilan mukofotlandi.

➤ 2006-yil 27-oktyabr – Qarshi shahrining 2700-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘ldi.

➤ 2006-yil 2-noyabr – Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000-yilligi Xivada tantanali nishonlandi.

➤ 2007-yil 24 – 26-may – Samarqandning 2750-yilligiga bag‘ishlangan «Samarqand shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o‘rni» mavzuida xalqaro ilmiy simpozium o‘tkazildi.

➤ 2007-yil 25-avgust – Samarqand shahrining 2750-yillik yubileyiga bag‘ishlangan tantanali marosim o‘tkazildi. Bu marosim Samarqandda 1997-yildan buyon an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan «Sharq taronaları» VI-xalqaro musiqa festivaliga ulanib ketdi.

➤ 2007-yil 7-sentyabr – Marg‘ilon shahrining 2000-yillik yubileyiga bag‘ishlangan tantanali marosim o‘tkazildi.

➤ 2009-yil 26 – 27-may – Toshkent shahrining 2200-yillik yubileyiga bag‘ishlangan «O‘zbekiston poytaxti Toshkent – 2200 yoshda» mavzuida xalqaro ilmiy konferensiya o‘tkazildi.

➤ 2009-yil 1-sentyabr – O‘zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahrining 2200-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosim o‘tkazildi. Bu marosim O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 18-yillik tantanalariga ulanib ketdi.

Vatanimiz ozodligi yo‘lida shahid ketgan Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir va boshqa xalq jigarbandlarining nomi, izzat – ikromi, hurmati o‘z joyiga qo‘yildi, asarlari nashr etildi. Islom Karimov tashabbusi bilan Toshkentda mustamlakichilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida 2000-yil 12-mayda Toshkentning Yunusobod tumanidagi Bo‘zsuv bo‘yida «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmui ochildi. 2001-yil 31-avgust – qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni sifatida O‘zbekistonda ilk bor o‘tkazildi. 2002-yil 31-avgust – Toshkentning «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuida «Qatag‘on qurbonlari xotirasi» muzeyi bunyod etildi. 2008-yil 31-avgustda muzeyning qo‘srimcha binosi va yangi ekspozitsiyasi ham ochildi.

Yurtimizda davlat tomonidan Ikkinci jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish va bu urush yillarida fashizmga qarshi janglarda jon fido etgan xalqimizning farzandlari xotirasini tiklanishi abadiylashtirish masalasiga ham katta e’tibor berilmoqda. 1999-yil 9-mayda O‘zbekiston Respublikasida birinchi bor 9-may Xotira va qadrlash kuni sifatida nishonlandi. Shu yilda Toshkentda Ikkinci jahon urushi yillarida fashizmga qarshi Vatan ozodligi uchun jon fido

etgan xalqimizning farzandlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida «Xotira va qadrlash maydoni» majmuasi barpo etildi va 9-may kuni uning ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoevning e’tibori bilan elu yurtga mehnati singgan insonlarning hurmatini joyiga qo‘yish an’anasi davom ettirilmoqda. Xususan, 2017–2018-yillarda bu borada ulkan ishlar amalgamoshirildi. Toshkent, Samarqand va Qarshida Islom Karimov, Namangan viloyatida Is’hoqxon Ibrat, Xorazm viloyatida Komiljon Otaniyozov, Qoraqalpog‘istonda Ibroyim Yusupov, Farg‘onada Erkin Vohidov, Qashqadaryoda Abdulla Oripov, Andijonda Muhammad Yusuf xotiralarini abadiylashtirish bo‘yicha yirik tadbirlar o‘tkazildi. Ularning nomi bilan ataladigan markazlar, ijodiy maktablar tashkil etildi. Jizzax shahrida Hamid Olimjon va Zulfiya xotirasiga bag‘ishlab barpo etilgan yodgorlik majmuasi ochildi.

Yurtimiz taraqqiyoti yo‘lida fidokorona xizmat qilgan, milliy adabiyotimiz va madaniyatimiz rivojiga ulkan hissa qo‘sghan atoqli davlat arbobi, taniqli yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligi nishonlanishi xalqimizni quvontirdi. 2016-yil Prezident Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan Jizzax tumaniga Sharof Rashidov nomi berildi. O‘zbekiston Prezidentining 2017-yil 27-martdagи «Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100-yilligini nishonlash to‘g‘risida»gi Qarori asosida 2017-yil 6-noyabr – Sharof Rashidov tug‘ilgan kuni Jizzaxda tantanali tadbirlar bo‘lib o‘tdi. Jizzax shahridagi tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ishtirok etib, nutq so‘zladи.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-yanvardagi «O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘anievich Karimovning xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risida»gi qaroriga ko‘ra, Islom Karimov haykallari O‘zbekiston poytaxti Toshkent, Samarqand va Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahriga o‘rnatildi. Prezident farmoni bilan 2018-yil 30-yanvarda Islom Karimov tavalludining 80-yilligi keng nishonlandi.

Xullas, buyuk allomalarimiz, mutafakkirlarimiz yubileyлari munosabati bilan ularning o‘nlab nodir va noyob asarlari o‘zbek, ingliz, fransuz, nemis, yapon va boshqa tillarda nashr etildi, haykallar o‘rnatildi, ziyoratgoh maydonlari, bog‘lar yaratildi.

Istiqlol yillarida yurtimizda barcha sohalar kabi madaniyat va san’at sohasi ham uyg‘ondi va jonlandi. Teatr, musiqa san’ati rivoj topdi, madaniy aloqalar kengaydi, madaniy-ma’rifiy muassasalar faoliyati takomillashdi, muzeylarning ijtimoiy-ma’rifiy ahamiyati oshdi, milliy adabiyot ravnaq topdi. O‘zbekiston hukumati xalqimizning milliy qo‘schiqchilikka bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojini e’tiborga olib milliy ruhdagi, xalqning ko‘ngliga yaqin musiqa asarlarini yaratishga bo‘lgan qiziqishni doimo rag‘batlantirdi. Shu maqsad yo‘lida musiqa san’ati bo‘yicha qator ko‘rik-tanlovlар o‘tkazilib kelinmoqda. Xususan, dastlabki ko‘rik-tanlovlар 1992-yil mart oyida Toshkent shahrida bo‘lib o‘tdi. Unda tanbur, sato, qo‘shnay, surnay va boshqa milliy soz ijrochilarining «**Asrlarga tengdosh navolar**» deb nomlangan respublika ko‘rik

tanlovi edi. Mamlakatimiz hukumati qo'shiqchilik san'atidan mustaqillikning ma'naviy zaminlarini mustahkamlashda ham unumli foydalanishga e'tiborni kuchaytirdi. Masalan, 1995-yil dekabrda «*O'zbekiston – Vatanim manim*» mavzuidagi qo'shiqlar ko'rik-tanlovi e'lon qilindi. 1996-yil mart oyida navbatdagi ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. Bularning barchasini e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 27-avgustdagagi «*O'zbekiston – Vatanim manim*» *qo'shiq bayrami haqida*»gi PF-1550-sonli Farmoni qabul qilindi. Farmonda fuqarolar qalbida muqaddas Vatan tuyg'usini tarbiyalovchi yuksak badiiy saviyadagi musiqa asarlari va qo'shiqlarning yaratilishiga keng imkoniyat yaratish maqsadida har yili *avgust oyining uchinchi yakshanbasi* «*O'zbekiston – Vatanim manim*» *qo'shiq bayrami kuni*, deb belgilab qo'yildi. Ayni paytda, xalqimizning qo'shiqchilik san'atiga bo'lgan buyuk qiziqishini e'tiborga olib, 1996-yil 5-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-1419-sonli Farmoni asosida Madaniyat ishlari vazirligining ijodiy konsert tashkilotlari negizida «*O'zbeknavo» gastrrol-konsert birlashmasi* (2001-yildan «*O'zbeknavo» estrada birlashmasi nomini olgan. 2017-yil 15-fevralda «*O'zbeknavo» estrada birlashmasi va «*O'zbekraqs» milliy raqs birlashmasi negizida «**O'zbekkonsert**» davlat muassasasi tuzilgan) tashkil etildi.***

1997-yil 11-martda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «*Sharq taronalari* Xalqaro musiqa festivalini o'tkazish to'g'risida»gi 132-sonli Qarori musiqa san'atining noyob namunalarini keng targ'ib qilish, rivojlantirishda dasturamal bo'lib xizmat qildi. 1997-yil 25-avgust – 2-sentyabr kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan «*Sharq taronalari*» birinchi xalqaro festivalida dunyoning 40 dan ortiq mamlakatidan ijrochilar, san'atshunoslar, jamoat arboblari ishtirok etdi, festivalda yangragan o'zbek ohanglari, kuy – qo'shiqlari jahon uzra taraldi. Har ikki yilda Samarqandda «*Sharq taronalari*» xalqaro festivalini o'tkazish an'ana tusini oldi. 2019-yil 26-30-avgust kunlari Samarqandda «*Sharq taronalari*» 12 xalqaro musiqa festivali o'tkazildi. Shu bilan birga mazkur kunlarda respublikaning barcha hududlari bo'ylab «Buyuk ajdodlarga munosib voris bo'laylik» shiori ostida yoshlar festivali ham o'tkazildi.

O'zbek milliy maqom san'atining noyob namunalarini keng targ'ib qilish, uni asrab-avaylash va rivojlantirish, yosh avlod qalbida milliy mumtoz san'atimizga hurmat va e'tibor tuyg'ularini kamol toptirish, turli xalqlar o'rtasidagi do'stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma'naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqqyosda kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi «*O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida*»gi PQ-3391-sonli qarori qabul qilindi va Shahrabsabz shahrida har ikki yilda bir marta Xalqaro maqom san'ati anjumanini o'tkazilishi belgilandi. Bu anjuman birinchi marta 2018-yilning 6 – 10-sentyabr kunlarida o'tkazildi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish, madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish maqsadida davlat siyosati darajasida muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan muhim Farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Bunga quyidagilarni misol qilish

mumkin:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi «*O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida*»gi PQ-4038-sonli Qarori;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydag‘i «*Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*»gi PF-6000-son Farmoni;
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydag‘i «*O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*»gi PQ-4730-sonli qarori va boshqalar.

Mazkur hujjatlar respublikada madaniyat va san’at sohasi uchun dasturul amal bo‘lib xizmat qilmoqda. Hujjatlarda belgilangan vazifalar madaniyat va san’at sohasining barcha yo‘nalishlarini to‘liq qamrab olgan.

Konsepsianing asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- madaniyat sohasiga oid normativ-huquqiy bazani, ushbu sohadagi institutsional tizimni va madaniyat muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish;
- tarixiy va madaniy merosimizni saqlash hamda uni yosh avlod tarbiyasida keng qo‘llash;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirish, etnik madaniy an’analarni asrab-avaylash va shu asosda xalq ijodiyotini qo‘llab-quvvatlash;
- aholi, jumladan, yoshlarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va kengaytirish;
- madaniyat sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, madaniyatni yanada keng taddiq va targ‘ib etishda innovatsion g‘oyalar va texnologiyalardan samarali foydalanish;
- fuqarolarning, jumladan, nogironligi bo‘lgan shaxslarning madaniy hayotda faol ishtirok etishi va madaniy xizmatlardan foydalanishda ijtimoiy tengligini ta’minlash;
- madaniy sohada o‘zaro samarali xalqaro munosabatlarni tashkil etish va rivojlantirish, milliy madaniyatga jahon madaniyatining ajralmas qismi sifatida qarash, bu borada teng huquqlilik va inson huquqlarini hurmat qilishga alohida e’tibor qaratish;
- qabul qilinayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniyat sohasiga oid qarorlarning ushbu sohadagi yagona davlat siyosatiga mosligini ta’minlash;
- madaniyat va san’at muassasalarining to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash, ularning moddiy resurs bazasini yanada mustahkamlash, obyektlarni saqlash hamda muhofaza qilishda jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6000-sonli Farmoniga ko‘ra, 2020 – 2021-yillar davomida har bir hududda ko‘chma sirklar (shapito, dorbozlar guruhlari) hamda hayvonot bog‘lari tashkil etilishi belgilangan bo‘lib, ularga tegishli shart-sharoitlar yaratilgan holda, imtiyozlar belgilangan. Shuningdek, 2020 – 2025-yillar davomida mamlakatimizning har bir tuman va shahrida O‘lkashunoslik muzeylari tashkil qilinishi belgilandi. Ushbu Farmonda

madaniyat va san'atning xalqimizning ijtimoiy-ma'naviy hayotida tutgan o'rnini hisobga olib, soha xodimlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 15-aprel – «O'zbekiston Respublikasi madaniyat va san'at xodimlari kuni» deb e'lon qilinishi – mazkur sohada faoliyat yuritayotgan xodimlar, jumladan, ijod ahli tomonidan juda iliq taassurotlar bilan kutib olindi.

O'zbekiston sporti milliy madaniyatimizning uzviy qismi hisoblanadi. U keng xalq ommasini yuksak axloqiy ruhda tarbiyalashda va salomatligini mustahkamlashda muhim vositalardan biri bo'lib qoldi. Mamlakatimizda yashovchi xalqlar asrlar davomida xilma-xil jismoniy mashqlar va milliy musobaqalar turlarini yaratdiki, bu o'z navbatida yoshlarning jismoniy va ma'naviy tarbiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish bo'yicha tizimli va aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Nufuzli xalqaro musobaqalarda O'zbekiston sharafini munosib himoya qilish va yuksak marralarni zabit etishga qodir mahoratli sportchilar tayyorlashning samarali tizimi yaratildi. Hozirgi kunda mamlakatimizda sportning 50 dan ziyod turi ommalashgan.

1992-yilda qabul qilingan «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonun mustaqil O'zbekiston Respublikasi qabul qilgan dastlabki qonunlardan biri bo'ldi, shuning natijasida o'quv yurtlarida, tumanlar, shaharlar, viloyatlarda umuman respublikada jismoniy madaniyatni rivojlantirish umummilliy tusga kirdi. Mustaqillik yillarida qisqa vaqt ichida barcha viloyat va shaharlarda xalqaro andozalarga mos keladigan zamonaviy sport inshootlari: Toshkentdagi «Yunusobod», «Jar», Buxoro, Jizzax, Namangan, Samarqand kabi yirik shaharlarda bir necha sport sog'lomlashtirish majmualari qurildi. 2019-yil 15-mart Toshkent shahrida O'zbekistondagi birinchi muz sporti saroyi - «Humo Arena» muz majmuasi (umumi maydoni: 82 250 m<sup>2</sup>). Yuridik nomi: «HUMO ARENA KOMPLEKS») ochilishi mamlakatimizda sport sohasini yana rivojlantirishda muhim qadam bo'ldi. Sport inshootlarining mavjudligi, tegishli infratuzilma vujudga keltirilganligi respublikada eng yuksak darajadagi xalqaro musobaqalar o'tkazish imkonini beradi.

Bugungi kunda mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanib, o'z iqtidor va mahoratlarini tinmay oshirib borayotgan yoshlarni sport sohasida vatanimiz terma jamoalari tarkibining asosini tashkil etib, xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erisha boshladi. Avvallari bunday bellashuvlarga poytaxt, nari borsa viloyatlar markazlaridagi sport bazalarida tayyorlangan sportchilar olib borilardi. Respublikada nogironlar sportiga ham alohida e'tibor berib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, O'zbekiston Milliy Olimpiada qo'mitasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Respublika Nogironlar jamiyati hamda Xalqaro Qizil Xoch mintaqa vakolatxonasining qo'llab-quvvatlashi bilan Sport nogironlari uyushmasi tuzilgan.

Hozirda O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi respublikada sportni rivojlantirish sohasidagi asosiy ishlarga rahbarlik qiladi. Mazkur vazirlik 2018-yil 5-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «*O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligini tashkil etish*

**to ‘g‘risida»gi** PQ-3583-sonli qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Vazirlik jismoniy tarbiya va sport sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi va jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi organlari faoliyatini muvofiqlashtirishni amalga oshiradi. Uning o‘z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlari davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijro etilishi majburiydir. Vab manzili: <https://minsport.uz/>.

Ma’lumki, O‘zbekiston aholisining 30 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma’naviy barkamol bo‘lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning barkamol bo‘lib voyaga yetishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida bir qancha muhim hujjatlar qabul qilindi, amaliy ishlar yo‘lga qo‘yildi, muayyan natijalarga erishildi. Shunday bo‘lsa ham, bu borada bajariladigan ishlar hamisha keng ko‘lamli bo‘lib, o‘z dolzarbligini saqlab qolaveradi. Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz rahbarligida 2019-yil 19-martda «*Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san’at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o‘qishga qiziqishini oshirish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish to‘g‘risida*» o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida yoshlarni rivojlantirishga qaratilgan masalalar muhokama qilindi va sohalarga taalluqli 5 ta muhim tashabbus ilgari surildi. Bular quyidagilar:

**Birinchi tashabbus** — yoshlarning *musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning* boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

**Ikkinci tashabbus** — yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning *sport* sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan.

**Uchinchi tashabbus** — aholi va yoshlarni o‘rtasida *kompyuter texnologiyalari va internetdan* samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

**To‘rtinchchi tashabbus** — yoshlarni ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida *kitobxonlikni keng targ‘ib qilish* bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan.

**Beshinchchi tashabbus** — *xotin-qizlarni ish bilan ta’minalash* masalalarini nazarda tutadi.

Mazkur tashabbuslar yosh avlodni har tomonlama mukammal tarbiyalash, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli va samarali o‘tkazish ishlarini qamrab olgan bo‘lib, tegishli sohalar ishtirokida amalga oshirib boriladi. Yig‘ilishda har bir tashabbusning maqsadi aniq belgilanib, ijro etuvchi sohalarga tegishli vazifalar yuklatildi. Har bir yo‘nalish bo‘yicha dasturlar loyihalari ishlab chiqildi.

Istiqlol sharofati bilan O‘zbekistonda diniy qadriyatlar, diniy e’tiqod

qayta tiklandi. Xalqimiz ma'naviy jihatdan ko'pgina afzalliklarga ega bo'lgan islom dinini qadrlaydi. Barchamizga ma'lumki, ona diyormizda islom sivilizatsiyasi rivojiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan islomshunos allomalar yashab o'tgan. Masalan, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy islom dini ta'limotida Qur'oni Karimdan keyingi asosiy manba hisoblanuvchi «Al - Jomi' as – sahih» («Ishonchli to'plam») deb nomlangan («Sahihi Buxoriy» nomi bilan ham ataladi) 4 jild (juz) dan iborat hadislar to'plamini yaratib, islom dinini boyitdi. Bobokalonlarimiz Imom Abu Mansur al - Moturidiy, shayxulislom Burhoniddin al-Marg'inoniy, Bahouddin Naqshband, Imom at-Termizi, Xo'ja Ahmad Yassaviylar insonni ma'naviy etuklikka chorlovchi diniy, axloqiy va huquqiy hikmatlarning ijodkoridirlar. Ammo sovetlar hokimiyati davrida jamiyatni batamom milliy va din qadriyatlardan uzoqlashtirishga harakat qilindi. Dinga qarshi keng miqyosda tashviqot – targ'ibot ishlari olib borildi. Ko'p asrlik ma'naviy qadriyatlardan voz kechish yulidan borildi. Masjid va madrasalarni yopib, binolardan xo'jalik maqsadlarida foydalanish yoki ataylab qarovsiz qoldirildi. Ruhoniylar qatag'on qilindi. 1927, 1936 – 1937, 1949-yillarda uch karra «katta tozalashlar» o'tkazildi. Buning oqibatida ma'naviyat va ma'rifatga talafotlar etkazildi. Bu fuqarolarning e'tiqod erkinligi huquqiga qilingan oshkora tajovuz edi.

XX asrning 90-yillarda O'zbekistonda dinga bo'lgan munosabat ancha erkinlashdi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1990-yil 2-iyundagi «Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga Haj qilish to'g'risida»gi Farmoniga binoan O'zbekiston xalqi tarixida birinchi marta bevosita hukumat homiyligida har yili Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatlariga ega bo'ldilar. Mustaqillik yillarida 32 mingdan ortiq o'zbekistonliklar Makka va Madinada Haj safarida bo'ldilar. 1990-yil 14 – 17-sentyabr kunlari Toshkentda islom dini arboblaridan Muhammad Iso Termiziyning tug'ilganiga 1200-yil to'lishiga bag'ishlangan Butunjahon islom konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Nihoyat, mustaqillik sharofati bilan O'zbekistonda diniy qadriyatlar to'la tiklana boshladи. Qaramlik davrida tahqirlangan diniy qadriyatlarimiz mustaqillik nuri bilan qayta tiklandi, islomshunos allomalarimizning ulug' nomi va ilmiy merosi tiklandi. 1993-yil sentyabrda Buxoroda mashhur shayx Bahouddin Naqshband tavalludining 675-yilligi tantanalar bo'lib o'tdi. Yubiley munosabati bilan Buxorodagi Naqshband nomi bilan bog'liq bolgan tarixiy yodgorliklar qaytadan tiklandi, uning ijodiga bag'ishlangan qator risolalar chop etildi.

1998-yil 23-oktyabrdan Samarqandda buyuk mutafakkir Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy – qamariy taqvim bo'yicha 1225-yilligi nishonlandi. Shu kuni Xartang qishlog'ida Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuyi ochildi. 2002-yil 5-iyun – Imom Buxoriy yodgorlik majmuida «Islom va dunyoviy – ma'rifiy davlat» mavzuida xalqaro ilmiy – nazariy anjuman ochildi.

2000-yil 16–17-noyabr kunlari Marg'ilonda islom huquqining asoschilaridan biri Burhoniddin al-Marg'inoniy tavalludining 910-yilligi, Samarqandda islomshunos olim Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining

1130-yilligi nishonlandi va ular xotirasiga bag‘ishlab barpo etilgan yodgorlik majmualari ochildi (2000-yil). Shuningdek, Mahmud az-Zamaxshariyning 920-yilligi, Abduholiq G‘ijduvoniyning 900-yilligi, Najmiddin Kubroning 850-yilligi, Xoja Ahrori Valiy tavalludining 600-yilligi keng ko‘lamda nishonlandi.

Mustaqil O‘zbekistonda davlat organlari va diniy tashkilotlar rahbarlari o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik va xayrixohlik munosabatlari qaror topdi. Jumladan, 1991-yil 14-iyulda 6-bob, 30-moddadan iborat bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining «*Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida*»gi 289-XII-sonli Qonuni qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingach vijdon erkinligi, davlat va din o‘rtasidagi munosabatlar konstitutsion tamoyillar asosida tartibga solinda. 1998-yil 1-mayda bu qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Qonun 23-moddadan iborat.

Mamlakatimizda islom dini omilidan, uning ma’naviy imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadida 1992-yil 7-mart O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining Farmoni bilan Respublika Vazirlar Mahkamasi huzurida din ishlari bo‘yicha qo‘mita tashkil etildi. 1992-yil 27-martda esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ro‘za hayiti va Qurbon hayitining birinchi kunlarini dam olish kuni deb e’lon qilish to‘g‘risida»gi Farmoni imzolandi. Bu tadbirlar faqat dindorlar uchun qilingan marhamatgina emas, ular aslida xalqimizning qadimiylarini – rusum va udumlarining, qadriyatlarining tiklanishi, ajdodlar ruhining qayta uyg‘onishidir.

Islom ta’limoti va falsafasini keng o‘rganish, o‘zbek xalqining diniy, tarixiy va madaniy merosini chuqur ilmiy tadqiq etish, yuqori malakali dinshunos, huquqshunos va iqtisodchilarni tayyorlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 7-apreldagi PF-2282-sonli Qarori asosida *Toshkent islom universiteti* tashkil etildi.

2007-yil – Islom konferensiyasi tashkilotining Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha muassasasi – ISESSO (AYSESKO) tomonidan Toshkent shahri Tripoli (Liviya), Fes (Marokash), Dakar (Senegal) shaharlari qatorida «*Islom madaniyatining 2007-yildagi poytaxti*» deb e’lon qilindi.

2007-yil 14 – 15-avgust – Toshkent va Samarcand shaharlari Toshkent shahrining 2007-yildagi Islom madaniyati poytaxti deb e’lon qilinishiga bag‘ishlangan «*O‘zbekistonning islom sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasi*» mavzuida xalqaro konferensiya o‘tkazilib, unda 30 dan ortiq davlatlardan kelgan olimlar qatnashdi.

Hozir O‘zbekistonda turli dinlarga e‘tiqod qiluvchilar o‘zaro tinch-totuv yashamoqdalar. Buning zamirida davlat va din o‘rtasidagi munosabatlarni belgilovchi tamoyillar katta ahamiyat kasb etadi. Davlatning dinga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi yana bir tamoyil shundan iboratki, davlat dinni xalq ma’naviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Bundan kelib chiqib, uning rivoji uchun tegishli shart-sharoit yaratishga harakat qiladi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida bu masalalar o‘z echimini topgan va u dunyodagi rivojlangan mamlakatlardagi huquqiy-me’yoriy talablarga to‘la javob beradi. Har qanday dinga e‘tiqod qiluvchi va hech qanday dinga e‘tiqod qilmaydigan kishilar uchun bir xildagi shartlar qo‘yilishini ta’minlovchi

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida, jumladan, shunday deyiladi: «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘ymaydi». Mazkur qoidada dunyoviy davlatning dinga bo‘lgan munosabatini ifodalaydigan asosiy tamoyillar o‘z ifodasini topgan:

- dindorlarning diniy tuyg‘ularini hurmat qilish;
- diniy e’tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi, deb tan olish;
- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta’qib qilishga yo‘l qo‘ymaslik;
- ma’naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo‘llarini izlash zarurati;
- dindan buzg‘unchilik maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini e’tirof etish.

O‘zbekistonning dunyoviylik, diniy bag‘rikenglik, barcha dinlarga bir xilda munosabat, jamiyat taraqqiyotida din bilan hamkorlik qilish xususiyatlari ushbu tamoyil asosida amalga oshiriladi. Chunki, konstitutsiyaviy dunyoviy-ma’rifiy davlatda «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonunga asosan diniy e’tiqodi va dunyoqarashidan qat‘i nazar, siyosiy xohishlarini bildirishda barcha fuqarolarning teng ishtiroki tamoyiliga rioya qiladi.

Shuni alohida ta’kildash lozimki, so‘nggi yillarda Prezidenti SHavkat Mirziyoev tomonidan barcha soha va yo‘nalishlar qatori yurtimizda istiqomat qilib kelayotgan turli millat va elat, diniy konfessiya vakillari o‘rtasida o‘zaro do‘stlik aloqalarini yanada mustahkamlash, diniy bag‘rikenglik tamoyillarini qaror toptirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, «2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi»ning beshinchi yo‘nalishi, aynan, **diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlash** masalasiga bag‘ishlangani ham O‘zbekiston hukumatining xalqaro hujjatlarda belgilangan umuminsoniy normalarga mos ravishda faoliyat yuritayotganidan dalolatdir.

2017-yil 15-iyunda Prezident Shavkat Mirziyoev «Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash — davr talabi» mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqida «O‘zbekistonda islom madaniyati markazi»ni tashkil etish tashabbusini bildirdi va 2017-yil 23-iyundagi «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-3080-sون qarori asosida Toshkentda **«O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi»** tashkil etildi. Hozirda respublikada bu markaz bilan birga Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari ham foaliyat ko‘rsatmoqda.

2017-yil 19-sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan tashabbus asosida qabul qilingan **«Ma’rifat**

*va diniy bag'rikenglik»* deb nomlangan maxsus rezolyusiya ham ta'lim olish huquqini ta'minlash, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashish, eng muhimi, bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlashga qaratilgani bilan e'tiborga molikdir.

2018-yilning 16-aprelida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev «*Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»*gi PF-5416-sonli Farmonni imzoladi. Mazkur hujjat O'zbekistonda diniy ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlashga qaratildi: boshlang'ich bosqichdan (o'rta maxsus islom ta'lim muassasalari yoki madrasalar) tortib, to oliv va undan keyingi diniy ta'limgacha. Mazkur farmonga muvofiq, O'zbekiston islom akademiyasi va Toshkent islom universiteti negizida **O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi** tashkil etildi (veb manzaili: <https://iiau.uz/en-ca/>).

2019-yil 4-sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «*Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»*gi PQ-4436-sonli qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha Qo'mitaning Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston yoshlar Ittifoqi, O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi bilan jamiyatda vijdon erkinligi va diniy-ma'rifiy muhit barqarorligi kafolatlarini ta'minlash maqsadida mustahkam va doimiy hamkorlikni nazarda tutuvchi yangi tizim joriy etildi.

Hozirda O'zbekistonda diniy konfessiyalar manzarasi rang-barangligini rasman ro'yxatdan o'tib faoliyat yuritayotgan 17 ta diniy konfessiyalar misolida ham ko'rish mumkin. Respublikamizda 2000 dan ortiq diniy tashkilot ishlab turibdi va ularda O'zbekistonda yashovchi 130 millat va elat vakillari o'zlarining diniy ehtiyojlarini qondirmoqdalar.

## **9-mavzu. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar (2 soat).**

### **Reja:**

1. Mustaqillik yillarda ilm-fanning rivojlanishi. Yangi jamiyat qurishda ta'lim va tarbiyaning roli.
2. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning qabul qilinishi. Dasturning maqsad va vazifalari, uni amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari. Ta'limning milliy modelining shakllanishi, rivojlanishi va muammolari. O'zbekistonda kadrlar tayyorlash sohasidagi o'zgarishlar.
3. Oliy ta'lim sohasida qabul qilingan Qonunlar va ularda belgilangan vazifalar.
4. Ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi: yutuqlar va kamchiliklar.

**Tayanch so'z va iboralar:** Ilm-fan, ta'lim, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi». Ta'limning milliy modeli. Oliy ta'lim, ta'lim sohasi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

- Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2017.
- Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2018.
- Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
- Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 1992; ...
- Jo’raev N. O’zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O’zbekiston tarixi. – To’ldirilgan, qayta nashr. –T.: G’afur G’ulom, 2009.
- Shamsutdinov R., Mo’minov X. O’zbekiston tarixi. –T.: Akademnashr, 2019.
- Ўзбекистон мустақиллик йилларида. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
- O’zbekiston tarixi / R.H. Murtazayeva umumiy tahriri ostida. – Т.: Yangi asr avlodi, 2005.
- Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Т.: Шарқ, 2000.
- <https://lex.uz/docs/16188> - Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида» ги 464-I сонли Қонуни (1997 йил 29 август).
- <https://lex.uz/docs/48401> - Ўзбекистон Республикасининг «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» (1997 йил 29 август).
- <https://lex.uz/docs/-5013007> - O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi O’RQ-637-sonli Qonuni (2020-yil 23-sentabr).

Istiqlol yo‘lida qadam tashlab borayotgan Vatanimizdagi mavjud ma’naviy, madaniy omillariga ahamiyat berish bilan birga maorif, ta’lim-tarbiya ishlariiga e’tibor kuchaytirilmoqda. «Ta’lim-tarbiya tizimini o’zgartirmasdan turib, ongni o’zgartirib bo‘lmaydi. Ongni, tafakkurni o’zgartirmasdan turib esa, biz ko‘zlagan oliy maqsad - ozod va obod jamiyatni barpo etib bo‘lmaydi», - deydi I.A. Karimov.

Respublikamizda ta’limning yangi tizimini amalga oshirishda O’zbekiston hukumati tariximizdagi ta’lim jarayonlarini o‘rganib chiqib, ta’limni isloh qilish dasturini tayyorladi. Barcha e’tibor ta’lim tizimlarini demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirib, uning moddiy-texnika bazasini zamon va davr talablari darajasiga ko’tarish va O’zbekistonning ma’rifiy salohiyatini kuchaytirishga qaratildi. Shu maqsadda 1992-yil 2-iyul respublikamizda dastlabki «**Ta’lim to’g’risida**»gi 636-XII-sonli Qonun qabul qilindi.

Ta’limni isloh qilish quyidagi tamoyillar asosida olib boriladi:

- ta’lim tarbiyaning insonparvarligi va demokratiyaviyili;
- ta’lim tiziminining uzluksizligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi;
- ta’limda umuminsoniy va milliy-madaniy, ma’naviy qadriyatlarning ustuvorligi;
- e’tiqodi, dinidan qat’i nazar, barcha fuqarolar uchun ta’lim olish imkoniyatlari yaratilganligi;
- ta’lim muassasalarining siyosiy partiyalar va harakatlar ta’siridan holiligi.

1993-yil Respublikamiz Prezidenti tomonidan «O’zbekistonda o‘quvchi-yoshlarni rag’batlantirish choralar to’g’risida»gi Farmoniga binoan talaba va aspirantlar uchun maxsus stipendiyalar belgilandi. Ular uchun rivojlangan davlatlardagi universitetlarda ta’lim olish, ulardagi ilmiy markazlarda ishlash,

malakalarini oshirish uchun sharoitlar yaratib berildi.

O‘zbekiston mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardan boshlab eng muhim masalalardan biri eskicha tafakkur, e’tiqodidan qutulgan, istiqlol uchun, o‘z ona-yurti uchun xizmat qiladigan kadrlar tayyorlash masalasi bo‘ldi. Eski tuzumni asta-sekin tag-tomiri bilan tugatib, batamom yangi, jahonning ilg‘or taraqqiy etgan mamlakatlari yo‘lidan boradigan haqiqiy demokratik jamiyat qurish endilikda yangicha fikrlaydigan quyidan tortib yuqori toifadagi kadrlarga bog‘liq bo‘lib qoldi.

Sobiq ittifoqda katta-kichik rahbar xodimlar har xil darajadagi partiya va komsomol mакtablarida, kommunistik mafkura targ‘ibotchisi va tashviqotchilarini tayyorlaydigan universitet va akademiyalarda tayyorlangan bo‘lsa, endilikda bu o‘quv yurtlari, tabiiyki, tarix sahnasidan tushib qoldi.

Bozor munosabatlariga asoslangan yangi jamiyatda rahbar kadrlarni tayyorlash maqsadida Prezident qoshidagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti, ayrim vazirliliklar qoshida akademiyalar tashkil etilishi katta ahamiyat kasb etadi.

Birinchi Prezidentimiz respublika va viloyatlarning rahbar xodimlari, huquq organlari rahbarlari bilan uchrashuvlarida hokimiyatlar, huquq organlarining ayrim xodimlari tomonidan tartib-intizomning, qonunchilikning buzilayotgani to‘g‘risida har gal kuyib-pishib gapiradi va urug‘-aymoqchilik, mahalliychilik, nopolik kabi o‘tmish qoldiqdaridan toza, el-yurti va xalqiga halol mehnat qiladigan yosh kadrlarni tayyorlash, ularga yo‘l ochib berish zarurligini qayta-qayta takrorlab ko‘rsatadi.

O‘zbekiston mustaqilligining kelajagi yuqori malakali, ma’rifatli, el-yurtiga sadoqatli mutaxassislarni tayyorlashga bevosita bog‘liq. I.A.Karimov muxbirlarning «Sizning siyosatingizda ta’lim-tarbiya masalasiga katta e’tibor berishning sabablari nimada?», deb so‘ragan savoliga ongi, tafakkurni o‘zgartirmasdan turib yangi jamiyat qurib bo‘lmaydi, ong, g‘oya, tafakkur ta’lim-tarbiya bilan uzviy bog‘liq, bir-birini to‘ldiradi, deb javob beradi.

1997-yil 29-avgustda respublika Oliy Majlisining IX sessiyasida I.A. Karimovning «Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori» ma’ruzasi asosida 463-I sonli Qonuni bilan tasdiqlangan «**Kadrlar tayyorlash milliy dasturi**» va yangi tahrirda 34-moddadan iborat bo‘lgan «**Ta’lim to‘g‘risida**»gi 464-I sonli Qonun qabul qilindi.

Istiqlol yillarida maktabgacha tarbiya muassasalarida, boshlang‘ich sinflarda o‘quv-tarbiya ishlariga e’tibor kuchaytirilib, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlari tizimida litseylar, kollejlar, biznes mакtablari ochildi, 8 ta institutlar asosida universitetlar tashkil qilindi. 2000-yil boshlariga kelib, mamlakatimizda 61 ta oliy, 258 ta o‘rta maxsus o‘quv yurtlari, shu jumladan, 75 ta kollejlarda 360 mingdan ortiq talaba bilim olmoqda. Mustaqilligimiz kelajagi yoshlar qo‘lida ekan bilimdon, ma’naviyatli, mustaqil fikrlab, mustaqil ish yuritadigan yoshlarni, yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda, jamiyatimizning eng katta boyligi, millatimizning intellektual, aql-zakovat boyligi bo‘lmish yigit-qizlarimizni tarbiyalash mamlakatimiz hayotida birinchi darajali vazifa etib qo‘yilmoqda.

Bu borada «Ulug‘bek» (1993-y), «Umid» (1997-y.) jamg‘armalari olib borayotgan ishlar alohida o‘rin tutadi. Faqat «Umid» jamg‘armasi sinovlarida 1997-1999-yillar mobaynida 5500 nafar yoshlар qatnashib, 658 tasi Prezident grantlariga sazovor bo‘ldi. 2000-2001 o‘quv yilidagi bu tanlovda 3000 nafar yoshlар bilimi sinovdan o‘tkazilib, ulardan 124 nafari xorijiy davlatlarning eng nufuzli o‘quv yurtlarida o‘qishga tuyassar bo‘ldi.

Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq xalq ta’limi tizimini jadal isloh qilishga kirishildi. Bir qator o‘quv yurtlarning maqomi, dasturlari va ta’lim uslublari butunlay o‘zgartirildi. Zamonaviy, shu paytgacha bo‘lmagan eng zarur ixtisosliklar bo‘yicha alohida universitet va institutlar, jumladan, Mudofaa vazirligi qoshidagi harbiy akademiya, Ichki ishlar vazirligi qoshidagi Ichki ishlar akademiyasi, Bank moliya akademiyasi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent aviatsiya instituti, Navoiy tog‘-konchilik instituti kabi o‘nlab yangi o‘quv muassasalari tashkil etildi. Abiturient va talabalarning bilim darajasini test va reyting asosida baholashning ilg‘or usullari joriy etildi. Ilg‘or mamlakatlarning tajribalari asosida yangi tipdag‘i litsey va gimnaziyalar ochildi. O‘zbekistonda gimnaziyadan tortib akademiyagacha bo‘lgan zamonaviy, yangi ta’lim tizimi vujudga keltirildi. 1997-yil ta’lim tizimida katta burilish yuz berdi. Oliy Majlisning IX sessiyasi «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va u asosida «Kadrlar tayyorlash dasturi»ni qabul qildi. Bo‘lar mamlakatimiz ravnaqi va kelajagini belgilab beruvchi hujjatlar bo‘lib, milliy tiklanishning ma’naviy asosini tashkil qiladi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga milliy g‘oyaning bir qismi deb qaraladi. Chunonchi kadrlar tayyorlash milliy modeliga asos solindi. Shaxs davlat va jamiyat, shuningdek fan va ishlab chiqarish o‘rtasida uzviybog‘liklik bo‘lishiga imkon tug‘ildi.

Bu hujjatlar asosida O‘zbekistonda 9 yillik umum ta’limdan so‘ng, 3 yillik akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarida ixtiyoriy-majburiy ta’lim joriy etildi. Ta’lim islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirildi:

1 bosqich - 1997-2000 yillarni ichiga olib, unda ta’limning huquqiy-me’yoriy, ilmiy-metodik, moddiy shart-sharoitlari yaratilmoqda. Hozirgi kunga kelib o‘zluksiz ta’limning tamomila yangi huquqiy-me’yoriy negizi yaratildi, islohotlarning samaradorligini aniqlash maqsadida monitoring tizimi joriy qilindi, davlat ta’lim standartlari ishlab chiqildi, dastur va darsliklarning yangi avlodni ishlab chiqilmoqda, pedagogik kadrlarni, ta’lim muassasalarni atstattsiya va akkreditatsiyadan o‘tkazish asoslari ishlab chiqildi va h.k .

2 bosqichda – 2001-2005-yillarda milliy dasturni to‘liq amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda.

3 bosqichda – 2005-yilda undan keyingi yillarda to‘plangan tajribalar asosida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish ko‘zda tutilgan edi.

Yosh avlodni tarbiyalash masalasi ustivor yo‘nalish sifatida davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, davlatimiz ichki iqtisodiy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda uni dastavval moddiy jihatdan qo‘llab quvvatlash maqsadida tadbirlar ishlab chiqildi.

Ta’lim tizimiga qilinayotgan sarf-harajatlar darjasini bo‘yicha O‘zbekiston jahonning yetuk mamlakatlariga yaqinlashib bormoqda. Davlat tomonidan 1998-yilda ta’lim sohasiga yalpi ichki mahsulotning 7,8 foizi miqdorida mablag‘ ajratilgan bo‘lsa, 1999-yilda-8,1 foiz mablag‘ sarflandi. Bu esa faqatgina ikki yil mobaynida turli viloyatlarda 250 ta yangi tizimdagagi akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini tashkil etishga imkon berdi. Xususan Qashqadaryoda ham 1 ta akademik litsey va 9 ta kasb-hunar kolleji barpo etildi. Yoshlar hayoti bilan bog‘liq muammolarga ham alohida e’tibor berilmoqda. Ularning intellektual salohiyatini oshirish, ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy ximoyalar, iste’dodli va iqtidorlilarni rag‘batlantirish maqsadida bir qancha jamg‘armalar tashkil etildi.

1997-yilda tashkil etilgan «Umid» jamg‘armasining asosiy vazifasi iste’dodli yoshlarni tanlash va ularni chet ellardagi nufuzli o‘quv yurtlarida ta’lim oldirish. Xorijiy mamlakatlarga o‘qish uchun nomzodlarni tanlashda dunyodagi mashhur tashkilotlar, jumladan, Aksels, Ayreks, Britaniya Kengashi, Daad, Tasis ishtirok etadilar. 1997-1999-yillarda «Umid» jamg‘armasi orqali 700 nafardan ortiqroq talaba yoshlar xorijga o‘qishga jo‘natildi. SHu jumladan 30 nafar Qashqadaryolik yoshlar ham. Ta’lim sohasini malakali professor va o‘qituvchilar bilan taminlash borasida 1997-yilda tashkil etilgan «Ustoz» jamg‘armasi ham katta xissa qo‘shamoqda «Ustoz» jamg‘armasi faoliyatini faqatgina bir yo‘nalish, ya’ni chet ellardagi yetakchi o‘quv yurtlarida o‘qituvchilarning malakasini oshirish bo‘yicha qilingan tadbirlar natijasida 1998 yilda 71 nafar o‘qituvchi xorijda malakasini oshirgan. 980 nafari Vatanimizda chet ellik mutaxassislar ishtirokida malaklarini oshirdilar. «Ustoz» grantiga sazovor bo‘lgan 185 kishi AQSh va Isroilda malaka oshirib keldilar. Shubxasiz, ta’lim sohasidagi bugungi kunlarda qilinayotgan tadbirlar mazkur tizimning samaradorligini oshirish, keljakda mamlakatni yuksak malakali mutaxassislar bilan ta’minalash imkonini beradi.

Mustaqillik yillarida xalq ta’limini isloq qilish, kadrlar tayyorlash tizimini mustahkamlash sohasida muhim chora – tadbirlar amalga oshirildi. Yangi oliv o‘quv yurtlari tashkil etilib, bilimlarning yangi tarmoqlari bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. 2004-yil 21-may – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2004 – 2009-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish davlat umummilliyl dasturi to‘g‘risida»gi farmoni e’lon qilindi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi ta’lim sohasini tubdan isloq qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

Milliy dasturda, hayotimizning barcha sohalarida bosqichma – bosqich amalga oshirilayotgan islohotlarga monand ravishda, ta’lim islohotlarini uch bosqichda amalga oshirish nazarda tutilgan.

**Birinchi bosqich** (1997 – 2001-yillar)da mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida Ushbu tizimni isloq qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy – uslubiy, moliyaviy –

moddiy shart – sharoitlar yaratish vazifalari ro‘yobga chiqariladi.

**Ikkinch bosqich** (2001 – 2005 yillar)da Milliy dastur to‘liq ro‘yobga chiqadi, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlarni hisobga oлган holda unga aniqliklar kiritiladi.

**Uchinch bosqich** (2005 va undan keyingi yillar)da to‘plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtiriladi va rivojlantiriladi.

Prezidentning 2004-yildagi farmoni asosida 2004–2009-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish davlat umummiliy dasturi qabul qilindi. Dastur doirasida yangi maktablar qurildi, boshqalari kapital ta’mirlandi; aniq va tabiiy fanlardan o‘quv laboratoriyalar zarur uskunalar bilan jihozlandi. Umumiyo‘rta, umuman, ta’limning barcha bosqichlarida yangi o‘quv dasturlari, davlat ta’lim standartlari yaratildi. Maktab darsliklari tamomila yangilandi hamda fan va amaliyot yutuqlari bilan boyitish bo‘yicha takomillashtirib borildi. Multimedia o‘quv adabiyotlari ham yaratilishi yo‘lga qo‘yildi. Respublikada 10 mingga yaqin maktablar ishlab turibdi. Ularning moddiy-texnika ta’minoti ham davlat hisobidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq umumiyo‘rta ta’limning to‘qqiz yillik etib belgilanishi munosabati bilan to‘qqiz yillik maktabni tugatgan barcha o‘quvchilar ta’lim olishni o‘rta maxsus yoki kasb hunar kollejlarida ta’lim olishni davom ettirdilar. Bu yangi ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 1-bosqichi (1997–2001) doirasida amalga oshirildi. Shu davr mobaynida 300 ga yaqin yangi turdagи ta’lim muassasalari ochildi. Oliy o‘quv yurtlari qoshida 46 ta litsey tashkil etildi, 800 ga yaqin o‘quvchi chet ellarda ta’lim oldi, ko‘pgina o‘qituvchilar xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish maqsadida chet mamlakatlarga borib qaytdi. O‘rta maxsus ta’lim sohasida viloyatlarda, joylarda biznes maktabi, kichik va o‘rta maktab uchun kasb-hunar kurslarining ochilishi, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda, yangi mutaxassislik (fermer, soliq va bojxona xodimi, audit va hokazo) lar kiritildi. Unga binoan, yurtimizda 1997-yildan boshlab hozirga qadar 1400 dan ortiq kasb-hunar kolleji, 200 ga yaqin akademik litsey bunyod etildi. Ular sohalar bo‘yicha mutasaddi tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalariga ham biriktirilishi tufayli bu bosqichda o‘quv jarayoni samarali tashkil etilib, kollej bitiruvchilarini ish bilan ta’minlanishiga e’tibor qaratilganiga qaramay, bu borada qoniqarli natijaga erishilmadi.

2017-yil umumta’lim va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi tizimida tub islohotlar yili bo‘ldi. Xalq qabulxonalarini va Prezidentning virtual qabulxonasiiga tushgan taklif va mulohazalar, shuningdek, respublika maktablaridagi bitiruvchilarining ota-onalari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnama natijalaridan kelib chiqib, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 9+3, ya’ni 12-yillik majburiy ta’limdan 11-yillik ta’limga qaytildi. 2017-yilning o‘zida 10-sinf o‘quvchilari uchun 9 mln. nusxa darsliklar chop etildi va 10 mingga yaqin umumta’lim maktabida 11-yillik ta’limga o‘tilgan holda o‘qitish tizimi yo‘lga

qo‘yildi.

Maktabgacha ta’lim tizimi uzlusiz ta’limning birlamchi, eng asosiy bo‘g‘inidir. Maktabgacha ta’lim, 6–7 yoshgacha oilada, bolalar bog‘chasida va boshqa ta’lim muassasalarida olib boriladi. Mutaxassislarining ilmiy xulosalariga ko‘ra, inson o‘z umri davomida oladigan barcha axborot va ma’lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi. Shu bois, bolalarning sog‘lom va bilimli, yetuk kadrlar bo‘lib voyaga yetishida bog‘cha tarbiyasi juda muhim o‘rin tutadi. Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minalash maqsadida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 30-sentabrda «Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish to‘g‘risida»gi farmonni imzoladi. Unga ko‘ra, Maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etildi. Yangi vazirlik tizimiga Qoraqalpog‘iston maktabgacha ta’lim vazirligi, Toshkent shahri maktabgacha ta’lim bosh boshqarmasi, viloyatlarning maktabgacha ta’lim boshqarmalari va ularning shahar va tumanlardagi bo‘limlari kiradi.

*Oliy ta’lim va undan keyingi ta’limning takomillashtirilishi.* 1992-yil martda viloyatlardagi pedagogika institutlari negizida Andijon Davlat universiteti, Buxoro Davlat universiteti, Termiz Davlat universiteti, Urganch Davlat universiteti, Qarshi Davlat universiteti tashkil qilindi. Prezidentning 1992-yil fevraldagi farmoni bilan yana sakkizta viloyat pedagogika institutlariga universitet maqomi berildi. Eng zamonaviy ixtisosliklar bo‘yicha alohida universitet va institutlar, jumladan, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Navoiy konmetallurgiya instituti, Mудofaa vazirligi qoshida Harbiy akademiya, Ichki ishlar vazirligi qoshida Ichki ishlar akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi kabi o‘nlab yangi oliy o‘quv yurtlari tashkil etildi. Toshkent davlat elektrotexnika va aloqa texnikumi institutga aylantirildi.

1993-yil «O‘zbekistonda o‘quvchi-yoshlarni rag‘batlantirish choralari to‘g‘risida»gi talaba va aspirantlar uchun maxsus stipendiyalar belgilandi. Mamlakat qishloq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan va zamonaviy bilimlar sohibi bo‘lgan yuqori malakali oliy va o‘rta maxsus ta’lim olgan mutaxassis kadrlarni Toshkent Davlat Agrar universiteti, Andijon, Samarqand Qishloq xo‘jaligi, Qarshi Muhandislik iqtisodiyot, Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash instituti ish boshladi. Mamlakat viloyatlarida oliy universal ta’limni joriy etishda rivojlangan davlatlar tajribasiga suyanib ish tutildi. 1992-yil dastlab respublikamizning 6 ta oliy ta’lim muassasasida test sinovi asosida o‘qishga qabul qilish tajribadan o‘tkazilgan edi. 1993-yilda esa 46 ta oliy ta’lim muassasalarining 19 tasida tajriba tariqasida test sinovlari o‘tkazildi. 1994-yil Davlat test markazi tashkil etilib, shu yildan boshlab oliy ta’lim muassasalariga test orqali qabul joriy etildi. 1996-yildan ta’lim olishda kontrakt-shartnoma to‘lovi joriy etildi. 1997-yilgi «Talim to‘g‘risida»gi qonunga muvofiq 5-yillik oliy ta’limdan 4-yillik bakalavriat va 2-yillik magistratura bosqichlaridan iborat ikki pog‘onali tizimga o‘tildi. Shuningdek, Prezidentning 2013-yildagi «Yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq yuridik institut universitet maqomida qayta tashkil etildi, 2014-yildagi

qarori asosida Toshkent davlat stomatologiya instituti ta'sis qilindi. Malaka oshirish tizimi ham tubdan isloh qilindi. Xalq va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari qatorida oliy ta'lim, tarmoq sohalarida kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlari tamomila yangi bosqichga ko'tarildi. Prezidentning 2015-yildagi «Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoniga asosan 15 yetakchi oliy ta'lim muassasalari – tayanch oliy o'quv yurtlari sifatida belgilandi.

*Oliy ta'limda xalqaro hamkorlik.* Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining amalga oshirilishi natijasida O'zbekistonda nisbatan qisqa muddatlarda dunyoning yetakchi davlatlarida ta'lim sohasida erishilgan ilg'or yutuqlarni, milliy an'analarni o'z ichiga olgan prinsip jihatdan yangi modeli tashkil qilindi.

Mustaqillik yillarda oliy ta'lim tizimida olib borilgan izchil islohotlar natijasida mamlakatimizda bir qator chet el universitetlarining filiallari ochildi. Jumladan, Buyuk Britaniyaning Xalqaro Vestminster universiteti, Toshkent shahrida M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, I.M. Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz davlat universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Italiyaning Turin politexnika universiteti filiallari ish boshladi. Shuningdek, Toshkentda G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi va Janubiy Koreyaning Inha universiteti filiallari ham o'zbek yoshlariga o'z ta'lim sirlarini o'rgatmoqdalar.

2017-yil 10-yildan ortiq vaqt mobaynidagi tanaffusdan keyin, davlat va jamiyatdagi malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlar inobatga olinib, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan sirtqi ta'lim tizimi tiklandi, maxsus sirtqi ta'lim takomillashtirildi.

2017-yil 16-noyabrda O'zbekiston Prezidentining «Respublika oily ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, 2018/2019 o'quv yilidan boshlab alohida iqtidor talab etiladigan madaniyat, san'at, dizayn, tasviriy va amaliy san'at, musiqiy ta'lim, san'atshunoslik, sport va jismoniy tarbiya sohasidagi ta'lim yo'nalishlarida test sinovlari bo'lmaydi. Masalan, O'zbekiston davlat konservatoriysi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti va alohida iqtidor talab etadigan ta'lim yo'nalishlariga faqat ijodiy imtihonlar orqali qabul qilish yo'lga qo'yiladi. Tibbiyotga oid oliy ta'lim tizimida ham bir qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, tibbiyot sohasida bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'qish muddati 7-yildan 6-yil va tibbiy profi laktika yo'nalishida 6-yildan 5-yil etib belgilandi.

*Oliy ta'limdan keyingi ta'lim.* 2012-yilga qadar aspirantura (3-yil) va doktarantura (3-yil)dan iborat bo'lib, 2012–2017-yillarda bir bosqichli doktarantura faoliyat olib bordi. 2013–2017-yillar oralig'ida faqat 360 ga yaqin tadqiqotchi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Bu esa respublikadagi oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari uchun oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondira olmadi. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, ilmiytadqiqot faoliyatida

yoshlarning intellektual salohiyatini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida hamda bir qator ilg‘or xorijiy mamlakatlarning xalqaro amaliyotini o‘rgangan holda 2017-yilning 1-iyulidan boshlab oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limning ikki pog‘onali tizimi joriy etildi. Birinchisi – dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog‘i bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi tayanch doktorantura va ikkinchisi – dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog‘i bo‘yicha fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi doktorantura tizimidir.

## **10-mavzu. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi (2 soat).**

**Reja:**

1. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining iqtisodiy yangilanishi.
2. Qoraqalpog‘iston Respublikasida qishloq xo‘jaligi sohasidagi o‘zgarishlar.
3. Ma‘naviy-madaniy sohadagi o‘zgarishlar.
4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi oliy ta’lim tizimi va undagi islohotlar.
5. Mustaqillik yillari Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik ahvolni yaxshilash borasidagi davlat siyosati.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Qoraqalpog‘iston, islohot, iqtisodiy yangilanish, qishloq xo‘jaligi, oliy ta’lim tizimi, ekologik ahvol.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлнимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2018.
3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 1992; ...
4. Қорақалпоғистон Республикасининг Конституцияси. – Нукус, 1993.
5. Jo‘raev N. O‘zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. – To‘ldirilgan, qayta nashr. –Т.: G‘afur G‘ulom, 2009.
6. O‘zbekiston tarixi / R.H. Murtazayeva umumiy tahriri ostida. – Т.: Yangi asr avlodi, 2005.
7. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Т.: Шарқ, 2000.
8. Қорақалпоғистон тарихи фани бўйича маъruzalар. –Нукус: 2011.
9. <http://karakalpakstan.uz/uz> - Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Қорақалпоғистон Республикаси давлат ҳукумат портали.

1990-yil 14-dekabrda Qoraqalpog‘iston ASSR Oliy Soveti IV sessiyasida «O‘zbekiston SSR tarkibida Qoraqalpog‘iston ASSR suvereniteti to‘g‘risida Deklaratsiya» qabul qilindi. Mazkur Deklaratsiya 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi” Qonunda o‘zining huquqiy asosini topib, 1 va 17-moddalarida Qoraqalpog‘istonning hududiy yaxlitligi va mustaqilligi e’tirof etildi. Har ikki respublika o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasida (70-75-moddalar) o‘z aksini topdi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy Kengashi o‘zining XII sessiyasida (1993-yil 9-aprel) Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Konstitutsiyasini qabul qildi. Qoraqalpog'iston milliy davlatchiligi o'z taraqqiyoti tarixida birinchi marta insonparvar, adolatli, demokratik imtiyozlarga ega bo'ldi. Ayni paytda u suveren respublikaning barcha atributlariga ega. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Majlisining 1992-yil 14-dekabrda bo'lib o'tgan XI sessiyasida Qoraqalpog'iston Davlat bayrogi, 1993-yil 9-aprelda bo'lib o'tgan XII sessiyasida Davlat tamgasi, 1993-yil 4 dekabrda bo'lib o'tgan XIV sessiyasida Davlat madhiyasi tasdiqlandi. Parlament - Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengesi hisoblanadi. 86 deputatdan iborat. Quyidagi davlat arboblari Parlament raislari bo'lib ishladi: Dauletbay Shamshetov (1991-1992), Ubbiniyaz Ashirbekov (1992-1997), Timur Kamalov (1997-2002). 2002-yili 2-may kuni bu lavozimga Musa Tajetdinovich Yerniyozov saylandi. Oliy Kengashdan farki Juqorg'i Kengashga savlov ko'ppartiyaviylik asosida o'tkaziladi. Bugungi kunda O'zbekiston markaziy budgetidan Qoraqalpog'istonga berilayotgan moliyaviy yordam miqdori 9 milliarddan oshiq so'mni, yoki butun Qoraqalpog'iston budgeti xarajatlarining 75 foizini tashkil etmoqda. O'zbekiston hukumatining amaliy yordami Qoraqalpoq xalqining fidoiy mehnati tufayli keyingi yillarda Qoraqalpog'istonda aholi turmush sharoitini yaxshilash, tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish borasida qator ijobjiy natijalarga erishildi.

Eng avvalo, elda tinchlik va barqarorlik mustahkamlandi. Hamjixatlik bilan yurt istiqboli yo'lida mehnat qilishga sharoit yaratildi. Respublikada mulkchilikning yangi shakllari paydo bo'la boshladi. Ishlab chiqarish va xizmat sohasida nodavlat sektorning hissai oshib bordi. Sanoat, qishloq xujaligi va savdoda nodavlat sektori hissasi 80-90 foizni tashkil etmoqda. Respublika iqtisodiyotining boshqa yo'naliishlarida ham islohotlar izchil amalga oshirila boshlandi. Jumladan, bank tizimida ham jiddiy islohotlar amalga oshirildi. Bu yerda davlat banklar bilan birga tijorat va xususiy banklari ham faoliyat ko'rsatmoqda.

Agrosanoat bank va sanoatqurilish bank ixtisoslashtirilgan hissadorlik tijorat banklariga aylantirildi. "Tadbirkorbank", "Asakabank", "Alokabank", "Sabzavotbank", "Zaminbank", "Turonbank", "Savdogarbank", "Gallabank" Qoraqalpog'iston bo'limlari tashkil etildi. Qoraqalpog'iston tarixida birinchi marta tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil etildi. Qoraqalpog'istonda ulgurji va birja savdosi bilan shugullanuvchi hissadorlik uyushmalari keng faoliyat ko'rsatmoqda. Tovar ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar va ishbilarmonlarning butun imkoniyatlarini ishga solish maqsadida ularning erkinligi va teng huquqligini ta'minlash choralar ko'rildi.

Qoraqalpog'istonda 51 ta mayda ulgurji tizim, shu jumladan 4-ta savdo uyi, 35-ta mayda ulgurji savdo dukonlari va omborlar, 32-ta ko'tara savdo bazasi hamda O'zbekiston tovar xom ashyo birjasи Qoraqalpog'iston bo'limi, 19-ta supermarket do'konlari faoliyat ko'rsatdi. 1999-yilning birinchi yanvarigacha bo'lgan ma'lumotlarga qaraganda xususiylashtirishdan tushgan mablag'larning umumiyyat hajmi 650 million so'mni tashkil etdi. Uning 20 foizi respublika ijtimoiy taraqqiyotiga ajratildi. 50 foizi esa tadbirkorlarni qullab-qo'vvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar ajratishga sarflandi. Shu bilan birga

Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat mulkini xususiyashtirish qumitasi xususiyashtirilgan korxonalar va tadbirkorlarni qullab-quvatlash maqsadida 13,8 million so‘m kredit ajratdi. 2000-yilga kelib 2932 korxona xususiyashtirildi. Bozor fondining faoliyati sezilarli ravishda faollashdi. 2000-yilga kelib respublika fond birjalari filiallarida 958 million so‘mlik aksiyalar sotildi. Respublikada 7807 kichik va o‘rta ishbilarmon korxonalar, 8977 yakka tartibdagi tadbirkorlar ro‘yxatga olindi. 1996-yil yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 10 mlrd 355,7 mln so‘mni tashkil etdi. Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida nodavlat korxonalarining ulushi 90 foizga o‘sdi. Respublikada 1996-yilda amaldagi narxlarda 10 mlrd 754,4 mln so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarildi.

Paxtadan ip ishlab chiqarish, ip gazlamalari, tayyor trikotaj buyu-mlar, iste’mol mahsulotlaridan un, makaron, mineral suvlar ishlab chiqarish ko‘paydi. Yigma temir-beton konstruksiyalari va detallari, toshdan bezakli materiallar tayyorlash, qandolatchilik mahsulotlari, o‘simlik yog‘i, uzum vinosi, salqin ichimliklar, aroq, osh tuzi ishlab chiqarish o‘sdi. Sanoatda bir qator ijobjiy o‘zgarishlar yuz berdi. Jumladan, 1995-yilda Xo‘jayli shahrida shisha idishlar zavodi qurilib foydalanishga topshirildi. 1996-yilda Qungirotda “Urga” gaz sanoati korxonasida gaz kondensati va tabiiy gaz qazib chiqarilishi boshlab yuborildi. Aholini gaz bilan ta’minalash darajasi 83 foizga yetdi. “Qoraqalpoqqurilish” aksionerlik jamiyatida Italiya firmalarining yuqori sifatli jihozlari bilan jihozlangan, yiliga 60 ming kv.m. marmar bloklari va plitalari ishlab chiqaradigan yangi mramor sexi ochildi. “Nukusun” zavodida esa spirt ishlab chiqaradigan yangi sex qo‘rildi.

Yengil sanoat ishlab chiqarishning bazasi kengaya bordi. 1993-yili Nukusda “Kateks” to‘qimachilik majmuasi, 1995 -yili Ellikqal’a tumanida “Elteks” to‘qimachilik majmuasi foydalanishga topshirildi. Nukus va Qo‘ngirot un kombinatlari, To‘rtko‘lda 3 mln shartli banka konserva mahsulotlari ishlab chiqaradigan zavod, Ellikqal’a tumanida esa shunday quvvatga ega konserva sexi foydalanishga topshirildi. 1995-yilda Qo‘ng‘irot tumanida Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan yiliga 190 ming tonna kalsiyli soda ishlab chiqaradigan zavod qurilishi boshlandi.

Zavod tarkibida kimyoviy yo‘l bilan ekologik toza va energiya sarflanmaydigan kaustik soda ishlab chiqarish ham ko‘zda tutilgan. Bu zavod 600 mln dollarga qurildi. Qo‘ng‘irot-Beynov avtomobil trassasi, Navoiy-Uchquduq-Nukus temir yo‘li qo‘rildi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish natijasida 144-ta sanoat korxonasidan 113-tasi mulkchilikning turli shakllariga o‘tib ishlay boshladi. Lekin ko‘p sanoat korxonalarining asosiy ishlab chiqarish fondlari (dastgoxlar, mexanizmlar) ma’naviy va jismoniy jixatdan eskirgani sezilib koldi. Ularning eskirish darajasi 35 foizdan yoqori edi. Eng avvalo yigiruv-tikuv fabrikalari, go‘sht-sut va oziq-ovqat sanoati korxonalarini (konserva zavodi, vino zavodi) ishlab chiqarish parklarini yangilash talab etildi.

Qoraqalpog‘istonda mehnatga layoqatli aholining asosiy qismi qishloqda istiqomat qiladi. Agrar sektorda ham iqtisodiy qayta qurish, bozor

munosabatlariga o‘tish ruy berdi. 1997-yil 1-yanvar xolatiga respublikada 263 qishloq xo‘jalik korxonasi faoliyat ko‘rsatdi. Nodavlat sektorning jami ishlab chiqarilgan mahsulotdagi ulushi 98,3 foizni tashkil etdi.

Paxta yetishtirishda nodavlat korxonalarining hissasi 97,8 foizni, donchilikda 98,1 foizni, kartoshkachilikda 99,7 foizni, sabzavotchilikda 98,8 foizni, polizchilikda 95,1 foizni, bogdorchilikda 98,5 foizni, pillachilikda 100 foizni, gusht yetishtirishda 98,9 foizni, sut va tuxum ishlab chiqarishda 99,4 foizni, qorako‘l teri va jun yetishtirishda 100 foizni tashkil etdi. Dehqonchilikda ekin maydonlarining tarkibi o‘zgardi. Galla maydonlari ekin maydonlarining 35,8 foizini tashkil yetdi. Bo‘gdoy va kartoshka yetishtirish 3 marta, uzum yetishtirish 4 martaga ko‘paydi. Qoraqalpog‘istonda dehqon fermer xo‘jaliklari tashkil etish buyicha yetarli tajriba to‘plandi. 1998-yilga kelib 1686 fermer shirkatlar uyushmali tashkil etildi. Ellikqal‘a tumanida mavjud 14-ta jamoa xo‘jaliklari dehqon-fermer xo‘jaliklari uyushmasiga aylantirildi. Dehqonlarga meros qilib qoldirish huquqi bilan yerlar uzoq muddatga ijaraga berildi. Ammo Qoraqalpog‘istonda ana shu tajribani ommalashtirishga mutlaqo e’tibor berilmadi. 1992-yili Qoraqalpog‘iston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tashkil etildi. 1992-2000-yillarda Jahon banki, Yevropa rivojlanish banki va boshqa firmalar bilan 100 ortiq shartnomalar tuzildi. Respublikada 303 ortiq qo‘shma korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Qoraqalpog‘iston Respublikasining tashqi savdodagi asosiy sheriklari Rossiya, AQSH, Janubiy Koreya, Shveysariya, Niderlandiya hisoblanadi. Asosan paxta tolasi, toladan olinga mahsulotlar, qayta ishlangan neft mahsulotlari, buyan tomirlari sotiladi. Eksport qilingan tovarlar hajmi 1996-yilda 122,9 mln dollarga teng bo‘ldi. Garb mamlakatlarda eksport qilingan xom ashyo 113,6 mln dollarni tashkil etdi. Paxta tolasi jami eksport mahsulotlarining 95 foizini tashkil etdi. Tashqi savdo oborotida importning salmogi 1996-yilda 46,2 foizni tashkil qildi. Import mahsulotlari tarkibiga asosan xalq iste’mol mollari, qora va rangli metallar, oziq-ovqat mahsulotlari kiradi.

Yaqin xorijiy mamlakatlardan asosan shakar, bug‘doy, mashina va jihozlar, agregatlar va ularning extiyot qismlari, quvurlar, avtomashinalar, ishlab chiqarishni komplektlovchi materiallar keltirildi. Lekin respublikaning imkoniyatlaridan to‘la foydalanimayapti. Masalan, 1999-yili respublika hududida 70-ga yaqin foydali qazilma konlari aniqlandi. Mustaqillik yillarda respublikada ijtimoiy sohalar rivojlanishiga e’tibor kuchaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1992-yili 2-sentabrda “Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish, ijtimoiy va ekologik muammolarni yechishni jadallashtirish choratadbirlari to‘g‘risida” 405-sonli qaror qabul qildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholi punktlarini elektrlashtirish to‘la hal qilindi. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash darajasi 59,5 foizga yetdi. 1992-1996-yillarda Tuyamuyin suv omboridan respublika aholi punktlariga 2 ming 885 km vodoprovod tarmogi olib kelindi. 4057,5 km gaz tarmoklari yetkizildi va tabiiy gaz bilan ta’minlash 85,4 foizni, shu jumladan shaxarda 99,4 foizni, qishloqda 72,4 foizni tashkil etdi. Ko‘plab sog‘liqni saqlash ob’ektlari, kasalxonalar, poliklinikalar, tug‘ruqxonalar

va turar-joy binolari qurildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalqi birinchi Prezident I.Karimovning BMT minbaridan turib dunyo mamlakatlarini Orol dengizini saqlab qolishga qarata chaqirig‘ini katta qiziqish bilan ko‘tib oldi. Uning tashabbusi bilan 1994 -yil 14 yanvarda Nukusda Markaziy Osionying beshta davlat Prezidentlari hamda Rossiya Federatsiyasining vakillari ishtirokida o‘tkazilgan uchrashuvda Orolga va Orolbuyi aholisiga amaliy yordam berish masalasi muxokama etildi. 1995-yili xalqaro konferensiyada Nukus Deklaratsiyasi qabul qilinib, unda butun dunyo jamoatchiligi e’tibori Orol muammosiga qaratildi. Deklaratsiyada ovul va o‘rmon xo‘jaliklarini ilmiy tizimga o‘tkarish, suv resurslarini foydalanishning iqtisodiy usullari va texnologiyasini ishlab chiqish, hududning tabiiy resurslarin boshqarish tartibini takomillashtirish, ushbu hududda yashovchi odamlarning turmush darajasini yaxshilash masalalari kun tartibiga qo‘yildi. 1995-yili 24 oktabrda BMTning 50-yilligina bag‘ishlangan Bosh Assambleya majlisida birinchi Prezident I.A. Karimov “bugungi kuni xalqaro finans tizimlari bilan rivojlangan davlatlar qullab-quvatlashisiz, BMTning tashkiliy roolisiz bu muammoni yechish mumkin emas” deb aytdilar. Markaziy Osiyo davlatlari uz kuchlari va chet el donorlari yerdami bilan 2 mlrd 686 mln dollar investitsiya tupladi. Shundan 856,25 ming dollar 1997-yili yuqoridagi ishlarga berildi. Orolni qutqarish fondi Nukus filiali tashkil etildi. Bu xarajatlar kupincha grantlarga berilmoqda.

Ma’naviy qadriyatlarni qayta tiklashda Qoraqalpog‘iston Respublikasi bayramlarini tashkil etish muhim rol uynadi: 21-mart – Navro‘z, 1-yanvar – Yangi yil, 8-mart – Xotin-qizlar kuni, 9-aprel – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni, 9-may – Xotira kuni, 1-sentabr – Mustaqillik kuni, 1-oktabr – Ustozlar kuni, 1-dekabr – Qoraqalpoq tili kuni, 8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni, Ro‘za xayiti, Qo‘rbon xayiti. Mustaqillik yillarida Nukus shahrining 60 va 70-yilligi, To‘rtko‘l shahrining 120-yilligi, Ajiniyoz Qasiboy o‘gli va Berdaq Qarg‘aboy o‘glining 170-yilligi, Nukus pedagogik institutining 60 va 70-yilligi, Qoraqalpoq universitetining 25-yilligi, Alliyor Dustnazarovning 100-yilligi, Yernazar Alakozning 200-yilligi, I.Yusupov va T.Qaipbergenovlarning 70-yilligi keng nishonlandi. Nukus pedagogik institutiga Ajiniyoz shoir nomi, Qoraqalpoq universitetiga Berdaq nomi berildi. Berdaq va Ajiniyoz, Ulug‘bek haykallari o‘rnatildi, Berdaq muzeyi, Amet va Aimxon Shomuratovlar muzeyi tashkil etildi. 1994-yili Qoraqalpog‘istonda Ma’naviy madaniyat va ma’rifat markazi tashkil etildi. Shuningdek “Oltin meros”, “Amir Temur”, “Nuroniy”, “Navro‘z” fondlari tashkil etildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining fidoyi farzandlari Allaniyoz Otaniyozov, Agitoy Odilov, Onesya Saitova, Tulepbergen Qaipbergenov, Ibroxim Yusupovlar “O‘zbekiston Qaxramoni” unvonini oldilar. 1993-yil respublika Vazirlar Kengashi qoraqalpoq tilida yangi lotin yozuviga o‘tish haqida qaror qabul qildi. Bilim nashriyotidan 1996-1997-yillarning darsliklar lotin yozushi asosida chop etildi. 1993-yili Nukusda turk-qoraqalpoq litseyi tashkil etildi. 1990-yilda Qoraqalpoq universiteti uchta fakulteti va ikkita bulimi asosida Nukus davlat pedagogik instituti qayta tashkil etildi. 1991-yilda

universitetning tibbiyot fakulteti asosida Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Nukus filiali tashkil etildi. Unda talabalar soni 2001-yilda 1000 ga yetdi. 1995-yil yanada universitetning qishloq xujaligi va iqtisodiyot fakultetlari asosida Toshkent agrar universiteti Nukus filiali, Toshkent arxitektura-kurilish instituti Nukus filiallari tashkil etildi. 2005-yil Toshkent informatsion texnologiyalar universiteti Nukus filiali tashkil etildi. Beshta oliy o'quv yurtlarida 9 ming nafar talaba o'qimoqda.

1991-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston filiali bulim statusiga ega bo'ldi. Bulim tarkibida Tariyx, arxeologiya va etnografiya instituti, Bioekologiya, Orol buyi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar instituti tashkil etilib, mustaqillikdan avvalo uchta institut bulsa, yendi 6 ta institut tashkil etildi. Bulimni akademik S.Kamalovdan keyin akademiklar Ch.Abdirov, T.Yeshanovlar boshkardilar. Hozirgi vaktda bulim raisi bo'lib professor Nagmet Aimbetov ishlaydi. Shuningdek, O'zbekiston qishloq xujaligi ilmiy markazi Qoraqalpog'iston bulimi tashkil etilib, tarkibiga Shamurat Musayev nomidagi Chim-boy dehqonchilik instituti, "Sholi" uyushmasi, Oltinko'l stansiyasi, bog'dorchilik, uzumchilik muassalari kirdi. Qishloq xo'jaligi va iqtisodiyot sohalari bo'yicha J.Mambetullayev va B.Mambetnazarov kabi akademiklarimiz mavjud. Bugungi kuni Qoraqalpog'istonda 65 fan doktori, 600 dan ortiq fan nomzodi faoliyat ko'rsatmoqda, shu jumladan 60 foiz fan doktori va 40 foiz fan nomzodlari mustaqillik davrida ilmiy unvonga ega bo'ldi. Ilgari O'zbekiston Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zoligiga saylangan S.Kamalov (1979), Ch.Abdirovlar (1989) katoriga 1994-2000 -yillari J.Bazarbayev, A.Baxiyev, T.Yeshanov, A.Dauletov, X.Xamidov ham qabul qilindilar. 1997-yili esa ikki nafar rassom J.Izentayev va J.Kuttimuratov O'zbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasining akademikligiga saylandi. Tilshunos olimlar M.Kalenderov, R.Yesemuratova, A.Turabayev, K.Dauletbayevlar, faylasuf Polat Seitov O'zbekiston Respublikasi Beruniy nomidagi davlat mukofatini oldilar. Qoraqalpog'iston Respublikasi Berdaq nomidagi davlat mukofotini A.Baxiyev, R.Reimov, L.Konstantinova, J.Bazarbayev, K.Dauletova, M.Ametov, J.Saparniyazov, T.Yeshanov, M.Ajibekov, S.Kamalov, K.Allambergenovlar oldilar.

Ginekolog Orol Ataniyazova xalqaro "Goldman" nomidagi ekologik mukofat egasi bo'ldi. Qoraqalpoq davlat universiteti yenida Qoraqalpoq tili va adabiyoti buyicha doktorlik va nomzodlik, Uz FA Qoraqalpog'iston bulimi tarix, arxeologiya va enografiya instituti yo'nida tarix bo'yicha nomzodlik dissertasiyalarni himoya qiluvchi ixtisoslashgan kengashlar tashkil etilib fan doktorlari va nomzodlari o'zimizda ximoya qiladigan bo'ldi. Tarix fanidan xozirgacha 51 fan nomzodi ximoya qildilar. Respublika olimlari mustaqillik yillarida chet el mutaxassislari bilan xamkorlikda ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

Bioekologiya instituti olimlari Germaniya olimlari bilan birgalikda 1993 - yildan beri Orolbuyi ekologiyasi muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borishmoqda. 1995-yili Muynoqda Germaniya yordamida bioekologiya

institutining xalqaro ekologiya stansiyasi ochildi. Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti olimlari Avstraliyaning Sidney universiteti olimlari va fransuz arxeologlari bilan birgalikda ekspeditsiyalar tashkil etmoqda.

Tarixchilarimiz Qoraqalpog‘iston hududida turizmni targ‘ibot qilish maqsadida “Oltin marshrut”ni ishlab chiqib, unga Mizdaxkon, Ellikqal’ a yodgorliklarini kirgizdilar. 1997-yili sentabrda Nukusda “Qirqqiz” dostoni va turkiy folklorini tadqiq etish muammolariga bagishlangan xalqaro ilmiy anjuman bo‘lib o‘tdi. Mustaqil O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston dolzarb masalalari respublika shoir va yozuvchilari ijodida katta o‘rin egallaydi. O‘zbekiston qaxramonlari, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq shoiri Ibroxim Yusupov, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq yozuvchisi Tulepbergan Qaipbergenovlar qatoriga Tolibay Qabulov, Xalmurat Saparov, Gulaysha Yesemuratova, Kengesbay Raxmonov, Uzakbay Abduraxmanov, Murotbay Nizonov, Kengesbay Reimov, Saginbay Ibroximov, Kengesbay Karimov, Xalila Dauletnazarov, Jiyanbay Izbaskanov, Baktiyor Genjemuratov, Sharapatdin Ayapov, Gulistan Matyakupova, Nabiyra Toreshova, Munayxan Jumanazarova, Gulnara Nurlepesova, Abdimurat Atajanov, Xurliman Uteturatova, Sharigul Payzullayeva, Saylaubay Jumagulov, Bazarbay Kazakbayev va boshqalar kelib qo‘shildi.

1993-yil yanvarda Toshkentda Qoraqalpog‘iston madaniyati kunlari, noyabrda esa Qoraqalpog‘istonda Toshkent madaniyati kunlari o‘tkazildi. 1993-yil Toshkent konservatoriyasida milliy “Ajiniyoz” operasi ijro etildi. 1996-yili Qoraqalpoq xoreografiyasi tarixida birinchi marta “Oyjamol” nomli balet saxnalashtirildi. Kompozitorlardan N.Muxammaddinov, K.Zaretdinov, G.Amaniyazov, Sh.Paxratdinov, T.Yesirkepov va boshkalar mustaqillik yillari yaxshi faoliyat ko‘rsatmoqda. Muyassar Razzakova, Kegesbay Serjanov, Mirzagul Sapayeva, Gulxatiysha Aimbetova, Roza Kutekeyeva, Makset Xujaniyozov, Makset Uteturatov, Gulna-44ra Utepova, Eleonora Kutlipulatova, Anifa Artikova, Gulnara Allamber-genova va boshka kushikchilarimiz butun O‘zbekiston va Markaziy Osiyoga ta-nikli bo‘ldi. Jumabay jirov Bazarov, Baxtiyar jirov Esemuratov, bakshilar Turganbay Kurbanov, Ziyada Sharipova, Zulfiya Arzimbetova, Jarilkagan Yeshanov, Tenel Kalliiev va boshkalar Germaniya, Fransiya va boshka davlatlarda Qoraqalpoq dastanlari va she’rlarini ijro etib, butun dunyoga belgili bo‘ldi.

Qoraqalpoq universiteti “Xurliman” ansambl 2000-yil Toshkentda “O‘zbekiston -Vatanim manim” konkursida 1-o‘rinni egalladi. Mustaqillik yillari Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq milliy san’at muzeyi va Qoraqalpoq ulkashunoslik muzeyi, Berdaq muzeyi milliy o‘zligimizni targibot qilishda katta faoliyat ko‘rsatmoqda. 2002-yil may oyidan boshlab milliy televideniyeda “Assalam Qoraqalpog‘iston” tongi ko‘rsatuvi tashkil etildi. Shuningdek, “Maurit”, “Tarix va taqdир”, “Bayterek”, “Shanarak”, Yoshlar kanali” ko‘rsatuvlari tashkil etildi. Birinchi Prezidentimiz Yerkin Kutibayev, Alisher Auyezbayev, Baxtiyar Nurullayev, Muratbay Baltaniyazov, F.Orazimbetov va boshkalarning sport sohasidagi mardliklarini tan oldi. Mustaqillikning o‘tgan davri - tarix uchun bir lavzadir. Lekin shu muddatda Qoraqalpog‘istonda amalga

oshirilgan ishlar salmogi va ko‘lami bilan bir necha un-yilliklarga teng keladi. Tarixan kiska davrda mamlakatimiz hayotida ham, odamlar turmushida ham keskin burilish yasaldi. Tafakkurimiz tobora kengaydi. O‘zligimizni anglay boshladik.

## **11-mavzu. O‘zbekiston va jahon hamjamiyati (4 soat).**

### **Reja:**

1. O‘zbekistonning geosiyosiy holati.
2. O‘zbekiston Respublikasining mustaqil tashqi siyosati asoslarining ishlab chiqilishi.
3. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari.
4. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalari.
5. O‘zbekistonning Osiyo, Amerika va Yevropa mamlakatlari bilan o‘zaro hamkorligi masalalari.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Geosiyosat, tashqi siyosat, diplomatiya. BMT, EXHT, Evropa Ittifoqi, MDH.

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2018.
3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 1992; ...
4. Jo‘raev N. O‘zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. – To‘ldirilgan, qayta nashr. –Т.: G‘afur G‘ulom, 2009.
5. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. –Т.: Янги аср авлоди, 2012.
6. Shamsutdinov R., Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi. –Т.: Akademnashr, 2019.
7. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
8. O‘zbekiston tarixi / R.H. Murtazayeva umumiy tahriri ostida. – Т.: Yangi asr avlodи, 2005.
9. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Т.: Шарқ, 2000.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясини тўғрисида / Расмий нашр/ Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. –Т.: Адолат, 2018. – 112 б.
11. <https://mfa.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining rasmiy sayti.

O‘zbekistonning geosiyosiy holati. O‘zbekiston Respublikasi o‘ziga xos geografik tuzilishi bilan Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar orasida alohida ajralib turadi. Bunday geografik joylashuvning qulay va noqulay tomonlari mavjud bo‘lib, ular respublikaning geosiyosiy vaziyati va geostrategik manfaatlari, uning ichki va tashqi siyosatini tanlash hamda belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil O‘zbekistonning qulay geosiyosiy imkoniyatlari quyidagicha: uzoq o‘tmishdan Sharq va G‘arb o‘rtasidagi qadimgi savdo-sotiq, madaniy-ilmiy va diplomatik aloqalar yo‘li bo‘lgan Buyuk Ipak yo‘li O‘zbekiston hududidan

o‘tgan. Hozirda ham Yevropa va Yaqin Sharqdan Osiyo – Tinch okeani mintaqasiga olib boradigan yo‘llar Markaziy Osiyodan, uning markazida joylashgan O‘zbekistondan o‘tadi; Markaziy Osiyoning markazida joylashgan O‘zbekiston o‘zining geografik holatidan kelib chiqib, mazkur mintaqada kuchlar nisbati va muvozanatini saqlash, iqtisodiy integratsiya jarayonini rivojlantirish, barqarorlikni ta’minlash, hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatiga ega. O‘zbekiston bugungi kunda qo‘shti davlatlar – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg‘oniston o‘rtasida bog‘lovchi halqa vazifasini o‘tab kelmoqda.

O‘zbekiston o‘zining joylashuviga ko‘ra Markaziy Osiyoning transport, energetika, kommunikatsiya, suv tizimi markazida joylashgan. Tabiiy iqlim sharoiti qulay, ulkan mineral – xomashyo zaxiralari va strategik materiallarga ega, dehqonchilik madaniyati rivojlangan, oziq-ovqat bilan o‘zini ta’minlashga qodir. O‘zini neft, gaz, rangli metallar bilan ta’minlabgina qolmay, ularni yeksport qilish imkoniyatiga ham ega. O‘zbekiston Respublikasining yerostida amaldagi Mendeleyev davriy tizimining barcha elementlari mavjud. Mazkur imkoniyatlari bo‘lgan taqdirda ham O‘zbekiston geosiyosiy joylashuvini noqulayliklardan mustasno deb bo‘lmaydi. Shu jihatdan O‘zbekiston Respublikasiga qiyinchiliklar tug‘diruvchi quyidagi omillar mavjud: O‘zbekiston Fors ko‘rfazi, Kaspiy dengizi havzasasi va Tarim havzasining neft va gazga juda boy konlari joylashgan yarim halqaning strategik markazida joylashgan. Shuning uchun bu hududda butun dunyoda energiya taqchilligi sharoitida ko‘pgina davlatlarning bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlari o‘zaro to‘qnashmoqda. Dunyodagi kuchli davlatlar mazkur mintaqada o‘z manfaatlarni izlamoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston mintaqadagi etnik murosasizlik, narkobiznes va har xil tashqi kuchlar tomonidan rag‘batlantirilib kelinayotgan, ichki mojarolar hali ham tugatilmagan Afg‘oniston kabi davlat bilan chegaradoshdir. O‘zbekiston bevosita dengizga chiqsa olmaydigan, buning ustiga dengiz portlaridan eng uzoqda joylashgan mamlakat hisoblanadi. Qora dengiz, Boltiq dengizi, Yapon dengizi va Shimoliy dengizlarga olib chiquvchi eng qisqa temir yo‘li qariyb 3 ming kilometrni tashkil etadi. Mustaqil O‘zbekistonning, umuman, hamma daryolari hamda respublika hududini kesib o‘tadigan, uzunligi 150 va undan ko‘p kilometrli daryolar 50 tadan oshgan bo‘lishiga qaramasdan, uning suv resurslari cheklangan va ekologik muammolari ham bor. Orol fojiasi ham mamlakatimiz uchun noqulaylik omilidir.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqil tashqi siyosati asoslari. O‘zbekiston o‘z milliy manfaatlariiga asoslangan holda ochiq, o‘zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib boradi. Respublikaning zamonaviy tashiq siyosiy kursi dunyoda va mintaqada shiddat bilan o‘zgarayotgan vaziyat hamda mamlakatning ichidagi keng ko‘lamli o‘zgarishlarga asoslanib shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining bosh maqsadi – davlat mustaqilligi va suverenitetini, xalqaro maydondagi o‘rni va rolini mustahkamlash, yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shtichilik muhitini shakllantirish, respublikaning tashqi iqtisodiy manfaatlarini faol tarzda ilgari surish.

Hozirda xalqaro hamjamiyat mustaqil O'zbekiston diplomatiyasining dastlabki qadamlari, Markaziy Osiyodagi mavqeyi, mintaqa xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni alohida ekanini tan olmoqda. O'zbekiston tashqi siyosatining ma'naviy yo'nalishi, insonparvarlik, oshkoraliq, qadrqimmat, o'z imkoniyatlariiga tayanish va insoniyatning yagona oilasida o'z taraqqiyot yo'liga ega bo'lishdir. Shu bois istiqlol yillarida mamlakatimiz 133 davlat bilan rasmiy diplomatik munosabatlar o'rnatgan, Toshkentda 44 ta chet el elchixonalari, 1 ta bosh konsullik, 8 ta faxriy konsullar, 17 ta xalqaro tashkilotlar vakolatxonalar, 13 ta xorijiy xalqaro hukumatlararo va hukumat tashkilotlari vakolatxonalar, 1 ta diplomatik maqomga ega savdo vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. Xorijiy mamlakatlarda va xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining 55 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalar mavjud. O'zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarning a'zosi bo'lib, mamlakatimiz turli xil ko'p tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan o'zaro sherikchilik aloqalarini rivojlantiradi.

Mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatimizning xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyoti ko'p jihatdan xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalarning yo'lga qo'yilishi bilan bog'liq edi. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosat tizimi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Vazirlar Mahkamasining 1992-yil may oyidagi "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini tashkil yetish masalalari to'g'risida"gi va 1994-yil mart oyida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari asosida shakllantirildi.

1996-yil "O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. 2012-yil sentabrda O'zbekiston Respublikasining "Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiysi" e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiysi – bu davlat tashqi siyosatining prinsiplari va strategik ustuvor yo'nalishlarini, xalqaro maydondagi maqsad va vazifalarini, istiqbolda O'zbekiston milliy manfaatlarni ilgari surish mexanizmlarini belgilab beradigan qarashlarning yaxlit tizimidir.

"O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal yetish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi". O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 17-modda. Mazkur Konsepsiya Markaziy Osiyo mintaqasiga alohida e'tibor qaratilgan va "O'zbekistonning hayotiy muhim manfaatlari shu mintaqa bilan bog'liq" ekanligi rasman e'tirof etilgan. Unda Markaziy Osiyo o'zining muhim geosiyosiy joylashuvi va mineral xomashyo resurslarining ulkan zaxiralariga ega ekanligi tufayli jahon miqyosida kuchli e'tibor obektiga, yirik davlatlarning strategik manfaatlari to'qnashadigan hududga aylanib borayotgani ta'kidlangan. Shuningdek, dunyoning yirik davlatlari tomonidan mintaqada olib borilayotgan o'zaro raqobat inobatga olinib, "Markaziy Osiyo muammolari tashqi kuchlarning aralashuvlari, mintaqadagi davlatlarning o'zlarini tomonidan yechilmog'i zarur", degan fikr bayon etilgan. Konsepsiya O'zbekistonning

tinchliksevar siyosat yuritishi, harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmasligi, har qanday davlatlararo tuzilmalar harbiy-siyosiy blokka aylangan taqdirda, ulardan chiqish huquqini o‘zida saqlab qolishi ta’kidlandi.

Tashqi siyosat tamoyillari. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: mafkuraviy qarashlardan qat’i nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik; davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish; boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; nizolarni tinch yo‘1 bilan hal yetish; kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik; inson huquqlari va yerkinliklarini hurmatlash; ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi; davlatning, xalqning oliv manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo‘stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish; tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik; davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi; tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik kabilar ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab olindi.

Hozirda tashqi siyosiy faoliyatning asosiy va birinchi darajali vazifalaridan biri bu 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini samarali amalga oshirishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun tashqi siyosat idorasi oldiga quyidagi vazifalar qo‘yilgan:

- mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarni hamda jamiyat va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning jadal jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun mumkin qadar qulay tashqi siyosiy shart-sharoitlarni shakllantirish;
- Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, mintaqani xavfsizlik va barqaror taraqqiyot hududiga aylantirish;
- jahoning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik qilishning mutanosib, ko‘p qirrali tizimini shakllantirish;
- O‘zbekistonning mintaqasi va jahon siyosatidagi muhim yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro tashabbuslarini ilgari surish;
- mahalliy mahsulotlarning eksport hajmini oshirish va geografiyasini kengaytirish borasida ko‘maklashish;
- milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va ilg‘or texnologiyalarni jalb etishda faol ko‘mak berish;
- mamlakatimizga turistlarni jalb qilish hamda turistik infratuzilmani rivojlantirish borasida amaliy yordam ko‘rsatish;
- transport va tranzit sohasidagi hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirishda hamda xalqaro transport kommunikatsiyalari va logistik infratuzilmalarni rivojlanishiga ko‘maklashish;
- xorijdagi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslari

huquq va manfaatlarining har tomonlama himoya qilinishini ta'minlash;

- xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash.

Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikning yo'lga qo'yilishi. O'zbekiston tashqi siyosatining yetakchi yo'naliishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan do'stlik, hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan.

Mintaqadagi beshta davlat o'rtasida o'xshash jihatlar ko'p. Tariximiz, madaniyatimiz, tilimiz, dinimizning birligi, tomirlarimizning tutashib ketganligi bu mamlakatlardan xalqlarini bir-biriga yanada yaqinlashtirishning zaminidir. Yangi tarixiy sharoitlarda vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlarining kelib chiqishi, ularning tarixi, o'ziga xos turmush tarzlari va yaqin qo'shnichilik munosabatlariga har qachongidan boshqacharoq qarashni hayot taqozo yeta boshladidi. 1993-yilning yanvarida Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Toshkent uchrashuviga tashkil etildi. Oliy darajadagi bu uchrashuvda Markaziy Osiyo Hamdo'stligiga asos solindi. Besh davlat – Qirg'iziston, Qozog'iston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston rahbarlari Hamdo'stlik haqidagi bitimga imzo chekishdi. Buni mintaqa xalqlari zo'r mammuniyat bilan qarshi oldilar va qo'llab-quvvatladilar.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari 1993-yil Qozog'iston Respublikasining Qizil O'rda shahrida, 1994-yil Nukus shahrida, 1995-yil Turkmaniston Davlatining Doshhovuz shahrida, 1995-yil yana Nukus shahrida Orol dengizi muammosiga bag'ishlangan uchrashuvlar o'tkazdilar va bu borada amaliy ishlar olib bora boshladilar. 1999-yil Turkmanistonning Ashxobod shahrida Orolni qutqarish Xalqaro jamg'armasining majlisi bo'lib o'tdi. Majlisda ekologik falokat mintaqasidagi vaziyatni barqarorlashtirish borasida hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Davlat rahbarlari o'zaro hamkorlik, mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro miqyosdagi masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

2017-yilda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan munosabatida yangi davr boshlandi. Shu yilning o'zida Qozog'iston, Turkmaniston va Qirg'iziston davlatlariga O'zbekiston Prezidentining rasmiy tashriflari amalga oshirildi. 2018-yil mart oyida esa Tojikistonda oliy darajadagi uchrashuv amalga oshirildi. Bundan tashqari, 2017-yil Samarqandda BMT homiyligida "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusida anjuman bo'ldi. Unda 500 nafar xorijiy ishtirokchilar qatnashdi.

O'zbekiston – Qozog'iston. O'zbekistonning Qozog'iston bilan ikki tomonlama munosabatlari 1992-yil iyunda Turkiston shahrida O'zbekiston Prezidentining Qozog'istonga rasmiy davlat tashrifi paytida N.Nazarboyev bilan I.Karimov tomonidan imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma asosida mustahkamlanib bordi. Qozog'iston Prezidenti N.Nazarboyev 1994-yil yanvarda rasmiy davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ldi. Ikki Prezident O'zbekiston

bilan Qozog‘iston o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarning erkin o‘tib turishini nazarda tutuvchi hamda o‘zaro kelishilgan kredit, hisob-kitob, budget, soliq, narx, boj va valuta siyosatini ta’minlash to‘g‘risida shartnomani imzoladilar. 1998-yil oktabrda O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida abadiy do‘slik shartnomasi imzolandi. O‘zbekiston va Qozog‘iston Prezidentlarining Toshkentda 2000-yil bo‘lgan uchrashuvida ikki davlat chegaralarini aniq belgilab olishga bag‘ishlangan uchrashuvi bo‘ldi. Muzokaralar yakunida “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Qozog‘iston Respublikasi Prezidentining qo‘shma bayonoti” imzolandi.

2001-yil O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov rasmiy tashrif bilan Qozog‘istonda bo‘ldi. Ikki davlat Prezidentlari O‘zbekiston – Qozog‘iston davlat chegarasi to‘g‘risida Shartnomani imzoladilar. 2440 km uzunlikdagi O‘zbekistonning Qozog‘iston bilan chegarasining 96 % belgilab olindi. Qolgan qismini kelishuv asosida delimitatsiya qilishga kelishildi. 2002-yil O‘zbekiston Prezidenti Ostona shahriga tashrif buyurdi. “O‘zbekiston – Qozog‘iston davlat chegaralarining alohida uchastkalari to‘g‘risida bitim” imzolandi va ikki mamlakat o‘rtasidagi chegaraga oid dolzarb masalalar huquqiy jihatdan o‘z yechimini topdi. Qozog‘iston O‘zbekiston uchun Markaziy Osiyodagi muhim hamkorlardan biri hisoblanadi.

2013-yil imzolangan O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida Strategik sheriklik to‘g‘risidagi shartnoma ham o‘ta muhim hujjatlar sirasiga kiradi. 2014-yil O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov rasmiy tashrif bilan Qozog‘iston Respublikasida bo‘ldi. 2017-yil iyunda Shanxay Hamkorlik Tashkilotining Ostona sammiti munosabati bilan Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog‘istonda bo‘ldi. 2017-yil sentabrda Qozog‘iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonga keldi. O‘zbekiston va Qozog‘iston prezidentlari uchrashuvi yakunlari bo‘yicha qator hujjatlar imzolandi. Shavkat Mirziyoyev Nursulton Nazarboyevni “El-yurt hurmati” ordeni bilan taqdirladi.

Hozirda Qozog‘istonda 550 mingga yaqin o‘zbek millatiga mansub, O‘zbekistonda esa bir millionga yaqin qozoq millatiga mansub xalq istiqomat qiladi. 2017-yil Qozog‘iston Prezidentining O‘zbekistonga tashrifi paytida 2018-yilda Qozog‘istonda O‘zbekiston yili va 2019-yilda O‘zbekistonda Qozog‘iston yili o‘tkazilishi belgilandi.

O‘zbekiston – Qirg‘iziston. O‘zbekistonning Qirg‘iziston bilan ikki tomonlama hamkorligi O‘zbekiston Respublikasi bilan Qirg‘iziston Respublikasi o‘rtasida do‘slik, hamkorlik va o‘zaro yordam haqida shartnoma asosida yo‘lga qo‘yildi va rivojlantirilmoqda. Bu shartnoma Toshkentda 1992-yil Qirg‘iziston Prezidenti Askar Akayevning O‘zbekistonga rasmiy davlat tashrifi paytida imzolangan edi. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1993-yil Qirg‘izistonga qilgan rasmiy davlat tashrifi paytida O‘sh shahrida O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida 1994–2000-yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish to‘g‘risida Bayonot imzolandi. Bu hujjat ikkala respublikada ishlab chiqilgan milliy dasturlarni muvofiqlashtirishga, xomashyo va ishchi kuchidan, ilmiy salohiyatdan unumli

foydalanishga qaratilgan edi. 1994-yil yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qirg‘izistonda bo‘ldi. Rasmiy tashrif yakunida ikki davlat Prezidentlari tovarlar, xizmatlar, sarmoya, ishchi kuchlarining yerkin yurishini, o‘zaro kelishilgan kredit, hisob-kitob, budget, soliq, narx, bojxona va valuta siyosatini belgilovchi shartnomani imzoladilar.

2010-yil iyulda Qirg‘izistonda ekstremistik kuchlar tomonidan uyushtirilgan millatlararo qonli voqealar sharoitida O‘zbekiston 100 mingdan ortiq qochqinlarni o‘z hududiga qabul qildi.

2017-yil O‘zbekiston va Qirg‘iziston munosabatlarida yangi sahifa ochildi. Shu yil sentabr oyida Qirg‘iziston Prezidenti Almazbek Atambayev taklifiga binoan Prezident Shavkat Mirziyoyev Bishkekda bo‘ldi. O‘zbekiston va Qirg‘iziston prezidentlari o‘z ichiga 85 foiz masofani qamrab olgan chegara to‘g‘risidagi bitimni imzolashdi. Shu munosabat bilan, aholining o‘tib-qaytishi uchun ikki davlat o‘rtasidagi 7 yil davomida yopib qo‘ylgan chegara postlar ochildi. 2017-yil dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qirg‘iziston Respublikasining yangi saylangan Prezidenti Sooranbay Jeyenbekov rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi. Iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sohalarda hamkorlikka doir qator hujjatlar qabul qilindi.

O‘zbekiston – Tojikiston. Tojikistonda 1992–1997-yillarda davom etgan birodarkushlik urushi Tojikistonning iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta’sir etdi, uning qo‘sni mamlakatlar, jumladan, O‘zbekiston bilan hamkorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

1997-yilda Moskvada Tojikistonning rasmiy hokimiysi bilan muxolifat kuchlar o‘rtasida tuzilgan milliy murosa haqidagi shartnomaga erishilgach, Tojikistonning qo‘sni mamlakatlar bilan aloqalari yana tiklandi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning taklifiga binoan 1998-yil yanvarda Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmon O‘zbekistonga amaliy tashrif bilan keldi. Ikki mamlakat rahbarlari tashrif yakunlari bo‘yicha qo‘sma axborot imzoladilar. Ikki mamlakat hukumatlari o‘rtasida yuk tashish hamda gaz yetkazib berish, Tojikistonning qarzi bo‘yicha o‘zaro hisob-kitob to‘g‘risidagi bitimlar ham imzolandi. O‘zbekiston Tojikiston hududidan o‘tgan transport kommunikatsiyalaridan foydalanib kelmoqda. O‘zbekiston bilan Tojikiston o‘rtasida tovar ayirboshlash hajmi ham yil sayin ortib bordi.

2017-yil O‘zbekiston va Tojikiston munosabatlarida ham yangi sahifa ochildi. Shu yil may oyida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabiston poytaxti Ar-Riyod shahrida bo‘lib o‘tgan AQSh va arab-musulmon davlatlari sammitida ishtiroki doirasida Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmon bilan ilk bor uchrashdi. Uchrashuv chog‘ida ko‘plab manfaatli kelishuvlarga erishildi. 2017-yilning aprelida 25 yillik tanaffusdan so‘ng Dushanbe va Toshkent o‘rtasidagi aviaqatnov yana tiklandi. 2017-yil aprelda Dushanbeda ikki tomonlama munosabatlar tarixida ilk bor O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning keng ko‘lamli ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. May oyining boshida esa tojik-o‘zbek munosabatlari tarixida ilk bor Tojikistonda O‘zbekiston madaniyati kunlari o‘tkazildi.

O‘zbekiston – Turkmaniston. 1991-yilda O‘zbekiston va Turkmaniston Prezidentlari uchrashuvida O‘zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston Respublikasi o‘rtasida do‘slik va hamkorlik to‘g‘risida shartnomalar imzolangan. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1996-yil yanvarda amaliy tashrif bilan Turkmanistonda bo‘ldi. Chorjo‘y shahrida S.Niyozov bilan I.Karimov o‘rtasida va ikki mamlakat delegatsiyalari o‘rtasida muzokaralar bo‘ldi. Prezidentlar O‘zbekiston bilan Turkmaniston o‘rtasida do‘slik, hamkorlik va o‘zaro yordam to‘g‘risidagi shartnomani, O‘zbekiston bilan Turkmaniston o‘rtasida davlat chegarasini qo‘riqlashda hamkorlik qilish to‘g‘risidagi va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha qator bitimlarni imzolashdi. 1991-yildan 2016-yilga qadar ikki mamlakat rahbarlarining 11 marta oly darajadagi tashriflari amalga oshirildi.

O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi keng ko‘lamli hamkorlikka oid dolzarb yo‘nalishlarni qamrab olgan davlatlararo, hukumatlararo va idoralalararo darajada imzolangan 150 dan ortiq xalqaro shartnomalar ikki mamlakat munosabatlarining mustahkam huquqiy asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Yurtimizda 2001-yilda tashkil yetilgan Respublika turkman madaniyat markazi faoliyat olib bormoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston hududida turkman millatiga mansub qariyb 170 ming aholi yashab, 44 ta maktabda turkman tilida ta’lim olib borilmoqda. Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning 2014-yil may oyida mamlakatimizga rasmiy tashrifi chog‘ida O‘zbekiston–Turkmaniston hamkorligini yanada rivojlantirish masalasida qator ikki tomonlama hujjatlar imzolandi.

2017-yil Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov taklifi bilan ikki marta (mart, may oylari) Turkmanistonga tashrif buyurdi. Tashriflar davomida bir qator kelishuvlarga erishildi. 2017-yil mart oyidagi muzokaralar yakunida prezidentlar O‘zbekiston bilan Turkmaniston o‘rtasida Strategik sheriklik to‘g‘risidagi shartnomani imzoladilar. Ikki mamlakat vazirlik va idoralari o‘rtasida iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi va kimyo sanoati, temir yo‘l transporti, madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik, hududlararo aloqalarni rivojlantirishga doir qator hujjatlar imzolandi. 2017-yil 6–7-mart kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy tashrif bilan Turkmanistonda bo‘ldi. Bu Shavkat Mirziyoyevning Prezident sifatida xorijiy mamlakatlarga qilgan ilk rasmiy tashrifi hisoblanadi.

O‘zbekiston – Rossiya. O‘zbekiston Rossiya Federatsiyasi bilan o‘zaro hamkorlik masalalariga alohida e’tibor qaratdi. O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi davlatlararo munosabatlar va hamkorlik 1992-yil imzolangan Davlatlararo munosabatlar, Do‘slik asoslari to‘g‘risidagi shartnomalar, 1998-yil imzolangan 1998–2007-yillar uchun iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish to‘g‘risidagi shartnomalar asosida rivojlanib bordi.

Keyingi yillardagi O‘zbekiston – Rossiya munosabatlarining yangi bosqichga ko‘tarilishida 2004-yilda imzolangan O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi Strategik sheriklik to‘g‘risidagi shartnomalar muhim ahamiyat kasb etdi. 2005-yilda Moskvada imzolangan O‘zbekiston

Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnoma, shuningdek, 2012-yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan uchrashuv yakuniga ko‘ra qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida strategik sheriklikni chuqurlashtirish to‘g‘risidagi deklaratsiya” ikki davlat o‘zaro munosabatlarida alohida voqeа bo‘ldi. Ikki mamlakat o‘zaro munosabatlari va hamkorligining yanada rivojlanishi va chuqurlashishiga 2013-yil aprelda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.Putin o‘rtasidagi Moskva uchrashuvi yangi turki berdi. Ushbu uchrashuv chog‘ida davlatlarning keng qamrovli o‘zaro munosabatlaridagi hamkorlikni rivojlantirish holati va istiqboli ko‘rib chiqildi. Har ikki davlat mustaqillikka erishgandan keyingi davr ichida O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida 160 dan ortiq xalqaro shartnoma va 40 dan ziyod boshqa hujjatlar imzolandi.

2017-yil aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy tashrif bilan Rossiyada bo‘ldi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasiga davlat tashrifi yakunlari bo‘yicha siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, harbiy-texnikaviy, migratsiya sohalari, shuningdek, mintaqalararo hamkorlik, turizm va sog‘liqni saqlashga oid umumiy qiymati 16 milliard dollar bo‘lgan 55 ta hujjat imzolandi.

O‘zbekiston – Xitoy. Xitoy Xalq Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991-yil 27-dekabrda tan olgan. 1992-yil yanvarda diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasida an‘anaviy do‘stlik munosabatlari o‘rnatilgan. Bular ikki mamlakatga har ikki tomonni qiziqtiruvchi ko‘plab masalalar bo‘yicha o‘zaro manfaatli va samarali hamkorlik olib borish imkonini beradi. Xitoy Xalq Respublikasi Raisining 2010-yildagi O‘zbekistonga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil iyunda Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrifi tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Uchrashuvlar davomida hamkorlikning istiqbollari belgilandi. Buning yaqqol dalili sifatida O‘zbekiston rahbarining Xitoyga tashrifi chog‘ida davlatlar rahbarlari tomonidan “Strategik sheriklik munosabatlari o‘rnatish to‘g‘risidagi qo‘shma bayonot” imzolanganini ko‘rsatish mumkin.

O‘zaro manfaatli hamkorlikning huquqiy bazasini 2005-yilda imzolangan Do‘stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnoma, 2010-yildagi Do‘stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlarini har tomonlama chuqurlashtirish va rivojlantirish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiya, 2012-yildagi Strategik sheriklik o‘rnatish to‘g‘risidagi Qo‘shma deklaratsiya, 2013-yildagi Ikki tomonlama strategik hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va rivojlantirish haqidagi Qo‘shma deklaratsiya, 2014–2018-yillarga mo‘ljallangan Strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirish dasturi hamda 2016-yilda imzolangan Qo‘shma bayonot tashkil qiladi. Mazkur hujjatlarning qabul qilinishi uzoq muddatli istiqbolda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

2017-yil 11–13-may kunlari Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrifi O‘zbekiston – Xitoy munosabatlarini yangi

bosqichga ko‘tardi. Muzokaralar yakunida Shavkat Mirziyoyev va Si Szinpin O‘zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi Qo‘shma bayonetni imzoladilar. Shavkat Mirziyoyev Xitoya bo‘lgan tashrifi davomida umumiy qiymati 23 mld. dollar bo‘lgan 105 ta ikki tomonlama hujjatlar imzolandi. 2017-yilning o‘zida xorijiy mamlakatlar bilan 60 mld. dollarlik shartnomalar imzolangan bo‘lsa, shuning 35 foizi, ya’ni 23 mld. dollari Xitoy ulushiga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston – AQSh. O‘zbekiston bilan Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasida davlatlararo aloqalar mustaqillikning dastlabki yillardayloq yo‘lga qo‘yildi. 1992-yil fevralda AQSh davlat kotibi O‘zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi va ikki davlat o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatildi. 1992-yil martda Toshkentda birinchi bo‘lib AQShning elchixonasi ochildi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1996-yil iyunda AQShda bo‘lishi O‘zbekiston va Amerika munosabatlarini yangi pog‘onaga ko‘tardi. Islom Karimov AQSh Prezidenti Bill Clinton bilan uchrashdi. Ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurlashtirish, tomonlar manfaatiga daxldor bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik masalalari muhokama etildi. Bill Clinton AQSh ma’muriyati Markaziy Osiyo mamlakatlarining mustaqilligi, barqarorligi va ravnaqidan manfaatdor ekanini, O‘zbekiston bilan qalin munosabatlar o‘rnatishni istayotganini, O‘zbekistonning tezroq dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi yo‘lida yordam berajagini ta’kidladi.

1996-yil O‘zbekistonning AQShdagagi elchixonasi ochildi. O‘zbekiston davlati delegatsiyasining AQShda bo‘lishi chet el sarmoyasi uchun respublikada yaratilgan shart-sharoitlar to‘g‘risidagi axborot taqchilligini bartaraf etdi. 2002-yil mart oyida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov boshliq davlat delegatsiyasi rasmiy davlat tashrifi bilan AQShda bo‘ldi. AQShni sinovli damlarda qo‘llab-quvvatlagani uchun 2002-yil Islom Karimov Amerika jamoatchiligi tomonidan “Xalqaro miqyosdagi lider” mukofoti bilan taqdirlandi.

2017-yil may oyida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoni poytaxti Ar-Riyod shahrida bo‘lib o‘tgan AQSh va arab-musulmon davlatlari sammitida ishtirok etdi. Sammit doirasida Shavkat Mirziyoyev va AQSh prezidenti Donald Tramp ilk bor uchrashdi. Donald Tramp davlatimiz rahbari bilan uchrashuvda O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar jarayonini yuqori baholadi. Shu yil sentyabrda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMTning 72-sessiyasi munosabati bilan Amerika Qo‘shma Shtatlarida bo‘ldi va u yerda istiqomat qilayotgan bir guruh o‘zbekistonliklar bilan uchrashdi. Prezidentimizning Amerika Qo‘shma Shtatlariga tashrifi turli tarixiy voqealar va uchrashuvlarga nihoyatda boy bo‘ldi. Prezidentimiz 19-sentyabr kuni BMTning Nyu-York shahridagi bosh qarorgohida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi Antoniu Guterrish bilan uchrashdi. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi doirasida mamlakatimiz, xalqimiz uchun yana bir muhim ahamiyatga molik voqeа bo‘lib o‘tdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti binosida muazzam Registon maydonining maketi o‘rnatildi.

19-sentabr kuni Nyu-Yorkda Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh

Assambleyasining 72-sessiyasiga tashrif buyurgan davlat va hukumat rahbarlari sharafiga rasmiy qabul marosimi o'tkazildi. Marosimda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rafiqasi bilan ishtirok etdi. Davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari Zayd Raad al-Husayn, Xalqaro valuta jamg'armasi farmoyish beruvchi direktori Kristin Lagard, Bolgariya Respublikasi Prezidenti Rumen Rudev, Gruziya Bosh vaziri Georgiy Kvirikashvilini bilan uchrashdi. Xalqaro valuta jamg'armasi farmoyish beruvchi direktori Kristin Lagardning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar haqida to'xtalib, ularga O'zbekiston renessansi, yangi uyg'onish davrining boshlanishi sifatida baho bergani ayniqsa diqqatga sazovordir.

O'zbekiston Prezidenti, shuningdek, Jahon banki prezidenti Jim eng Kim bilan uchrashdi. Davlatimiz rahbari tashrif davomida Amerika Qo'shma Shtatlarida istiqomat qilayotgan bir guruh vatandoshlarimiz bilan ham uchrashib, samimiy suhbatlashdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston va AQSh ishbilarmon doiralari vakillari ishtirokida o'tgan qabul marosimida ishtirok etdi. Vatandoshlar ilm-fan, ta'lim, texnologiya, investitsiya va boshqa sohalarni rivojlantirish, O'zbekiston va AQSh muassasalari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bayon etdi. Shavkat Mirziyoyev ularga murojaat qilar ekan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga daxldor bo'lish, zamonaviy bilim va tajribalarni mamlakat rivojiga yo'naltirishga da'vat etdi. Bugungi kunda O'zbekiston va AQSh strategik hamkor va sherik mamlakatlardir.

O'zbekiston – Yaponiya. O'zbekiston o'zining sharqiy yo'nalishdagi tashqi siyosatida Osiyo qit'asining Yaponiya, Hindiston va Koreya Respublikasi kabi mamlakatlari bilan davlatlararo munosabatlar va manfaatli hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga alohida e'tibor berdi. 1992-yil yanvarda o'rnatilgan diplomatik munosabatlar, 1994-yil may, 2002-yil iyul va 2011-yil fevralda Yaponiyada hamda 2006-yil avgustda O'zbekistonda bo'lib o'tgan davlat rahbarlari o'rtasidagi oliy darajadagi uchrashuvlar ikki mamlakat o'rtasidagi manfaatli va do'stona aloqalarga yangicha ma'no-mazmun bag'ishladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2002-yilda Yaponiyaga tashrifi doirasida Bosh vazir Jun'itiro Koidzumi bilan uchrashuvida o'zaro do'stlik, strategik sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi Qo'shma bayonot imzolandi. Ushbu bayonot tomonlarning hozirgi zamon xalqaro munosabatlardagi ko'plab muammolar bo'yicha qarashlari va munosabatlari o'xshashligi, shuningdek, ularning ikki mamlakat ko'p qirrali hamkorligini yanada kengaytirishga intilishlarini tasdiqlovchi rasmiy hujjat bo'lib qoldi. 2004-yilda Tokiodagi Soka universiteti hududida buyuk o'zbek mutafakkiri Alisher Navoiyga haykal o'rnatildi.

O'zbekiston Prezidentining 2011-yil fevralda Yaponiyaga qilgan navbatdagi rasmiy tashrifi davomida yuqori texnologiyalar sohasida ixtisoslashgan yirik kompaniyalar bilan yapon texnologiyalari va investitsiyalarini O'zbekistonning neft-gaz, kimyo, energetika, mashinasozlik va to'qimachilik sanoati kabi tez rivojlanayotgan sohalariga jalb etishga qaratilgan

qator bitimlar tuzishga erishildi.

2015-yil oktabrda Yaponiya Bosh vaziri Sindzo Abening O‘zbekistonga tashrifi doirasida O‘zbekiston va Yaponiya umumiyligi qiymati 8,5 mlrd. dollardan ko‘proqni tashkil qiladigan qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga kelishib olindi.

O‘zbekiston – Hindiston. Hindiston O‘zbekistonning yirik strategik hamkoridir. 1992-yil martda Toshkentda O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasida diplomatik munosabatlarning o‘rnatalishi to‘g‘risidagi bayonnomasi imzolandi. 2016-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov Hindistonga besh marotaba tashrif buyurgan va birinchi rasmiy tashrif 1991-yilning avgustida amalga oshirilgan edi.

1993-yil mayda Hindiston Bosh vaziri Narasimxa Rao davlat tashrifi bilan O‘zbekistonda bo‘ldi. Safar kunlarida “O‘zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o‘rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik prinsiplari to‘g‘risida” shartnoma, savdo-iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risida va boshqa bitimlar imzolandi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1993-yilgi Hindistonga rasmiy tashrifi chog‘ida ikki mamlakat o‘rtasida iqtisodiy, savdo va ilmiy-texnikaviy hamkorlik to‘g‘risida qator bitimlar imzolandi. 2006-yilda Hindiston Bosh vaziri M.Singxning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil may oyida Hindistonga qilgan davlat tashrifi va 2015-yil iyunda Hindiston Bosh vaziri Narendra Modining O‘zbekistonga rasmiy tashrifi hamkorlik munosabatlarini yanada yuqori pog‘onaga ko‘tardi. O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasida o‘zaro manfaatli aloqalarga xizmat qiluvchi 40 ga yaqin hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, ularning orasida eng muhim – ikki davlat munosabatlarini sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarishga qaratilgan Strategik sheriklik to‘g‘risidagi Qo‘shma bayonotidir. Hozirgi kunda O‘zbekiston hududida Hindiston sarmoyasi ishtirokida tashkil yetilgan 60 dan ortiq korxona faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekiston – Koreya Respublikasi. O‘zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o‘rtasida hamkorlik munosabatlarining rivojiga 1991-yil dekabrda O‘zbekiston mustaqilligi tan olingan va ular o‘rtasida 1992-yil yanvarda diplomatik munosabatlar o‘rnatalgan kunda asos solingan edi. Bu tarixiy sanalar ikki davlat o‘zaro munosabatlarida faol siyosiy muloqot olib borish va har tomonlama o‘zaro manfaatli hamkorlikning shakllanishi uchun yo‘l ochdi. O‘zbek-koreys o‘zaro manfaatli hamkorlik munosabatlari ravnaqiga O‘zbekiston rahbarining Koreya Respublikasiga 2012-yil sentyabrdagi tashrifi yangi turki berdi. Uchrashuv yakunlariga ko‘ra, Qo‘shma bayonot qabul qilinib, unda tomonlarning ko‘p taraflama hamkorligi holatiga baho berildi va har taraflama munosabatlarning istiqboldagi ustuvor yo‘nalishlari belgilandi. 2014-yil iyunda Koreya Respublikasi Prezidenti Park Geunhening O‘zbekistonga rasmiy tashrifi chog‘ida ikki davlat o‘rtasida Strategik sherikchilikni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish to‘g‘risida Qo‘shma deklaratsiya va moliya, investitsiya, muqobil energetika va madaniyat sohalarida o‘zbek-koreys hamkorligini yanada chuqurlashtirish maqsadida qator hujjatlar imzolandi. O‘zbekistonda Koreya investitsiyasi ishtiroki bilan 400 dan ortiq korxona faoliyat olib bormoqda.

1992-yildan beri Toshkentda Koreya ta’lim markazi faoliyat olib bormoqda. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti va Samarqand davlat chet tillari institutida Koreys tili va madaniyati markazlari faoliyat olib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje Inning taklifiga binoan 2017-yilning noyabrida Koreya Respublikasiga rasmiy tashrif bilan bordi. Bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Koreya Respublikasiga tarixiy burilish yasovchi davlat tashrifi bo‘ldi. Oliy darajadagi muzokaralarda o‘zaro hamkorlikning keng ko‘lamli masalalari, siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi davlatlararo aloqalarni yanada rivojlantirish istiqbollari, mintaqaviy va xalqaro muammolar yuzasidan bitimlar imzolandi. O‘zbekistonning zamонавиј ташқи сијосати фољ, ташаббускор ва pragmatik tashqi siyosiy kurs olib borishni hamda yuzaga kelayotgan xavf-xatarlarga o‘z vaqtida va adekvat javob choralar orqali yechishni talab etadigan XXI asrning o‘ta shiddat bilan o‘zgarib borayotgan xalqaro-siyosiy vogeliklarini inobatga olgan holda qurilmoqda. Bular O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan mustahkam aloqada bo‘lganligidan, har tomonlama manfaatli hamkorlikni yanada chuqurlashtirib borayotganidan dalolat beradi.

Xalqaro hamkorliklar doirasida qabul qilingan hujjat va kelishuvlarni o‘z vaqtida to‘liq bajarish maqsadida 40 ta “yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi va xorijiy hamkorlarimiz bilan birgalikda amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston tashqi siyosatida yangi industrial rivojlanayotgan mamlakatlar bilan yaqin munosabatlar va hamkorlik o‘rnatish hamda rivojlantirishga ham katta e’tibor berilayotir. Bunday davlatlar toifasiga to‘la ma’noda Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarini kiritish mumkin. Janubi-sharqiy Osiyoning O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatidagi o‘ziga xos o‘rni shu bilan belgilanadiki, bu mintaqa o‘nta rivojlanayotgan mamlakatni o‘z ichiga oladi. Ular orasida ijtimoiy-iqtisodiy hayot darajasi va rivojlanish sur’atlari bo‘yicha Indoneziya, Malayziya, Singapur va Tailand kabi mamlakatlar ajralib turadi. Ularning mustamlaka muteligidan qutulgandan so‘ng to‘plagan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar borasidagi tajribasi yangi mustaqil mamlakatlar uchun asqatishi mumkin.

O‘tgan davr mobaynida davlat va hukumat rahbarlari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan rasmiy uchrashuvlar natijasi o‘laroq, o‘zaro anglashuv, do‘slik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomalar va bitimlarga erishilib, ular davlatlararo munosabatlarga mustahkam poydevor yaratdi. Bularning barchasi O‘zbekiston Respublikasi va Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik muvaffaqiyat bilan ravnaq topishiga xizmat qildi.

## **12-mavzu. Yangilanayotgan O‘zbekiston: milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari (2 soat).**

**Reja:**

1. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta

ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining ishlab chiqilishi va unda belgilangan ustuvor yo‘nalishlar.

2. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining hayotga joriy etilishi va uning ahamiyati.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Harakatlar strategiyasi, ustuvor yo‘nalishlar. Elektron hukumat, “Xabeas korpus” instituti, modernizatsiya.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2018.
3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 1992; ...
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2017-yil 7-fevraldag‘i «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli Farmoni.
5. Shamsutdinov R., Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi. –Т.: Akademnashr, 2019.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясини тўғрисида / Расмий нашр/ Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. –Т.: Адолат, 2018. – 112 б.
7. <https://strategy.uz/> - “Taraqqiyot strategiyasi” markazi.

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy hayotining barcha sohalarida olib borilayotgan islohotlarni yanada jadallashtirilishda O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoevni tomonidan 2017-yil 7-fevralda «*O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida*» Farmoni qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur hujjat 2017-2021 yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishni ta’minlashda muhim manba hisoblanadi. **Harakatlar strategiyasi 5 yo‘nalish va 21 bandni qamrab olgan.**

2017 – 2021-yillarga mo‘ljallangan strategiyadan ko‘zlangan maqsad – olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko‘tarish, hayotning barcha sohalarini liberallashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish bo‘yicha eng muhim ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirishdan iborat.

Hujjatda qayd etilishicha, mamlakat bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili bugungi kunda jahon bozorida konyunktura o‘zgarib, raqobat tobora kuchayib borayotganini har tomonlama hisobga olishni, shu asosda davlatni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha strategik yondashuv va tamoyillarni ishlab chiqish va amalga oshirishni taqozo etmoqda.

**I. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning  
ustuvor yo‘nalishlari**

**1.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish:**

davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo‘yicha vakolatlarini yanada kengaytirish;

qabul qilinayotgan qonunlarning amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta’sirini kuchaytirishga yo‘naltirgan holda qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirish;

siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish.

### **1.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish:**

davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta’milot darajasini oshirish hamda iqtisodiyotni tartibga solishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini isloh qilish;

mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha vazifalarni amalga oshirishda o‘zaro manfaatli hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta’minalash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish;

“Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko‘rsatishning samarasi, sifatini yuksaltirish va bu xizmatdan aholi hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan foydalanish imkoniyatini oshirish.

### **1.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish:**

xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini joriy etish;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish;

fuqarolik jamiyatni institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish;

mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o‘rni va faoliyati samaradorligini oshirish;

ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilish.

## **II. Qonun ustuvorligini ta’minalash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari**

### **2.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minalash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish:**

sudalar va sud apparati xodimlarining mavqeyini, moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy ta’milot darajasini oshirish, sudlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

sudyalarga g‘ayriqonuniy tarzda ta’sir o‘tkazishga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ta’sirchan choralar ko‘rish;

sudning mustaqilligi va beg‘arazligi, sud protsessida tomonlarining tortishuvi va teng huquqlik tamoyillarini har tomonlama tatbiq etish;

“Xabeas korpus” institutini qo‘llash sohasini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish;

sudlarni yanada ixtisoslashtirish, sud apparatini mustahkamlash;

sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

## **2.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minalash:**

fuqarolarning murojaatlarini o‘z vaqtida hal etish, murojaatlarni ko‘rib chiqishda sansalorlik, rasmiyatchilik va loqayd munosabatda bo‘lish holatlariga yo‘l qo‘yanlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minalash, shuningdek, buzilgan huquqlarni tiklashning barcha choralarini ko‘rish;

sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta’minalash;

fuqarolarning xususiy mulkka bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini mustahkamlash;

fuqarolarning odil sudlovga to‘sinqilksiz erishishini ta’minalash;

sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi samaradorligini oshirish.

## **2.3. Ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiliginini takomillashtirish:**

jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiliginini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvarlashtirish;

odil sudlovni amalga oshirish samaradorligi va sifatini oshirish, ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik sud ish yurituvining protsessual asoslarini takomillashtirish;

jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik ishlarini ko‘rib chiqish tartibini takomillashtirish, bir-birini takrorlaydigan vakolat va instansiyalarni qisqartirish;

elektron tartibda sud va ijro ishini yuritishning zamonaviy shakl va usullarini joriy etish.

## **2.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish:**

jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish;

diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo‘yicha tashkiliy-amaliy choralarini kuchaytirish;

korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish;

aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat

tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro samarali hamkorligini tashkil etish.

## **2.5. Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash:**

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari ishini samarali rejalashtirish va uning natijalarini tahlil qilish, tizimli huquqbazarliklarni aniqlash hamda ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va sharoitlarni bartaraf etish;

sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari xodimlarini o‘qitish, tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, rotatsiya qilish tizimini takomillashtirish;

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari xodimlari orasida huquqbazarliklarni oldini olish, profilaktika qilish va bartaraf etish bo‘yicha idoraviy nazoratning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlari samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquqni muhofaza qilish tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash.

## **2.6. Yuridik yordam va xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish:**

davlat organlarining yuridik xizmati faoliyati samaradorligini oshirish;

advokatura institutini rivojlantirish, jinoyat, fuqarolik, ma’muriy va xo‘jalik ishlarini ko‘rib chiqishda advokatlarning rolini oshirish;

notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlari tizimini isloh qilish.

## **III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari**

### **3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish:**

makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o‘rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o‘zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash;

xarajatlarning ijtimoiy yo‘naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat budjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta’minlash, mahalliy budjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan budgetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma’muriyatichilagini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarini kengaytirish;

ilg‘or xalqaro tajribada qo‘llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash;

bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta’minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchlilagini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish;

sug‘urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek kapitalni jalg qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish;

xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o‘ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalg qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish.

### **3.2. Tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:**

milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta’minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko‘rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko‘paytirish;

ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihibalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;

yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘srimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;

iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;

prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o‘zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta’minlash;

ishlab chiqarishni mahalliy lashtirishni rag‘batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste’mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o‘rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;

iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdonligini oshirish;

faoliyat ko‘rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalari samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish;

xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o‘rni va ulushini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamонави yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o‘zgartirish;

turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish;

eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

yo‘l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

### **3.3. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:**

tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish;

paxta va boshoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo‘shagan yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog‘ olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog‘ va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish;

fermer xo‘jaliklari, eng avvalo, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanayotgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rag‘batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat hamda qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha eng zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo‘yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko‘rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish;

sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya obyektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi texnikasidan foydalanish;

kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy yer-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini hamda yuqori mahsuldorlikka ega hayvonot zotlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish;

global iqlim o‘zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo‘jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ko‘rish.

### **3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:**

xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo‘lidagi barcha to‘sinq

va cheklovlarni bartaraf etish, unga to‘liq erkinlik berish, “Agar xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va kuchli bo‘ladi” degan tamoyilni amalga oshirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat’iy oldini olish;

davlat mulkini xususiy lashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg‘ armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiy lashtirilgan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalg qilish;

korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarini strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish;

tadbirkorlik subyektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo‘yicha tartib-taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish;

mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o‘zini o‘zi boshqarish organlarining rolini oshirish.

### **3.5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:**

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xo‘jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta’minlash;

hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko‘lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo‘lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo‘li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish;

yangi sanoat korxonalarini va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo‘jalik birlashmalarining mablag‘larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish;

sanoat va xizmatlar ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga subvensiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish va mahalliy budgetlarning daromad bazasini kengaytirish;

sanoat korxonalarini va boshqa ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab

chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish.

#### **IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari**

##### **4.1. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish:**

aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta’minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo‘yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish;

udget muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflatsiya sur’atlaridan yuqori miqdorda izchil oshirish;

yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o‘rta maxsus va oliv o‘quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta’minlash, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta’minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish;

mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to‘liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ish kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish.

##### **4.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish:**

aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko‘rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo‘naltirgan holda sog‘liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning dastlabki bo‘g‘inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish;

oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko‘rsatish, chaqaloqlar va bolalar o‘limini kamaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada kengroq amalga oshirish;

xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o‘rnini kuchaytirish, xotin-qizlar, kasb-hunar kolleji bitiruvchi qizlarining bandligini ta’minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkamlash;

pensionyerlar, nogiron, yolg‘iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to‘laqonli hayot kechirishlarini ta’minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish;

farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta’minlanishini yaxshilash, dori-darmonlar narxlarining asossiz o‘sishiga yo‘l

qo‘ymaslik bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

aholi o‘rtasida kasallanish ko‘rsatkichlari pasayishini va umr uzayishini ta’minlash.

**4.3. Arzon uy-joylar barpo etish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta’minlovchi yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish:**

aholi, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqarolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj boshqa fuqarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yanada yaxshilash;

aholining communal-maishiy xizmatlar bilan ta’minlanish darajasini oshirish, eng avvalo, yangi ichimlik suvi tarmoqlarini qurish, tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali qishloq joylarda aholining toza ichimlik suvi bilan ta’minlashni tubdan yaxshilash;

odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta’minlash, maishiy chiqindilarni qayta ishlash komplekslarini qurish va modernizatsiya qilish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, aholini chiqindini yo‘q qilish bo‘yicha zamonaviy obyektlar bilan ta’minlash;

aholiga transport xizmati ko‘rsatishni tubdan yaxshilash, yo‘lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atrof muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, har tomonlama qulay yangi avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostansiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish;

yo‘l infratuzilmasi qurilishi va rekonstruksiya qilinishini davom ettirish, eng avvalo, mintaqaviy avtomobil yo‘llarini rivojlantirish, xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarini, aholi punkti ko‘chalarini kapital va joriy ta’mirlash;

yangi elektr energiya ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, past kuchlanishli elektr tarmoqlari va transformator punktlarini yangilash asosida aholini elektr energiyasi hamda boshqa yoqilg‘i-energiya resurslari bilan ta’minlashni yaxshilash, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

teatr va tomosha maskanlarini, madaniy-ma’rifiy tashkilotlar va muzeylar faoliyatini rivojlantirish hamda takomillashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

**4.4. Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish:**

uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

ta’lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash, ularni zamonaviy o‘quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko‘rish;

maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish va ushbu

muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish;

umumiy o’rtalim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o’rganish;

bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug‘ullanishga, ularni musiqa hamda san’at dunyosiga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti obyektlarini, bolalar musiqa va san’at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo‘yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta’lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko‘paytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriylar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

#### **4.5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish:**

jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

o‘rtalik maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;

yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish;

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta’lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish.

### **V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar**

#### **5.1. Xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlash sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar:**

O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;

axborot xavfsizligini ta’minlash va axborotni himoya qilish tizimini

takomillashtirish, axborot sohasidagi tahlidlarga o‘z vaqtida va munosib qarshilik ko‘rsatish;

fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash;

davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish;

atrof-tabiyy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish;

favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish.

## **5.2. Chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar:**

davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatidagi o‘rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish;

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to‘g‘risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot yetkazish;

O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiya va tashqi iqtisodiy faoliyatining normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat chegarasini dyelimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish.

**XABEAS KORPUS [Хабеас корпус, Habeas corpus]** – (lot. *habeas corpus*) — shaxsiy daxlsizlik printsipi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ingliz jinoyat-protsessual qonunchiligi instituti; u shuningdek Anglo-sakson huquqiy tizimiga oid boshqa davlatlarining huquqiy tizimlariga ham kiritilgan. Xabeas korpus atamasi lotinchadan o‘zbek tiliga o‘girilganda «**tanani, shaxsni (sudga) keltirish**» ma’nosini anglatadi. G‘apb mamlakatlarida jinoiy ta’qibga uchragan, hibsga olingan yoki qamoqda saqlanayotgan fuqaroning adolatli sud orqali himoyalanishga bo‘lgan huquqini «xabeas-korpus» deb nomlash odat tusiga kirgan.

Ma‘lumki, jinoiy ta’qibga uchragan fuqaroning adolatli sud muhokamasiga bo‘lgan huquqi «**Xabeas korpus (Habeas corpus)**» deya nomlanadi. Ushbu institut dastlab XII asrdan boshlab Angliyada q o‘llanila boshlagan. XIV asrda Eduard I qirolli davrida esa, ushbu amaliyot urf-odatga aylana boshlagan. Mazkur urf-odat o‘z navbatida inson huquqlari masalasi normativ hujjat ko‘rinishini ola boshlagan davrda, aniqroq aytganda, 1679-yil 26-may kuni Angliyada qabul qilingan «Fuqaro erkinligini yanada yaxshiroq ta’minalash va dengizdan tashqari hududlarda asossiz hibsga olishlarning oldini olish to‘g‘risida»gi qonun yoki «Habeas Sorpus Act»da o‘zining normativ qiyofasini topdi.

Mustaqillik yillarda milliy qonunchiligidan xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qonun hujjatlariga muvofiqlashtirish, demokratik tamoyillar

va xalqaro huquqiy talablarga to‘liq javob beradigan huquqiy-me’ yoriy hujjatlar qabul qilindi. Birgina «Xabeas korpus» institutining milliy qonunchiligidan mustahkam joy olgani ham fikrimizning yorqin dalilidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-avgustdagи «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o‘tkazish to‘g‘risida»gi PF-3644-son Farmonga asosan, 2008-yil 1-yanvardan boshlab jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarni qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlar vakolatiga o‘tkazildi. Ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish qonunda belgilangan boshqa ehtiyot choralarini qo‘llash samarasiz bo‘lgan alohida hollarda va faqat jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar yoki harbiy sudlarning ajrimiga asosan amalga oshiriladigan bo‘ldi. O‘z navbatida, Oliy sud Plenumining 2007-yil 14-noyabrdagi «Sudga qadar ish yuritish bosqichida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasingning sudlar tomonidan qo‘llanilishi to‘g‘risida»gi 16-sonli qarori bu borada yagona sud amaliyotini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda “**Xabeas korpus**” institutining amaliyotga tatbiq etilishi insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, uning daxsizligini himoya qilishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu institut joriy etilgan 2008-yilning yanvaridan buyon sudlar tomonidan dastlabki tergov organlariga 700 martadan ortiq mazkur ehtiyot chorasini qo‘llash rad qilingani ham buni yaqqol tasdiqlab turibdi.

Aytish kerakki, davlatimiz rahbari tomonidan taqdim etilgan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi sud-huquq tizimida yangi davrni boshlab berdi. Zero, mazkur Konsepsiya asosida ishlab chiqilib, 2012-yil 18-sentyabrdan qabul qilingan «Sud-huquq tizimi yanada isloh qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida»gi Qonunga muvofiq, sudga qadar ish yuritish bosqichida prokuror va tergovchi tomonidan qo‘llanib kelingan ayblanuvchini lavozimidan chetlatish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralarini faqat sudyaning sanksiyasi asosida amalga oshirish tartibi joriy etildi.

Bundan tashqari 2014-yil 4-sentyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida»gi Qonunga asosan Jinoyat-protsessual kodeksiga ehtiyot choralarining yangi turi, ya’ni uy qamog‘i joriy qilindi. Ushbu qonunga muvofiq, uy qamog‘i gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash uchun asoslar mavjud bo‘lganida uning yoshi, sog‘lig‘i holatini, oilaviy ahvolini va boshqa holatlarni hisobga olgan holda qamoqqa olish maqsadga nomuvofiq, deb topilgan taqdirda qo‘llaniladi.

### **13-mavzu. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni va nufuzini ortib borishi (2 soat).**

#### **Reja:**

1. Respublikaning xalqaro imidjini oshirish chora-tadbirlari.

2. Iqtisodiy indekslardagi o'sish.
3. Ta'lim sohasidagi xalqaro reytinglarda ko'tarilish.

**Tayanch so'z va iboralar:** Xalqaro imidj, iqtisodiy indeks, ta'lim sohasi, xalqaro reyting, xalqaro indekslar.

**Internet resurslari ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi «*O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarda ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida»gi PF-6003-sonli Farmoni.*
2. <https://yuz.uz/uz/news/xalqaro-reyting-va-indekslar> - Xalqaro reyting va indekslar.
3. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/xalqaro-reyting-va-indekslar-bilan-ishlash-buyicha-respublika-kengashi-tashkil-etildi> - Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi tashkil etildi.

Bugun O'zbekiston mintaqada barcha sohalarda jadal sur'atlarda rivojlanayotgan mamlakat – bu xalqaro ekspertlar tomonidan bildirilayotgan e'tirof. Rivojlanish, taraqqiyot esa o'z-o'zdan bo'lmaydi. Iqtisodiyot va ijtimoiy hayotda kuzatilayotgan hozirgi o'zgarish va yutuqlar mamlakat rahbari tomonidan ko'tarilgan keng qamrovli chora-tadbirlar hamda ijrochilarining mashaqqatli mehnat mahsuli ekanligi shubhasiz. Bu e'tiroflar, dastlabki yutuqlar o'zimizni albatta. Lekin ularni yanada yaxshilash mamlakat siyosatining asosiy maqsadlaridan biridir.

Insoniyat taraqqiyoti, barcha sohalarda kechayotgan globallashuv jarayonlar, sifat va tarkibiy o'zgarishlar xalqaro hamkorlik va aloqalarni yangi bosqichga ko'tarish barobarida har bir mustaqil mamlakatning ushbu holatlarga yangicha qarashga, ular bilan birga odim tashlash vazifasini ko'ndalang qo'ymoqda. Bu esa, eng avvalo, o'sha mamlakatning jahon miyosidagi o'rni, xalqaro reyting va ko'rsatkichlarda tutgan mavqeい bilan belgilanadi.

Bugun hayotning har bir jabhasida yangilik va bunyodkorlik ishlari jadal sur'atlarda davom etmoqda. Tabiiyki, bunday yangilanishlar natijasi nafaqat xalqimiz hayotida, balki nufuzli xalqaro reyting va indekslar ko'rsatkichlarida ham o'z ifodasini topayotir. Aytish kerakki, xalqaro reyting va indekslar har bir mamlakatning rivojlanish jarayonini o'zida namoyon etib, davlat boshqaruvi sifati, aholining turmush darajasi, inson huquqlari muhofazasi, tadbirkorlik faoliyati va xorijiy investorlar uchun qulay muhit, barqaror iqtisodiy o'sish va -raqobatbardoshlik kabi muhim jihatlarning ko'zgusidir. Bu jihatlar mamlakatimizdagi islohotlar mohiyatida ham mujassam. Bularning barchasi inson qadrini ulug'lashga, odamlarning hayotdan rozi va mamnun bo'lib yashashini ta'minlashga xizmat qilishi bilan yanada teran mazmun kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyunda qabul qilingan «*O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarda ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida»gi Farmoni yurtimizda*

bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishda muhim dasturilamal bo‘ldi.

Mazkur farmonga muvofiq, xalqaro reyting va indekslar bilan ishslash bo‘yicha respublika kengashi tuzilib, sohada parlament nazorati o‘rnatildi.

Davlatimiz rahbarining «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishslashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida»gi Farmoni ana shu sa’y-harakatlarni yangi pog‘onaga olib chiqishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Oqibat natijada mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalardagi jozibadorligini oshirish mezoni bo‘lib xizmat qiladigan xalqaro reyting va indekslarni oshirish jarayonida parlamentning o‘rni qanday bo‘ladi? Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 4 iyun kuni «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash borasida parlamentning, xususan, Qonunchilik palatasining roli» mavzusida o‘tkazilgan seminar ana shu mavzuga qaratildi va Prezident farmoni mazmuni va unda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda parlament oldida turgan masalalar atroflicha muhokama qilindi.

Jahon banki, Birlashgan millatlar tashkiloti, Birlashgan millatlar tashkilotining Taraqqiyot dasturi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Jahon iqtisodiy forumi, Xalqaro byudjet hamkorligi, INSEAD xalqaro biznes-maktabi va Economist Intelligence Unit kabi xalqaro reyting agentliklari va tashkilotlari bilan rasmiy aloqalar yo‘lga qo‘yildi.

O‘tgan davr mobaynida xalqaro reyting agentliklarining 2019-2020 yillarda chop etilgan hisobotlariga binoan respublikaning iqtisodiy reytinglardagi o‘rni sezilarli darajada o‘sdi. Xususan “Fitch Ratings” va “S&P Global Ratings” xalqaro reyting agentliklarining bahosiga ko‘ra 2019 yilda mamlakatning suveren kredit reytingi «BB-» barqaror darajada saqlanib qolmoqda.

Jahon banki «Biznes yuritish 2020» yangi yillik hisobotida (Doing Business 2020) so‘nggi bir yilda O‘zbekiston Respublikasi biznes islohotini amalga oshirishda eng katta yutuqlarga erishgan 20 ta mamlakat qatoriga kirishga imkon bergen to‘rtta islohotni amalga oshirgani to‘g‘risidagi axborotni tarqatdi. Shuningdek, 2019 yilda O‘zbekiston ushbu reyting hisobotida dunyoning 190 mamlakati orasida 69-o‘rinni egallab, 7 pog‘onaga ko‘tarildi.

2019-yilning sentyabr oyida Jahon banking Boshqaruv sifati indikatorlarining 2018-yil uchun e’lon qilgan hisobotida O‘zbekiston Respublikasi bir qator indikatorlardan yaxshilanganligini ma’lum bo‘ldi. Xususan, «Korrupsiyani nazorat qilish» indeksida 1 pog‘onaga, «Hukumat samaradorligi» indeksida 3 pog‘onaga, «Normativ sifat» indeksida 7 pog‘onaga, «Qonun ustuvorligi» indeksida 4 pog‘onaga, «So‘z erkinligi va hisobdorlik» indeksida 5 pog‘onaga ko‘tarildi.

Seminarda Prezidentimizning 2020-yil 2-iyundagi Farmoni bilan xalqaro reyting va indekslar bilan ishslash bo‘yicha respublika kengashi tashkil etilayotgani, davlat organlarining birinchi rahbarlari O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash uchun

mas’ul qilib belgilangani alohida qayd etib o’tildi. Shuningdek, mazkur hujjat bilan Adliya vazirligi markaziy apparati tuzilmasida Xalqaro reyting va indekslar bilan ishslash boshqarmasining tashkil etilishi mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirib borish imkoniyatini yaratishi, bu esa o‘z navbatida ko‘zlangan natijaga erishishda ayni muddao bo‘lishi qayd etildi.

So‘nggi to‘rt yil mobaynida mamlakatimiz Meros jamg‘armasining «Iqtisodiy erkinlik» indeksida 52 pog‘onaga, Juhon bankining «Logistika samaradorligi» indeksida 19 pog‘onaga, «Biznes yuritish» indeksida 18 pog‘onaga ko‘tarilgan.

Xalqaro reyting va indekslar dunyodagi institutsional muhitning sifatini baholashda iqtisodiy rivojlanishning asosiy sharti sifatida jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan vositadir. Ular nafaqat ekspertlar, balki davlatlar darajasida ham islohotlar va ijtimoiy-iqtisodiy siyosat mezoni sifatida qo‘llanib kelinadi. Keyingi yillarda mamlakatimiz ko‘pgina ustuvor reytinglarda yuqorilab borayotgani yurtimizda aholi turmush farovonligini oshirish, jamiyatimizda ochiqlik, oshkoraliqni ta’minalash borasida qilinayotgan ezgu ishlarning muhim natijasidir. Masalan, yaqinda BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkilotining (YuNIDO) “Raqobatbardosh sanoat unumdarligi indeksi” bo‘yicha hisoboti chop etildi. Unda mamlakatimiz ilk marotaba aks ettirilib, 152 ta mamlakat orasida 92-o‘rinni, MDHga a’zo davlatlar orasida 5-o‘rinni, Markazi Osiyo mamlakatlari orasida 2-o‘rinni egalladi.

Aytish kerakki, bugun jamiyatimizdagи islohotlarning bosh maqsadi xalqimizni rozi qilishdek ezgu maqsadga yo‘naltirilmoqda. Barcha sa’y-harakatlarimiz, islohotlarimiz, qabul qilayotgan qonun va qarorlarimiz zamirida ham ushbu maqsad mujassam. Aholi yuritilayotgan siyosatdan qanchalik rozi bo‘lsa, turli reyting va indekslardagi o‘rnimiz o‘z-o‘zidan oshib boraveradi. Xususan, iqtisodiyotda davlatning rolini kamaytirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minalash, iqtisodiy o‘sish istiqbollarini yaxshilashga qaratilgan bosqichma-bosqich islohotlar 2020 yilda Juhon bankining “Biznes yuritish” indeksida 76-o‘rindan 69-o‘ringa ko‘tarilishimizga, “Transparency International”ning Korrupsiyani qabul qilish indeksi hamda “World Justice Project”ning Qonun ustuvorligi indeksida mamlakatimiz o‘rni yaxshilanishiga olib keldi. Shu bilan birga, bu yo‘nalishda hali qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar talaygina. Prezidentimiz farmoni asosida davlat organlari faoliyati natijadorligini oliy, ya’ni parlament darajasida nazorat qilish belgilanganidan maqsad — bu borada vazirlik va idoralar rahbarlarining mas’uliyatini oshirishdir. Shu bois, xalqaro reyting va indekslar bilan ishslash bo‘yicha respublika kengashi tashkil etildi. Oliy Majlis deputatlari va senatorlarining xalq tomonidan saylanishini inobatga oladigan bo‘lsak, mazkur mexanizm sohadagi chora-tadbirlar ijrosi ustidan xalq nazorati o‘rnatilganligini anglatadi. Endilikda vazirlik va idoralar rahbarlari o‘zlarini mas’ul bo‘lgan reyting va indekslarda ko‘rsatkichlarni yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar va belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan respublika kengashida hisobot berib boradilar.

Xalqaro reyting va indekslardagi mamlakatimiz o‘rnining yaxshilanishi ko‘p jihatdan qabul qilayotgan qonunlarimizning joylardagi ijrosiga bog‘liq. Shuning uchun ham kengash tarkibiga mahalliy hokimlar kiritildi. Bu esa qonun talablarining joylardagi ijrosi yuzasidan muammolarni vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi. Shu orqali bu yo‘nalishdagi ishlarda parlament, vazirlik va idoralar hamda mahalliy hokimliklarning o‘zaro hamkorligi ta’milnadi, sansalorlik holatlarining oldi olinadi, barcha ishlar muvofiqlashtirilgan holda tashkil etiladi. Albatta, bu ko‘p vaqt sarflanadigan, progressiv bilimlarni talab etuvchi yangi jarayonlardan biri. Bu, shubhasiz, mas’ul davlat organlarining o‘zlariga biriktirilgan xalqaro reyting va indekslar metodologiyasini izchillik bilan o‘rganish, uni to‘g‘ri talqin qila olgan holda amaliyotga tatbiq eta olish, xalqaro reyting va indeksni beruvchi tashkilot bilan aloqalarni o‘rnata olish bilan bog‘liqdir. Ochig‘i, barcha vazirlik va idoralar, ayniqsa, joylardagi hokimliklar yoki parlament a’zolarining barchasi ham masalaning tub mohiyatini to‘la anglab yetdi, deb aytish mushkul. Yuqorida aytganimdek, reyting va indekslar joylardagi vaziyatga bog‘liq, qonunlarning ijrosiga bog‘liq. Ming afsuski, joylardagi hokimliklar yoki davlat organlari vakillarining ba’zida bilib-bilmay aytgan gap-so‘zleri yoki xatti-harakatlari reyting va indekslardagi o‘rnimizga salbiy ta’sir qiladi. Shu o‘rinda barcha rahbarlar, ular qaysi darajadagi rahbar bo‘lishidan qat’i nazar, o‘z harakatlarini qonunlarda belgilangan tartibda amalga oshirishlari zarur ekanini yana bir karra ta’kidlamoqchiman. Odamlar bilan muloqotlarda esa inson sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi shart.

Har bir tizimda ishlarimizni samarali tashkil etish maqsadida barcha vazirlik va idoralarda xalqaro reyting va indekslar bilan ishslash bo‘yicha tarkibiy bo‘linmalar tashkil etilishiga erishdik. Bu esa ishimizni ancha osonlashtiradi. Ajratilgan alohida xodimlar doimiy ravishda o‘zlarining vazirligi yoki idorasi mas’ul bo‘lgan xalqaro reyting va indeks bo‘yicha ish olib boradi.

Xalqaro reyting va indekslarning ahamiyati, oldimizda turgan ustuvor vazifalarni belgilash, reyting agentliklarining metodologiyalarini o‘rganish maqsadida mahalliy hokimliklar hamda vazirlik va idoralar mas’ullari uchun maxsus treninglarni boshladik. Shu bilan birga, eng asosiy ishimiz qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning amaldagi ijrosini, bir so‘z bilan aytganda, qonun ustuvorligini ta’minlashdir. Bu borada biz parlament va jamoatchilik nazoratini qat’iy yo‘lga qo‘yishga kirishdik va, albatta, ijobiy natijalarga erishamiz.

O‘zbekistonning ushbu xalqaro indekslarda e’tirof etilmaganiga bir necha sabablar bor. Masalan, Juhon iqtisodiy forumining “Global raqobatbardoshlik indeksi”ga mamlakatimizni kiritish masalasi yuzasidan Moliya vazirligi olib borgan muzokaralar natijasida indeksga kirish jarayoni 2 yil muddatni talab etishi ma’lum bo‘ldi. Birinchi yilda tashkilot tomonidan O‘zbekistonda rasmiy so‘rovnoma o‘tkazish uchun hamkor, ya’ni nodavlat notijorat tashkilotlar, ilmiytadqiqot institutlari tanlab olinadi va so‘rovnoma o‘tkaziladi. Ikkinci yilda so‘rovnoma natijalaridan kelib chiqib, O‘zbekistonning indeksdagi norasmiy o‘rni belgilanadi hamda ularning O‘zbekiston ko‘rsatkichlarining haqiqiy

tendensiyalari bilan qay darajada mos kelishi tekshirib ko‘riladi. Tendensiyalar maxsus ekspertlar tomonidan 2 yil mobaynida muntazam kuzatilib boriladi va tahsil qilinadi.

Xalqaro byudjet hamjamiyatining “Byudjet ochiqligi indeksi”ga kirish masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, indeks bo‘yicha mamlakatda tadqiqot o‘tkazish uchun zarur resurslar (jumladan, mablag‘lar) faqatgina xalqaro nodavlat tashkilotlar va institutlar (donorlar) hisobidan amalga oshiriladi.

Hamjamiyatning asosiy talablaridan biri — tadqiqot o‘tkazishdagi mahalliy hamkor sifatida mustaqil fuqarolik jamiyati institutlari (nodavlat notijorat tashkilotlar) bo‘lishi zarur. Mazkur indeks hisobotida mamlakatimizni aks ettirish bo‘yicha yakuniy qaror tashkilotning joriy yil avgust oyidagi yig‘ilishida ko‘rib chiqilishiga kelishilgan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni tartibga solish cheklovleri indeksi”da O‘zbekistonni e’tirof etish maqsadida tuzilma mas’ul rahbarlari bilan muzokaralar o‘tkazildi. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti bilan birgalikda “Investitsion siyosat sharhi — O‘zbekiston” nomli hisobotni ishlab chiqish va bu orqali indeksda mamlakat o‘rnini aks ettirish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Kornell universiteti, Xalqaro intellektual mulk tashkilotining “Global innovatsiyalar indeksi”da mamlakatimiz o‘rnini aks ettirish masalasida Innovatsion rivojlanish vazirligi muzokaralar o‘tkazmoqda. Hozir ushbu indeksda talab etilgan zarur statistik ma’lumotlarni jamlash bo‘yicha hamkorlikda ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Albatta, bunday ma’lumotlar turli axborotnomalar shaklida tegishli tashkilotlar, xususiy investorlar hamda xalqaro ekspertlarga jo‘natilmoqda. Shuningdek, ular vazirliklarning rasmiy veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida ham keng jamoatchilik e’tiboriga havola etib borilmoqda. Bundan tashqari, ayrim reyting va indekslarda talab etilgan statistik ma’lumotlar respublikamizning davlat idoralari va tashkilotlari tomonidan shakllantirilgan statistik ma’lumotlar bazasiga asoslanadi. Masalan, BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari”da jami 206 ta milliy indikator tasdiqlangan. Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan yaratilgan maxsus saytga bu boradagi zarur ma’lumotlar doimiy ravishda joylashtiriladi. Shuningdek, xalqaro reyting va indekslar uchun kerakli ma’lumotlar davlat idoralari tomonidan muntazam yangilanib boriladi. Misol uchun, hukumat portalı doirasida “Ochiq ma’lumotlar portali” ishga tushirilgan. Mazkur portal Davlat statistika qo‘mitasining davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma’lumotlar bazasi yuritilishi va yangilanishi, shuningdek, tegishli axborotlarning o‘z vaqtida aks ettirilishini muvofiqlashtirib kelmoqda. Umuman olganda, xalqaro reyting va indekslarni yurituvchi tashkilotlar tadbirkorlar va aholi o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijalariga, nodavlat notijorat tashkilotlar ma’lumotlariga hamda milliy va xorijiy ekspertlar xulosalariga tayanadi. Bu esa, o‘z navbatida, respublika miqyosida iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohadagi islohotlar va ularning natijalaridan mahalliy aholi va tadbirkorlar qay darajada xabardor ekani ko‘rsatib beradi. Asosan, siyosiy-huquqiy reyting va indekslarda

mamlakatimiz o‘rinlari nisbatan quyi pog‘onalarda. Masalan, So‘z erkinligi va hisobdorlik indeksida 191-o‘rinda, Normativ sifat indeksida 184-o‘rinda, Korrupsiyani nazorat qilish indeksida 183-o‘rinda, Qonun ustuvorligi indeksida 182-o‘rinda, Jahon matbuot erkinligi indeksida 156-o‘rinda turibmiz. Albatta, so‘nggi 3-4-yil mobaynida ushbu sohalarni tartibga soluvchi ko‘plab qonun hujjatlari qabul qilindi, turli institutsional o‘zgarishlar ro‘y berdi.

Xususan, mamlakatimizda so‘z erkinligi hamda ommaviy axborot vositalarining cheklov va to‘sqliarsiz faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Ommaviy axborot vositalari uchun media bozorida teng sharoit yaratish va ularni yanada rivojlantirish hamda jurnalist va blogerlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Milliy mass-mediani qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi tashkil etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohadagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Bu boradagi davlat dasturlarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etish, turli organlar va tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi tashkil etildi. Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini yurituvchi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tuzildi.

Qator sohalardagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq qonunchilikning jadal rivojlanishi ayrim hollarda amaldagi qonun hujjatlariga zid bo‘lgan ko‘plab normalarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Shuning uchun ham qonunchilikni tubdan qayta ko‘rib chiqish, uni tizimlashtirish, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlari sifatini oshirish, ijrosi monitoringini takomillashtirish maqsadida Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiysi ishlab chiqildi. Biroq shuncha ishlarga qaramay, indekslardagi ko‘rsatkichlar bu borada hali kamchiliklarimiz borligini ko‘rsatib turibdi. Shu bois, qator muhim vazifalarni belgilab olganmiz. Eng avvalo, O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqishimiz zarur bo‘ladi. Shuningdek, davlat organlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy baholash tartibini belgilash va davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha reytingini shakllantirishni yo‘lga qo‘ymoqchimiz. Shu bilan birga, mamlakatimizning Korrupsiyaga qarshi davlatlar guruhi (GREKO) xalqaro tashkilotiga a’zo bo‘lishi va bu tashkilotning korrupsiyaga qarshi tegishli konvensiyalarini talablarini milliy qonunchiligidan qilib qilish masalasini ham o‘rganib chiqishimiz lozim.

Ommaviy axborot vositalari, fikrlar xilma-xilligi va so‘z erkinligini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashimiz zarur. Ayniqsa, jurnalistning qonuniy professional faoliyatiga to‘sqinlik qilishga oid huquqbazarliklarga nisbatan javobgarlikni belgilashimiz kerak.

Respublikaning siyosiy-huquqiy reyting va indekslarda quyi pog‘onalardan joy olganligining sabablaridan yana biri mazkur reyting va indekslar, asosan, jamoatchilik fikri va xalqaro ekspertlar xulosasi asosida

shakllantirilishidadir. Qolaversa, indeks yurituvchi tashkilotlar so‘rovnomalari faqatgina mustaqil fuqarolik jamiyati institatlari (nodavlat notijorat tashkilotlar) bilan hamkorlikda o‘tkazilishini inobatga olib, respublika miqyosida bunday tashkilotlar kamligi hamda ular tomonidan tadqiqot ishlarini amalga oshirish salohiyati cheklanganligi kabi omillar ham bunga sabab bo‘lishi mumkin.

Shu o‘rinda alohida qayd etishimiz zarur, har bir davlat organi, ayniqsa, respublika darajasidagi vazirlik, idora, tashkilotlar huzurida nodavlat notijorat tashkilotlar vakillaridan iborat jamoatchilik kengashlari tuzilib, ular bilan yaqin hamkorlik o‘rnatsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Albatta, O‘zbekiston umumiy reytingda 6 ta pog‘onaga pasaydi. Lekin reytingni shakllantiruvchi komponentlar bo‘yicha birmuncha o‘sish kuzatilgan. Masalan, ushbu reytingning “Inson kapitali”, “Elektron ishtirok” va “Telekommunikatsiya infratuzilmasi” indekslari bo‘yicha ko‘rsatkichlar 0,01 dan 0,14 punktgacha oshgan.

“Elektron ishtirok” indeksi bo‘yicha respublikamiz o‘zining ko‘rsatkichini 0,80 punktgacha oshirib, umumiy reytingdagi o‘rnini 13 pog‘onaga ko‘tardi va 46-o‘rinni egallab, elektron ishtirok indeksining juda yuqori rivojlanish darajasiga ega mamlakatlar ro‘yxatiga kirdi. Vaholanki, 2018 yilda ushbu indeks bo‘yicha mamlakatimiz 59-o‘rinda edi. Bundan tashqari, O‘zbekistonga ochiq ma’lumotlar bo‘yicha eng yuqori ball berildi. Albatta, “Elektron hukumatni rivojlantirish” reytingidagi o‘rnimiz pasayishiga ayrim omillar ta’sir qildi. Eng avvalo, ta’kidlash joizki, 2018 yildan joriy yilning aprel oyiga qadar respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va “Elektron hukumat” tizimini joriy etishda yagona muvofiqlashtiruvchi organ mavjud bo‘lmagan. Natijada reytingni oshirish bo‘yicha aniq belgilangan chora-tadbirlar rejasidagi qabul qilinmagan va tegishli ishlar yetarli darajada tashkil etilmagan. Hozir Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ushbu ishga mas’ul etib belgilangan. Shuningdek, milliy elektron xizmatlar portali hamda ta’lim, mehnat, ijtimoiy xizmatlar, sog‘liqni saqlash, moliya va atrof-muhit sohalaridagi tegishli vazirlik va idoralarning veb-saytlari ham talabga to‘liq javob beradi, deb ayta olmaymiz. Ushbu saytlar reytingning “Elektron xizmatlar” komponentida 148 ta jihat bo‘yicha baholab boriladi. Milliy onlayn xizmatlar portali va rasmiy veb-saytlarning mobil qurilmalardan foydalananish uchun moslashgan shakllari yetarli darajada joriy etilmagan. Shuningdek, tranzaksiya xizmatlari darajasining pastligi, davlat bojlari, turli yig‘imlar va jarimalarni to‘liq elektron tarzda to‘lash ham oxiriga yetmaganligi reytingdagi o‘rnimizga salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Reytingning “Inson kapitali” komponenti bo‘yicha ham ishlashimiz kerak bo‘lgan ayrim kamchiliklar bor. Masalan, masofaviy o‘qitish imkoniyatlaridan to‘liq foydalanimayotgani, oliy ma’lumotga ega aholi qatlami bo‘yicha aniq ma’lumotlar yetarli emasligi reytingdagi o‘rnimizga ta’sir qilmoqda.

Mobil aloqa abonentlari, internet foydalanuvchilari ulushini begilaydigan “Telekommunikatsiya infratuzilmasi” komponentida esa respublikaning uzoq hududlariga yuqori tezlikdagi simli internet tarmog‘i yetib bormaganligi ham reytingdagi o‘rnimizga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Bu kamchiliklarni to‘g‘rilash

bo‘yicha ustuvor vazifalarni belgilab olganmiz. Umid qilamizki, navbatdagi hisobotlarda ushbu yo‘nalishda mamlakatimiz o‘rni yanada yaxshilanishiga erishiladi.

**1.2. SEMINAR  
MASHG'ULOTLA  
RI MAVZULARI**

## I – semestrغا ajratilgan seminar mash‘ulotlari (30 soat)

### 1-mavzu: Kirish. «O‘zbekistonning eng yangi tarixi» o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari (2 soat).

*Mavzuni o‘rganishda «Aqliy hujum» interfaol usulidan foydalanish maqsadga muvofiq*

#### **Reja:**

1. O‘zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi.
2. Fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Uni o‘rganishning nazariy-uslubiy asoslari.
3. Intellektual salohiyatli, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga etkazishda mamlakat eng yangi tarixining tutgan o‘rni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning ma’naviy etuk shaxsni tarbiyalashda tarixiy xotiraning o‘rni va saboqlari to‘g‘risidagi fikrlari.
5. XXI globallashuv asrida ta’lim sohasida mazkur fanni o‘qitishdagi nazariy-kontseptual yondashuv va ilg‘or innovatsiyalar.

#### **Adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
4. Мустақил Ўзбекистон тарихининг дастлабки саҳифалари. – Т.: 2000.
5. Эркаев А. Ўзбекистон йўли. – Т.: Маънавият, 2011.
6. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // М. Абдуллаев ва бошқалар: тўлдирилган учинчи нашр. – Т.: Шарқ, 2006.
7. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул муҳаррир А. Сабиров. – Т.: Академия, 2013.
8. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А.Рахимов. – Т.: Адабиёт учқунлари, 2018.
9. Ўзбекистон тарихи. Р.Ҳ. Муртазаеванинг умумий таҳрири остида. –Т.: 2005.
10. Ахмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. –Т.: Абу Али ибн Сино нашр., 2002.
11. Исломов З.М. Ўзбекистон модернизациялаш ва демократик тараққиёт сари. – Т.: Ўзбекистон, 2005.
12. Левитин Л. Ўзбекистон туб бурилиш палласида. – Т.: Ўзбекистон, 2005.

### 2-mavzu: Mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar (2 soat).

*Mavzuni o‘rganishda «Baxs-munozara» interfaol usulidan foydalanish maqsadga muvofiq*

#### **Reja:**

1. XX asr 80-yillari o‘rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi inqirozli holat. Ekologik muammolar.
2. Markazning O‘zbekistonda amalga oshirgan qatag‘on siyosati: «Paxta ishi» «O‘zbek ishi» nomli kompaniyalar.
3. 1989-yil o‘rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘zgarishlar.
4. 1991-yil avgust voqealari: GKCHP (ГКЧП). Sovet davlatining tanazzulga yuz tutishi.

#### **Adabiyotlar:**

- Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
- Мустақил Ўзбекистон тарихининг дастлабки саҳифалари. – Т.: 2000.
- Эркаев А. Ўзбекистон йўли. – Т.: Маънавият, 2011.
- Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // М. Абдуллаев ва бошқалар: тўлдирилган учинчи нашр. – Т.: Шарқ, 2006.
- Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул муҳаррир А. Сабиров. – Т.: Академия, 2013.
- Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А. Рахимов. – Т.: Адабиёт учқунлари, 2018.
- Азизхўжаев А.А. Мустақиллик: курашлар, изтироблар, қувончлар. – Т.: 2001.
- Азизхўжаев А.А. Чин ўзбек иши. – Т.: 2003.
- Ўзбекистон мустақиллик йилларида. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
- Ўзбекистон тарихи. Р.Ҳ. Муртазаеванинг умумий таҳрири остида. – Т.: 2005.
- Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). 2-том. Масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, Қ.Ражабов, М.Рахимов. – Т.: Ўзбекистон, 2019.
- Юнусова Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва маънавий жараёнлар (XX аср 80-йиллари мисолида). – Т.: Abu matbuot-konsalt, 2009.
- Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иктисодий муносабатлар (70-80-йиллар мисолида). Қўлланма. – Т.: Шарқ, 1999.

### **3-mavzu: Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati (2 soat).**

*Mavzuni o‘rganishda «Aqliy hujum» interfaolusulidan foydalanish maqsadga muvofiq*

#### **Reja:**

- O‘zbekiston davlat mustaqilligining e’lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.
- Mustaqillikning ilk davrida davlat suverenitetini mustahkamlash yo‘lidagi sa’y-harakatlar.
- Mustaqil O‘zbekiston davlatining yuzaga kelishi va mustahkamlanishida I.A. Karimovning tarixiy xizmatlari.

#### **Adabiyotlar:**

- Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас қуч. –Т.: Маънавият, 2008.
- Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
- Каримов И.А. Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатdir. – Т.: Ўзбекистон. 2015.
- Левитин Л. Ўзбекистон туб бурилиш палласида. – Т.: Ўзбекистон, 2005.
- Мустақил Ўзбекистон тарихининг дастлабки саҳифалари. – Т.: 2000.
- Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // М.Абдуллаев ва бошқалар: тўлдирилган учинчи нашр. – Т.: Шарқ, 2006.
- Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул муҳаррир А.Сабиров. – Т.: Академия, 2013.
- Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А. Рахимов. – Т.: Адабиёт учқунлари, 2018.
- Ўзбекистон мустақиллик йилларида. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
- O‘zbekiston tarixi / R.H. Murtazayeva umumiy tahriri ostida. – Т.: Yangi asr avlod, 2005.
- Ўзбекистоннинг энг янги тарихи хрестоматияси. / Масъул муҳаррир и.ф.н. Н.Талипова / – Т.: Fan va texnologiya, 2014.
- Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). 2 том. Масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, Қ.Ражабов, М.Рахимов. – Т.: Ўзбекистон, 2019.
- Фуломов С., Убайдуллаева Р., Аҳмедов Э. Ўзбекистон. –Т.: Мехнат, 2001.

#### **4-mavzu: O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li (2 soat).**

*Mavzuni o‘rganishda «Taqdimot» interfaol usulidan foydalanish maqsadga muvofiq*

##### **Reja:**

1. O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini tanlashi. «O‘zbek modeli» va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
2. O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy rivojlanish strategiyasi: yangilanish va taraqqiyot yo‘li.
3. O‘zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan strategiya asoslari.
4. O‘zbekiston Respublikasi davlat ramzlari va Konstitutsiyasining qabul qilinishi.

##### **Adabiyotlar:**

1. Каримов И.А. Инсон унинг хуқуқ ва эркинликлари - олий қадрият. Т.14. – Т.: Ўзбекистон, 2006.
2. Мустақил Ўзбекистон тарихининг дастлабки саҳифалари. – Т.: 2000.
3. Эркаев А. Ўзбекистон йўли. – Т.: Маънавият, 2011.
4. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // М. Абдуллаев ва бошқалар: тўлдирилган учинчи нашр. – Т.: Шарқ, 2006.
5. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул муҳаррир А.Сабиров. – Т.: Академия, 2013.
6. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
7. Ўзбекистон тарихи. Р.Х. Муртазаеванинг умумий таҳрири остида. –Т.: 2005.
8. Ўлмасов А., Вахобов А. Иқтисодиёт назарияси. - Т.: Шарқ, 2006.
9. Фуломов С., Убайдуллаева Р., Ахмедов Э. Ўзбекистон. –Т.: Мехнат, 2001.

#### **5-mavzu: O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar (4 soat).**

*Mavzuni o‘rganishda «Taqdimot» interfaol usulidan foydalanish maqsadga muvofiq*

##### **Reja:**

1. Mustaqil O‘zbekistonda milliy davlat boshqaruvi tizimi.
2. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati.
3. O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. Ijtimoiy-sherikchilik.
4. O‘zbekiston Respublikasida Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining tashkil etilishi va faoliyati.

##### **Adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. - Т.: Ўзбекистон, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. - Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Т.: Ўзбекистон, 2016.
4. Каримов И.А. Инсон унинг хуқуқ ва эркинликлари - олий қадрият. Т.14. - Т.: Ўзбекистон, 2006.
5. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. – Т.: Маънавият, 2017.
6. Мустақил Ўзбекистон тарихининг дастлабки саҳифалари. - Т.: 2000.
7. Эркаев А. Ўзбекистон йўли. - Т.: Маънавият, 2011.
8. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // М.Абдуллаев ва бошқалар: тўлдирилган учинчи нашр. - Т.: Шарқ, 2006.

9. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул мухаррир А. Сабиров. - Т.: Академия, 2013.
10. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А. Рахимов. - Т.: Адабиёт учқунлари, 2018.
11. Исломов З.М. Ўзбекистон модернизациялаш ва демократик тараққиёт сари. - Т.: Ўзбекистон, 2005.
12. Левитин Л. Ўзбекистон туб бурилиш палласида. - Т.: Ўзбекистон, 2005.
13. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. - Т.: Ўзбекистон, 1996.
14. Ўзбекистон тарихи. Р.Х. Муртазаеванинг умумий таҳрири остида. - Т.: 2005.

## **6-mavzu: Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi.**

### **O‘zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi (2 soat).**

*Mavzuni o‘rganishda «Aqliy hujum» interfaol usulidan foydalanish maqsadga muvofiq*

#### **Reja:**

1. O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo‘nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari.
2. Bozor munosabatlariga o‘tishning huquqiy asoslarining yaratilishi.
3. Bozor infratuzilmasining shakllanishi, qishloq xo‘jaligidagi islohotlar, uning vazifalari va yo‘nalishlari.
4. Sanoat, avtomobilsozlik sohasining rivojlanishi.
5. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi va uni O‘zbekistonda bartaraf etish yo‘llari.

#### **Adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. - Т.: Ўзбекистон, 2017.
2. Каримов И.А. Инсон унинг ҳуқуқ ва эркинликлари - олий қадрият. Т.14. - Т.: Ўзбекистон, 2006.
3. Каримов И.А. Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. - Т.: Ўзбекистон, 2015.
4. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. – Т.: Маънавият, 2017.
5. Мустақил Ўзбекистон тарихининг дастлабки сахифалари. - Т.: 2000.
6. Эркаев А. Ўзбекистон йўли. - Т.: Маънавият, 2011.
7. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // М.Абдуллаев ва бошқалар: тўлдирилган учинчи нашр. - Т.: Шарқ, 2006.
8. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул мухаррир А. Сабиров. - Т.: Академия, 2013.
9. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А. Рахимов. - Т.: Адабиёт учқунлари, 2018.
10. Исломов З.М. Ўзбекистон модернизациялаш ва демократик тараққиёт сари. - Т.: Ўзбекистон, 2005.
11. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. - Т.: Ўзбекистон, 1996.
12. Ўзбекистон тарихи. Р.Х. Муртазаеванинг умумий таҳрири остида. - Т.: 2005.
13. Ўлмасов А., Вахобов А. Иқтисодиёт назарияси. - Т.: Шарқ, 2006.
14. Фуломов С., Убайдуллаева Р., Ахмедов Э. Ўзбекистон. -Т.: Мехнат, 2001.

## **7-mavzu: O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy o‘zgarishlar (2 soat).**

*Mavzuni o‘rganishda «Baxs-munozara» interfaol usulidan foydalanish maqsadga muvofiq*

#### **Reja:**

1. Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi.
2. Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan davlat siyosatini

takomillashtirish.

3. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy himoya va manzilli ijtimoiy yordamni amalga oshirishdagi ishtiroki.
4. O‘zbekiston Respublikasi «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi Qonunning mazmun-mohiyati.

**Adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. - Т.: Ўзбекистон, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. - Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Т.: Ўзбекистон, 2016.
4. Каримов И.А. Инсон унинг ҳуқуқ ва эркинликлари - олий қадрият. Т.14. - Т.: Ўзбекистон, 2006.
5. Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. - Т.: Ўзбекистон, 2015.
6. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. – Т.: Маънавият, 2017.
7. Мустақил Ўзбекистон тарихининг дастлабки сахифалари. - Т.: 2000.
8. Эркаев А. Ўзбекистон йўли. - Т.: Маънавият, 2011.
9. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // М. Абдуллаев ва бошқалар: тўлдирилган учинчи нашр. - Т.: Шарқ, 2006.
10. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Маъсул мухаррир А. Сабиров. - Т.: Академия, 2013.
11. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А. Рахимов. - Т.: Адабиёт учқунлари, 2018.
12. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. - Т.: Ўзбекистон, 1996.
13. Ўзбекистон тарихи. Р.Х. Муртазаеванинг умумий таҳрири остида. - Т.: 2005.

## **8-mavzu: Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyot (2 soat).**

*Mavzuni o‘rganishda «Baxs-munozara» interfaol usulidan foydalanish maqsadga muvofiq*

**Reja:**

1. Mustaqillik yillarida ma’naviy va ma’rifiy hayot.
2. Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlar va tarixiy shaxslarga bo‘lgan e’tibor.3. O‘zbekistondagi tarixiy shaharlarning yubileyalarini xalqaro miqyosda keng nishonlanishi.
4. Madaniyat va san’at sohasi, shuningdek, milliy sport turlarining rivojlanishi.
5. Beshta tashabbus va uning yuksak ma’naviy madaniyatni ta’minlashdagi o‘rni.
6. O‘zbekistonda millatlararo va dinlararo munosabatlardagi barqarorlikni ta’minlash borasidagi davlat siyosati.

**Adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. - Т.: Ўзбекистон, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. - Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Каримов И.А. Инсон унинг ҳуқуқ ва эркинликлари - олий Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008.
4. Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. - Т.: Ўзбекистон, 2015.
5. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта

- устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. – Т.: Маънавият, 2017.
6. Мустақил Ўзбекистон тарихининг дастлабки саҳифалари. - Т.: 2000.
  7. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // М.Абдуллаев ва бошқалар: тўлдирилган учинчи нашр. - Т.: Шарқ, 2006.
  8. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул мухаррир А. Сабиров. - Т.: Академия, 2013.
  9. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А. Рахимов. - Т.: Адабиёт учқунлари, 2018.
  10. Ахмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. -Т.: Абу Али ибн Сино нашриёти, 2002.
  11. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. - Т.: Ўзбекистон, 1996.
  12. Ўзбекистон тарихи. Р.Х. Муртазаеванинг умумий таҳрири остида. - Т.: 2005.
  13. Ўзбекистон халқининг дини, маданияти ва урф-одатлари: тарих ва ҳозирги ҳолат. - Т.: ТИУ, 2011.
  14. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик: тарихий тажриба ва ҳозирги замон. Масъул мухаррир Р.Х. Муртазаева. -Т.: Мумтоз сўз, 2010.
  15. Муртазаева Р.Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва толерантлик. Дарслик. - Т.: Мумтоз сўз, 2019.

### **9-mavzu: O’zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar (2 soat).**

*Mavzuni o’rganishda «Aqliy hujum» interfaolusulidan foydalanish maqsadga muvofiq*

#### **Reja:**

1. Mustaqillik yillarida ilm-fanning rivojlanishi. Yangi jamiyat qurishda ta’lim va tarbiyaning roli.
2. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning qabul qilinishi. Dasturning maqsad va vazifalari, uni amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari. Ta’limning milliy modelining shakllanishi, rivojlanishi va muammolari. O’zbekistonda kadrlar tayyorlash sohasidagi o’zgarishlar.
3. Oliy ta’lim sohasida qabul qilingan Qonunlar va ularda belgilangan vazifalar.
4. Ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo’lga qo’yilishi: yutuqlar va kamchiliklar.

#### **Adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. - Т.: Ўзбекистон, 2017.
2. Мустақил Ўзбекистон тарихининг дастлабки саҳифалари. - Т.: 2000.
3. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. – Т.: Маънавият, 2017.
4. Эркаев А. Ўзбекистон йўли. - Т.: Маънавият, 2011.
5. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // М. Абдуллаев ва бошқалар: тўлдирилган учинчи нашр. - Т.: Шарқ, 2006.
6. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул мухаррир А. Сабиров. - Т.: Академия, 2013.
7. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. - Т.: Ўзбекистон, 1996.
8. Ўзбекистон тарихи. Р.Х. Муртазаеванинг умумий таҳрири остида. - Т.: 2005.

### **10-mavzu: Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi (2 soat).**

*Mavzuni o’rganishda «Taqdimot» interfaolusulidan foydalanish maqsadga muvofiq*

#### **Reja:**

1. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining iqtisodiy yangilanishi.
2. Qoraqalpog‘iston Respublikasida qishloq xo‘jaligi sohasidagi o’zgarishlar.

3. Ma'naviy-madaniy sohadagi o'zgarishlar.
4. Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy ta'lim tizimi va undagi islohotlar.
5. Mustaqillik yillari Qoraqalpog'iston Respublikasida ekologik ahvolni yaxshilash borasidagi davlat siyosati.

**Adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. - Т.: Ўзбекистон, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Конун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. - Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. – Т.: Маънавият, 2017.
4. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // М. Абдуллаев ва бошқалар: тўлдирилган учинчи нашр. - Т.: Шарқ, 2006.
5. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул муҳаррир А. Сабиров. - Т.: Академия, 2013.
6. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А. Рахимов. - Т.: Адабиёт учқунлари, 2018.
7. Ўзбекистон тарихи. Р.Х. Муртазаеванинг умумий таҳрири остида. - Т.: 2005.
8. Қорақалпоғистон тарихи (1917-1994 йй.). - Нукус, 1995.

**11-mavzu: O'zbekiston va jahon hamjamiyati (4 soat).**

*Mavzuni o'rGANISHDA «Aqliy hujum» va «Taqdimot» interfaolusulidan foydalanish maqsadga muvofiq*

**Reja:**

1. O'zbekistonning geosiyosiy holati.
2. O'zbekiston Respublikasining mustaqil tashqi siyosati asoslарining ishlab chiqilishi.
3. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari
4. O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtaсидаги o'zaro hamkorlik aloqalari.
5. O'zbekistonning Osiyo, Amerika va Yevropa mamlakatlari bilan o'zaro hamkorligi masalalari.

**Adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. - Т.: Ўзбекистон, 2017.
2. Каримов И.А. Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. - Т.: Ўзбекистон, 2015.
3. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. – Т.: Маънавият, 2017.
4. Мустақил Ўзбекистон тарихининг дастлабки сахифалари. - Т.: 2000.
5. Эркаев А. Ўзбекистон йўли. - Т.: Маънавият, 2011.
6. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // М. Абдуллаев ва бошқалар: тўлдирилган учинчи нашр. - Т.: Шарқ, 2006.
7. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул муҳаррир А. Сабиров. - Т.: Академия, 2013.
8. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А. Рахимов. - Т.: Адабиёт учқунлари, 2018.
9. Левитин Л. Ўзбекистон туб бурилиш палласида. - Т.: Ўзбекистон, 2005.
10. Усмонов К. Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашви. -Т.: Молия, 2003.
11. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. - Т.: Ўзбекистон, 1996.
12. Ўзбекистон тарихи. Р.Х. Муртазаеванинг умумий таҳрири остида. - Т.: 2005.
13. Фуломов С., Убайдуллаева Р., Аҳмедов Э. Ўзбекистон. -Т.: Мехнат, 2001.

## **12-mavzu: Yangilanayotgan O‘zbekiston: milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari (2 soat).**

*Mavzuni o‘rganishda «Aqliy hujum» interfaolusulidan foydalanish maqsadga muvofiq*

### **Reja:**

1. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining ishlab chiqilishi va unda belgilangan ustuvor yo‘nalishlar.
2. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining hayotga joriy etilishi va uning ahamiyati.

### **Adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. - Т.: Ўзбекистон, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. - Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. - Т.: Ўзбекистон, 2017.
4. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Т.: Ўзбекистон, 2016.
5. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. – Т.: Маънавият, 2017.

## **13-mavzu: O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini va nufuzini ortib borishi (2 soat).**

*Mavzuni o‘rganishda «Aqliy hujum» interfaolusulidan foydalanish maqsadga muvofiq*

### **Reja:**

1. Respublikaning xalqaro imidjini oshirish chora-tadbirlari.
2. Iqtisodiy indekslardagi o‘sish.
3. Ta’lim sohasidagi xalqaro reytinglarda ko‘tarilish.

### **Adabiyotlar:**

1. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. – Т.: Маънавият, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida» PF-6003-sonli Farmoni.
3. <https://yuz.uz/uz/news/xalqaro-reyting-va-indekslar> - Xalqaro reyting va indekslar.

## **II. MUSTAQIL TA‘LIM**

### **MASHG‘ULOTLARI.**

**(Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar)**

#### **«O‘zbekistonning eng yangi tarixi» fanidan mustaqil ta’limi bo‘yicha berilgan topshiriqlar.**

Mustaqil ta’limdan ko‘zlangan maqsad va vazifalar – bu talabalarda mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Mustaqil ta’lim seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rishdan tashqari fan dasturida ko‘rsatilmagan, ammo fan bo‘yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo‘sishimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni bajarishni o‘z ichiga oladi.

#### **Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. O‘zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar mazmun va mohiyati.
2. Mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilgan islohotlar.
3. Yuksak ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalashda O‘rtta Osiyo allomalari ilmiy merosining o‘rni (allomalarning ilmiy faoliyati misolida).
4. O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarining faoliyati (o‘zgarish va muammolar).
5. Qishloq xo‘jaligi va sanoat sohasidagi o‘zgarishlar.
6. O‘zbekistonda inson huquqlari va erkinliklari kafolatining yaratilishi.
7. Milliy xavfsizlikni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar.
8. O‘zbekistonni xalqaro reytinglardagi ko‘rsatkichlarini ko‘tarishning tarixiy va siyosiy ahamiyati.
9. Siyosiy-huquqiy sohadagi (10 ta ) ustuvor xalqaro reytinglar va ularga O‘zbekistonning integratsiyalashuvi.
10. Iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi (14 ta) ustuvor xalqaro reytinglar va ularga O‘zbekistonning integratsiyalashuvi.

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

Mustaqil ish uchun «O‘zbekistonning eng yangi tarixi» fani yuzasidan ma’lumotlar bayon etilgan qo‘sishimcha adabiyotlar tavsiya etiladi. Mustaqil ish uchun beriladigan vazifalar fakul’tativ va individual xarakterda bo‘lib, talabalning maxsus mutaxassisligiga bog‘liq jarayonlarni yanada chuqurroq o‘rganishga qaratiladi.

Mustaqil ish uchun belgilangan mavzularni talabalar mustaqil ravishda ko‘rsatilgan adabiyotlar yordamda o‘zlashtirib joriy, oraliq nazorat shaklida yoki darslardan tashqari vaqtarda referat yoki muloqat tarzida topshiriladilar.

Talabalar mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- ✓ Seminar mashg‘ulotlarga tayyorgarlik;
- ✓ Darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;

- ✓ Tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruza qismini o‘zlashtirish;
- ✓ Maxsus adabiyotlar bo‘yicha fan bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishslash;
- ✓ Talabalar uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan boqliq bo‘lgan fan bo‘limlari va mavzulari chuqur o‘rganish;
- ✓ Faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari;
- ✓ Masofaviy ta’lim.

«O‘zbekistonning eng yangi tarixi» fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan bo‘lib, 13 ta katta mavzu ko‘rinishida shakllantirilgan:

1. Kirish. «O‘zbekistonning eng yangi tarixi» o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari.
2. Mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.
3. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati.
4. O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li.
5. O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyatni asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar.
6. Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O‘zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.
7. O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy o‘zgarishlar.
8. Mustaqillik yillarda O‘zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyot.
9. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.
10. Mustaqillik yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi.
11. O‘zbekiston va jahon hamjamiyati.
12. Yangilanayotgan O‘zbekiston: milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari.
13. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini va nufuzini ortib borishi.

### III. GLOSSARIY

(*Glossary — biror tekstdagi notanish, tushunilishi qiyin so‘zlar lug‘ati*) (Глоссарий

— словарь узкоспециализированных терминов в какой-либо отрасли

знаний с толкованием, иногда переводом на другой язык, комментариями и примерами)

(*Glossary — A glossary (from Ancient Greek: γλῶσσα / language, speech, wording) also known as a vocabulary or clavis, is an alphabetical list of terms in a particular domain of knowledge with the definitions for those terms*)

#### **AKTSIYADORLIK JAMIYATI [Акционерное общество; Joint stock company]**

— ustav fondi jamiyatning aktsiyadorlarga nisbatan majburiyatlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aktsiyalarga taqsimlangan xo‘jalik yurituvchi subekt.

**BANK [Банк; Bank]** — tijorat tashkiloti bo‘lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir: yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag‘lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish; to‘lovlarni amalga oshirish.

**BOSHQARUV SHAKLI [Форма управления; Management form]** — bu huquqiy institut bo‘lib, davlat hokimiyatini tashkil etish tartibi. Oliy va mahalliy davlat organlarini tuzish usulini hamda ularning bir-biri va aholi bilan o‘zaro munosabatlari tartibini o‘z ichiga oladi.

**VAZIR [Министр; Minister]** (arab. yuk ko‘taruvchi) — o‘rta asrlarda O‘rta va Yaqin Sharq davlatlarida, shu jumladan, O‘rta Osiyo xonliklarida hukumat idorasi yoki kengashi (devon) boshlig‘i. Yuqori mansabdor shaxs. Vazir hukumat a’zosi hamda ma’lum bir vazirlikni boshqaruvchi yuqori mansabdor shaxsdir.

**VAZIRLAR MAHKAMASI [Кабинет Министров; Cabinet of Ministers, The Government]** — Isroil, Latviya, Yaponiya, Shri-Lanka, Qozog‘iston, Turkmanistonda va qator boshqa mamlakatlarda hukumatning rasmiy nomi. O‘zbekiston Respublikasida hukumat “Vazirlar Mahkamasi” deb nomlangan bo‘lib, “O‘zbekiston Respublikaci Vazirlar Mahkamasi to‘g’risida”gi Qonunga binoan, u O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma’naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta’minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir.

**VAZIRLIK [Министерство; Ministry]** — ko‘pchilik davlatlarda davlatning markaziy idora organi, ijtimoiy-madaniy qurilish va ma’muriy-siyosiy faoliyatning ayrim tarmoqlarini boshqaradi. Yangi Vazirliklar tuzish, mavjudlarini tugatish, ularning rahbarlarini tayinlash O‘zbekistonda Prezident vakolatiga kiradi va davlatning oliy vakillik organi – Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi.

**VALYUTA [Валюта; Currency]** — chet el valyutasi, chet el valyutasidagi qimmatli qog’ozlar, chet el valyutasidagi to‘lov hujjatlari va sof quyma oltin valyuta boyliklari hisoblanadi.

**VETO [Вето; Veto]** (*lot. Veto - taqiqlayman*) — hozirgi zamon davlatlarida qandaydir bir organning qarorini to‘xtatib qo‘yadigan yoki kuchga kirishga yo‘l qo‘ymaydigan harakat. Davlat boshlig‘iga parlament qabul qilgan qonunlarga Veto qo‘yish (qarorlarni taqiqlash) huquqining berilishi alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Vetoning **mutlaq** (yoki **rezolutiv**), bunda davlat boshlig‘i parlament qabul qilgan qonunni uzil-kesil qaytarish huquqiga ega bo‘ladi va **nisbatan** (**kechiktiradigan** yoki **suspensiv**) turlari farqlanadi.

**DAVLAT APPARATI [Государственный аппарат; State apparatus]** (inglizcha, «machinery of government» so‘zi) — davlat organlari tizimi bo‘lib, ular faoliyati orqali davlat hokimiyati va uning funktsiyalari amalga oshiriladi.

**DAVLAT BOSHQARUVI [Государственное управление; Public**

**administration** — davlat organlarining tashkillashtiruvchi, ijro etuvchi va farmoyish beruvchi faoliyati bo‘lib, qonun asosida amalga oshiriladi. Bu faoliyatni davlat boshqaruvi organlari amalga oshirib, ijro etish jarayonida qonunlarning va unga asoslangan hujjatlarning bajarilishini ta’minlash uchun farmoyish berish huquqiga ega bo‘ladi.

**DAVLAT BOSHQARUVI USULLARI [Методы государственного управления; Methods of public governance]** — davlat tomonidan boshqaruvi sohasidagi vazifalar qanday hal qilinishi tushuniladi. Davlat o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish yo‘lida hamda vazifa va funktsiyalarni bajarish uchun turli xil usullardan foydalanadi. Ishontirish va majburlash keng tarqalgan ma’muriy usullardir.

**DAVLAT BOSHLIG’I [Глава государства; Head of state]** (inglizcha, «head of the state») — oliv davlat lavozimi bo‘lib, u ijro hokimiyati soxibi va tashqi munosabatlar sohasida davlatning oliv vakili hisoblanadigan shaxs. Monarxiyalarda —Buyuk Britaniya, Daniya, Shvetsiya, Ispaniya, Yaponiyada — d.b. monarx (korol, imperator, emir) bo‘lib, uning hokimiyati qoidaga ko‘ra, hukmron shajara vakilidan keyingisiga qonunga binoan meros tariqasida o‘tkaziladi. Respublikalarda (Italiya, Frantsiya, GFR, AQSh, Lotin Amerikasi davlatlari va b.) d.b. prezident bo‘lib, u yoki bevosita aholi tomonidan sayylanadi (Meksika, panama, Kolumbiya), yoki bilvosita (AQSh, Argentina), yoxud ko‘p bosqichli saylovlari (Italiya, GFR, Hindiston) natijasida sayylanadi. Ko‘pchilik davlatlarda individual davlat rahbari mavjud, prezidentlik respublikalarida davlat rahbari ayni paytda hukumat rahbari ham hisoblanadi. (AQSh, Meksika, Argentina, Afrikaning ayrim davlatlarida).

**DAVLAT RAMZLARI [Государственные символы; State symbols]** — muayyan bir davlatning milliy suverenitetini ifodalaydigan, tarixan tarkib topgan alohida, eng muhim belgilari. Ular bevosita xalq, millat hayoti, an’analari, ruhiyati, folklori, tarixi bilan chambarchas bog‘liqdir. Davlat ramzları mustaqil davlatning muhim tashqi belgilarini o‘zida mujassamlantiradi. Davlat ramzlarida xalqning azaliy orzusi, ezgu niyatları, bugungi hayot mazmuni aks etadi. Davlat ramzları konstitutsiya yoki maxsus qonun bilan belgilab qo‘yiladi. Davlat bayrog‘i, davlat gerbi, davlat madhiyasi, davlat ranglari, davlat boshlig‘ining shtandarti (bayrog‘i), davlat muxri, davlat shiori asosiy Davlat ramzları hisoblanadi.

«O‘zbekiston Respublikasi» nomi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiysi, o‘zbek tili, O‘zbekistonning o‘z bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, poytaxti (Toshkent shahri), O‘zbekistonning davlat mukofotlari va unvonlari, milliy valyutasi (so‘m), umumxalq bayramlari mustaqil o‘zbek davlatining yorqin timsollaridir.

**DAVLAT QO‘MITALARI [Государственные комитеты; State committees]** — (O‘zRda) umum davlat vazifalarni bajaradigan sohalararo davlat boshqaruvi markaziy idoralari. Davlat qo‘mitalari tegishli tarmoq muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Davlat qo‘mitalari tegishli tarmoqdagagi ahvol uchun mas’ul hisoblanadi. “O‘zR Vazirlar Mahkamasi to‘g’risida”gi Qonuni (1993-yil 6-may) va Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari davlat qo‘mitalari ning huquqiy holatini belgilab bergen.

**DAVLAT NAZORATI [Государственный контроль; State control]** — davlat organlari chiqaradigan qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarga rioya qilinishini ta’minlaydigan davlat hokimiyatini amalga oshirish shakllaridan biri. Davlat nazoratini turli organlar amalga oshiradi. Odatta nazorat vazifasi asosan parlamentlarda to‘plangan, ammo keyingi o‘n yillikda ko‘pgina mamlakatlarda parlamentdan tashqari, biroq parlament nomidan ish yuritadigan nazorat instantsiyalari keng tarqaldi (masalan, *ombudsman, hisob palatasi*), *ma’muriy yustitsiya* organlarining soni va roli o‘sdi.

**DAVLAT ORGANI [Орган управления; Governing body]** — davlat mexanizmining tarkibiy qismi bo‘lib, u davlat oldida turgan vazifa va funktsiyalarning muayyan konkret qismini, yo‘nalishini amalga oshiradi va shu maqsadda tegishli davlat-huquqiy vakolatlarga, zaruriy kompetentsiyaga ega bo‘ladi.

**DAVLAT TASARRUFIDAN CHIQARISH [Дeregulирование со стороны государства; State deregulation]** — davlat korxonalarini va tashkilotlarini xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlariga, davlatga qarashli mulk bo‘lmaydigan boshqa korxonalar

tashkilotlarga aylantirishdir.

**DEMOKRATIYA** [Демократия; Democracy] (qadimgi yunoncha, «xalq hokimiyati») — barcha insonlar tenglik bilan kollektiv qarorga kelish imkoniga ega siyosiy tuzum. Demokratiyada fuqarolar erkinligi va tengligi qonunlarda mustahkamlangan, xalq hokimiyatchiligining vosita va shakllari amalda o‘rnatilgan va yuzaga chiqarilgan bo‘ladi. Demokratiya davlat bilan inson munosabatlarini belgilaydi.

**DEPUTAT** [Депутат; Deputy] (lotincha, deputatus — «vakil») — qonunchilik yoki davlatning boshqa vakillik organiga saylangan shaxs, aholining ma’lum qismi — o‘z saylov organi saylovchilarining yoki butun millatning vakili.

**YOPIQ AKTSIYADORLIK JAMIYATI** [Закрытое акционерное общество; Closed joint stock company] — aktsiyalari faqat o‘z muassislari yoki oldindan belgilangan doiradagi shaxslar orasida taqsimlanadigan jamiyat.

**JAMOAT FONDI** [Фонд сообщества; Community foundation] — yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo‘sish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko‘zlaydigan, a’zoligi bo‘lmagan nodavlat notijorat tashkiloti jamoat fondi deb e’tirof etiladi.

**INSON HUQUQLARI** [Права человека; Human rights] — insonning davlatga munosabati bo‘yicha huquqiy maqomini, uning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalardagi imkoniyat va da’volarini ifodalovchi tushuncha. Inson huquqlarini erkin va samarali amalga oshirilishi huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

**ISLOHOT** [Реформа; Reform] — ijtimoiy hayotning biron-bir tomoni (tartiblar, idoralar, muassasalar)ni o‘zgartirish, qaytadan tuzish. Islohot rasman — har qanday mazmundagi yangilikni joriy etish hisoblansada, aslida Islohot deyilganda ko‘p yoki oz darajadagi ilg‘or qayta o‘zgartirish nazarda tutiladi. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning pirovard maqsadini vaziyatdan kelib chiqqan holda to‘g‘ri belgilab olish muhimdir.

Islohotlar turli mamlakatlarda ularning geografik joylashishi, iqlimi, iqtisodiy, intellektual salohiyati, ma’naviyati, madaniyati, milliy xususiyatlari va boshqa o‘ziga xos omillardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, harbiy, madaniy, ma’rifiy, huquqiy va shu kabi sohalarida alohida yoki bir necha sohalarida bir yo‘la islohot qilinishi mumkin. Islohot vaziyatga qarab tadrijiy tarzda, bosqichma-bosqich amalga oshirilsa muvaffaqiyatli bo‘ladi. O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgach, jamiyat hayotining hamma sohalarida tub o‘zgarishlar boshlandi. Jumladan, bozor iqtisodiyotini qaror toptirishga yo‘naltirilgan islohotlar xalqning turmush farovonligini yaxshilashga qaratilgandir.

**IJTIMOIY SHERIKLIK** [Социальное партнерство; Social partnership] — O‘zbekiston Respublikasining «Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida» qonunining 3-moddasida, «ijtimoiy sheriklik» tushunchasiga huquqiy ta’rif berilgan. Unga ko‘ra, «Ijtimoiy sheriklik davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari (FBJI) bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir. Davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari ijtimoiy sheriklik sub‘ektlaridir».

**KADRLAR DESANTI** [Кадровый десант] — qatag‘onlikning navbatdagi yangi bosqichi 80-yillarga to‘g‘ri keldi. Bu qatag‘onlik sovetlar hukumatining yana bir navbatdagi nayrangi bo‘lib, mustamlakachilar tomonidan kiritilgan «o‘zbeklar ishi», «paxta ishi», «qo‘sib yozish» kabi so‘zlar bilan bog‘liq. Maxsus va ataylab uyushtirilgan navbatdagi qatag‘onlik tepasida O‘zbekistonga markazdan yuborilgan minglab «kadrlar desanti» turdi. Jumladan, O‘zSSRning ijtimoiy – siyosiy hayotida 1984-yil 23-iyunda bo‘lgan O‘zbekiston Kompartiyasi MK XVI – plenumi mash‘um rol o‘ynagan. Moskva tashabbusi va ko‘rsatmasi bilan tashkil qilingan bu plenumda qabul qilingan hujjatlar O‘zbek xalqini asossiz

badnom etish kompaniyasini boshlab berdi.

Markazning tazyiqi ostida 1984-yildan O'zbekistondagi rahbarlik lavozimlariga sobiq ittifoqning har xil joylaridan «kadrlar desanti» kela boshladi. 1984 – 1987-yillarda Moskva, Leningrad va Rossiyaning boshqa shaharlardan 400 dan ortiq kishi O'zbekistonning partiya, sovet, ma'muriy – xo'jalik organlariga ishga yuborilgan. Xususan, 1984 – 1989-yillarda O'zSSR IIVga sobiq sovetlar mamlakatidan hammasi bo'lib 150 ta xodim kelgan. Yillar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, 1984-yilda 5 ta, 1985-yilda 33 ta, 1986-yilda 86 ta, 1987-yilda 27 ta, 1988-yilda 2 ta, 1989-yilda 3 ta.

**KASABA UYUSHMALARI [Профсоюзы; Trade unions]** — kasaba uyushmasi ko'ngilli jamoat tashkiloti bo'lib, ham ishlab chiqarish, ham noishlab chiqarish sohalaridagi faoliyat turiga qarab, o'z a'zolarining mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini hamda manfaatlarini himoya qilish uchun mushtarak manfaatlar bilan bog'langan mehnatkashlarni birlashtiradi.

**KONSTITUTSIYA [Конституция; Constitution]** (lotincha, constitutio – tuzilish, tuzuk) — davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi.

Konstitutsiya davlatchilik belgisidir. Xalqaro konstitutsiyaviy tajribalarni o'rganish, xalqaro hujjat qoidalarini inobatga olish, milliy davlatchilik an'analardan kelib chiqish natijasida yaratilgan O'zR Konstitutsiyasi (1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan) jahon andozalariga mos bo'lib, xalqaro talablarga javob beradi.

**KUZATUVCHI [Наблюдатель; The Observer]** — O'zbekiston Respublikasida saylov jarayonida deputatlilikka nomzodlar ko'rsatgan siyosiy partiyalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari, boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar va harakatlar tomonidan tayinlanadigan hamda qonunda belgilangan tartibda kuzatuvchi sifatida ro'yxatga olinadigan shaxs. Kuzatuvchilar mahalliy va xalqaro kuzatuvchilarga bo'linadi. Ularning vakolatlari tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

**KO'PPARTIYAVIYLIK [Многопартийность; Multiparty]** — hozirgi demokratik davlatlarda siyosiy hayotni tashkil etishning asosiy konstitutsiyaviy printsiplaridan biri, siyosiy va mafkuraviy plyuralizmni ancha umumiyoq bo'lgan printsipining ifodasi hisoblanadi. Ko'ppartiyaviylik printsipi yuridik jihatdan davlat fuqarolarning o'z dunyoqarashlariga muvofiq tarzda siyosiy partiyalarga birlashish huquqini, barcha siyosiy partiyalarning qonun oldida tengligini, ular faoliyati erkinligini tan olishi va kafolatlashini anglatadi.

**LIZING [Лизинг; Leasing]** — moliyaviy ijaraning alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing ob'ektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun o'n ikki oydan ortiq muddatga beradi.

**MAHALLA [Махалля, Махалла; Makhalla, mahallah, mahalla, mahallya, mahalle]** — O'zbekistonda ma'muriy-hududiy birlik; o'zini o'zi boshqarishning xalqimiz an'analari va qadri-yatlariga xos bo'lgan usuli. «Mahalla» atamasi arabcha bo'lib, «o'rinn-joy» degan ma'noni anglatgan. Mahalla kichik ma'muriy hudud bo'lishi bilan birga, turmush tarzi, qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar umumiyligi bilan bog'langan kishilar jamoasi birligidir. Tarixning turli bosqichlarida davrlar, tuzumlar o'zgarishiga qarab Mahallaning vazifalari ham o'zgarib turgan.

Mahallaning asosiy vazifalari: marosimlarni birgalikda o'tkazish, o'z hududini batartib saqlash va obodonlashtirish, yosh avlodni ijtimoiy ruhda tarbiyalash, jamiyat hayotida tartib saqlanishini ta'minlash, barcha an'anaviy me'yordarning bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish, urf-odatlarga rioya qilish va ularni buzgan, jamoat maj-buriyatlaridan bo'yin tovlaganlarni

jazolashdan iborat bo‘lgan. Mahalla rahbari-yati ariq-hovuzlarni tozalash, ko‘chalar, yo‘llar qurish va Mahalla obodonchiligi bilan bog‘liq boshqa jamoat ishlarni uyuştirganlar. Bu ishlarning barchasi birgalikda hashar yo‘li bilan amalgalashdi.

Mahalla jamiyatimizning tuzilmasi sifatida tarixan bir qancha rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tdi. U XX asrning 1-choragida o‘zining an’anaviy shaklini oldi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, mahallalarga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. O‘zR Konstitutsiyasining 105-moddasiga va 1993-yil sentabrda qabul qilingan «Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi qonunga binoan, mahallalar o‘z huquqiy maqomiga ega bo‘lib, mahalliy hokimiyat tarkibiga kirdi. 1998-yil 23-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlarini qo‘llab-quvvatlash haqida»gi farmoniga ko‘ra, mahalla rahbariyatining (rais, kotib) faolligini oshirish, ijtimoiy muhofaza qilish va qo‘llabquvvatlash maqsadida ularning ish haqi oshirildi, pensioner raislarga pensiyani to‘liq olishlariga ijozat berildi. Natijada mahalla rahbariyatining manfaatdorligi va nufuzi ortdi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimovning tashabbusi bilan 2003-yil O‘zbekistonda «Obod mahalla yili» deb e’lon qilindi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2003-yil 7-fevralda qabul qilgan «Obod mahalla yili» dasturiga binoan, mahalla nufuzini ko‘tarishga qaratilgan muhim vazifalar amalgalashdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2020-yil 18-fevraldagagi «Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog’lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishslash tizimini yangi darajaga olib chiqish choratadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5938-sonli Farmoni bilan **«O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi»** tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagagi «O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-4602-sonli Qarori asosida vazirlik faoliyatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan.

**МАHALLIY O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH [Орган местного самоуправления; Local government]** — mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni aholining manfaatlari, uning tarixiy, ijtimoiy-etnik va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqib, shu davlat konstitutsiyasi va qonunlari asosida mustaqil (mas’uliyatni zimmasiga olib) hal qilish uchun fuqarolar faoliyatini tashkil etish tizimi. Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishni aholi hokimiyat vakillik organlari (munitsipal majlis, kengashlar, qo‘mitalar va boshqalar), muvofiq keluvchi boshqaruv organlari, mahalliy referendumlar, fuqarolar kengashlari, bevosita demokratianing boshqa hududiy shakllari, shuningdek, aholining hududiy ijtimoiy o‘zini o‘zi boshqarish organlari orqali amalgalashadi.

**MODERNIZATSIYA [Модернизация; Modernizatio]** (modern – zamonaviy) — yangilanish, zamonaviy; davlat, jamiyat, iqtisodiyot, texnologiya va boshqa sohalarning yangilanishi, yangi uslublar, ixtirolarning qo‘llanishi asosidagi o‘zgarishlar.

**MUSTAQILLIK [Независимость; Independence]** (arabchadan – tobe emaslik; ixtiyor o‘zidilik, qaram emaslik) — davlatning ichki va tashqi ishlarda boshqa davlatlarga qaram bo‘lmay faoliyat ko‘rsatishi. Mustaqillik tamoyillariga rioya etish davlatlararo o‘zaro munosabatlarda etakchi, hukmron qoidadir. Har bir davlatning mustaqilligini tan olish o‘zaro tinchtotuv yashashning prinsiplaridan biridir. U BMT Ustavi va xalqaro shartnomalar va deklaratsiyalart mustahkamlab qo‘ylgan. Unga rioya qilish hozirgi zamon xalqaro huquqining asosiy vazifasidir. Davlatning suvereniteti uning boshqa davlatlar bilan munosabatlardagi mustaqilligini ham bildiradi. Mustaqillik davlatning faqat siyosiy emas, balki iqtisodiy mustaqilligini ham anglatadi. Mustaqillik insoniyatning azaldan orzu-umidi bo‘lib kelgan.

Ma’lumki, XX asrning 90-yillariga kelib sotsialistik mamlakatlarda inson huquqlarini himoya qilish va ozodlikka intilishning yangi bosqichi boshlandi. Bu davrga kelib mustaqillikka erishish masalasi dunyonи keng qamrab olgan jarayonga aylandi.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi ana shu olamshumul jarayon tarkibida yuz berdi. Mustaqillik imkoniyatlarini oldindan payqagan, mamlakat ijtimoiysiyoj jarayonlarining borishini to‘g‘ri kuzatib, to‘g‘ri baholay bilgan O‘zbekiston ittifokdoshlari orasida birinchilardan bo‘lib, o‘z mustaqilligini e’lon qildi: 1991-yil 31-avgust kuni kabul kilingan O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Bayonet O‘zbekiston hukumatining siyosiy yo‘lini to‘la qonunlashtirib berdi. 1991-yilning avgustida «O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi va ana shu qonun doirasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining bundan keyin O‘zbekiston SSRni O‘zbekiston Respublikasi deb atash, 1 sentyabrni Mustakillik kuni deb e’lon qilish, O‘zbekiston Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish, shuningdek, ittifoqning va uning tarkibiga kiradigan barcha mustaqil davlatlarning oliy qonun chiqaruvchi idoralariga, barcha xorijiy davlatlarga va jahon hamjamiyatiga murojaat qilib, ularni respublikaning davlat mustaqilligi e’lon qilingan hujjatni tan olishga da’vat etish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Bu O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki huquqiy poydevori edi.

**NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTI** [Государственная некоммерческая организация; Non-governmental non-profit organization] — jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ixtiyorilik asosida tashkil etilgan, daromad olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingen daromadlarni o‘z qatnashchilari o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotidir. Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy maqsadlarga erishish, ma’naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.

**OVOZ BERISH** [Голосование; Ballot] — saylov jarayonining muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, aktiv saylov huquqiga ega bo‘lgan fuqaroning saylovda deputatlikka yoki saylab qo‘yiladigan boshqa lavozimga nomzodga o‘z ovozini berishga qaratilgan xatti-harakati.

**OKRUG SAYLOV KOMISSIYASI** [Окружная избирательная комиссия; District election commission] — saylov okrugida saylovlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishga rahbarlik qiluvchi, okrugdagi uchastka saylov komissiyalariga uslubiy ko‘maklashuvchi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tuziladigan, davlat hokimiyyati vakolatiga ega bo‘lgan maxsus kollegial organ.

**OMBUDSMAN** [Омбудсмен; Омбудсмен] (shvedcha, ombudsman — biron kishi manfaatlarining vakili) — turli xil ma’muriy organlar, ba’zi mamlakatlarda esa — shuningdek, xususiy shaxslar va birlashmalarning inson huquqlariga rioya etishini nazorat qilish uchun maxsus saylab (tayinlab) qo‘yiladigan mansabdor shaxs. Ombudsman nazoratni amalga oshiradi va prokuraturadan farqli ravishda nafaqat qonuniylik, balki shu bilan birga samaradorlik, maqsadga muvofiqlik, adolatparvarlik nuqtai nazaridan ham tekshirish olib boradi.

O‘zbekiston Respublikasida ombudsman faoliyatining huquqiy asoslari “Oliy Majlisning Inson huquqlari vakili (ombudsman) to‘g‘risida” O‘zRning qonuni (1997-yil 24-aprel)da belgilab berilgan. Mazkur qonunga ko‘ra, Oliy Majlisning Inson huquqpari bo‘yicha vakili (ombudsman) — mansabdor shaxs bo‘lib, unga O‘zbekiston Respublikasida davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar tomonidan inson huqukdari to‘g‘risidagi amaldagi qonun hujjatlariga rioya etilishining samaradorligi ustidan parlament nazoratini ta’minalash vakolatlari berilgan. Vakil o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, boshqa qonun hujjatlariga, O‘zRning xalqaro shart-nomalariga, shuningdek, xalqaro huquqning umum e’tirof etgan prinsiplari va normalariga asoslanadi. Vakil o‘z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari va mansabdor shaxslarga tobe bo‘lmasdan tarzda amalga oshiradi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisob beradi.

**OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI (OAV)** [Средства массовой

**информации (СМИ); Mass media** — keng ommaga axborot yetkazuvchi vositalardir. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo‘lgan hamda bosma tarzda (gazeta, jurnal, axborotnama, bulleten va boshqalar) va/yoki elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efiriga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari OAV, deb ko‘rsatilgan.

Ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri bo‘lib, u demokratiyani chuqurlashtirish va aholining siyosiy faolligini oshirishda, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotdagi voqelikka nisbatan dahldorlik xissini shakllantirishda, davlat hokimiysi va boshqaruv organlari faoliyati, shuningdek jamiyatda yuz berayotgan barcha o‘zgarishlar, bo‘layotgan jarayonlar xususida keng jamoatchilikka etkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**OCHIQ AKTSIYADORLIK JAMIYATI [Открытое акционерное общество; Open joint stock company]** — qatnashchilar o‘zlariga tegishli aktsiyalarini o‘zga aktsiyadorlarning rozilgisiz boshqa shaxslarga berishi mumkin bo‘lgan aktsiyadorlik jamiyati.

**OSHKORALIK [Гласность; Publicity]** — demokratianing zarur sharti; jamoatchilikka muassasalar, tashkilotlar va mansabdar shaxslar faoliyatiga oid barcha ma’lumot, xabarlarni bilish, muhokama va nazorat etish uchun ro‘y-rost e’lon qilish. Turli darajadagi rahbarlarning jamoatchilik bilan erkin muloqotlari, savol-javoblari va bunda ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan keng foydalanish, senzuraga yo‘l qo‘ymaslik Oshkoralikni ta’minlashga yordam beradi.

**PALATALARNING QO‘SHMA MAJLISI [Совместное заседание палат; Joint meeting of the chamber]** — ikki palatali tuzilmaga ega bo‘lgan parlamentlar ish shakllaridan biri. Qator mamlakatlarda parlamentning qo‘shma majlisi parlament vakolatiga kiradigan eng muhim masalalarni: urush holati yoki safarbarlikni e’lon qilish, davlat byudjetini tasdiqlash, respublika Prezidentini saylash va shu kabilarni hal qilish maqsadida, boshqalarida esa faqat davlat boshlig‘i maktubini tinglash va boshqa tantanali holatlar o‘tkaziladi.

**PARLAMENT [Парламент; Parliament]** (inglizcha, parliament; fransuzcha, parlement, *parler* – gapirmoq so‘zidan olingan) — demokratik davlatlarda oliy vakillik va qonunchilik organining nomi. Parlament birinchi marta XIII asrda Angliyada tashkil qilingan. Parlament vakillik muassasasi bo‘lib, uning deputatlari xalq tomonidan saylanadi va parlamentda uning manfaatlari himoya qilinadi.

Parlament — Oliy vakillik organlari turli mamlakatlarda turlicha ataladi. Jumladan, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Kanada, Belgiya va boshqa davlatlarda Parlament; AQSH va Lotin Amerikasining aksariyat mamlakatlari kongress, Rossiya Federatsiyasida — Federal Majlis, Litva, Latviya, Polshada — seym va h.k. O‘zbekistonda esa O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi bo‘lib, dastlab bir palatali va 2005-yildan ikki palatali tizim shaklida faoliyat ko‘rsatmoqda. Parlamentni tashkil qilish tartibi, vakolat muddati, vakolat doirasi turli mamlakatlarda turlicha bo‘lib, ular Konstitutsiya hamda qonunlarda belgilab qo‘yiladi.

**PARLAMENT (deputatlar) FRAKTsIYaSI [Парламентская (депутатская) фракция; Faction of parliament (deputies)]** — parlament yoki uning palatasida bir partiyaga mansub deputatlar birlashmasi. Odatda Parlament fraktsiyasi tarkibiga partyaning etakchilari va ko‘zga ko‘ringan arboblari kiradi.

**PARLAMENT SESSIYASI [Парламентская сессия; Parliamentary session]** (lotincha, sessio — «yig‘ilish») — parlament (parlament palatalari) va parlament komissiyalarining yalpi majlisi bo‘lib o‘tadigan davr. Har bir yil mobaynida navbatdagi Parlament sessiyasining necha marta bo‘lishi qonun yoki odat bo‘yicha belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati majlislari zaruratga qarab, yiliga kamida uch marta o‘tkaziladi.

**PARLAMENTNI TARQATIB YUBORISH [Роспуск парламента; Dissolution of parliament]** — parlamentar davlatlarda, shuningdek, aralash turdag'i respublikalarda davlat hokimiyatini amalga oshirish konstitutsiyaviy mexanizmining asosiy elementlaridan biri. Parlamentni tarqatib yuborish (muddatidan oldin parlamentga saylovlarni e'lon qilish) huquqi davlat boshlig'iqa tegishli (garchi bundan u, qoidaga ko'ra faqat hukumat «iltimosiga» binoan foydalansada) hamda u hukumatning parlament oldidagi javobgarligi tartibotiga (institutiga) qarshi qo'yiladigan tartib hisoblanadi.

**PARTIYA [Партия; Party]** (lotincha, partio — bo'lak, qism) — g'oyaviy jihatdan maslakdosh, manfaatlari bir bo'lgan kishilar guruhidan iborat, muayyan ijtimoiy guruh yoki qatlamlarning manfaatlarini himoya qiluvchi siyosiy tashkilot.

**PREZIDENT [Президент; President]** (lotincha, praesidens — oldinda o'tiruvchi) — 1) hozirda ko'pchilik (respublika shaklida idora qilinadigan) mamlakatlarda saylab qo'yiladigan davlat boshlig'i. BMT ga a'zo bo'lib kirgan 189 mamlakatning 140 dan ortigida Prezident lavozimi joriy qilingan (2000). Bunday boshqaruv shakli ilk bor AQSH da 1787-yili vujudga kelgan. O'zbekiston tarixida birinchi Prezidentlik lavozimi 1990-yil 24-martda ta'sis etildi. 1991-yil 29-dekabrda esa o'tkazilgan umumxalq saylovida I.A. Karimov O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylangan; 2) ayrim ilmiy va jamoat tashkilotlarida, partiylar, jamiyatlar, uyushmalar (shu jumladan, xalqaro uyushmalarda ham) ijrochi organ boshligi.

**PREZIDENTLIK BOSHQARUVI [Президентская администрация; Presidential administration]** — favqulodda holatlar joriy etilganda davlat boshqaruvida qo'llaniladigan vaqtinchalik boshkaruv shakli. U, asosan, federativ tuzilishdagi davlat boshqarushi (mas, AQSH, Hindiston)da qo'llaniladi. Sub'ektlar federal konstitutsiya yoki qonunlarni, hukumatning qonuniy talablarini buzganda, inson huquqlari poymol etilganda, jiddiy tartibsizliklar ro'y berganda, federativ davlatning yagonaligiga xavf solinganda, kuchli zilzila, suv toshqinlari va shu kabilarda amalga oshiriladi. Prezidentlik boshqarushi davlat boshlig'in maxsus farmoni (dekreti) bilan e'lon qilinadi. Prezidentlik boshqarushi paytida tegishli davlat hokimiyati va boshqaruv organlari vakolatlari to'xtatiladi, ularning vazifasini bajarish prezident tuzadigan organ yoki prezident tayinlagan mansabdor shaxs zimmasiga yuklanadi.

**REFERENDUM [Референдум; Referendum]** (lotincha, referendum — bildirilishi kerak bo'lgan) — umumxalq ovoz berish yo'li bilan qonunlar qabul qilish va davlat ahamiyatiga molik eng muhim masalalarni hal qilish shakli. Bevosita demokratiyaning muhim vositasi. Referendumning saylovlardan asosiy farqi shundaki, Referendum o'tkazilayotganda biron bir lavozimga nomzod yoki nomzodlar ro'yxati uchun ovoz berilmaydi, balki unda muayyan masala — qonun, qonun loyihasi, konstitutsiya, konstitutsiyaga tuzatishlar, mamlakatxalqaro maqomiga taalluqli yoki ichki siyosatiga oid biron bir savol qo'yiladi.

Hozirgi zamon davlatlarining konstitutsiyaviy huquqi Referendum va uni o'tkazishning turli xil ko'rinishlarini nazarda tutadi. Referendumlar butun davlat hududida o'tkaziladigan umumilliy Referendum va alohida federatsiya sub'ektlari yoki ma'muriy-hududiy birliklarda o'tkaziladigan mahalliy Referendumga bo'linadi. Konstitutsiyaga yoki qonunlarga taalluqli Referendum o'tkazilishi mumkin. Birinchi holda yangi konstitutsiya loyihasi yoki konstitutsiyaga qilinadigan o'zgartirish va tuzatishlar bo'yicha Referendum o'tkazilsa, ikkinchi holatda qonun loyihasi yoki kuchga kirgan qonun bo'yicha Referendum o'tkaziladi.

**SAYLOV [Выборы; Election]** — demokratiyaning asosiy belgisi bo'lib, ovoz berish yordamida davlat hokimiyatining vakillik organlarini yoki mansabdor shaxsini, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini, jamoat birlashmalarini va boshqalarni bevosita xalqning xohish-irodasiga asoslangan holda, ular tomonidan yoki boshqa organ tomonidan shakllantirish bilan bog'liq jarayondir. Saylov tushunchasi ko'proq davlat hokimiyatining vakillik organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saylashga nisbatan

qo‘llaniladi.

**SAYLOV TIZIMI** [Избирательная система; Election system] — demokratik jamiyat siyosiy tizimining muhim qismi bo‘lib, fuqarolarning saylash va saylanishdan iborat huquqini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar yig’indisini anglatadi. Ushbu tushuncha davlatning saylab qo‘yiladigan organlarini shakllantirish tartib-tamoyillarini ham o‘z ichiga qamrab oladi.

**SIYOSIY PARTIYALAR** [Политические партии; Political party] — ijtimoiy guruuhlar manfaatlarini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilotlar hisoblanadi. Siyosiy partiyalar jamiyat siyosiy tizimining muxim kismi, ular davlatning siyosiy yo‘nalishini belgilashda ishtirok etadi, hukumatning vakillik va ijro etuvchi muassasalarini shakllantiradi. Dastlabki siyosiy partiyalar XVII – XVIII-asrlar inqiloblari davrida paydo bo‘la boshlagan bo‘lsada, siyosiy partiyalarga o‘xshash jamoa, tashkilotlar qadimdan mavjud edi.

Markaziy Osiyoda siyosiy partiyalar tuzish uchun tarixiy-ijtimoiy vaziyat XIX-asrning oxiri — XX-asrning boshlarida yuzaga kela boshladi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqil bo‘lganidan so‘ng siyosiy partiyalarning shakllanishi va faoliyat olib borishiga imkoniyat yaratildi.

1996-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida»gi 337-I-sonli Qonuni qabul qilingan. Hozirda mamlakatda 5 ta siyosiy partiya: 1. O‘zbekiston Xalq demokratik; 2. O‘zbekiston «Adolat» sotsial – demokratik partiyasi; 3. O‘zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi (O‘zMTDP); 4. O‘zbekiston Liberal – demokratik partiyasi (O‘zLiDep); 5. O‘zbekiston Ekologik partiyasi — 2019-yil 8-yanvarda tuzilgan.

**STRATEGIYA** [Стратегия; Strategy] (qadimgi yunoncha —«qo‘mondonlik san’ati») — bu tizimning asosiy maqsadlariga erishishga qaratilgan uzoq muddatli harakatlar kontseptsiysi, ya’ni uzoq vaqtini o‘z ichiga olgan har qanday faoliyatning umumiy rejasি, murakkab maqsadga erishish usuli. Strategiya — bu ta’limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo‘lib, u izchillik bilan va to‘liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta’minlaydi.

XXI asrga kelib strategiya tushunchasi ancha kengaydi. Strategiya deb, dunyo miqyosida va davlat ichki hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda boshqa sohalarda vujudga kelgan inqiroziy vaziyatlarni prognozlashtirish va bartaraf etishga qaratilgan boshqaruvni tashkil etish masalalariga doir tushunchalarni qamrab oladi. Shundan kelib chiqib, davlat strategiyasi bir biri bilan o‘zaro bog‘liq, lekin alohida xususiyat kasb etuvchi ko‘plab tushunchalarda ifodalanadi.

**SUVERENITET** [Суверенитет; Sovereignty] (fransuzcha, souverainete — oliv hokimiyat) — hokimiyatning ustunligi va mustaqilligi. Suverenitetni hurmatlash — xalqaro huquq va xalqaro munosabatlarning asosiy prinsipi. U BMT Ustavi va boshqa xalqaro hujjatlarda mustahkamlab ko‘ylgan. Konstitutsiyaviy huquq fanida davlat suvereniteti, millat suvereniteti, xalq suvereniteti tushunchalari ishlataladi.

Davlat suvereniteti — hokimiyatning mamlakat ichida oliyligi va tashqi munosabatlarda to‘la mustakilligi. Davlat suvereniteti haqidagi goya Jan Boden (XVI-asr, Fransiya)ga tegishlidir. Uning fikricha, suverenitet davlatning eng muxim belgisi hisoblanadi, bunda abadiy, mutlaq, bo‘linmas oliv hokimiyat nazarda tutiladi. Davlat suvereniteti tushunchasi keyingi davrlarda yanada rivojlantirildi va boyitiddi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida davlat suvereniteti alohida bobda o‘z ifodasini topgan, Konstitutsianing 1-moddasida «O‘zbekiston suveren demokratik respublika» ekanligi qayd qilingan.

Millat suvereniteti — millatning to‘la hokimiyatini, uning to‘la siyosiy erkinligini, o‘z milliy hayotini belgilash real imkoniyatiga egaligini, mustaqil davlatni tashkil qila olishgacha bo‘lgan huquqqa egaligini bildiradi.

Xalq suvereniteti — xalqning to‘la hokimiyatini anglatadi, ya’ni xalq jamiyat va davlatni boshqarishda real ishtirok etish uchun ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy vositalarga ega

bo‘ladi. Xalq suvereniteti — barcha demokratik davlatlarda konstitutsiyaviy tuzum prinsiplaridan biri hisoblanadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida kursatilishicha, «Xalq davlat hokimiyatining birdanbir manbaidir. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergen idoralar tomonidangina amalga oshiriladi» (7-modda).

**SUD [Суд; Court]** — zimmasiga davlat hokimiyatining bo‘g‘inlaridan biri — sud hokimiyatini amalga oshirish yuklatilgan organ. Qonun chiqaruvchi (vakillik) va ijro etuvchi organlardan sud uni shakllantirish, sudyalarga vakolatlar berish tartibi, tegishli ishlarni ko‘rib chiqish tartib-taomillarining xususiyatlari, shuningdek qabul qilinuvchi qarolarning majburiyligi va mas’uliyati, ularning yuridik ahamiyati bilan farq qiladi.

Sud (slavyancha sud – «ish») — odil sudlovnn amalga oshiruvchi davlat organi; muayyan davlatning qonunlariga asosan protsessual tartibda jinoiy, fuqarolik, ma’muriy va boshqa toifadagi ishlarni ko‘rib chiqadi va hal qiladi. «Sud» atamasi sud hokimiyati vakolatlarini amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan nodavlat tuzilmalarini nomlash uchun ham juda ko‘p qo‘llaniladi (hakamlar sudi, Xalqaro tijorat arbitraj sudi va h.k.).

**TADBIRKORLIK FAOLIYATI (TADBIRKORLIK) [Предпринимательская деятельность (Предпринимательство); Entrepreneurship activities (Entrepreneurship)]** — tadbirkorlik faoliyati sub‘ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat.

**TARIX [История; History]** — 1) tabiat va jamiyatdagi har qanday rivojlanish jarayoni. Shu ma’noda olamning yaratilish Tarixi, Er tarixi, barcha fanlar tarixi va boshqa tushuniladi; 2) insoniyat va uning mahsuli bo‘lgan tamaddunlar rivoji, jamiyat va davlatlar o‘tmishi taraqqiyoti jarayonini o‘rganuvchi fan.

**FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI [Институты гражданского общества; Civil society institutions]** — fuqarolarning ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalarni hal etishga qaratilgan turli tashkiliy shakllar (tashkilotlar) orqali amalga oshiriladigan faoliyat yo‘nalishlari. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatni institutlari sifatida faoliyat ko‘rsatayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari – «3-sektor» deb ham yuritiladi.

**FAVQULODDA HOLAT BO‘YICHA DAVLAT QO‘MITASI [Государственный комитет по чрезвычайному положению, ГКЧП; The State Committee on the State of Emergency]** — sobiq SSSRda 1991-yil 18–21-avgust kunlari o‘zini o‘zi e’lon qilgan hokimiyat organi. Uning tarkibiga Sovet hukumatining bir qator yuqori lavozimli amaldorlari kirgan. Rossiya tarixshunosligida maskur avgust voqealari «Avgust fitnasi» («Августовский путч») deb nomlangan.

**FERMER XO‘JALIGI [Фермерское хозяйство; Farming facilities]** — ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug’ullanuvchi, mustaqil xo‘jalik yurituvchi sub‘ektdir.

**FUQAROLAR YIG’INI [Сход граждан (Собрание граждан); Citizens’ gathering (Gathering of citizens)]** — shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalar fuqarolarining yig’inlari fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridir.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va qonun bilan berilgan o‘z vakolatlarini tegishli hududda amalga oshiradi.

**FUQAROLIK JAMIYATI [Гражданское общество; Civil society]** — har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an’ana va qonunlarga hurmat muhit shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e’zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so‘zsiz ta’milanadigan, davlat hokimiyatining samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlar chuqr ma’naviy-madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin, demokratik huquqiy jamiyat.

**XABEAS KORPUS [Хабеас корпус, Habeas corpus]** — (lot. habeas corpus) —

shaxsiy daxlsizlik printsipi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ingliz jinoyat-protsessual qonunchiligi instituti; u shuningdek Anglo-sakson huquqiy tizimiga oid boshqa davlatlarining huquqiy tizimlariga ham kiritilgan. Xabeas korpus atamasi lotinchadan o‘zbek tiliga o‘girilganda «**tanani, shaxsni (sudga) keltirish**» ma’nosini anglatadi. G‘apb mamlakatlarida jinoiy ta’qibga uchragan, hibsga olingan yoki qamoqda saqlanayotgan fuqaroning adolatli sud orqali himoyalanishga bo‘lgan huquqini «xabeas-korpus» deb nomlash odat tusiga kirgan.

Ma‘lumki, jinoiy ta’qibga uchragan fuqaroning adolatli sud muhokamasiga bo‘lgan huquqi «**Xabeas korpus (Habeas corpus)**» deya nomlanadi. Ushbu institut dastlab XII asrdan boshlab Angliyada q o‘llanila boshlagan. XIV asrda Eduard I qirolli davrida esa, ushbu amaliyot urf-odatga aylana boshlagan. Mazkur urf-odat o‘z navbatida inson huquqlari masalasi normativ hujjat ko‘rinishini ola boshlagan davrda, aniqroq aytganda, 1679-yil 26-may kuni Angliyada qabul qilingan «Fuqaro erkinligini yanada yaxshiroq ta’minalash va dengizdan tashqari hududlarda asossiz hibsga olishlarning oldini olish to‘g‘risida»gi qonun yoki «Habeas Sorpus Act»da o‘zining normativ qiyofasini topdi.

Mustaqillik yillarida milliy qonunchiligidan xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qonun hujjatlariga muvofiqlashtirish, demokratik tamoyillar va xalqaro huquqiy talablarga to‘liq javob beradigan huquqiy-me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Birgina «Xabeas korpus» institutining milliy qonunchiligidan mustahkam joy olgani ham fikrimizning yorqin dalilidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-avgustdagи «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o‘tkazish to‘g‘risida»gi PF-3644-son Farmonga asosan, 2008-yil 1-yanvardan boshlab jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarni qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlar vakolatiga o‘tkazildi. Ehtiyyot chorasi sifatida qamoqqa olish qonunda belgilangan boshqa ehtiyyot choralarini qo‘llash samarasiz bo‘lgan alohida hollarda va faqat jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar yoki harbiy sudlarning ajrimiga asosan amalga oshiriladigan bo‘ldi. O‘z navbatida, Oliy sud Plenumining 2007-yil 14-noyabrdagi «Sudga qadar ish yuritish bosqichida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyyot chorasingin sudlar tomonidan qo‘llanilishi to‘g‘risida»gi 16-sonli qarori bu borada yagona sud amaliyotini shakkantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda “**Xabeas korpus**” institutining amaliyotga tatbiq etilishi insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, uning daxlsizligini himoya qilishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu institut joriy etilgan 2008-yilning yanvaridan buyon sudlar tomonidan dastlabki tergov organlariga 700 martadan ortiq mazkur ehtiyyot chorasini qo‘llash rad qilingani ham buni yaqqol tasdiqlab turibdi.

Aytish kerakki, davlatimiz rahbari tomonidan taqdim etilgan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi sud-huquq tizimida yangi davrni boshlab berdi. Zero, mazkur Konsepsiya asosida ishlab chiqilib, 2012-yil 18-sentyabrdagi qabul qilingan «Sud-huquq tizimi yanada isloh qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida»gi Qonunga muvofiq, sudga qadar ish yuritish bosqichida prokuror va tergovchi tomonidan qo‘llanib kelingan ayblanuvchini lavozimidan chetlatish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralarini faqat sudyaning sanksiyasi asosida amalga oshirish tartibi joriy etildi.

Bundan tashqari 2014-yil 4-sentyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida»gi Qonunga asosan Jinoyat-protsessual kodeksiga ehtiyyot choralarining yangi turi, ya’ni uy qamog‘i joriy qilindi. Ushbu qonunga muvofiq, uy qamog‘i gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyyot chorasini tanlash uchun asoslar mavjud bo‘lganida uning yoshi, sog‘lig‘i holatini, oilaviy ahvolini va boshqa holatlarni hisobga olgan holda qamoqqa olish maqsadga nomuvofiq, deb topilgan taqdirda qo‘llaniladi.

**XUSUSIY KORXONA [Частное предприятие; Private enterprise]** — mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkiloti. Xususiy

korxona tadbirkorlik sub'ektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

**XUSUSIYLASHTIRISH [Приватизация; Privatization]** — davlat mulkiga egalik huquqining davlatdan xususiy subyektlarga o'tishi jarayoni, xilmaxil mulkchilikni shakllantirish, iqtisodiyotni davlatlashtirishdan qaytish yo'llaridan biri. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish Xususiylashtirishdan tashqari shu mulk hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarini vujudga keltirishni ham nazarda tutadi.

Xususiylashtirish «jismoniy shaxslarning» va davlatga taalluqli bo'limgan yuridik shaxslarning ommaviy mulki ob'ektlarini yoki davlat aktsiyalari jamiyatlarining aktsiyalarini davlatdan sotib olishidir.

**CHET EL INVESTITSIYALARI [Иностранные инвестиции; Foreign investment]** — chet ellik investorlar asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdag'i faoliyat ob'ektlariga qo'shadigan barcha turdag'i moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromadga aytildi.

**EKOLOGIK MUAMMOLAR [Экологические проблемы; Environmental problems]** — insонning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq holda tabiatning insonga aks ta'siri, ya'ni uning iqtisodiyotiga, hayotida xo'jalik ahamiyatiga molik bo'lgan jarayonlar, tabiiy hodisalar bilan bog'liq har qanday hodisa tushuniladi. Sodda qilib aytganda ushbu muammolar inson va tabiat o'rtafigi munosabatlarning buzilishi natijasida vujudga keladi. Ekologik muammolar 3 guruhga bo'linadi. 1. Umumbashariy (global). 2. Mintaqaviy (regional). 3. Mahalliy (lokal). Ma'lumki, sobiq Ittifoqda qishloq xo'jaligi sohasida texnokratik siyosat yuritilishi oqibatida Orol dengizi suvi kamayib, g'oyat mushkul ekologik muammolarni – Orol fojeasini keltirib chiqardi.

**EKOLOGIK NAZORAT [Экологический контроль; Ecological control]** — tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash qoida-talablarini barcha vazirlik, davlat qo'mitalari va idoralari, korxonalar, tashkilotlar, muassasa, mansabdor va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishini tekshirish, tabiiy muhit holatini o'rghanish va kuzatish, chora-tadbirlarni qo'llash bilan bog'lik siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlar yig'indisini o'z ichiga oladi

**ENG YANGI TARIX [Новейшая история; Recent history]** — jahon tarixini davrlashtirishda, asosan, tarix fanida, XX asr boshlari (Birinchi jahon urushi boshlanishi) dan tortib to hozirgi kungacha bo'lgan davrning nomlanishi. Ba'zi manbalarda esa bu insoniyat tarixidagi 1945-yildan hozirgi kungacha bo'lgan davr sifatida belgilanadi.

**O'ZBEK MODELI [Узбекская модель; Uzbek model]** — tushunchasi, avvalo, O'zbekistonning mustaqil milliy taraqqiyoti qanday bo'lishi lozimligini asoslaydigan, uni muayyan maqsadlarga yo'naltiradigan eng umumiylari nazariy xulosalar va mo'ljallar bilan davlatning belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan amaliy siyosatining mushtarakligini anglatadi. Islohotning dastlabki bosqichida chiqarilgan «o'zbek modeli» O'zbekistonda bozor iqtisodiyotini shakllantirishning metodologik asosiga aylandi, jamiyat taraqqiyoti jarayonlarining mutlaqo yangi ko'rinishini ochib berdi.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI [Президент Республики Узбекистан; President of the Republic of Uzbekistan]** — O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i. O'zbekistonda prezidentlik lavozim sifatida 1990-yil 24-martda ta'sis etilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga 35 yoshdan kichik bo'limgan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi mamlakatning 18 yoshga to'lgan fuqarolari umumiylari, teng va to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berishi yo'li bilan o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 5 yil muddatga saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod ko'rsatish huquqiga siyosiy partiylar va bevosita fuqarolar egadirlar. O'zbekiston Respublikasining Prezidentiga, Konstitutsiyaga muvofiq keng va xilma xil vakolatlar berilgan. Bu vakolatlar davlat hayotining deyarli barcha sohalariga taalluqli bo'lib, mamlakat iqtisodiyoti va umuman jamiyat rivojlanishiga juda katta ta'sir o'tkazadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIX bobi «O'zbekiston Respublikasining Prezidenti» deb nomlanadi. Bu bob 9 ta moddadan iborat bo'lib, ularda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy huquqiy maqomi belgilab berilgan.

**QAYTA QURISH** [«Перестройка»; «Perestroika»] — XIX asrning 80-yillari o'rtalarida keng iste'molga kirgan tushuncha; SSSRda totalitar tizimni isloh yo'li bilan o'zgartirishga qaratilgan harakatni anglatgan. Qayta qurish siyosatining maqsadi va vazifasi mamlakatda to'planib qolgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va mafkuraviy sohalardagi muammolarni «qayta qurish» yo'li bilan hal etishdan iborat bo'lган. Sh.S.Gorbachyov boshchiligida KPSS rahbariyatining bir qismi tomonidan boshlangan bu siyosat mamlakat hayoti va umuman jahonda ma'lum o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keldi (oshkorlik, siyosiy pluralizm, «sovnuq urush»ning tugashi va h.k.).

Qayta qurish 1985 – 1990-yillarni o'z ichiga olib, ikki bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqich (1985 – 1987) ma'muriy – tashkiliy tadbirlarning an'anaviy usullarda olib borilishi bilan izohlandi. 1987 – 1990-yillar esa qayta qurishning ikkinchi bosqichi bo'lib, unda jamiyatning barcha jabhalarini kompleks tarzda isloh qilishni kun tartibiga qo'ydi. Jumladan, bu davrda sovet jamiyatini demokratlashtirish masalasi asosiy vazifa deb ta'kidlandi. Biroq qayta qurish siyosati sobiq SSSRda to'planib qolgan muammolarni to'la hal etishga xizmat qilmadi. Mustaqillik, demokratiya va erkinlik g'oyalariga to'g'ri kelmaganligi tufayli ham amaliy samara bermadi. Oxir oqibatda KPSS ning halokati va SSSR ning tugashiga muayyan turki bo'ldi.

**QONUN** [Закон; The Law] — davlat hokimiyatining oliv vakillik organi tomonidan yoki bevosita xalqning xohish - irodasiga ko'ra (masalan, *referendum* o'tkazish yo'li bilan) qabul qilingan va qoida tariqasida, eng muxim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik hujjat.

Qonun (huquqda) — inson, jamiyat va davlat manfaatlari nuqtai nazaridan eng muhim hisoblanadigan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, rivojlantirish va tartibga solish vositasi. Qonun davlat oily vakillik organlarining eng yuqori kuchga ega bo'lган hujjatidir. O'zbekiston Respublikasi qonunlari quyidagi guruhlarga bo'linadi: 1) asosiy qonun — Konstitutsiya; 2) Konstitutsiyaviy qonun; 3) Qonun (kodekslar va joriy qonunlar).

**QONUN LOYIHASI** [Законопроект; Draft law] — qonun chiqaruvchi organga qabul qilish uchun taklif qilinayotgan yoki referendumda ko'rishga kiritish uchun tayyorlangan qonunning matni.

**QONUN CHIQARUVCHI HOKIMIYAT** [Законодательная власть; The legislative authority] — bu Konstitutsiyada mustahkamlangan oliv davlat vakillik idorasining qonunlar qabul qilish, ularni o'zgartirish va bekor qilish bo'yicha alohida vakolatlari hisoblanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatning asosiy vazifasi xalqning (jamiyatning) irodasini qonun shaklida ifoda etishdir.

**QONUNIYLIK** [Законность; Legality] — bu jamiyatdagi barcha huquq sub'ektlari tomonidan qonun va qonun osti hujjatlariga to'la rioya qilinishidir.

**QONUNNI E'LON QILISH** [Объявить закон; Announce the law] — qonunni ma'lum nashrda bosib chiqarish yo'li bilan hammaga ma'lum qilish. Qonunni e'lom qilishning rasmiy va norasmiy turlari farqlanadi.

**HOKIMIYAT VAKILI** [Представитель правительства; Government representative] — davlatning biror bir organining nomidan ish ko'rib, muayyan vazifalarni doimiy yoki vaqtinchalik amalga oshiruvchi va o'z vakolatlari doirasida ko'pchilik yoxud barcha fuqaro yoki mansabdor shaxslar uchun majburiy bo'lган harakatlarni sodir etish yoki farmoyishlar berish huquqiga ega bo'lган shaxs.

**HOKIMIYATLAR BO'LINISHI [Разделение властей; Division of powers]**

— davlat nazariyasining asosiy printsiplaridan biri bo'lib, unga ko'ra yagona davlat hokimiyati mustaqil va bir-biriga bo'ysunmaydigan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linadi (ular bilan bir qatorda ba'zan ta'sis etuvchi, saylovchi va nazorat hokimiyati ham ajratiladi).

**HUKUMAT [Правительство; Government]** — davlatning oliv kollegial ijro etuvchi organi. Hukumat turli mamlakatlarda turlicha nomlanishi mumkin: Vazirlar kengashi (Frantsiya, Italiya, Polsha), Vazirlar Mahkamasi (Buyuk Britaniya, O'zbekiston), Davlat kengashi (XXR) va boshqalar. Hukumat partiyasiz, bir partiyali va koalitsion bo'lishi mumkin. Prezidentlik respublikalarida (shunday organ konstitutsiyada nazarda tutilganlarida) Hukumatni prezident tuzadi, bunda u tayinlagan Hukumat a'zolaridan har biri qator mamlakatlarda (Belarus, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'izistonda) parlament tomonidan tasdiqlanishi kerak.

**HUQUQIY DAVLAT [Правовое государство; The legal state]** — davlat konstitutsiyaviy-huquqiy maqomining tavsifi sifatida amal qiladi va davlatning quyidagi tamoyillarga so'zsiz bo'ysunishini nazarda tutadi: xalq suvereniteti, inson huquqlari va erkinliklarining davlat tomonidan buzilmasligi, davlatning konstitutsiyaviy tuzum bilan bog'liqligi, konstitutsiyaning boshqa barcha qonunlar va qonunosti hujjalardidan ustunligi, hokimiyat larning bo'linishi, huquqiy davlatning tashkiliy negizi bo'lgan hokimiyatning organlari va davlat xizmatchilarining javobgarligi instituti, milliy huquq normalaridan xalqaro huquq normalarining ustunligi.

# **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

## **ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**«TASDIQLAYMAN»**

Rektor \_\_\_\_\_ A.S. Yuldashev  
2022-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_

### **O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI FANINING O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 300 000- Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot  
400 000- Biznes va boshqaruv va huquq  
500 000- Tabiiy fanlar, matematika va statistika  
600 000- Axborot kommunikatsiya texnologiyalari  
700 000 – Muhandislik, ishlov berish, va qurilish sohalari  
1 000 000- Xizmatlar

**Ta'lif sohasi:**  
310 000- Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar  
410 000- Biznes va boshqaruv  
510 000- Biologik va turdosh fanlar  
530 000- Fizikaga oid fanlar  
540 000-Matematika va statistika  
610 000- Axborot kommunikatsiya texnologiyalari  
710 000 – Muhandislik ishi  
720 000- Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari  
1010 000- Xizmat ko'rsatish sohasi

**Ta'lif yo'nalishi:**  
60311000- Sotsiologiya  
60411400- Inson resurslarini boshqarish  
60510100- Biologiya  
60530100- Kimyo (turlari bo'yicha)  
60530400- Geografiya  
60530900- Fiziqa  
60531000-Mexanika va matematika modellashtirish  
60540100- Matematika  
60540200- Amaliy matematika  
60610100- Kompyuter ilmlari va dasturlash texnologiyalari (yo'nalishlari bo'yicha)  
60610500- Kompyuter injiriningi  
60610500- Kompyuter injiriningi (AT-servis)  
60710400- Ekologiya va atrof – muhitni muhifazasi (Tarmoqlar va sohalar bo'yicha)  
60711000 – Muqobil energiya manbalari (turlari bo'yicha) texnologiyasi  
61010300- Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) BOKS  
61010300- Futbol  
61010300-Kurash  
61010400- Turizm ( faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)

**Andijon 2022-yil**

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - kreditlar
UYTB104	2022-2023	1	4 kredit
<b>Fan/modul turi</b>	<b>Ta'lim tili</b>		<b>Haftadagi dars soatlari</b>
Majburiy fan	o'zbek		4
<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lif (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
<b>O'zbekistonning eng yangi tarixi</b>	60 (30+30)	60	120

## I. FANNING MAZMUNI

**Fanning maqsadi** – mustaqillik yillarda O'zbekiston Respublikasida yuz bergen muhim o'zgarishlar, tub islohotlarning mazmun-mohiyatini ko'rsatish va jamiyat hayotida talabaning o'rnini, o'zligini anglatishdan iborat.

**Fanning vazifalari** – mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistonda yuzaga kelgan murakkab vaziyatni hamda mustaqillik yillarda davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hamda boshqa sohalardagi islohotlarning mazmun-mohiyatini talabalarga tushuntirib berish, ularni Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash hamda milliy g'ururni shakllantirishdan iborat.

## II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUDA MASHG'ULOTLARI)

### II. I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

**1-mavzu. Kirish. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" o'quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari.** O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" o'quv fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Fanni o'rganishning nazariy-uslubiy asoslari. Yuksak intellektual salohiyatli, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga etkazishda mamlakat eng yangi tarixining tutgan o'rni. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning ma'naviy etuk shaxsni tarbiyalashda tarixiy xotiraning o'rni va saboqlari to'g'risidagi fikrlari. XXI globallashuv asrida ta'lif sohasida mazkur fanni o'qitishdagi nazariy-konseptual yondashuv va ilg'or innovatsiyalar.

**2-mavzu. Mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.** XX asr 80-yillari o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi inqirozli holat. Markazning O'zbekistonda amalga oshirgan qatag'on siyosati. "Paxta ishi" "O'zbek ishi" nomli kampaniyalar. Aholi turmush tarzining og'irlashuvi. Orol fojiasi. Farg'ona voqealari. 1989-yil

o‘rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘zgarishlar. Milliy manfaatlar ustuvorligining o‘sib borishi. I.Karimov – O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti. Mustaqillik deklaratsiyasi va uning tarixiy ahamiyati. 1991-yil avgust voqealari. GKCHP. Sovet davlatining tanazzulga yuz tutishi.

**3-mavzu. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati.** Mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol. O‘zlikni anglashga intilishning kuchayishi. Siyosiy tizimdagи o‘zgarishlar. Mustaqillikning e’lon qilinishi. O‘zbekiston Respublikasining tashkil etilishi. Mustaqillikning ilk davrida davlat suverenitetini mustahkamlash yo‘lidagi sa’y-harakatlar. Mustaqil O‘zbekiston davlatining yuzaga kelishi va mustahkamlanishida I. Karimovning tarixiy xizmatlari.

**4-mavzu. O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li.** Mustaqil taraqqiyotning dastlabki bosqichidagi muammolar. O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini tanlashi. Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” va uning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy rivojlanish strategiyasi: yangilanish va taraqqiyot yo‘li. O‘zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta’minalashga qaratilgan strategiya asoslari. Mustaqillik – me’yoriy-huquqiy asoslarining yaratilishi. Yangi Konstitutsianing qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. Davlat ramzları.

**5-mavzu. O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyatni asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar.** Milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil O‘zbekistonda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati. Siyosiy partiyalar faoliyatidagi xususiyatlari. O‘zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar. Huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o‘zgarishlar. O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. Ijtimoiy- sherikchilik. O‘z-o‘zini boshqaruv organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o‘rni. O‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. Inson haq-huquqlarini ta’minalash va himoya qilish. O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo’llab-quvvatlash vazirligining tashkil etilishi va faoliyati.

**6-mavzu. Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O‘zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.** Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish konsepsiysi. O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo‘nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari. Bozor munosabatlariga o‘tishning huquqiy asoslarining yaratilishi. Iqtisodiy islohotlarning besh tamoyilini amalga oshirilish mexanizmi. Pul islohotining o‘tkazilishi. Bozor infratuzilmasining shakllanishi, qishloq xo‘jaligidagi islohotlar, uning vazifalari va yo‘nalishlari. Sanoat, avtomobilsozlik sohasining rivojlanishi.

Makroiqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishish. Jahon moliyaviy inqirozining yuzaga kelish sabablari, oqibatlari va uni O‘zbekistonda bartaraf etish yo‘llari. Mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiya va diversifikatsiya qilinishi, bank-moliya tizimini mustahkamlash borasidagi chora-tadbirlar. Soliq tizimidagi islohotlar.

**7-mavzu. O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy o‘zgarishlar.** Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi. Manzilli ijtimoiy himoya tizimining yaratilishi. Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, aholini uy-joylar bilan ta’minalash, yo‘l-transport muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish, ta’lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy himoya va manzilli ijtimoiy yordamni amalga oshirishdagi ishtiroki.

O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun-mohiyati, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.

**8-mavzu. Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyot.** Mustaqillik yillarida ma’naviy va ma’rifiy hayot. Milliy istiqlol g‘oyasi va mafkuraviy masalalar. Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an’analarning qayta tiklanishi.

Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlar va tarixiy shaxslarga bo‘lgan e’tibor. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ajdodlar merosi va milliy qadriyatlarni tiklash borasidagi xizmati. Tarixiy shaharlar (Buxoro, Samarqand, Marg‘ilon, Qarshi, Toshkent, Xiva, Shahrisabz) yubileylarining xalqaro miqyosda keng nishonlanishi. Toshkent shahrining “Islom madaniyati poytaxti” deb e’lon qilinishi va uning ahamiyati. Madaniyat va san’at sohasining rivojlanishi. Xalqaro ko‘rik-tanlovlarning o‘tkazilishi. Milliy sport turlarining rivojlantirilishi. Beshta tashabbus va uning yuksak ma’naviy madaniyatni ta’minalashdagi o‘rni. O‘zbekistonda millatlararo va dinlararo munosabatlardagi barqarorlikni ta’minalash borasidagi davlat siyosati. Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiysi.

**9-mavzu. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.** Mustaqillik yillarida ilm-fanning rivojlanishi. Yangi jamiyat qurishda ta’lim va tarbiyaning o‘rni va roli. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning qabul qilinishi. Dasturning maqsad va vazifalari, uni amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari. Ta’limning milliy modelining shakllanishi, rivojlanishi va sohadagi muammolar. O‘zbekistonda yangi avlod kadrlar tayyorlash sohasidagi o‘zgarishlar. Oliy ta’lim sohasida qabul qilingan

Qonunlar va ularda belgilangan vazifalar. Ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi: yutuqlar va kamchiliklar.

### **10-mavzu. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi.**

Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida amalga oshirilgan islohotlar. Qoraqalpog‘istonda qishloq xo‘jaligi sohasidagi o‘zgarishlar. Ma’naviy-madaniy sohadagi yangilanishlar. Qoraqalpog‘iston Respublikasi oliy ta’lim tizimi va undagi islohotlar. Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik ahvol. Orol fojiasi. Ekologik holatni yaxshilash borasidagi davlat siyosati.

**11-mavzu. O‘zbekiston va jahon hamjamiyati.** O‘zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlardan bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi. O‘zbekiston Respublikasining BMTga a’zo bo‘lishi va jahon hamjamiyatidagi o‘ziga xos o‘rni. O‘zbekistonning MDHdagi o‘rni va mavqeining oshib borishi. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari. O‘zbekistonning Evropa Ittifoqi mamlakatlari bilan istiqbolli hamkorliklari. Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiysi. O‘zbekiston tashqi siyosatida Rossiya, AQSh, Xitoy mamlakatlarining o‘rni.

O‘zbekistonning geosiyosiy va geoijtisodiy o‘rni. O‘zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minalash borasida olib borgan siyosati. Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalari, terrorizm, giyohvandlik va odam savdosiga qarshi kurashda O‘zbekiston Respublikasining faolligi. O‘zbekistonning ShHT bilan aloqalari. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi davlatlari bilan yangi strategik sherikchilik shartnomalarining imzolanishi. O‘zbekiston Respublikasining faol tashqi siyosatining yangi bosqichi. O‘zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minalash borasida olib borgan siyosati. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minalash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar.

**12-mavzu. Yangilanayotgan O‘zbekiston: milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari.** 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining ishlab chiqilishi, hayotga joriy etilishi va uning ahamiyati.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi va unda belgilangan ustuvor yo‘nalishlar:

Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari;

Qonun ustuvorligini ta’minalash va sud-huquq tizimini yanada isloq qilishning ustuvor yo‘nalishlari;

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari;

Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari;

Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar.

**13-mavzu. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini va nufuzini ortib borishi.** “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy etish” borasidagi davlat siyosati, huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi, mazkur yo‘nalishdagi ishlarning samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlar: jamiyatni demokratlashtirish, ilg‘or xalqaro tajribaga asoslangan davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasini rivojlantirish, ta’lim tizimini takomillashtirish, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, xalqaro savdoda xususiy tadbirkorlikning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsiyani rivojlantirish va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslar bo‘yicha samaradorlikning eng muhim ko‘satkichlarini oshirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar. Ushbu ko‘rsatkichlarni oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasida quyidagi suveren indeks va indikatorlar tizimiga integratsiyalashuv jarayonlari jadallashtirilmoqda: “Biznes yuritish” indeksi, Boshqaruv sifati indikatorlari, Elektron hukumatni rivojlantirish reytingi, “Korrupsiyani qabul qilish” indeksi, “Logistika samaradorligi” indeksi, Juhon bankining Statistik salohiyat indeksi, Iqtisodiy erkinlik indeksi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi, Inson kamoloti indeksi, Huquq ustuvorligi indeksi, Juhon mamlakatlari demokratiyasi indeksi, Matbuot erkinligi indeksi (umumiyligi 13 ta).

### **III. SEMINAR MASHG‘ULOTLAR BO‘YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR**

*Seminar mashg‘ulotlar bo‘yicha quyidagi mavzular tavsiya etiladi*

1. Kirish. «O‘zbekistonning eng yangi tarixi» o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari.
2. Mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.
3. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati.
4. O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li.
5. O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar.
6. Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O‘zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.
7. O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy o‘zgarishlar.

8. Mustaqillik yillarda O'zbekistondagi ma'naviy va madaniy taraqqiyot.
9. O'zbekiston Respublikasida ta'lif sohasida amalga oshirilgan islohotlar.
10. Mustaqillik yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi.
11. O'zbekiston va jahon hamjamiyati.
12. Yangilanayotgan O'zbekiston: milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari.
13. O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rni va nufuzini ortib borishi.

Seminar (amaliy) mashg'ulotlari har bir talaba tomonidan ayrim-ayrim bajariladi. Bunda avvalo talaba bajariladigan amaliy mashg'ulotning nazariy va amaliy tomonini qisqacha izohlab beradi. So'ngra amaliy mashg'ulotning bajarilishi davomida olingen natijalarni xulosalab o'z daftariga yozib qo'yadi. Ushbu xulosalar o'qituvchi tomonidan og'zaki muloqot shaklida tekshiriladi.

Seminar (amaliy) mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada o'tkaziladi. Mashg'ulotlar interfaol usullar yordamida o'tiladi hamda zaruriy pedagogik va axborot texnologiyalari qo'llaniladi.

#### **IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL MASHG'ULOTLAR.**

*Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:*

1. O'zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan o'zgarishlar mazmun va mohiyati.
2. Mustaqillik yillarda davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilgan islohotlar.
3. Yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalashda O'rta Osiyo allomalari ilmiy merosining o'rni (allomalarining ilmiy faoliyati misolida).
4. O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarining faoliyati (o'zgarish va muammolar)
5. Qishloq xo'jaligi va sanoat sohasidagi o'zgarishlar.
6. O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklari kafolatining yaratilishi.
7. Milliy xavfsizlikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar.
8. O'zbekistonni halqaro reytinglardagi ko'rsatgichlarini ko'tarishning tarixiy va siyosiy ahamiyati.
9. Siyosiy-huquqiy sohadagi (10 ta) ustuvor halqaro reytinglar va ularga O'zbekistonning integratsiyalashuvi.
10. Iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi (14 ta) ustuvor halqaro reytinglar va ularga O'zbekistonning integratsiyalashuvi.

Mustaqil ishslash uchun talabalarga raqamlı tarixga oid ma'lumotlar mavjud bo'lgan turli adabiyotlar tavsiya etiladi. Mustaqil ishslash uchun beriladigan mavzular va ishlar individual xarakterda bo'lib, talabalarning hujayrada boradigan fiziologik jarayonlarni yanada chuqurroq o'rganishga qaratilgandir. Tavsiyalar

individual talabga asoslanadi va joriy, oraliq nazorat shaklida yoki referat hamda muloqot tarzida topshiriladi.

## V. TA'LIM NATIJALARI / KASBIY KOMPETENSIYALAR

### Talaba bilish kerak:

- Mustaqillik yillarda mamlakatimiz bosib o'tgan tarixiy yo'lning mazmun-mohiyatini, O'zbekistonning eng yangi tarixida amalga oshirilgan o'zgarishlarning ahamiyatini;
- zamonaviy jarayonlarda O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyasi, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rni va nufuzini ortib borishi kabi jarayonlarni tarixiylik va xolislik nuqtai nazaridan ***bilishi*** kerak;
- O'zbekistonning eng yangi tarixi muammolarini o'rganish, dunyoqarashni mustahkamlashda milliy mustaqillik g'oyasini qo'llay bilish, atrofida sodir bo'layotgan jarayonlarga o'z munosabatini bildira olish, jamiyat va inson dunyoqarashi rivojida tarix fanining o'rnini anglash va bugungi kunda sodir bo'layotgan voqealarining tarixdagi muhim voqealar bilan bog'liqligini bilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***
- O'zbekistonning eng yangi tarixini chuqur bilish, ma'naviy-milliy va umuminsoniy masalalar bo'yicha o'z qarashlarini ilmiy asoslashni va ifodalashni bilish, milliy mustaqillik g'oyalariga amal qiladigan faol hayotiy dunyoqarash kabi ***malakalarga ega bo'lishi kerak.***

## VI. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar.

## VII. KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test savollarini muvaffaqiyatli topshirish.

**Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar va axborot manbalari.**

**Rahbariy adabiyotlar:**

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Мустақил Ўзбекистон тарихининг дастлабки саҳифалари. - Тошкент, 2000.

2. Эркаев А. Ўзбекистон йўли. - Тошкент: Маънавият, 2011.
3. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // М.Абдуллаев ва бошқалар: тўлдирилган учинчи нашр. - Тошкент: Шарқ, 2006.
4. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. – Тошкент: Маънавият, 2017.
5. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул муҳаррир А.Сабиров. - Тошкент: Академия, 2013.
6. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А. Рахимов. - Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018.
7. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O‘zbekiston tarixi: oliv o‘quv yurtlarining bakalavrlari uchun (tarix yo‘nalishidan tashqari) darslik. -T.: IQTISOD-MOLIYA, 2016.
8. Shamsutdinov R. Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi. –T.: Akademnashr, 2019.
9. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Т.: Шарқ, 2000.
10. O‘zbekiston tarixi / R.H. Murtazayeva umumiy tahriri ostida. – T.: Yangi asr avlodi, 2005.

#### **Qo‘srimcha adabiyotlar:**

- 11.Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. - Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017.
- 12.Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. - Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017.
- 13.Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганинг 24 йилигига бағишланган тантанали маросимидағи маъruzаси. - Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017.
- 14.Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2016.
- 15.Каримов И.А. Инсон унинг ҳуқуқ ва эркинликлари - олий қадрият. Т.14. - Тошкент: Ўзбекистон, 2006.
- 16.Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. - Тошкент: Маънавият, 2008.
- 17.Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
- 18.Каримов И.А. Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатdir. - Тошкент: Ўзбекистон, 2015.
19. Азизхўжаев А. Мустақиллик: курашлар, изтироблар, қувончлар. - Тошкент: Академия, 2001.
20. Азизхўжаев А. Чин ўзбек иши. – Тошкент: Академия, 2003.
21. Ахмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. - Тошкент: Абу Али ибн Сино нашриёти, 2002.

22. Исломов З.М. Ўзбекистон модернизациялаш ва демократик тараққиёт сари. - Тошкент: Ўзбекистон, 2005.
23. Левитин Л. Ўзбекистон туб бурилиш палласида. - Тошкент: Ўзбекистон, 2005.
24. Усмонов Қ. Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашуви. – Тошкент: Молия, 2003.
25. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
26. Ўзбекистон халқининг дини, маданияти ва урф-одатлари: тарих ва ҳозирги ҳолат. - Тошкент: ТИУ, 2011.
27. Ўлмасов А., Вахобов А. Иқтисодиёт назарияси. - Тошкент: Шарқ, 2006.
28. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик: тарихий тажриба ва ҳозирги замон. Масъул мухаррир Р.Х.Муртазаева. - Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.
29. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). 2 том. Масъул мухаррирлар: Р. Абдуллаев, Қ. Ражабов, М. Раҳимов. - Тошкент: Ўзбекистон, 2019.
30. Муртазаева Р.Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва толерантлик. Дарслик. - Тошкент: Мумтоз сўз, 2019.
31. Юнусова Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва маънавий жараёнлар (XX аср 80-йиллари мисолида). - Тошкент: Abu matbuot-konsalt, 2009.
32. Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иктисодий муносабатлар (70-80 –йиллар мисолида). Кўлланма. – Тошкент: Шарқ, 1999.
33. Қорақалпоғистон тарихи (1917-1994 йй.). - Нукус, 1995.
34. Ғуломов С., Убайдуллаева Р., Аҳмедов Э. Ўзбекистон. -Тошкент: Мехнат, 2001.

#### **Internet saytlari:**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
3. [www.google.uz](http://www.google.uz).
4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).

Fan dasturi Andijon davlat universiteti Kengashining 2022-yil «\_\_\_»  
dagi №\_\_\_\_\_ bayonnomasi bilan ma’qullangan.

Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi  
bilan kelishilgan.

#### **Fan (modul) uchun mas’ullar:**

**Tuzuvchi:**

**X.M. Mo‘minov** – ADU, «O‘zbekiston tarixi» kafedrasи dotsenti.

**B.A. Yunusova** – ADU, «O‘zbekiston tarixi» kafedrasи o’qituvchisi.

**Taqrizchilar:**

**S.A. Xoshimov** – ADU, «O‘zbekiston tarixi» kafedrasи dotsenti, tarix fanlari nomzodi;

**B. N.Botirova** – Andijon davlat tibbiyot instituti Gumanitar fanlar kafedrasи dotsenti, t.f.n

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

«Tasdiqlayman»  
O'quv ishlari bo'yicha prorektor  
R.V. Mullajonov \_\_\_\_\_  
«\_30\_» \_\_08\_\_\_\_\_ 2022-yil

**«O'ZBEKİSTONNING ENG YANGI TARIXI»  
fanidan  
ISHCHI O'QUV DASTURI**

**Fanning kodi:** UYTB104

**Ta'lif yo'naliishi:** 60530100- Kimyo (turlari bo'yicha)

Mashg'ulot turi	Ajratilgan soat	2022-2023 o'quv yili	
		Semestr	
		I	II
Nazariy (Ma'ruza)	<b>30</b>	<b>30</b>	-
Amaliy (Seminar)	<b>30</b>	<b>30</b>	-
Laboratoriya	-	-	-
Mustaqil ta'lif	<b>60</b>	<b>60</b>	-
Laboratoriya	-	-	-
Jami auditoriya soatlari	<b>60</b>	<b>60</b>	-
Umumiy o'quv soatlari	<b>120</b>	<b>120</b>	-
Kreditlar soni:	<b>4</b>	<b>4</b>	-

**Andijon – 2022**

Fanning ishchi o‘quv dasturi Andijon davlat universitetining 2022-yil 30-avgustdagি №1-sonli Kengashida tasdiqlangan o‘quv dasturi asosida ishlab chiqildi.

### **Tuzuvchilar:**

X.M. Mo‘minov – ADU, «O‘zbekiston tarixi» kafedrasi dotsenti.

**Bog’lanish uchun telefon nomeri:** (+99893) 7833200//

**E-mail:** [muminov@inbox.ru](mailto:muminov@inbox.ru)

B.A. Yunusova – ADU, «O‘zbekiston tarixi» kafedrasi o‘qituvchisi

**Bog’lanish uchun telefon nomeri:** (+99890) 540-63-10//

**E-mail:** [buxajalxoniyunusova@gmail.com](mailto:buxajalxoniyunusova@gmail.com)

### **Taqrizchilar:**

S.A. Xoshimov – ADU, «O‘zbekiston tarixi» kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi;

B.N. Botirova – Andijon davlat tibbiyot instituti Gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, t.f.n

Fakultet dekani:

2022 yil “\_29\_” 08 \_\_\_\_\_ R.R. Shamsiddinov  
(imzo)

“O‘zbekiston tarixi” kafedrasi mudiri:

2022 yil “\_26\_” 08 \_\_\_\_\_ M.O. Alixoziyev  
(imzo)

Fanning ishchi o‘quv dasturi Andijon davlat universiteti Kengashi qaroriga muvofiq, 2022-yil \_30\_ - avgustdagи 1-son bilan tasdiqlangan O‘zbekistonning eng yangi tarixi» fanidan tuzilgan o‘quv dasturi asosida tayyorlandi.

## I. FANNING MAZMUNI

**Fanning maqsadi** – mustaqillik yillarda O‘zbekiston Respublikasida yuz bergen muhim o‘zgarishlar, tub islohotlarning mazmun-mohiyatini ko‘rsatish va jamiyat hayotida talabaning o‘rnini, o‘zligini anglatishdan iborat.

**Fanning vazifalari** – mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistonda yuzaga kelgan murakkab vaziyatni hamda mustaqillik yillarda davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hamda boshqa sohalardagi islohotlarning mazmun-mohiyatini talabalarga tushuntirib berish, ularni Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash hamda milliy g‘ururni shakllantirishdan iborat.

Fanning asosiy vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Mustaqillik yillarda mamlakatimiz bosib o‘tgan tarixiy yo‘lning mazmun-mohiyatini, O‘zbekistonning eng yangi tarixida amalga oshirilgan o‘zgarishlarning ahamiyatini;
- zamonaviy jarayonlarda O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyasi, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni va nufuzini ortib borishi kabi jarayonlarni tarixiylik va xolislik nuqtai nazaridan bilishi;
- O‘zbekistonning eng yangi tarixi muammolarini o‘rganish, dunyoqarashni mustahkamlashda milliy mustaqillik g‘oyasini qo‘llay bilish, atrofida sodir bo‘layotgan jarayonlarga o‘z munosabatini bildira olish, jamiyat va inson dunyoqarashi rivojida tarix fanining o‘rnini anglash va bugungi kunda sodir bo‘layotgan voqealarning tarixdagi muhim voqealar bilan bog‘liqligini bilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- O‘zbekistonning eng yangi tarixini chuqur bilish, ma’naviy-milliy va umuminsoniy masalalar bo‘yicha o‘z qarashlarini ilmiy asoslashni va ifodalashni bilish, milliy mustaqillik g‘oyalariga amal qiladigan faol hayotiy dunyoqarash kabi malakalarga ega bo‘lishi.

## II. MA’RUZA MASHG‘ULOTLARINING TAQVIM-MAVZU REJASI I - semester

Hafta	Soat	Mashg‘ulot mazmuni (Ma’ruza mashg’ulotlari)
1	2	<p><b>Mashg‘ulot turi: Ma’ruza.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> Kirish. «O‘zbekistonning eng yangi tarixi» o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"><li>1. O‘zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi.</li><li>2. Fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Uni o‘rganishning nazariy-uslubiy asoslari.</li></ol>

		<p>3. Intellektual salohiyatli, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga etkazishda mamlakat eng yangi tarixining tutgan o'rni.</p> <p>4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning ma'naviy etuk shaxsni tarbiyalashda tarixiy xotiraning o'rni va saboqlari to'g'risidagi fikrlari.</p> <p>5. XXI globallashuv asrida ta'lim sohasida mazkur fanni o'qitishdagi nazariy-kontseptual yondashuv va ilg'or innovatsiyalar.</p> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7, Q8, Q9, Q10, Q11, Q12, Q17, Q18, Q19.</p>
2	2	<p><b>Mashg'ulot turi: Ma'ruza.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> Mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <p>1. XX asr 80-yillari o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi inqirozli holat. Ekologik muammolar.</p> <p>2. Markazning O'zbekistonda amalga oshirgan qatag'on siyosati: «Paxta ishi» «O'zbek ishi» nomli kompaniyalar.</p> <p>3. 1989-yil o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar.</p> <p>4. 1991-yil avgust voqealari: GKCHP (ГКЧП). Sovet davlatining tanazzulga yuz tutishi.</p> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7, Q8, Q9, Q10, Q11, Q12, Q17, Q18, Q19, Q27, Q28, Q29, Q31.</p>
3	2	<p><b>Mashg'ulot turi: Ma'ruza.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> Mustaqil O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <p>1. O'zbekiston davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.</p> <p>2. Mustaqillikning ilk davrida davlat suverenitetini mustahkamlash yo'lidagi sa'y-harakatlar.</p> <p>3. Mustaqil O'zbekiston davlatining yuzaga kelishi va mustahkamlanishida I.A. Karimovning tarixiy xizmatlari.</p> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7, Q8, Q9, Q10, Q11, Q12, Q17, Q18, Q19, Q27, Q28, Q29, Q31.</p>
4	2	<p><b>Mashg'ulot turi: Ma'ruza.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> O'zbekistonning o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'li.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <p>1. O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlashi. «O'zbek modeli» va uning o'ziga xos xususiyatlari.</p> <p>2. O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy rivojlanish strategiyasi:</p>

		<p>yangilanish va taraqqiyot yo‘li.</p> <p>3. O‘zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan strategiya asoslari.</p> <p>4. O‘zbekiston Respublikasi davlat ramzları va Konstitutsiyasining qabul qilinishi.</p> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18, Q19, Q24, Q27, Q28, Q29, Q31.</p>
5	2	<p><b>Mashg‘ulot turi: Ma’ruza.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>Mustaqil O‘zbekistonda milliy davlat boshqaruvi tizimi.</li> <li>O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati.</li> <li>O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. Ijtimoiy-sherikchilik.</li> <li>O‘zbekiston Respublikasida Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining tashkil etilishi va faoliyati.</li> </ol> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6 Q7-12, Q17, Q18, Q19.</p>
6	2	<p><b>Mashg‘ulot turi: Ma’ruza.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>Mustaqil O‘zbekistonda milliy davlat boshqaruvi izimi.</li> <li>O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati.</li> <li>O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. Ijtimoiy-sherikchilik.</li> <li>O‘zbekiston Respublikasida Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining tashkil etilishi va faoliyati.</li> </ol> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18, Q19.</p>
7	2	<p><b>Mashg‘ulot turi: Ma’ruza.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O‘zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo‘nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari.</li> <li>Bozor munosabatlariga o‘tishning huquqiy asoslarining yaratilishi.</li> <li>Bozor infratuzilmasining shakllanishi, qishloq</li> </ol>

		<p>xo‘jaligidagi islohotlar, uning vazifalari va yo‘nalishlari.</p> <p>4. Sanoat, avtomobilsozlik sohasining rivojlanishi.</p> <p>5. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi va uni O‘zbekistonda bartaraf etish yo‘llari.</p> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18, Q19, Q24, Q27, Q28, Q29, Q31.</p>
8	2	<p><b>Mashg‘ulot turi: Ma’ruza.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy o‘zgarishlar.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi.</li> <li>2. Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan davlat siyosatini takomillashtirish.</li> <li>3. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy himoya va manzilli ijtimoiy yordamni amalga oshirishdagi ishtiroki.</li> <li>4. O‘zbekiston Respublikasi «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi Qonunning mazmun-mohiyati.</li> </ol> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18, Q19, Q27, Q28, Q29, Q31.</p>
9	2	<p><b>Mashg‘ulot turi: Ma’ruza.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> Mustaqillik yillarda O‘zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyot.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mustaqillik yillarda ma’naviy va ma’rifiy hayot.</li> <li>2. Mustaqillik yillarda buyuk ajdodlar va tarixiy shaxslarga bo‘lgan e’tibor.</li> <li>3. O‘zbekistondagi tarixiy shaharlarning yubileylarini xalqaro miqyosda keng nishonlanishi.</li> <li>4. Madaniyat va san’at sohasi, shuningdek, milliy sport turlarining rivojlanishi.</li> <li>5. Beshta tashabbus va uning yuksak ma’naviy madaniyatni ta’minlashdagi o‘rni.</li> <li>6. O‘zbekistonda millatlararo va dinlararo munosabatlardagi barqarorlikni ta’minlash borasidagi davlat siyosati.</li> </ol> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18, Q19, Q27, Q28, Q29, Q31.</p>
10	2	<p><b>Mashg‘ulot turi: Ma’ruza.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mustaqillik yillarda ilm-fanning rivojlanishi. Yangi jamiyat qurishda ta’lim va tarbiyaning roli.</li> <li>2. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning qabul qilinishi. Dasturning maqsad va vazifalari,</li> </ol>

		<p>uni amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari. Ta’limning milliy modelining shakllanishi, rivojlanishi va muammolari. O’zbekistonda kadrlar tayyorlash sohasidagi o’zgarishlar.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>3. Oliy ta’lim sohasida qabul qilingan Qonunlar va ularda belgilangan vazifalar.</li> <li>4. Ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo’lga qo’yilishi: yutuqlar va kamchiliklar.</li> </ol> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18, Q19.</p>
11	2	<p><b>Mashg’ulot turi: Ma’ruza.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining iqtisodiy yangilanishi.</li> <li>2. Qoraqalpog‘iston Respublikasida qishloq xo‘jaligi sohasidagi o’zgarishlar.</li> <li>3. Ma’naviy-madaniy sohadagi o’zgarishlar.</li> <li>4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi oliy ta’lim tizimi va undagi islohotlar.</li> <li>5. Mustaqillik yillari Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik ahvolni yaxshilash borasidagi davlat siyosati.</li> </ol> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18, Q19, Q30, Q31.</p>
12	2	<p><b>Mashg’ulot turi: Ma’ruza.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> O‘zbekiston va jahon hamjamiyati.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O‘zbekistonning geosiyosiy holati.</li> <li>2. O‘zbekiston Respublikasining mustaqil tashqi siyosati asoslarining ishlab chiqilishi.</li> <li>3. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari</li> <li>4. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalari.</li> <li>5. O‘zbekistonning Osiyo, Amerika va Yevropa mamlakatlari bilan o‘zaro hamkorligi masalalari.</li> </ol> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18, Q19, Q30, Q31.</p>
13	2	<p><b>Mashg’ulot turi: Ma’ruza.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> O‘zbekiston va jahon hamjamiyati.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O‘zbekistonning geosiyosiy holati.</li> <li>2. O‘zbekiston Respublikasining mustaqil tashqi siyosati asoslarining ishlab chiqilishi.</li> <li>3. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy</li> </ol>

		<p>tamoyillari.</p> <p>4. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalari.</p> <p>5. O‘zbekistonning Osiyo, Amerika va Yevropa mamlakatlari bilan o‘zaro hamkorligi masalalari.</p> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18, Q19, Q27, Q28, Q29, Q31.</p>
14	2	<p><b>Mashg‘ulot turi: Ma’ruza.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> Yangilanayotgan O‘zbekiston: milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining ishlab chiqilishi va unda belgilangan ustuvor yo‘nalishlar.</li> <li>2. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining hayotga joriy etilishi va uning ahamiyati.</li> </ol> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18, Q19, Q27, Q28, Q29, Q31.</p>
15	2	<p><b>Mashg‘ulot turi: Ma’ruza.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni va nufuzini ortib borishi.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <i>Respublikaning xalqaro imidjini oshirish chora-tadbirlari.</i></li> <li>2. <i>Iqtisodiy indekslardagi o’sish.</i></li> <li>3. <i>Ta’lim sohasidagi xalqaro reytinglarda ko’tarilish.</i></li> </ol> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18, Q19, Q27, Q28, Q29, Q31.</p>
<b>Jami</b>	<b>30 soat</b>	

## II. SEMINAR MASHG‘ULOTLARINING TAQVIM-MAVZU REJASI I - semestr

Hafta	Soat	Mashg‘ulot mazmuni (Seminar mashg‘ulotlar)
1	2	<p><b>Mashg‘ulot turi: Seminar.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> Kirish. «O‘zbekistonning eng yangi tarixi» o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O‘zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi.</li> <li>2. Fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Uni o‘rganishning nazariy-uslubiy asoslari.</li> <li>3. Intellektual salohiyatli, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga etkazishda mamlakat eng yangi tarixining tutgan o‘rni.</li> </ol>

		<p>4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning ma’naviy etuk shaxsni tarbiyalashda tarixiy xotiraning o‘rni va saboqlari to‘g‘risidagi fikrlari.</p> <p>5. XXI globallashuv asrida ta’lim sohasida mazkur fanni o‘qitishdagi nazariy-kontseptual yondashuv va ilg‘or innovatsiyalar.</p> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18, Q19.</p>
2	2	<p><b>Mashg‘ulot turi: Seminar.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> Mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. XX asr 80-yillari o‘rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi inqirozli holat. Ekologik muammolar.</li> <li>2. Markazning O‘zbekistonda amalga oshirgan qatag‘on siyosati: «Paxta ishi» «O‘zbek ishi» nomli kompaniyalar.</li> <li>3. 1989-yil o‘rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘zgarishlar.</li> <li>4. 1991-yil avgust voqealari: GKCHP (ГКЧП). Sovet davlatining tanazzulga yuz tutishi.</li> </ol> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18, Q19.</p>
3	2	<p><b>Mashg‘ulot turi: Seminar.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O‘zbekiston davlat mustaqilligining e’lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.</li> <li>2. Mustaqillikning ilk davrida davlat suverenitetini mustahkamlash yo‘lidagi sa’y-harakatlar.</li> <li>3. Mustaqil O‘zbekiston davlatining yuzaga kelishi va mustahkamlanishida I.A. Karimovning tarixiy xizmatlari.</li> </ol> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18, Q19.</p>
4	2	<p><b>Mashg‘ulot turi: Seminar.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini tanlashi. «O‘zbek modeli» va uning o‘ziga xos xususiyatlari.</li> <li>2. O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy rivojlanish strategiyasi: yangilanish va taraqqiyot yo‘li.</li> <li>3. O‘zbekistonning iqtisodiy mustaqillagini ta’minlashga qaratilgan strategiya asoslari.</li> <li>4. O‘zbekiston Respublikasi davlat ramzlari va Konstitutsiyasining qabul qilinishi.</li> </ol> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18, Q19,</p>

		Q24, Q27, Q28, Q29, Q31.
5	2	<p><b>Mashg‘ulot turi: Seminar.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mustaqil O‘zbekistonda milliy davlat boshqaruvi tizimi.</li> <li>2. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati.</li> <li>3. O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. Ijtimoiy-sherikchilik.</li> <li>4. O‘zbekiston Respublikasida Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining tashkil etilishi va faoliyati.</li> </ol> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18, Q19, Q24, Q27, Q28, Q29, Q31.</p>
6	2	<p><b>Mashg‘ulot turi: Seminar.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mustaqil O‘zbekistonda milliy davlat boshqaruvi izimi.</li> <li>2. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati.</li> <li>3. O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. Ijtimoiy-sherikchilik.</li> <li>4. O‘zbekiston Respublikasida Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining tashkil etilishi va faoliyati.</li> </ol> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18, Q19, Q24, Q27, Q28, Q29, Q31.</p>
7	2	<p><b>Mashg‘ulot turi: Seminar.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O‘zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo‘nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari.</li> <li>2. Bozor munosabatlariga o‘tishning huquqiy asoslarining yaratilishi.</li> <li>3. Bozor infratuzilmasining shakllanishi, qishloq xo‘jaligidagi islohotlar, uning vazifalari va yo‘nalishlari.</li> <li>4. Sanoat, avtomobilsozlik sohasining rivojlanishi.</li> <li>5. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi va uni O‘zbekistonda bartaraf etish yo‘llari.</li> </ol> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18, Q19,</p>

		Q24, Q27, Q28, Q29, Q31.
8	2	<p><b>Mashg‘ulot turi: Seminar.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy o‘zgarishlar.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi.</li> <li>Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan davlat siyosatini takomillashtirish.</li> <li>Nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy himoya va manzilli ijtimoiy yordamni amalga oshirishdagi ishtiroti.</li> <li>O‘zbekiston Respublikasi «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi Qonunning mazmun-mohiyati.</li> </ol> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18, Q19, Q24, Q27, Q28, Q29, Q31.</p>
9	2	<p><b>Mashg‘ulot turi: Seminar.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> Mustaqillik yillarda O‘zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyot.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>Mustaqillik yillarda ma’naviy va ma’rifiy hayot.</li> <li>Mustaqillik yillarda buyuk ajdodlar va tarixiy shaxslarga bo‘lgan e’tibor.</li> <li>O‘zbekistondagi tarixiy shaharlarning yubileylarini xalqaro miqyosda keng nishonlanishi.</li> <li>Madaniyat va san’at sohasi, shuningdek, milliy sport turlarining rivojlanishi.</li> <li>Beshta tashabbus va uning yuksak ma’naviy madaniyatni ta’minlashdagi o‘rni.</li> <li>O‘zbekistonda millatlararo va dinlararo munosabatlardagi barqarorlikni ta’minlash borasidagi davlat siyosati.</li> </ol> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18, Q19, Q24, Q27, Q28, Q29, Q31.</p>
10	2	<p><b>Mashg‘ulot turi: Seminar.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>Mustaqillik yillarda ilm-fanning rivojlanishi. Yangi jamiyat qurishda ta’lim va tarbiyaning roli.</li> <li>«Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning qabul qilinishi. Dasturning maqsad va vazifalari, uni amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari. Ta’limning milliy modelining shakllanishi, rivojlanishi va muammolari. O‘zbekistonda kadrlar tayyorlash sohasidagi o‘zgarishlar.</li> <li>Oliy ta’lim sohasida qabul qilingan Qonunlar va ularda belgilangan vazifalar.</li> </ol>

		<p>4. Ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo’lga qo’yilishi: yutuqlar va kamchiliklar.</p> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18, Q19.</p>
11	2	<p><b>Mashg’ulot turi: Seminar.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> Mustaqillik yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mustaqillik yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasining iqtisodiy yangilanishi.</li> <li>2. Qoraqalpog‘iston Respublikasida qishloq xo‘jaligi sohasidagi o‘zgarishlar.</li> <li>3. Ma’naviy-madaniy sohadagi o‘zgarishlar.</li> <li>4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi oliy ta’lim tizimi va undagi islohotlar.</li> <li>5. Mustaqillik yillari Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik ahvolni yaxshilash borasidagi davlat siyosati.</li> </ol> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18, Q19, Q27, Q28, Q29, Q31.</p>
12	2	<p><b>Mashg’ulot turi: Seminar.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> O‘zbekiston va jahon hamjamiyati.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O‘zbekistonning geosiyosiy holati.</li> <li>2. O‘zbekiston Respublikasining mustaqil tashqi siyosati asoslarining ishlab chiqilishi.</li> <li>3. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari</li> <li>4. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalari.</li> <li>5. O‘zbekistonning Osiyo, Amerika va Yevropa mamlakatlari bilan o‘zaro hamkorligi masalalari.</li> </ol> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18, Q19, Q27, Q28, Q29, Q31.</p>
13	2	<p><b>Mashg’ulot turi: Seminar.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> O‘zbekiston va jahon hamjamiyati.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O‘zbekistonning geosiyosiy holati.</li> <li>2. O‘zbekiston Respublikasining mustaqil tashqi siyosati asoslarining ishlab chiqilishi.</li> <li>3. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari.</li> <li>4. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalari.</li> <li>5. O‘zbekistonning Osiyo, Amerika va Yevropa mamlakatlari bilan o‘zaro hamkorligi masalalari.</li> </ol> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18,</p>

		Q19, Q27, Q28, Q29, Q31.
14	2	<p><b>Mashg‘ulot turi: Seminar.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> Yangilanayotgan O‘zbekiston: milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining ishlab chiqilishi va unda belgilangan ustuvor yo‘nalishlar.</li> <li>2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining hayotga joriy etilishi va uning ahamiyati.</li> </ol> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18, Q19, Q27, Q28, Q29, Q31.</p>
15	2	<p><b>Mashg‘ulot turi: Seminar.</b></p> <p><b>Mavzu:</b> O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini va nufuzini ortib borishi.</p> <p><b>Mavzu rejasi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li><i>Respublikaning xalqaro imidjini oshirish chora-tadbirlari.</i></li> <li><i>Iqtisodiy indekslardagi o‘sish.</i></li> <li><i>Ta’lim sohasidagi xalqaro reytinglarda ko‘tarilish.</i></li> </ol> <p><b>Adabiyotlar:</b> A1, A2, A3, A4, A5, A6, Q7-12, Q17, Q18, Q19, Q27, Q28, Q29, Q31.</p>
<b>Jami</b>	<b>30 soat</b>	
1	<p><b>Oraliq nazorat</b></p> <p><b>Nazorat turi:</b> Og‘zaki (kollokvium).</p> <p><b>Nazorat o‘tkazilish vaqtி:</b> Tasdiqlangan o‘quv jarayoni jadvaliga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan jadval asosida o‘tkazadi.</p> <p><b>Nazorat o‘tkazilish joyi:</b> ADU, ta’lim yo‘nalishi binosida.</p>	
2	<p><b>Kurs natijalari, yakuniy nazoratga tayyorgarlik ko‘rish.</b></p> <p><b>Maslahat o‘tkazilish vaqtி:</b> Tuzilgan jadval asosida o‘tkazadi.</p>	
3	<p><b>YAKUNIY NAZORAT</b></p> <p><b>Nazorat turi:</b> Test.</p> <p><b>Nazorat o‘tkazilish vaqtி:</b> Tasdiqlangan o‘quv jarayoni jadvaliga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan jadval asosida o‘tkazadi.</p> <p><b>Nazorat o‘tkazilish joyi.</b> ADU, ta’lim yo‘nalishi binosida.</p>	

### III. 3.1. LABORATORIYA ISHLARINING TAQVIM-MAVZU REJASI

(Ushbu fandan o‘quv reja bo‘yicha laboratoriya ishlari mavjud emas)

#### 3.2. Kurs ishi (loyihasi) bo‘yicha ko‘rsatmalar va tavsiyalar.

#### KURS (loyihasi) ISHLARINING NAMUNAVIY MAVZULARI

**(Ushbu fandan o‘quv reja bo‘yicha kurs (loyihasi) ishi mavjud emas)**

#### **IV. MUSTAQIL TA’LIM VA MUSTAQIL MASHG’ULOTLAR.**

**Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular taqsimoti:  
(I - semestr)**

<b>T/R</b>	<b>Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular</b>	<b>Soat</b>
1	O‘zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar mazmun va mohiyati.	6
2	Mustaqillik yillarda davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilgan islohotlar.	6
3	Yuksak ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalashda O‘rta Osiyo allomalari ilmiy merosining o‘rni (allomalarning ilmiy faoliyati misolida).	6
4	O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarining faoliyati (o‘zgarish va muammolar).	6
5	Qishloq xo‘jaligi va sanoat sohasidagi o‘zgarishlar.	6
6	O‘zbekistonda inson huquqlari va erkinliklari kafolatining yaratilishi.	6
7	Milliy xavfsizlikni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar	6
8	O‘zbekistonni xalqaro reytinglardagi ko‘rsatkichlarini ko‘tarishning tarixiy va siyosiy ahamiyati.	6
9	Siyosiy-huquqiy sohadagi (10 ta) ustuvor xalqaro reytinglar va ularga O‘zbekistonning integratsiyalashuvi.	6
10	Iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi (14 ta) ustuvor xalqaro reytinglar va ularga O‘zbekistonning integratsiyalashuvi.	6
<b>Jami:</b>		<b>60</b>

Mustaqil ta’limdan ko‘zlangan maqsad va vazifalar talabalarda mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Mustaqil ta’lim amaliy (seminar) mashg’ulotlariga tayyorgarlik ko‘rishdan tashqari fan dasturida ko‘rsatilmagan, ammo fan bo‘yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo‘srimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni bajarishni o‘z ichiga oladi.

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar, fanga va mustaqil ta’lim mavzusiga oid ko‘rgazmali materiallar, taqdimotlar (slayd) tayyorlash va uni taqdimot (himoya) qilish tavsiya etiladi.

#### **V. KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARING TA’LIM NATIJALARINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH**

Talabalar bilimini nazorat qilish, baholash va baholarni konvertatsiya qilish O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-sentyabrdan №3069-ro‘yxat raqami bilan davlat ro‘yxatidan o’tkazilgan “Oliy ta’lim

muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish, baholash tizimi to'g'risidagi Nizom"ga va **Andijon davlat universitetining 2022-yil 30-avgustdagи №1 sonli Kengashida tasdiqlangan Andijon davlat universitetida kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risidagi "NIZOM"ga** muvofiq amalga oshiriladi.

<b>Baholash usullari</b>	Ekspress testlar, yozma ishlar, og'zaki so'rov, taqdimotlar va h.k.
<b>Baholash me'zonlari</b>	<p><b>90-100% 5 (a'lo) baho</b> Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda.</p> <p><b>70-89% 4 (yaxshi) baho</b> Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda.</p> <p><b>60-69% 3 (qoniqarli) baho</b> Talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda.</p> <p><b>0-59% 2 (qoniqarsiz) baho</b> Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda.</p>

1. Universitetda talabalar bilimini nazorat qilish mustaqil ta'lim, oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.
2. Oraliq nazorat fan dasturlarining tegishli bo'limi tugagandan so'ng, talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida semestr davomida o'tkaziladi.
3. O'quv yili boshida mustaqil ta'lim, oraliq va yakuniy nazorat turlarining topshiriqlari tegishli kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi hamda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.
4. Talaba tegishli fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan, shuningdek, o'quv rejasida ko'zda tutilgan bo'lsa, kurs ishi (loyihasi)ni ximoya qilgan bo'lishi shart.
5. Kurs ishi (loyihasi)ni muvaffaqiyatli ximoya qila olmagan talabalar tegishli fandan akademik qarzdor hisoblanadi.
6. Quyidagi hollarda talaba tegishli fandan yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi:

- oraliq nazorat turini topshirmagan, agar o'quv rejasida ko'zda tutilgan kurs ishi (loyihasi)ni ximoya qilmagan bo'lsa shuningdek, ushbu nazorat turi va ximoya bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholanganda;

- bir fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirganda.

4. Talabaning fanni o'zlashtirish ko'rsatkichi mustaqil ta'lif oraliq va yakuniy nazorat turlaridagi natijalariga qarab belgilanadi. Bunda talabaning fanni to'liq o'zlashtirishi quyidagi tartibda taqsimlanadi:

Mustaqil ta'lifda fanning 25%

Oraliq nazoratda fanning 25%

Yakuniy nazoratda fanning 50% o'zlashtirganligini aniqlash mumkin.

Bahoda	Foiz ko'rsat-gichida (%)	ECTS - (European Credit Transfer System) tizimida	Ta'rifi
5	90-100	A	A'lo
4	70-89,9	B	yaxshi
		C	
3	60-69,9	D	qoniqarli
		E	
2	0-59,9	F	qoniqarsiz

## O'QUV ADABIYOTLARI, DARSLIK VA O'QUV QOLLANMALAR

### ASOSIY ADABIYOTLAR:

- Мустақил Ўзбекистан тарихининг дастлабки саҳифалари. – Тошкент: 2000.
- Эркаев А. Ўзбекистон йўли. – Тошкент: Маънавият, 2011.
- Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат // М. Абдуллаев ва бошқалар: тўлдирилган учинчи нашр. – Тошкент: Шарқ, 2006.
- 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Харакатлар стратегияси. – Тошкент: Маънавият, 2017.
- Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул муҳаррир А.Сабиров. – Тошкент: Академия, 2013.
- Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А.Рахимов. – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018.

### QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

- Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017.

- 8.Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017.
- 9.Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганинг 24 йилигига бағишлиланган тантанали маросимидағи маърузаси. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017.
- 10.Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017.
- 11.Каримов И.А. Инсон унинг ҳуқуқ ва эркинликлари - олий қадрият. Т.14. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006.
- 12.Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
- 13.Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
- 14.Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015.
- 15.Азизхўжаев А. Мустақиллик: курашлар, изтироблар, қувончлар. – Тошкент: Академия, 2001.
- 16.Азизхўжаев А. Чин ўзбек иши. – Тошкент: Академия, 2003.
- 17.Ахмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. – Тошкент: Абу Али ибн Сино нашриёти, 2002.
- 18.Исломов З.М. Ўзбекистон модернизациялаш ва демократик тараққиёт сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005.
15. Левитин Л. Ўзбекистон туб бурилиш палласида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005.
- 19.Усмонов Қ. Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашуви. – Тошкент: Молия, 2003.
- 20.Ўзбекистон мустақиллик йилларида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
- 21.O‘zbekiston tarixi / R.H. Murtazayeva umumiyy tahriri ostida. – T.: Yangi asr avlod, 2005.
- 22.Ўзбекистон халқининг дини, маданияти ва урф-одатлари: тарих ва ҳозирги ҳолат. – Тошкент: ТИУ, 2011.
- 23.Ўлмасов А., Вахобов А. Иқтисодиёт назарияси. – Тошкент: Шарқ, 2006.
- 24.Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик: тарихий тажриба ва ҳозирги замон. Масъул мухаррир Р.Ҳ.Муртазаева. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.
- 25.Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). 2 том. Масъул мухаррирлар: Р.Абдуллаев, Қ.Ражабов, М.Раҳимов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019.
- 26.Муртазаева Р.Ҳ. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва толерантлик. Дарслик. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2019.
- 27.Юнусова Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва маънавий жараёнлар (XX аср 80-йиллари мисолида). – Тошкент: Abu matbuot-konsalt, 2009.

28.Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иктисодий муносабатлар (70-80 – йиллар мисолида). Кўлланма. – Тошкент: Шарқ, 1999.

29.Қорақалпоғистон тарихи (1917-1994 йй.). - Нукус, 1995.

30.Ғуломов С., Убайдуллаева Р., Аҳмедов Э. Ўзбекистон. -Тошкент: Мехнат, 2001.

#### **Internet saytlari:**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
3. [www.google.uz](http://www.google.uz).
4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).

#### **4.5. BAHOLASH MEZONLARI.**

Talabalar bilimini nazorat qilish, baholash va baholarni konvertatsiya qilish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-sentyabrda №3069-ro'yxat raqami bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish, baholash tizimi to'g'risidagi Nizom"ga va **Andijon davlat universitetining 2022-yil 30-avgustdagи №1 sonli Kengashida tasdiqlangan Andijon davlat universitetida kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risidagi "NIZOM"ga** muvofiq amalga oshiriladi.

<b>Baholash usullari</b>	Ekspress testlar, yozma ishlar, og'zaki so'rov, taqdimotlar va h.k.
<b>Baholash me'zonlari</b>	<p><b>90-100% 5 (a'lo) baho</b> Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda.</p> <p><b>70-89% 4 (yaxshi) baho</b> Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda.</p> <p><b>60-69% 3 (qoniqarli) baho</b> Talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda.</p> <p><b>0-59% 2 (qoniqarsiz) baho</b> Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda.</p>

1. Universitetda talabalar bilimini nazorat qilish mustaqil ta'lim, oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.
2. Oraliq nazorat fan dasturlarining tegishli bo'limi tugagandan so'ng, talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida semestr davomida o'tkaziladi.
3. O'quv yili boshida mustaqil ta'lim, oraliq va yakuniy nazorat turlarining topshiriqlari tegishli kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi hamda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

4. Talaba tegishli fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan, shuningdek, o'quv rejasida ko'zda tutilgan bo'lsa, kurs ishi (loyihasi)ni ximoya qilgan bo'lishi shart.

5. Kurs ishi (loyihasi)ni muvaffaqiyatli ximoya qila olmagan talabalar tegishli

fandan akademik qarzdor hisoblanadi.

6. Quyidagi hollarda talaba tegishli fandan yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi:

- oraliq nazorat turini topshirmagan, agar o'quv rejasida ko'zda tutilgan kurs ishi (loyihasi)ni ximoya qilmagan bo'lsa shuningdek, ushbu nazorat turi va ximoya bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholanganda;

- bir fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirganda.

4. Talabaning fanni o'zlashtirish ko'rsatkichi mustaqil ta'lim oraliq va yakuniy nazorat turlaridagi natijalariga qarab belgilanadi. Bunda talabaning fanni to'liq o'zlashtirishi quyidagi tartibda taqsimlanadi:

Mustaqil ta'limda fanning 25%

Oraliq nazoratda fanning 25%

Yakuniy nazoratda fanning 50% o'zlashtirganligini aniqlash mumkin.

Bahoda	Foiz ko'rsat-gichida (%)	ECTS - (European Credit Transfer System) tizimida	Ta'rifi
5	90-100	A	A'lo
4	70-89,9	B	yaxshi
		C	
3	60-69,9	D	qoniqarli
		E	
2	0-59,9	F	qoniqarsiz

